surasining oyatlari madrasani bunyod etishga asos qilib olingan [4]. Masalan, Peshtoqda baxshida bitik mavjud. Tarjima qilinganda quyidagi mazmuni beradi: «Bu oliy ilm madrasasi yalovbardor pojshoh buyuk xoqon zamonida bunyod etildi. Alloh taolo ulug' Kitobida: «Albatta, Alloh adolatga, ezgu ishlarga va qarindoshga yaxshilik qilishga buyurar» (Quryoni karimning «Nahl» surasi, 90-oyat), – deydi. Alloh taolo to'g'ri aytdi va u (xoqon) Imomquli Muhammadjon (bu binoni qurishga) harakat qildi hamda bu binoning quruvchisi buyuk amir Yalangto'sh Bahodir yaxshilik maskanlari (yani ushbu ilm dargohlari)ga asos solishga qiziqishi bo'lgani uchun say va tashabbus qildi. Binoning qurilishi va ziynatlanishining tugallanishi 1042(1632) sanaga muvofiq keladi» [2, 47-b.]. Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalaridagi bitiklar kufiy, suls, nasta'liq xat usularida yozilgan bo'lib, o'sha davrining usta hattotlari bor mahorat va istedadlarini namoyish etganlar. Yozuvlar, asosan, Qur'oni karim oyatlari, hadislardan iborat bo'lsa-da, bosh peshtoq o'rtasidagi ichki ravoq devorida madrasa tarixiga taaluqli yozuvlar ham asl holatida saqlanib qolgan [7]. Qur'oni karimdagi «Nahl» surasini epigrafik tasvirlanishi. Hayotda – yon-atrofimizda shunday oqil insonlar yashab o'tganligi ularning sa'i-harakati bilan dunyo go'zallashib borganni mantiqan anglab, inson hayratga tushadi. Darhaqiqat, olamni va olamdagi barcha narsalar mukammal yaratilganligi va ularga Allox tomonidan bajaradigan vazifalar yuklatilgan. Yer sharida tog', pashsha, asalari va boshqalar bo'lmaganda nima bo'lardi? Masalan, asalarilar dunyoda 10 yil bo'lmasa hayot bo'lmasligini dunyo olimlari o'z isbotini topdilar. Yuqoridagi savolga javobni Qur'oni karimning «Nahl» suradagi oyatlardan topdik. Muqaddas kitobimiz «Quroni Karim»ning Nahl surasi [8, 267-b.] 128 ta oyatdan iborat bo'lib, uning 68 va 69 oyatlarida asalarilar haqida shunday deyiladi: «(Ey, Muhammad!) Rabbingiz asalarilarga vahiy (buyruq) qildi: Tog'larga, daraxtlarga va (odamlar) quradigan narsalarga in quringiz» [8]. «So'ngra turli mevalardan yeb, Parvardigoringiz (siz uchun) qulay qilib qo'ygan yo'llardan yuringiz! Ularni qorinlardan odamlar uchun shifo bo'lgan turli rangdagi sharbat (asal) chiqur. Albatta, bunda fikr yuritadigan qavm uchun alomat bordir» [8]. Avvalom bor, «Nahl» surasini ko'rib chiqadigan bo'lsak Nahl asalarilar degan ma'noni anglatadi. «Surada asalarilarning namunali hayot tarzi haqida oyatlar mavjudligi uchun unga shu nom berilgan. Surada qiyomatni takror-takror eslatib, o'sha kunga puxta tayyorgarlik ko'rishga da'vat etiladi. Unda boshqa suralardagi kabi shirk, kufr, noshukurlik kabi illatlar qoralanib, imon, etiqod, shukr solih amallarga tashviqot etiladi» [8]. Ushbu berilgan ikki oyatni majoziy ma'nolarini ko'rib chiqamiz. «Alloh taoloning hayvonotlarga, jumladan, asalariga vahiy qilishi unga ilhom berishi hisoblanadi. Alloh taolo asalarini yaratganda unga bir his-tuyg'u hamda ilhomni qo'shib bergani uchun, u ko'pgina aqlli insonlar qila olmaydigan aniqlik bilan o'ziga topshirilgan ishini bajaradi. Jumladan, tog'lardan, daraxtlardan va odamlar ko'tarib qo'ygan so'ritok kabi narsalardan o'ziga uy tutadi» [8, 345-346-b.]. Asalari dunyoda mukammal holda yuborilganidek, u tinim bilmadan bol yig'adi, yaxshilik urug'ini ekadi. Dunyoda shunday insonlar borki, ular ham asalaridek tinim nimaligini bilmaydi, o'qiydi, o'rganadi va o'rganganlarini boshqalarga o'rgatadi, yana izlanishda davom etadi. Naqshbandiya tariqatining vakili Yalangto'shbiy Bahodiming piri Hazrati Hoshimxoijai Daxbediy maslahati bilan «Nahl» surasi orqali Yalangto'shbiy Bahodiming ramziy ma'noda asalariga qiyoslanganligi aniqlandi. U Yalangto'shbiy Baxodimi asalariga o'xshatish orqali insonlarga uqtiradiki bu dunyo o'tkinchiligini har bir inson o'zidan faqat yaxshi ibratli narsalami o'rganib, o'zidan faqat yaxshi amallar qoldirish kerakligini chaqiradi. Qur'oni karimdagi «Nahl»surasini 68, 69 oyatlaridan keyin 70 oyatda bekorga insonlarga bag'ishlanmagan. Endi insollami Alloh nima uchun yaratilganligi va ularga nima vazifalar yuklatilganligi va ular foniy dunyo abadiy emasligi banda albatta oxiratda javob berishi shuning uchun o'zligini anglab ezgulik yo'lida yurishlikka chaqiriladi. Endi ushbu Nahl surasining 70-oyatni tavsifini ko'rib chiqamiz. Odamlarni yaratgan zot Allohdir. Shuning uchun

ham inson Yaratguvchisiga shukrda, iymonda va ibodatda bo'lmog'i lozimdir. Lekin ko'pchilik bunday qilmaydi. Noshukr, kofir va osiy bo'ladi. Hamma bilib qo'yishi lozim. Tabiiyki, vafot ettirgan Zot hisob-kitob ham qiladi. O'limdan oldin bunga xam tayyoro bo'lishi kerak. Buni ham o'ylab qo'yish lozim. Agar ishlar insonning istagicha bo'lsa, odamzod o'limni xohlamagandek, qarib, aql-xushi ketib, hech narsaga yaramaydigan bo'lib qolishni ham hech istamasligi aniq. Ammo o'lim ham, qarilik ham undan so'ramay keladi. Insonlar o'limdan va 'z-nasihat olgandek, qarilikdan ham o'zlariga pand-nasihat olishlari lozim. U Zot hamma narsani bilib qiladi. U Zotning hamma narsaga qudrati yetadi [9, 347-b.]. Sherdor madarasining yozuvlari xalqni hidoyat va ma'rifat yo'liga boshlash bilan birga, XVII asr hattotlik san'atining nodir namunalaridan hisoblanadi. Registon majmuasidagi yodgorliklar – Ulug'bek madrasasi, Sherdor va Tillakori madrasalari yozuvlarining tarjima va tasniflari buyuk madaniy merosimizni mantiqan o'rganish va uni targ'ib etishda muhim o'rin tutadi. So'ngi yillarda, yurtboshimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan izlanishlar natijasida, ko'plab obidalar, me'moriy yodgorliklar va amaliy san'at namunalardagi xat bezaklari qayta tiklandi. Lekin, hali O'zbekistonda o'z ma'nosini oshkor etmagan hamda o'rganilmagan naqshni va noma'lum uslubli yozuvlar bisyor. Ularni atrofiga, mantiqiy, ilmiy asoslangan holda chuqur tadqiq etish olimlarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Yalangto'shbiy Bohodirbek ham bu o'tkinchi dunyoda ilm bog'larini kezib, sari gullarning nektaridan «bol» yig'adi va atrofdagi boshqa insonlarga ulashadi. Sarkardani hayoti ijodi biz uchun ibrat bo'lmog'i lozim. U piridan ilm o'rgandi va bu foni dunyoda ibrat namunalari bizga namuna qilib qoldirdi. U foni dunyoda Alloxni buyurgan amallarini bajarib ikki olamning yuqori maqom va martabalariga erishgan xoksor inson bo'lib yashadi. Uning yer yuzida qoldirgan izlari jannatdagi ilohiy go'zallik bog'ini yaratdi. Uning yaratgan ilohiy go'zal bog'laridan hozirgacha insonlar baxraman bo'lib kelmoqdalar.

Xulosa. O'zbekistonning tarixiy, madaniy hayotida katta ijobiy rol o'ynagan Samarqandning Yalangto'shbiy Bohodirbek asl farzandi vatanparvar o'z tarixini, qadriyatini tiklanishini Dahbeddagi qabrda tinchgina kutib yotibdi [6, 53-b.].

Adabiyotlar:

1. Неруда. Пожелтевшие страницы. 52-6. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар: Самарқанд. Регистон / Ф.Абдухоликов, Э.Ртвеладзе, А-81 А. Хакимов, Б. Абдухалимов, Б. Бобожонов, А. Мансуров, А. Маннонов, Н. Мухамедов, А.Раззоков, К.Рахимов, Б.Маъруфий. - Т.: Uzbekistan Today, 2015. - 368 б.
2. Ўзбекистон обидалари битиклар. Бухоро. 1-қисм. - Т.: Uzbekistoh today, 2016.
3. Саиджонов М. Бухоронинг тарихий обидалари // Регистон. - Маориф ва ўқитувчи, 1929. - 1-2-сон.
4. Булатов С.С., Пўлатова М. Гўзалликдаги коинот фалсафаси: Монография. - Т.: Иқтисод-молия, 2013.
5. Саипова М.С. Рамзшунослик: Дарслик. - Т.: Фан ва технологиялар, 2021.
6. Каттаев К. Маҳдumi Аъзам ва Дахбед. - Самарқанд: Сугдиёна, 1994.
7. Ҳасанов Қ., Маъруфий Б. Регистон обидалари ёхуд битиклар тилга кирганда // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - Т., 2008. - 19 декабрь.
8. Қуръони Карим / Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. - Т.: Шарқ, 2000.
9. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 3-жуз, туз. ва тўл. қайта нашр. - Т.: Ҳилол-Нашр, 2018.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ, ГАРАНТИРУЮЩИЕ ВЫСОКИЙ УРОВЕНЬ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ОБУЧАЮЩИХСЯ**

Коломиец Ольга Михайловна, директор Международного института профессионального развития педагога, д.п.н., профессор

Аннотация. В данной статье описаны педагогические условия профессиональной подготовки студентов в вузе на основе психологических процессов интериоризации и экстериоризации, гарантирующих высокий уровень образовательных результатов обучающихся.

Ключевые слова: профессиональное образование, интериоризация, экстериоризация, учебно-исследовательская деятельность, учебно-практическая квазипрофессиональная деятельность, самостоятельная профессиональная деятельность.

**TALABALARNING YUQORI DARAJADAGI TA'LIM NATIJALARINI
KAFOLATLAYDIGAN UNIVERSITETDA KASBGA YO'NALTIRILGAN
TA'LIMNING PEDAGOGIK SHARTLARI**

Kolomiets Olga Mixaylovna, Xalqaro o'qituvchining kasbiy rivojlanish instituti direktori, p.f.d., profesor

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning yuqori darajadagi ta'lim natijalarini kafolatlaydigan ichki va tashqi psixologik jarayonlar asosida universitetda talabalarni kasbiy tayyorlashning pedagogik shartlari tasvirlangan.

Tayanch so'zlar: kasb-hunar ta'limi, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, o'quv-tadqiqot faoliyati, o'quv-amaliy kvazi-kasbiy faoliyat, mustaqil kasbiy faoliyat.

**PEDAGOGICAL CONDITIONS OF PROFESSIONALLY-ORIENTED EDUCATION
AT THE UNIVERSITY, GUARANTEEING A HIGH LEVEL OF EDUCATIONAL
RESULTS OF STUDENTS**

Kolomiets Olga Mikhailovna, director of the International institute of professional development of a teacher, DSc, professor

Abstract. This article describes the pedagogical conditions of professional training of students at the university on the basis of psychological processes of interiorization and exteriorization, which guarantee a high level of educational results of students.

Key words: professional education, internalization, exteriorization, educational and research activity, educational and practical quasi-professional activity, independent professional activity.

Введение. Принятие Федеральной целевой программы развития образования до 2030 года высветило проблему неспособности на данный момент ни теории образовательного процесса, ни практики его организации решения задачи по обеспечению доступности каждому обучающемуся качественного образования, отвечающего требованиям современного инновационного социально-ориентированного развития России.

Основная часть. Решению обозначенной проблемы в теории и практике образовательного процесса посвящено проведенное исследование, научной осно-

вой которого выступили идеи психологической теории усвоения человеком социального опыта (Л.С.Выготский, А.Н.Леонтьев, П.Гальперин, Н.Н.Нечаев, О.М.Коломиец, М.Г.Голубчикова и др.). Была впервые разработана модель организации преподавательской деятельности педагога и разных видов учебно-профессиональной деятельности обучающегося, реализующих психологические процессы интериоризации и экстериоризации [1]. В соответствии с моделью разработаны педагогические условия, технологии, способы, средства и формы организации деятельности субъектов образовательного процесса, требования к учебно-методическому сопровождению.

Первое педагогическое условие состоит в организации учебно-исследовательской деятельности обучающегося (реализующей первый этап процесса интериоризации) с учебной информацией для «рождения» им системы субъектных знаний, составляющих содержание запланированных образовательных результатов. Педагог начинает свою деятельность с формирования у обучающегося мотивации к учебному исследованию, т.е. потребности включиться в него, и постановки самим обучающимся своей цели в этом исследовании. Далее педагог организует в индивидуальной форме теоретическую деятельность всех обучающихся с учебной литературой по теме с помощью Программы учебно-исследовательской деятельности, разработанной на основе технологии учебного исследования [2]. В соответствии с процедурами системно-деятельностного метода и системного анализа педагогом разрабатывается система учебно-исследовательских заданий, организующих мыслительную деятельность обучающегося, выполнение которых обеспечивает "рождение" им выводов, умозаключений и т.д. Так, учебная информация, переработанная студентом на основе анализа, компрессии, построения определенных понятий, обобщения, группировки, классификации, построения причинно-следственных и системных связей, систематизации и т.д., превращается в его субъектных знаний. Их организация обучающимся в опорных таблицах и опорных картах с выделением системообразующих связей способствует формированию системного представления об изучаемом объекте и развитию системного мышления. Далее преподаватель организует условия, позволяющие обучающемуся определить личностный смысл выполненной им учебно-исследовательской деятельности через самоконтроль на основе «ключа» – разработанных преподавателем правильных ответов к учебно-исследовательским заданиям. Далее обучающийся проводит самооценку – оценивает характер и причины допущенных ошибок, после чего выполняет их самокоррекцию.

Учебно-исследовательскую деятельность каждого обучающегося и построение им опорных таблиц и опорных карт с последующим самоконтролем, самооценкой и самокоррекцией педагог может организовать как на аудиторном занятии, так и дистанционно, в работе на едином образовательном портале и по электронной почте. Эффективное управление преподавателем этой деятельностью студента осуществляется на основе трех дидактических средств: 1) методического руководства для преподавателя по организации учебно-исследовательской деятельности студента, которое содержит нормативные варианты выполнения учебно-исследовательских заданий, прогнозируемые варианты ответов и действий обучающегося; 2) учебной тетради студента; 3) сборника индивидуальных схем ориентировки: опорных таблиц и опорных карт студента «Мои образовательные результаты».

Психологическое значение учебно-исследовательской деятельности состоит в том, что разработанные под управлением педагога в нормативных характеристиках индивидуальные схемы ориентировки выступают в ориентировочной функции для обучающегося далее в практической деятельности – в разных учебно-профессиональных ситуациях, обеспечивая ему учебную самостоятельность и правильность выполнения деятельности.

Второе педагогическое условие состоит в организации учебно-практической квазипрофессиональной деятельности обучающегося (реализующей второй этап процесса интериоризации). В соответствии с процедурами технологии поэтапного формирования образа усваиваемого объекта в сознании обучающегося [2] педагог организует его деятельность по решению логических и практических задач с опорой на индивидуальные схемы ориентировки [3], в максимально развернутой форме, с проговариванием вслух и аргументацией всех структурных этапов и элементов содержания выполняемой деятельности, в совместной, распределенной с преподавателем и другими обучающимися деятельности. Все это обеспечивает успешное овладение элементами знаний, развитие умений решать практические задачи, развитие логического, понятийного, системного и деятельностного мышления как основы профессионального мышления. Далее обучающимся предлагаются групповые и парные формы деятельности по решению практических задач, в более свернутой форме, с проговариванием в «речи про себя» ее структуры и содержания [2]. В конце учебного занятия для осознания обучающимися личностного смысла их учебно-практической деятельности педагог предлагает самостоятельную работу, состоящую из теста, логической и практической задач. По ее окончании обучающиеся включаются в проведение самоконтроля выполненных заданий на основе сличения их с «нормативным вариантом» педагога (т.е. ключом) и поиска отклонений от него. Далее организуется их деятельность самооценки характера и причин допущенных отклонений, ошибок и их последующей самокоррекции. Педагог создает условия для определения обучающимися уровня соответствия нормативным критериям сформированных умений решать практические задачи.

Педагог завершает деятельность обучающегося организацией рефлексии достигнутого им продукта и результата. Студент определяет: а) какими субъектными конкретно-предметными знаниями и понятиями овладел; б) какие умения и виды деятельности развивал и каков их уровень (по итогам выполнения самостоятельной работы); в) какие личностно-профессиональные качества развивались и т.д. На этапе рефлексии также определяется и соответствие достигнутого обучающимся результата деятельности его мотиву, а именно: а) удовлетворена ли учебная потребность; б) имеет ли личностный смысл выполненная учебно-практическая деятельность; в) каковы индивидуальные резервы и способы их реализации и т.д.

Эффективное управление учебно-практической деятельностью обучающихся в аудиторной и дистанционной формах осуществляется на основе трех дидактических средств: 1) методического руководства для преподавателя по организации учебно-практической деятельности студента, которое содержит нормативные варианты выполнения логических и практических заданий и профессиональных задач, вариантов из выполнения; 2) сборника материалов учебно-практической деятельности студента; 3) сборника индивидуальных схем ориентировки: опорных таблиц и опорных карт студента «Мои образовательные результаты».

Третье педагогическое условие состоит в организации самостоятельной профессиональной деятельности обучающегося (реализующей процесс экстерииоризации), обеспечивающей автоматизацию решения им профессиональных задач и формирование практического навыка на основе сформированных в его сознании ментальных схем с содержанием запланированных образовательных результатов. Педагог организует самостоятельную деятельность обучающегося сначала в условиях, моделирующих реальную социально-профессиональную ситуацию для студента (например, в форме деловой игры, конференции, в тренажерном зале, симуляционном центре, на едином образовательном портале), потом в реальной социально-профессиональной ситуации (например, при прохождении разных видов практики, в технопарках и т.д.). В обязательной форме проводится самоконтроль, самооценка и самокоррекция обучающимся выполняемой им деятельности. Для педагогического взаимодействия педагог использует индивидуальное консультирование в форме устной и письменной речи.

Вывод. Эмпирическим подтверждением эффективности реализации в практике образовательного процесса описанных педагогических условий преподавания учебной дисциплины явилось опытно-экспериментальное исследование с 2011 по 2022 годы в форме повышения квалификации по программе «Развитие преподавательской деятельности педагога» на базе АНО «Международный Институт профессионального развития педагога» (Москва). Общее количество охваченных экспериментом преподавателей высшей школы составило около 2530 обучающихся. Разработанная для проведения исследования комплексная методика оценивания преподавательской деятельности и учебно-профессиональной деятельности студентов позволила доказать эффективность разработанных автором статьи педагогических условий преподавания учебной дисциплины в контексте выполнения педагогом социального заказа обеспечит достижение каждым обучающимся образовательных результатов базового и высокого уровня качества.

Литература:

1. Гальперин П. Психология мышления и учение о поэтапном формировании умственных действий и понятий // Исследования мышления в советской психологии. - М., 2006. - 249 с.
2. Коломиец О.М. Организация учебно-профессиональной деятельности студента в преподавании на основе компетентностно-деятельностного подхода // Педагогический журнал. - М., 2016. - № 5. - С. 47-58.
3. Коломиец О.М. Компетентностно-деятельностный подход – методологическая основа преподавания в высшей школе // Вестник Московского университета. - Серия 20 «Педагогическое образование». - М., 2017. - № 1. - С. 84-98.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KASBGA ERKIN QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISH IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA

Djamilova Nargiza Nuritdinovna, TDPU professori, pedagogika fanlar doktori (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirish haqida gap boradi.

Tayanch soʻzlar: bola, katta maktabgacha yosh, qiziqish, shakllanish, rivojlanish, maktabgacha yosh, taʼlim, tarbiya.

ФОРМИРОВАНИЕ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА СВОБОДНОГО ИНТЕРЕСА К ПРОФЕССИИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА

*Джамилова Нургиза Нуритдиновна, профессор ТГПУ,
доктор педагогических наук (DSc)*

Аннотация. В данной статье речь идёт о формировании интереса у детей старшего дошкольного возраста к профессии.

Ключевые слова: ребёнок, старший дошкольный возраст, интерес, формирование, развитие, дошкольный возраст, образование, воспитание.

FORMATION OF FREE INTEREST IN THE PROFESSION OF PRE-SCHOOL OLDER CHILDREN AS A SOCIAL PROBLEM

*Djamilova Nargiza Nuritdinovna, TSPU professori,
doctor of pedagogical sciences (DSc)*

Abstract. In this article we are talking about the formation of interest in the profession among older preschool children.

Key words: child, senior preschool age, interest, formation, development, preschool age, education, upbringing.

Kirish. Mamlakatimizda taʼlim tizimi, jumladan, maktabgacha taʼlim tizimini tubdan yangilash va takomillashtirish davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Shu yillar mobaynida yurtimizda mazkur sohani rivojlantirishning mustahkam huquqiy-institusional asoslari yaratildi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqida: «Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bogʻcha yoshidagi bolalarni maktabgacha taʼlim muassasalariga toʻliq qamrab olishdan iborat va biz bunga, albatta, erishamiz», – deb taʼkidlagan edi.

Asosiy qism. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yilgi Parlamentga yoʻllagan murojaatnomasida: «Biz oʻz oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulugʻ maqsadni qoʻygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulugʻbeklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, taʼlim va tarbiyani rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy gʻoyamizning asosiy ustunlari boʻlib xizmat qilishi lozim» [1] deb, bu borada «oʻgʻil-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan zamonaviy kasb-hunarlariga oʻrgatish, ularda tadbirkorlik koʻnikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini roʻyobga chiqarish, ish va uy-joy bilan taʼminlashga» ahamiyat qaratishimiz

kerakligi alohida ta'kidlab o'tildi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida 7 ta asosiy yo'nalishlar belgilandi. Aynan strategiyaning 4-yo'nalishi «Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish» deb nomlangan bo'lib, unda: maktabgacha ta'lim qamrov darajasini oshirish; maktabgacha ta'lim tizimi sifatini yangi bosqichga olib chiqish; maktabgacha ta'lim tizimida budget mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash maqsadlari va vazifalari [2] ko'rsatilgan. Shunga ko'ra, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim.

Kasb – bu insonning mehnat faoliyati; doimiy mashg'ulot turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan, bilim, mahorat, tajribani talab etadi [7]. Kasb – inson zarur bo'lgan, bo'sh vaqtda shug'ullanadigan, Vatani uchun xizmat qiladigan ishdur. Hayotda kasblar shunchalik ko'pli, olimlarning ta'kidlashicha, dunyoda 40 mingdan ortiq kasblar mavjud [7]. Ushbu Taraqqiyot strategiyasi bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunda [2] har bir bolaning ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi, har bir bolaning iste'dodi nishonlarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit teng bo'lishi ta'kidlangan. Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish, ularni har tomonlama rivojlantirish maqsadida innovatsion axborot va kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etishni talab etadi. Shuningdek, ushbu qonun ijrosini ta'minlash, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti» tasdiqlandi. Davlat standartida har bir bolaning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini va ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash, har bir bolaning, shu jumladan, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish imkoniyatining tengligi, xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish, ularga ta'lim berishda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish zarurligi keltirib o'tilgan [3].

Prezident qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning bir qator ustuvor yo'nalishlari belgilab o'tilgan. Xususan, «Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish; maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish» kabi vazifalar yoritilgan [1]. Bundan tashqari, «Ilk qadam» takomillashtirilgan davlat o'quv dasturida ham bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari va saloyihatlarini hisobga olish, komtesensiyaviy yondashuv asosida bolalarni rivojlantirish vazifalari keltirib o'tilgan [2]. Shunga ko'ra, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim.

Inson hamma biror kasbni egallashi uchun o'qishi va ta'lim olishi lozim. Kasbga qiziqishni, biz, eng avvalo, yoshlikdan bolalarda, ayniqsa, maktabgacha bo'lgan davrda shakllantirishimiz lozim. Buning uchun biz bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish bo'yicha g'arb olimlar tomonidan bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. N.Kozlova bolalarning kasblar haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda vizual usullarning rolini ta'kidladi: illyustratsiyalarni ko'rish, filmlar ko'rsatish, namuna ko'rsatish. U maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar haqidagi g'oyalarini

kengaytirishda bosqichma-bosqichlik tamoyiliga amal qildi. T.A.Markova va V.G.Nechayevalar ekskursiyaga katta ahamiyat berganlar. Ular ekskursiyani maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar haqidagi g'oyalari shakllantirishning eng yaxshi usuli deb hisoblashgan. E.Ginsbergning fikricha, kasb tanlash jarayoni bolaning hissiy va intellektual rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir-biriga o'tadigan uch bosqichdan iborat: hayoliy davr (4-11 yosh), sinovlar va urinishlar davri (11-17 yosh), real davr (17-21 yosh) [7]. Kasb tanlashni «psixologik jihatdan asoslash» urinishlari bilan bir qatorda, faqat subyektiv omillarni tan olgan holda, G'arb psixologiyasida boshqa tushunchalar ishlab chiqilmoqda, ular kasb tanlashga obyektiv omillarning ta'sirini hisobga oladi, ammo subyektiv omillar hal qiluvchi bo'lib qolmoqda. Bular «texnokratik» deb ataladigan nazariyalar bo'lib, ular «inson munosabatlari» ta'limotiga asoslanadi, mahalliy iqtisodiyotning holati va tuzilishi va mehnat bozori (M.Musgrave, E.Gross, D.Xeys va boshqalar). D.Super shaxs hayotining davrlari, bosqichlari rivojlanishini qisman qobiliyat va qiziqishlarning shakllanish jarayonini osonlashtirish, qisman unga voqelikni tushunish va o'zining «men» tushunchasini rivojlantirishga yordam berish orqali boshqarish mumkin deb hisoblaydi. Kasbiy intilishlarning shakllanishi, mohiyatiga ko'ra, ushbu kontsepsiyani ishlab chiqish va o'rnatish jarayonidir. Kasb-hunarga yo'naltirishning tizimli-nazariy modeli o'z kasbini tanlagan shaxsning psixologik kasbiy jihatdan yetuk emasligiga asoslanadi. Kasbiy o'zini o'zi belgilashning mohiyatini aniqlash hali ham hal qilinmagan muammo hisoblanadi, shuning uchun ushbu muammoni hal qilish fanning turli sohalarini vakillarini ijodiy izlashda muhim o'rin tutadi. Mahalliy pedagogika va psixologiyada mustahkam ilmiy asos yaratilgan bo'lib, u, asosan, ushbu muammoga zamonaviy yondashuvlarni belgilab berdi. Bu yerda V.V.Nazimov, A.E.Golomshtok, B.A.Fedorshinlarning tadqiqotlarida o'ziga xos xususiyati, kasbiy o'zini o'zi belgilashning shaxsiy jihatlarga e'tibor qaratilgan.

«Kasbiy o'zini o'zi belgilash» konsepsiyasini aniqlashga yondashuvlarni ishlab chiqishga va mehnat subyektini sifatida shaxsning kasbiy ontogenezini tavsiflashga eng katta hissa E.A.Klimov tomonidan qo'shildi. Olim tomonidan taklif qilingan inson rivojlanishining mehnat subyektini sifatida davriyligi. Ushbu nazariyaga ko'ra, 3 yoshdan 6-8 yoshgacha bo'lgan o'yin inson faoliyatining «asosiy ma'nolari»ni o'zlashtirish, shuningdek, muayyan kasblar bilan birinchi tanishish (haydovchi, shifokor, sotuvchi, o'qituvchi va boshqalar).

Xulosa. Bolalarni kasbga yo'naltirish masalasini malakali hal qilishning muhim sharti – bu butun jamiyatning iqtisodiy, milliy va iqtisodiy rivojlanishi ehtiyojlarini va o'ziga xos mahalliy sharoitlarni hisobga olish zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilgi Parlamentga yo'llagan murojaatnomasi. - T., 2022.
2. «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi».
3. 2019-yil 16-dekabrda O'RQ 595-son «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonuni.
4. 2019-yil 8-mayda PQ-4312-sonli «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi».
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-dekabrda 802-sonli «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti» qarori.
6. «Илк кадам» такомиллаштирилган давлат ўқув дастури. - T., 2022.
7. Королева М.В. Формирование у старших дошкольников представлений о мире современных профессий // Молодой ученый. - Ч., 2015. - № 7 (87).

O'ZARO MUNOSABATLARNI O'RGATISHGA QARATILGAN MULOQOT MANERALARI MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

Davronov Pirnazar Ziyatovich, Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi professori

Annotatsiya. Maqolada malaka oshirish tizimida pedagogika fani yunalishidagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishga doir metodika bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, kommunikativ, ko'nikma, rivojlantirish, tinglovchi, uzluksiz, kasb, pedagogika, amaliy mashg'ulot, metodika, sifat, tarqatma, natijadorlik, tarz, matn, guruh.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СУБЪЕКТА МАНЕРАМ ОБЩЕНИЯ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯМ

Давронов Пирназар Зиятович, профессор Республиканского центра подготовки учителей по новым методикам Самаркандской области

Аннотация. В статье описана методика проведения практических занятий по педагогике в системе повышения квалификации.

Ключевые слова: образование, коммуникативность, умение, развитие, слушатель, непрерывный, профессия, педагогика, практическое занятие, методика, качество, раздаточный материал, результативность, стиль, текст, группа.

METHODOLOGY OF TEACHING THE SUBJECT OF COMMUNICATION MANNERS FOR TEACHING INTERACTIONS

Davronov Pirnazar Ziyatovich, professor of the National center for training teachers in new methods of Samarkand Region

Abstract. The article describes the methodology for conducting practical training on the topics of pedagogy in the system of professional development.

Key words: education, communicative skill, development, listener, long-life learning, profession, pedagogy, practical training, methodology, quality, handouts, effectiveness, approach, text, group.

Kirish. Mamlakatimizda qator yillardan buyon o'qituvchilarning nufuzi va ijtimoiy mavqeni oshirishga, ularning asosiy vazifasi bo'lgan darslaridan tashqari boshqa ishlardan ozod qilish, ta'limning sifati va natijadorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2023-yilga «Insonga e'tibor va sifati ta'lim yili» nomi berildi [1]. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'qitishning natijadorligi, ma'lum darajada o'qituvchilarning malakasini oshirish sifatiga bog'liq. Bunga o'qituvchining bilim, mahorat, qobiliyat va ko'nikmalari darajalarini uzluksiz rivojlantirib borish orqali erishiladi. Shu ma'noda 2021-yil 25-yanvarda O'zbekiston Respublikamiz Prezidentining «Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'grisida»gi PQ-4963-son qarori qabul qilindi [2]. Oldingi yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari 5-yilda bir marta malakalarini oshirishgan bo'lsa, yangi qarorga asosan 2022-yildan boshlab har yili bir hafta davomida malakalarini oshiradigan bo'lishdi [3].

Asosiy qism. O'qituvchilarning pedagogika fanidan malaka oshirishlarini «O'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan muloqot tarzlari» nomli amaliy mashg'ulot misolida

bayon qilamiz. Odatda amaliy mashg'ulot yunalishlarining 25 nafar tinglovchilardan uchta kichik guruhlar shakllantiriladi. Mavzu matni kichik guruhlar soniga mos ravishda uch bo'lakka bo'linadi. Matni bayon qilgan tinglovchining fikrlari professor-o'qituvchi va sheriklari tomonidan boyitib boriladi. Mavzuning yaxlit matni, uchta kichik guruhlar tinglovchilariga quyidagi tartibda taqdim etilgan [4].

Kichik guruh 1.1 - Modul. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish

Mavzu: O'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan muloqot maneralari (amaliy mashg'ulot)

Muloqot – arabcha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo aloqa va o'zaro fikr almashuv ma'nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvida namoyon bo'ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi [5]. Muloqot mazmuni bu biror insondan boshqasiga yetkazilgan axborot. Muloqot maqsadi bu insonda muloqot ehtiyojini keltirib chiqaradigan sabab. Pedagogning muloqot kompetentligi bu pedagogning o'quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat va boshqalar bilan pedagogik odob doirasida muloqot qilaolishida namoyon bo'ladi.

Muloqot vositalari:

1. Til bu muloqotda foydalaniladigan so'zlar, iboralar, gaplar va AKTlar.
2. Ohang bu bir so'zini, iborani yoki gapni turli ohanglarda aytish bilan suhbatdoshning ruhiyatini turli xolatlariga solishimiz mumkin.
3. Mimika va pantomimika (tana tili) vositasida nutq ma'nosini kuchaytirishi, to'ldirishi yoki rad etishi mumkin.

4. Suhbatdoshlarning muloqotida masofani saqlash vositasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Muloqot bosqichlari:

1-qadam: Keskin javob bermaslik va «Sizning e'tirozlaringiz to'g'ri», «Albatta, men fikringizga qo'shilaman» iboralaridan foydalanish.

2-qadam: Suhbatda muloqotning keskinlashuviga olib keladigan «ammo», «lekin», «biroq» bog'lovchilarni ishlatmaslik.

3-qadam: Muammoli vaziyatlarda suhbatdoshning ko'rsatma va ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda mantiqiy fikr yuritish.

4-qadam: Kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir necha mumkin bo'lgan tadbirlarni taklif qilishi va suhbatdoshning bu boradagi fikrlarini sabr bilan eshitish.

5-qadam: O'z fikrini suhbatdoshining fikriga mos tarzda bayon qilish. Gapni «Men ham shu fikrdaman...» degan jumla bilan boshlash. Odatda muloqot quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1. Muloqot maqsadlari va vaziyatlari to'g'ri belgilanadi. 2. Suhbatdosh shaxsidan imkon qadar xabardor bo'linadi. 3. Muloqot mazmuni rejalashtiriladi. 4. Muloqotda gapni nimadan boshlash, o'zini qanday tutishni o'ylab ko'riladi. 5. Aytiladigan gapga suhbatdoshning javob reaksiyasini idrok qilgan holda, muloqot yo'nalishi, uslubi, metodlariga tuzatishlar kiritiladi. 6. Muloqotdan so'ng, erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni tahlil qilish asosida keying suhbatga tayyorgarlik ko'riladi. Agar muloqot zanjirining biror halqasi uzilsa, muloqot kutulgan natijani bermaydi.

Muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol bo'lib, quyidagi asosiy muammolar hal etiladi: 1. O'qituvchi va o'quvchilar o'zaro axborot almashishadi. 2. O'qituvchi o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi. 3. O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro bir-birlarini tushunishlari amalga oshiriladi.

Kichik guruh 2.1 – Modul. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish

Mavzu: O'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan muloqot maneralari (amaliy mashg'ulot)

O'qituvchi va o'quvchilarning jonli muloqotini to'g'ri tashkil etish doim dolzarb masala. Jonli muloqot bu o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini o'quvchilarga og'zaki so'z bilan yetkazadigan, o'qituvchini ziddiyatli vaziyatlardan

olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir. Jonli muloqot jarayonida o'quvchilarning xulqida kamchiliklar kuzatilsa, uning xatti-harakatiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladi, ya'ni e'tiroz, tanbeh, ogohlantirish kabi vositalar qo'llaniladi. Har bir fikr va e'tiroz bildirilganda, muloqotdan o'quvchining ruhiy o'zgarishlariga e'tibor berish, lozim bo'lganda o'qituvchining uzr so'rashi, tavoze bilan o'quvchi ruhiy holatini mo'tadil holatga keltirishi lozim.

Jonli muloqotda quyidagi usullardan foydalanish yaxshi samara beradi: 1. Ishonchni qozonish bu o'quvchi o'qituvchining to'g'ri yo'lga boshlayotganiga ishonishi kerak. Bunda shaxsiy ibrat ko'rsatish yaxshi samara beradi. 2. Ta'sir etish bu o'qituvchining nutqi ta'sirchan, so'z boyligi ko'p, dunyoqarashi keng bo'lsa, muloqot orqali o'quvchilar ruhiyatiga ta'sir etishi kuchli bo'ladi. 3. Ma'qullash bu har qanday holatda o'quvchi fikrini oxirigacha eshitish va unga to'g'ri yo'lga yunaldirish berish kerak.

Muloqotda «xulq-atvor» tushunchasidan foydalaniladi. Bu tushuncha arab tilida «xulq» – muomala, muloqot ma'nosini anglatadi, «atvor» – ruhiy holatdagi o'zgarishni bildiradi. Haqiqatan, ikki yoki ko'proq kishilar muloqotga kirishar ekan, o'sha lahzada ularning ruhiy xolatlarida ham o'zgarishlar ro'y beradi. O'qituvchining o'quvchilar bilan ruhiy psixologik xususiyati bu darsda sinf o'quvchilarining ruhiy psixologik holatini mo'tadil saqlashga yo'naltirilgan muloqotni amalga oshirishga tajribangizdan misol keltiring.

O'qituvchining o'quvchilar bilan ijtimoiy psixologik xususiyatining tarkibiy qismlari: 1. Pedagogning alohida o'quvchi bilan muloqoti. 2. Pedagogning butun guruh bilan muloqoti. 3. Pedagogning alohida o'quvchi orqali guruh bilan muloqoti. 4. Pedagogning guruh orqali alohida o'quvchi bilan muloqoti.

Muloqot natijasida quyidagi ijtimoiy-psixologik vazifalar hal etiladi: 1. Shaxsni o'rganish (bilish). 2. Axborot almashish. faoliyatni tashkil etish. 3. Xayrixohlik bildirish.

Pedagoglarning o'z faoliyatlarida muloqotning quyidagi beshta turlariga tayanib ish ko'radi: 1. O'zaro ijodiy faoliyatga qiziqtiradigan muloqot. 2. O'zaro do'stona munosabatga asoslangan muloqot. 3. Muayyan masofani saqlagan holda tashkil etiladigan muloqot. 4. Qo'rqitish, tahdid qilishga asoslangan muloqot. 5. Hazil-mutoibaga, yumorga asoslangan muloqot.

Darsni buzushga moyilligi kuchli bo'lgan o'quvchilar bilan muloqot. «Sadaqani muhtojga ber» degan naql bor. Shunga ko'ra, bunday o'quvchilar ichidan liderini aniqlab, unga ko'proq mehr berish orqali uning xohishi va irodasini sa'natkorona bo'ysundirish hamda amaliy faoliyatga jalb qilish orqali to'g'ri yo'lga yunaldirish kerak. Shunda bu o'quvchi o'qituvchining eng yaqin yordamchisiga aylanib qoladi. A.S.Makarenkoning fikricha, o'qituvchining muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo'lishi lozim. Bizning fikrimiz, o'qituvchining muloqotida me'yorida jiddiylik, me'yorida talabchanlik, me'yorida tabassum, cheksiz mehr-muhabbat, cheksiz xayrixohlik uyg'un bo'lmog'i darkor.

Kichik guruh 3.1 - Modul. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish

Mavzu: O'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan muloqot maneralari (amaliy mashg'ulot)

O'qituvchilar sinf rahbari sifatida sinf jamoasini boshqarishning avtoritar, demokratik yoki liberal uslublaridan foydalanishadi.

Avtoritar uslub. O'qituvchi guruhning faoliyat yo'nalishini shaxsan o'zi belgilaydigan, buyruqbozlikka asoslangan muloqot. Bunday uslubda o'qituvchi o'quvchilar tashabbuslariga yo'l bermaydi. Hamkorlikning asosiy shakli – buyruq, ko'rsatma, instruksiya, ogohlantirish. Hatto kamdan kam bildiriladigan minnatdorlik ham kamsitish shaklida bo'ladi. «Sen bugun yaxshi javob berding. Sendan buni kutmovidim» kabi.

Demokratik uslub. O'qituvchi tegishli tadbirlarni o'quvchilar bilan bamaslahat hamkorlikda amalga oshiradi. O'quvchilarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlagan holda, ularni hayotga erkin fikrlavchi, faol qilib tarbiyalaydi.

Liberal uslub. O'qituvchi jamoa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko'rsatmaydi, maslahatlarga formal qaraydi, turli ta'sirlarga tez beriladi. Javobgarlikdan o'zini olib qochadi. Afsuski, bunday o'qituvchilar maktablarimizda uchrab turadi, ular «naridan-beri, qo'l uchida, kun o'targa ihlashadi, maoshni kutub yashashadi».

O'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi prinsiplarda namoyon bo'ladi: kommunikativ muloqot, interaktiv, perseptiv. Kommunikativ muloqotda bir tomonlama axborot uzatiladi. Biroq kommunikativ so'zi fikr almashish ma'nosini anglatganligi tufayli, uni o'zaro axborot almashuv tarzida tushunish ham mumkin. Interaktiv (interfaol) muloqotning muhim jihati ikki tomonlama bir-biriga ta'sir o'tkazishdan iborat. Muloqotga kirishuvchi o'qituvchi, o'quvchilariga nafaqat so'z orqali, balki xatti-harakati va xulq-atvori bilan ham ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Perseptiv muloqot usulida o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir-birlarini qisqa muddatlarda idrok qilishi, anglashi tushuniladi. Muloqotning beshta tamonlari bo'lib, ular: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va kognativ tomonlarining birligida namoyon bo'ladi.

Rus pedagogi A.A.Bodalev pedagogik muloqotning samaradorlik shartlarini quyidagicha ifodalaydi: 1. O'quvchi hayotining har jabhasida pedagogik muloqot bo'lsa. 2. Muloqot oliy qadriyatlar bilan birga amalga oshirilsa. 3. Psixologik, pedagogik bilimlar yetarli bo'lsa.

Rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, pedagogik muloqot modellashtirilgan bo'lishi kerak: 1. Prognostik bosqich (modellashtirish): o'qituvchi sinf jamoasi bilan bo'ladigan muloqotni oldindan modellashtirishi kerak. 2. Kommunikativ aloqa: o'quvchi bilan dastlabki tanishuvda muloqotni to'g'ri tashkil etishga erishishi lozim. 3. Pedagogik jarayon: o'qituvchining xatti-harakati, pedagogik mahorati muloqotni to'g'ri boshqarishga qaratilgan bo'lishi kerak. 4. Natijalar tahlili: amalga oshirilgan muloqotni tahlil qilish, yutuq va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash asosida, keyingi muloqotni tashkil etish.

Kulosa. Tarqatma materiallarda modul, mavzu, professor-o'qituvchi ismi sharifining berilishi, o'rganilishi rejalashtirilgan mavzu materialini bo'laklarga bo'lib, kichik guruhlarda belgilangan vaqt oraligida mustaqil o'rganish, o'zlashtirilgan bilimlarni shaxsiy tajribalaridan kelib chiqqan holda bayon qilish, ushbu jarayonda barcha tinglovchilarning ishtiroklarini tashkil etish, ularning malakasini oshirish darajalarining natijadorligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. 2020-yil 23-sentyabrdagi O'zbekiston Pespublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.
2. 2021-yil 25-yanvardagi O'zbekiston Pespublikamiz Prezidentining PQ-4963-son «Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. - 1-5 jildlik. - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.
4. Pedagogika ensiklopediya / Tuzuvchilar jamoasi. 2-jild - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. - 376 b.
5. Shomurodova S. Kommuikativ ko'nikmalarni rivojlantirish o'quv 1-moduli bo'yicha «Pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari» mavzusidan ma'ruza matni. - T., 2022.

NOLISONIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TIL TA'LIMI MASALALARI

Atadjanova Shaxnoz Abbasovna, *TDPU dotsenti, p.f.n.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada nolisoniy oliy ta'lim muassasalarida chet til ta'limi masalalari yoritilgan. Chet tilni amaliy o'rganish natijasida talaba bo'lajak mutaxassislikka oid maxsus bilimlarni ham o'zlashtirib borishi haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: *chet til, ta'lim tizimi, kasbiy malaka, til materiali, кадр, nofilologik, til materiali, maxsus maqsad, student.*

**ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ В НЕЯЗЫКОВЫХ
ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

Атаджанова Шахноз Аббасовна, *доцент ТГПУ, к.п.н.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы обучения иностранному языку в неязыковых высших учебных заведениях. В результате практического изучения иностранного языка отмечается, что студент также овладевает специальными знаниями по предстоящей специальности.

Ключевые слова: *иностраннный язык, система образования, профессиональный навык, языковой материал, кадр, неязыковой, специальное назначение, студент.*

**TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN NON – LINGUISTIC HIGHER
EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Atadjanova Shaxnoz Abbasovna, *dotsent of TSPU, PhD*

Abstract. This article discusses the issues of teaching a foreign language at non-linguistic higher educational institutions. As a result of practical study of a foreign language, it is noted that the student also acquires special knowledge in the upcoming specialty.

Key words: *foreign language, educational system, professional skill, language material, human resource, non-linguistic, special purpose, student.*

Kirish. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tub o'zgarishlar natijasida xorijiy mamlakatlar bilan har tomonlama halqaro aloqalarini o'rnatib kelmoqda. Bu esa, turli soha mutaxassislarini chet tilga bo'lgan ehtiyojini oshishiga sabab bo'lmoqda.

Asosiy qism. Zamonaviy raqobatbardosh bo'la oladigan mutaxassisdan birorta chet tilni mukammal egallagan bo'lishini jahon hamjamiyatida o'z o'miga ega bo'layotgan, har tomonlama rivojlanishga intilayotgan yurtimizning davr talabiga aylandi. Shularni inobatga olgan holda so'ngi yillarda prezidentimiz tomonidan ta'lim-tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor qaratilib, bu borada qator farmonlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda qilgan murojaatnomasida ham ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratib, «2023-yil Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» deb atalishi ham bejiz emas [1]. Chunki uning zaminida yurtimiz kelajagi, rivoji va taraqqiyot masalalari yotadi. Mana shunday ulkan maqsadlarga erishish yo'lida yangilanayotgan O'zbekiston ta'lim tizimida bugungi kunda chet til o'rgatishga yangi talablar qo'yildi. Xususan, chet tillarni egallash Yevropa Kengashining «Chet tilni egallashning umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'rgatish, baholash» to'g'risidagi hujjat (SEFR)da umume'tirof etilgan halqaro meyorlar asosida yaratilgan (Strasburg/CEFR, ya'ni Common European Framework of References for Languages Learning, Teaching, Assesment). O'zbekiston

ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish/o'rgatish masalalari SEFRga asoslanib yangi DTS ishlab chiqildi. Mazkur DTS ta'lim tizimining barcha bosqichlarini o'zida qamrab olinganligi bilan ahamiyatlidir.

O'quv rejalarda ko'rsatilgan sohaviy fanlar qatori chet til kursi kasbiy bilimlarni egallashda vosita hisoblansada, turli soha mutaxassislarini tayyorlashda kasbiy yo'naltirilgan chet til ta'limini ishlab chiqish zarur bo'lmoqda. Bu esa, nofilologik oliy o'quv yurtlarida chet til o'qitish jarayonini kasbiy yo'naltirish (professionalizatsiya) masalasini hal etish lozim ekanligidan dalolat bermoqda. PQ «Bundan buyon ham ingliz tili va boshqa xorijiy tillarni chuqur o'qitish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Shu bilan birga biz uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng ko'lamda yo'lga qo'yish kabi muhim vazifalar belgilandi [2]. Bunda nofilologik oliy o'quv yurtlarida chet til o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirishning metodik va lingvistik muammolarini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. «Chet til» umumta'lim o'quv predmetining kasbiy lingvodidaktik maqomiga ko'ra o'qitiladigan chet til kursi boshqa o'quv fanlaridan o'zining mohiyati va o'qitilish xususiyati bilan tubdan farq qiladi. Chet til o'rganish ushbu tilda gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv ko'nikma va malakalarini egallashni ifodalaydi. Nutq faoliyatining to'rttala turi ham chegaralangan meyorda, ya'ni dastur mavzulari doirasida va maxsus tanlangan til materiali hajmida o'rganib boriladi» [3]. Chet til ta'limi o'zining maqsadi va mazmuni bilan o'zga fanlardan farq qiladi. Chunki chet til darslarida nutq o'rgatiladi. Talabalar chet tilda to'rtta nutq faoliyatini egallash orqali nutqiy muloqotga kirishadilar. Ya'ni talabalar gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuvni amalda egallab boradilar. Chet tilning maqsadi ko'nikma yoki malakani shakllantirishga qaratiladi. Ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari qonuniyatlari tamoyillari qoidalari tizimiga ega. Aynan shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi.

Bizning nazdimizda, kasbga yo'naltirilgan chet til ta'limi dunyo miqyosidagi sohaviy ma'lumotlarga ega bo'lishimizga yaqindan yordam beradi va kasbiy og'zaki muloqot kompetensiyasini rivojlantiradi. Bunga erishishimizda mashqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mashqlar nutqiy ko'nikmalarning shakllanishida hamda rivojlanishida til ta'limining muhim tarkibiy qismlaridandir. N.I.Jinkin tomonidan nutq faoliyatining mexanizmlari ishlab chiqilgan. Olimning yozishicha, nutq mexanizmi – tirik, jonli bo'lib, doimo o'zgaruvchan va yetarli darajada amalga oshuvchi mexanizmdir. Uning shakllanishi, qayta qurilishi va ro'yobga chiqishi ma'lumot evaziga amalga oshadi. Yangi mexanizmning shakllantirilishi hamda rivojlantirilishi axborot almashish jarayonida ro'yobga chiqishi mumkin. Chet til ta'limi tajribasi shuni ko'rsatadiki, ona tilida shakllangan nutq mexanizmi chet tildagi nutqiy faoliyatni o'rganayotganda, xuddi shu darajada faoliyat ko'rsatmaydi. Inson chet til o'rganishning dastlabki paytida, odatda, xotirada ona tilidagi so'zlarga fikran bog'lanib, chet tildagi so'zlarni xotirada saqlab qoladi. Chet tilda berilayotgan axborotni ham sekinlik bilan idrok etadi. Idrok etish mexanizmi ancha sust ishlaydi. Chet tildagi yangi faoliyatni egallash shuni ko'rsatadiki, inson nutq mexanizmini aniq bo'g'inlarini qaytadan shakllantiradi [4]. Professor M.V.Lyaxovitskiyning ta'kidlashicha, tillarni mazkur tilda so'zlashadigan halqning dunyosi va madaniyati bilan uzviy aloqadorlikda o'rganish lozim. Kishilarni muloqot qilishga o'rgatish, chet tilni tushunishgagina emas, balki uni yaratishga o'rgatishni murakkablashtiradigan yana bir holat – muloqotning shunchaki verbal jarayon emasligi bilan belgilanadi. Uning muvaffaqiyati chet tilni bilishdan tashqari yana ko'plab muloqot sharoiti va madaniyati, etiket qoidalari, fikr ifodalashning noverbal shakllari (imo-ishoralar)ni bilish, chuqur fon

bilimlarning mavjudligi va ko'plab boshqa omillar bilan bog'liq [5]. Chet til bo'yicha tashkil qilinadigan mashg'ulotlarda bo'lajak mutaxassislarida kasbiy malakalarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari mavjud. Bu, albatta, kelgusida egallanadigan faoliyat kategoriyasi bilan chambarchas bog'liq. Faoliyat shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Faoliyat – shaxsning ham moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi, ijtimoiy yoki kasbiy xarakterlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Faoliyat jarayonida shaxs har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirish uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim [6]. Faoliyat har tomonlama qobiliyatli yoshlarni tarbiyalash natijasida kelajakda kuchli, raqobatbardosh, yetuk mutaxassislarni yetishib chiqishni kafolatlaydi. Kuchli mutaxassislar esa, jamiyatni ravnaq toptirishga, turli sohalarining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

Olimlarimiz o'z asarlarida shaxsning rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya singari omillar o'z ta'sirini o'tkazishi haqida alohida ta'kidlaydilar [7]. Mazkur omillar ta'sirida shaxsning individual (xarakteri, fe'l atvori, dunyoqarashi) va ruhiy xususiyatlari (idrok, xotira, hayol, tafakkur, nutq, sezgi diqqat va iroda) ham o'sib boradi. Chet til ta'limida shularni e'tiborga olgan holda tashkillashtirish, xususan, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy malakalarini shakllantirishda muhim sanaladi.

Ta'lim jarayonida faollik talabalarga bilimlarni mukammal egallashga yordam beradi. Bilishga bo'lgan faollik talabaning har tomonlama rivojlanishiga olib keladi. Shuni takidlashimiz lozimki, chet til ta'limida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash muammolari bugungi kunda ko'p aspektliligi bilan harakterlanadi. Kuzatuvlarimizdan aniqlanishicha, nofilologik OTMda chet til o'qitishning ko'pgina yo'nalishlari va texnologiyalari mavjud bo'lib, bugungi talabdan nafaqat chet tilda muloqot qila olish, shuningdek, kelajakdagi kasbi bo'yicha ham maxsus bilimlarni egallash talab etiladi. Bo'lajak mutaxassisni kasbiy shakllanishida chet til vosita vazifasini o'taydi. Kasbga yo'naltirilgan til materialini o'rganish jarayonida talaba mutaxassislikka oid maxsus bilimlarni o'zlashtirish va tilni amaliy egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, talabalar til materialini o'zlashtirish bilan bir paytda o'zlari tanlagan sohalar bo'yicha ham ma'lumotlar oladilar [8].

Kasbiy malakalarni shakllantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish kerak: chet tildagi nutq faoliyatining maqsadlarini aniq belgilash; ijtimoiy va kasbga yo'naltirilganlik; masalalarni hal qilish jarayonida til o'rganuvchilarda qoniqish hissini tarbiyalash; xususiy masalalarni hal qilishda talabalarda ijodiy yondashishni shakllantirish; o'quv jarayonida psixologik muhit yaratish.

Faoliyatni kasbiy yo'naltirilganlik, birinchidan, chet tilni sohaviy fanlar bilan integratsiyalashuvini talab etadi; ikkinchidan, o'qituvchi o'z oldiga, bo'lajak mutaxassislarga fanlararo aloqa asosida chet tildan ham kasbiy bilimlarni sistematik tarzda boyitib to'ldirishda vosita sifatida foydalanish vazifasi qo'yiladi; uchinchidan, bo'lajak mutaxassislarning zaruriy kasbiy malakalarini ta'minlashga qodir bo'lgan chet til o'qitishning turli forma va metodlarini qo'llashni nazarda tutadi. Nofilologik OTMda chet til ta'limi yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. U inson faoliyatining turli sohada erishilgan so'ngi ilmiy yutuqlarga yo'naltirilgan bo'lishi, talabalarning qiziqishlariga ta'sir etishi hamda uning kasbiy takomiliga imkon berishi kerak. Chet tildan foydalanish til sohiblarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini, verbal va nonverbal muloqot vositalarini bilishni taqazo qiladi. Bu, avvalo, tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatini o'rganish bilan bog'liqdir. Ijtimoiy-madaniy komponent chet til ta'limi mazmunida muhim rol o'ynaydi. Chunki nafaqat tili

o'rganilayotgan mamlakat madaniyatini bilish, balki talabaga o'z Vatani madaniy qadriyatlarini qiyoslash orqali uning umumiy madaniyatini shakllantirishga imkon beradi, ya'ni talabaning umumiy, ijtimoiy madaniyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, uni ongli va intellektual jarayonga yo'naltiradi. Ijtimoiy-madaniy bilim o'z ichiga mamlakatshunoslik va lingvomamlakatshunoslikka oid bilimlarni oladi. N.D.Galskovaning fikricha, mamlakatshunoslikka oid bilimlarga ensiklopedik va fon bilimlar (background knowledge), shuningdek, tili o'rganilayotgan mamlakatning realiyalariga tegishlidir [9]. Motivatsiya talabalarning kasbga tayyorlash tizimida o'qitish sifatini oshirishning samarador vositasidir. «Agarda kerakli motivatsiya chet til o'qitish jarayonida shakllanmasa, unga ketgan vaqtni deyarli yo'qolgan deb hisoblash mumkin, nima o'rganilgan bo'lsa, u tezda esdan chiqadi, o'zining ta'limiy darajasini oshirish istagi esa, yo'q» – deb izohlaydi YE.I.Passov [10]. Motivatsiyani shakllantirishda va rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiya – shakliga ko'ra, noan'anaviy mashg'ulot va faollashtirish uslubiga ko'ra izlanish, muammoli vaziyatlarni hal qilishda mustaqil hamda erkin fikrlashdir. Zamonaviy texnologiya talabalarga chet tilda ham axborot olish axborot bera olish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Nolinoniy OTMda chet til o'qitishning ko'pgina yo'nalishlari va texnologiyalari mavjud bo'lib, bugungi talabadan nafaqat chet tilda muloqot qila olish, shuningdek, kelajakdagi kasbi bo'yicha ham maxsus bilimlarni egallash talab etiladi. Demak, chet til ta'limi jarayonida turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligiga olib keluvchi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси // Правда Востока. - Т., 2017. - 23 декабрь. - 248(28706)-сон. - Б. 2.
3. Jalolov J.J. Chet til oqitish metodikasi. - Т.: Oqituvchi, 2012. - 432 b.
4. Зимняя И.А. Психология обучения неродному языку. - М.: Русский язык, 1989. - 219 с.
5. Ляховицкий М.В. О некоторых базисных категориях методики обучения иностранным языкам // Иностранные языки в школе. - М., 1973. - № 1. - С. 27-34.
6. Pedagogika. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1 qism. Pedagogika nazariyasi. (5140000 - O'qituvchilar tayorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriyat yonalishi uchun darslik). - Т., 2010. - 399 б.
7. Иноят У.И., Муслимов Н.А. ва бошқ. Педагогика. - Т., 2016. - 576 б.
8. Рощина Е.В. Функции иностранного языка как учебного предмета в системе обучения в университете // Иностранные языки на неспециальных факультетах: Межвузовский сборник. - Л.: ЛГУ, 1978. - С. 3-6.
9. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. - М.: АРКТИ, 2000. - 165 с.
10. Пассов Е.И., Коросталев В.С., Кузовлев В.П. Цели и обучения иностранному языку на современном этапе // Иностранные языки в школе. - М., 1987. - № 6. - С. 29-34.

INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA AUTISTIK SPEKTRIDA BUZILISHLAR BO'LGAN BOLALAR MUAMMOLARI

Madjidova Dildora Abduxamidovna,

O'zPFIT bo'lim mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), k.i.x.

Annotatsiya. Maqolada inklyuziv ta'limning O'zbekistonda joriy etilishi, bu sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar tahlil qilingan. Shuningdek, autistik spektrida buzilishlari bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, turlari hamda statistik ma'lumotlar tahlili bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: inklyuziv ta'lim, inklyuzivlik, alohida ta'lim ehtiyojlari, autistik spektrida buzilishlar, autizm, rivojlanish, nutq, muloqot, idrok.

ПРОБЛЕМЫ ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВОМ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА В ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Маджидова Дилдора Абдухамидовна, *заведующий отделом УзНИИПН, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), с.н.с.*

Аннотация. В статье анализируется реализация инклюзивного образования в Узбекистане, перечислены задачи, определенные в принятых нормативно-правовых документах в этой сфере. Кроме того, описаны особенности, типы и статистический анализ данных детей с расстройствами аутистического спектра.

Ключевые слова: инклюзивное образование, инклюзивность, особые образовательные потребности, расстройства аутистического спектра, аутизм, развитие, речь, общение, восприятие.

PROBLEMS OF CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM DISORDER IN AN INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Madjidova Dildora Abdukhamidovna,

head of department UzRIPS, doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), assistant professor

Abstract. The article analyzes the implementation of inclusive education in Uzbekistan, the tasks defined in the adopted legal documents in this area. Features, types and statistical analysis of data from children with autism spectrum disorders are also described.

Key words: inclusive education, inclusiveness, special educational needs, autism spectrum disorders, autism, development, speech, communication, perception.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya muhitining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ushbu o'zgarishlardan biri inklyuziv ta'lim amaliyotini joriy etish va mustahkamlash bo'lib, u alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni birgalikda ta'lim-tarbiyasi, ta'lim jarayonida turli xil ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning mavjudligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'limning keng ko'lamli muammolarini hal qilish har bir o'quvchining qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan yangi yondashuvlarni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-sonli Farmoni, 2020-yil 13-oktyabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-

son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori asosida O'zbekistonda alohida ehtiyojli bolalarning umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya olishlariga imkoniyatlar yaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish» [1] ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Asosiy qism. Inklyuziv ta'lim (inglizcha inclusion – inklyuziya) – bu alohida bolaga qaratilgan innovatsion qadam, chinakam insonparvar ta'lim amaliyotini amalga oshirishni anglatadi. «Inklyuziv» yoki «inklyuzivlik» eng to'g'ri atama bo'lib, u quyidagicha talqin qilinadi: bu maktablarni isloh qilish va sinflarni istisnosiz barcha bolalarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan tarzda tashkil etish» [2, 35-b.]. Inklyuzivlik (inclusion so'zidan – kiritish) jamiyatdagi barcha fuqarolarning, birinchi navbatda, jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bor fuqarolarning ishtiroki darajasini oshirish jarayonidir. Rasmiy ravishda «inklyuziv ta'lim» atamasi Salaman deklaratsiyasida alohida ehtiyojli shaxslarning ta'lim sohasidagi tamoyillari, siyosati va amaliyoti hamda «Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya» bilan mustahkamlangan. Ushbu hujjatlarda inklyuziya har bir shaxsning farqli jihatlari va xususiyatlarini qo'llab-quvvatlaydigan islohot sifatida belgilanadi.

Inklyuziv ta'lim jismoniy, intellektual, ijtimoiy, hissiy, lingvistik yoki boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar, barcha bolalar uchun ta'lim sifatida talqin etiladi. Bunday ta'limning maqsadi nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy ajratishni va ularning bolalar bog'chasi jamoasi, maktab hayotida ishtirok etish imkoniyatini rad etish, ya'ni maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlar turli xilligini hisobga olgan holda barcha o'quvchilarning ta'lim olishda teng foydalanishini ta'minlashdir. Inklyuziv ta'lim samaradorligini belgilovchi shart-sharoitlar majmuasi orasida integrativ ta'limni tashkil etishning innovatsion modellarini, ta'limni tashkil etishning yangi shakllari va usullarini izlash va sinovdan o'tkazish alohida o'rin tutadi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2008-yilda 2-aprel – Xalqaro autizm muammosi haqida ma'lumot tarqatish kuni deb qabul qilingan bo'lib, shu vaqtdan boshlab bu kun har yili nishonlanib kelinmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har 88 bolaning biri autizm sindromi bilan dunyoga keladi. Bu ma'lumot 2012-yilda Autism Speaks tashkiloti tomonidan taqdim etilgan. Dunyo miqyosida esa, 67 milliondan oshiqroq inson autizm sindromiga ega. Ular orasida mashhur bo'lgan, dunyo tanigan insonlar ham bor [6].

Inklyuzivlik nogironligi bo'lgan bolalarni ta'lim muhiti, maktab muhitini har bir bolaning ehtiyojlariga moslashtirish, shu jumladan, ta'lim jarayonini isloh qilish yo'li bilan o'qitish muammosini hal qilishni o'z ichiga oladi: sinf xonalarini istisnosiz barcha bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun qayta qurish; bolaning rivojlanishidagi og'ish turiga, o'qituvchilarning psixologik va uslubiy tayyorgarligiga qarab zarur o'quv qo'llanmalari va h.k. [3, 6-b.].

Ilg'or pedagogik hamjamiyat normativ va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni birgalikda o'qitish ahamiyatini rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun ta'limni kengroq qamrab olish imkoniyati bilan belgilaydi, chunki ular uchun maxsus muassasalar juda kam; yopiq maktab-internatda bolalarni o'qitishda istisno qilinadigan oilaning ta'lim salohiyatidan foydalanish imkoniyati; alohida ehtiyojga ega bo'lgan bola o'qishni tugatgandan keyin ham yashashi kerak bo'lgan tashqi dunyo bilan aloqalar va

munosabatlarni o'rnatish imkoniyati; sog'lom bolalarda sinfdoshlarning jismoniy va aqliy nuqsonlariga bag'rikenglikni shakllantirish, o'zaro yordam tuyg'usini va hamkorlikka intilishni rivojlantirish, ichki ma'naviy dunyosini boyitish, muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish; rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'qitish amaliyotida qo'llaniladigan maxsus, o'ta samarali usul va uslublarni ommalashtirish imkoniyati, rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'qitishning o'ziga xos texnologiyalarini o'zlashtirish orqali o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi sifatini oshirish va hokazo. Shunday qilib, «inklyuziv ta'lim» atamasi ta'lim tizimi va nogironlarning jamiyatdagi o'rniga zamonaviy yondashuvni aks ettiradi [4, 6-b.].

Autizm – (grekchadan – o'zi, yakka degan ma'noni anglatadi) muloqot buzilishining so'nggi chegarasi sifatida talqin etilib, reallikdan o'z ichki kechinmalari dunyosiga chekinishni bildiradi. Bu atama ilk bor shveysariyalik psixiatr va psixolog E.Bleyler tomonidan kiritilgan bo'lib, psixik va xulqiy buzilishlarning yig'indisini anglatadi.

Odatda, autizmning aniq-ravshan namoyon bo'ladigan 3 ta sohasi ajratiladi: nutq va muloqot sohasi; ijtimoiy o'zaro munosabatlarga kirishish sohasi; hayol, hissiy sohasi.

Muloqotga kirishish va ijtimoiylashuv bilan bog'liq qiyinchiliklar, hissiy aloqalarni o'rnatish qobiliyatiga ega emaslik, nutq rivojlanishidagi buzilishlar autizmning asosiy belgilari sifatida tushuntiriladi, biroq ta'kidlash joizki, autizmga psixikaning har bir sohasining – aqliy va hissiy, ya'ni, idrok, motorika, diqqat, xotira, nutq kabi sohalarning anomal rivojlanishi xosdir. Psixik sohadagi buzilishlarning umumiylikiga qaramay, autizm sindromi turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. O.S.Nikolskaya, Ye.R.Bayenskaya, M.M.Libling tomonidan nashr qilingan «Autik bola: yordam berish yo'llari» kitobida [5] autistik spektrida buzilishlar bo'lgan bolalarni farqlashga oid turli yondashuvlarga misollar keltiriladi. Unga ko'ra, ingliz tadqiqotchisi, doktor L.Ving bunday bolalarni ularning ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatlariga ko'ra «yolg'iz» (muloqotga kirishishga intilmaydigan), «passiv» va «faol, biroq be'tibor» kabi turlarga ajratgan. Uning fikricha, ijtimoiy moslashuvga erishish imkoni ehtimoli yuqori bo'lgan guruh – bu «passiv» bolalar toifasidir [5, 26-b.]. Kitobning mualliflari ham autistik spektrida buzilishlar (ASB) bo'lgan bolalarni ularning olam bilan muloqotga kirishish olish va undan himoyalalanish usullariga ko'ra tasniflashni asos sifatida qabul qilishni taklif qiladilar.

Autizm namoyon bo'lishining asosiy 4 xil shakllarini ajratadilar:

1. Bo'lib o'tayotganlarga nisbatan butunlay befarqlik, borliqdan ajralganlik. Bu shakldagi autizm muammosiga ega bo'lgan bolalar ilk bolalik davrida o'zining rivojlanishidagi ko'pgina kamchiliklar va faoligidagi buzilishlarni namoyish etadilar. Keyinroq esa ular tashqi olam bilan faol tarzda muloqotga kirishishdan butkul bosh tortadilar. Bunday bolalar o'zgalarning chaqirig'i yoki murojaatiga javob qaytarmaydilar, o'zlari ham biron-bir narsani so'ramaydilar, ularda maqsadga qaratilgan xulq shakllanmaydi. Ular nutq va imo-ishora, belgilardan ham foydalanmaydilar. Bu – bolaning atrofida bo'lib o'tayotgan voqea-hodisalardan butkul ajralib qolishi va befarqligida namoyon bo'luvchi autizmning og'ir ko'rinishi hisoblanadi.

2. Faol tarzda rad qiluvchanlik. Bu guruhga xos bolalar nisbatan faolroq bo'lib, atrofdagilar bilan muloqotdan kamroq tortinadilar, biroq ularga olamning kattagina qismini qabul qilmaslik xosdir. Bunday bolalar uchun vujudga kelgan hayotiy odatlarga, belgilangan xatti-harakatlarga jiddiy tartibda rioya qilish katta ahamiyatga ega. Ularni doimo tanish muhit qurshab turishi zarur, shuning uchun ularning muammolari yoshi katta bo'lgan sari – uying ichki muhitidan boshqa tashqi muhitga chiqib, moslashishlari, yangi insonlar

bilan muloqot qilish zarur bo'lgan davrlarda zo'rayib boraveradi. Ularda turli xil harakatli odatlar kuzatiladi. Ular nutqdan foydalanishlari mumkin, biroq ularning nutqi rivojlanishi o'ziga xosdir: ular, avvalo, odatiy ma'lum bir so'zlarni qat'iy ravishda aniq bir vaziyat bilan bog'lagan holda o'zlashtiradilar.

3. Artistik qiziqishlarga moyillik. Bu guruhga xos bolalar turli xil nizo, mojaroli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi, o'zgalarning qiziqish va manfaatlarini hisobga olishni bilmasligi, bir xil tartibdagi mashg'ulot va qiziqishlarga berilib ketishi bilan farqlanadilar. Bu bolalar juda ham muloqotchan bo'lib, so'z boyligiga ega bo'ladilar. Biroq ular juda ham murakkab, adabiy so'zlar bilan gapiradilar, hatto ularning nutqlari kattalarning nutqlarini eslatadi. Ularning aqliy iqtidorlariga qaramay, tafakkurida buzilishlar bo'lib, ular vaziyatning mohiyati va tub ma'nosini his qila olmaydilar, bir vaqtning o'zida bo'lib o'tayotgan bir necha hodisalarning mazmunini idrok qilishga qiynaladilar.

4. Muloqot o'rnatishdagi va o'zaro munosabatga kirishishdagi qiyinchiliklar. Boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatlar o'rnatishda imkoniyatlarining yetishmasligi – bu guruhdagi bolalar uchun markaziy muammolardan biridir. Bu bolalar uchun harakatli ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklar xosdir, ularning so'z boyligi kam bo'lib, gaplari ham imloviy jihatdan noto'g'ri quriladi, ular oddiy ijtimoiy vaziyatlarga moslashishda qiyinchiliklar his qiladilar. Bu autizmning yengilroq bo'lgan shakllaridandir.

Xulosa. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, autizmning og'ir turi 1000 dan bir nafar bolada uchrashi mumkin. Kundalik hayotda, bolalar bog'chasi yoki maktabda, biz odatda faqatgina qaysidir bir alohida autik belgilari bo'lgan bolalarga duch kelishimiz mumkin. Qiz bolalarga qaraganda, og'il bolalar o'rtasida autizm 4-5 marotaba ko'proq uchraydi. Autizmning kelib chiqish sabablari ayni vaqtga qadar to'liq o'rganilmagan. Ko'pgina mualliflar buni homila vaqtidagi rivojlanish va tug'ilgandan ilk bolalik davridagi og'ir kasalliklarni boshdan kechirish bilan bog'laydilar. Autistik spektrida buzilishlar bo'lgan bolalarda odatdagidan ko'ra ko'proq miya disfunktsiyasi kuzatiladi, organizmda moddalarning biokimik almashinuvida buzilishlar mavjud bo'ladi. Autizm ko'pincha boshqa psixik buzilishlar bilan bog'liq kompleks muammo tarzida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni: <https://lex.uz/docs/5841063>

2. Айрес Э.Дж. Ребенок и сенсорная интеграция: понимание скрытых проблем развития. - М.: Теревинф, 2009. - 272 с.

3. Бардиер Г., Ромазан И., Чередникова Т. Я хочу! - СПб., 1993.

4. Барбера М.Л. Детский аутизм и вербально-поведенческий подход. - Екатеринбург: Рама Паблишинг, 2014. - 304 с.

5. Никольская О.С., Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребенок: пути помощи. - М.: Теревинф, 1997.

6. <https://archive.qalampir.uz/news/xayot-gullari-autist-bolalar-ular-mashxurlar-oilasida-xam-dunyoga-keladi-1539>

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIK XUSUSIYATLARI

Qaraxanova Lobarxon Musoxonovna, O'zPFITi «Tabiiy fanlarni o'qitish texnologiyalari» bo'limi mudiri, PhD, katta xodimi

Annotatsiya. Bugungi kun o'quvchilarining o'quv darsliklari, qo'llanmalarining zamonga mos ravishda takomillashishi bevosita o'quvchining bilim olish manbalari asosida o'z ustida ishlash, tadqiqot ishlariga qiziqish ko'nikmalarini rivojlanib borishiga sabab bo'lmoqda. Tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish haqida so'z ketganda, ko'p hollarda talaba shaxsi rivojlanishi bilan bog'liq tadqiqot ishlarida ko'zga tashlanadi. Lekin bugungi kunda umumta'lim maktablari o'quvchilari tomonidan amalga oshirigan kichik tadqiqot ishlarining samarali natijalari o'quvchilarda ham tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlab turibdi.

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayoni, biologiya, tadqiqotchilik ko'nikmalari, ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish, layoqat, qobiliyatni rivojlantirish, o'qituvchi mahorati, kichik loyihalarda ishlash, ta'lim shakllari, didaktik mazmun, amaliy mashg'ulotlar, sinfdan tashqari ishlar, tajriba ishlari, tirik organizmlar, o'simlik, hayvon, tiriklikni anglash, laboratoriya ishlari.

МЕТОДИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛ

Караханова Лобархон Мусохоновна, заведующая кафедрой «Технологии обучения естественным наукам» УзНИИПН, PhD, старший научный сотрудник

Аннотация. Современное совершенствование учебников и учебных пособий школьников напрямую ведет к развитию у них способности работать над собой, интересоваться исследованиями на основе источников обучения. Когда речь идет о развитии исследовательских умений, во многих случаях видны исследовательские работы, связанные с развитием личности учащегося. Но сегодня эффективные результаты небольших научно-исследовательских работ, проводимых учащимися общеобразовательных школ, подчеркивают необходимость развития у учащихся исследовательских умений.

Ключевые слова: учебный процесс, биология, исследовательские умения, научное исследование, направленность на научное исследование, компетентность, развитие способностей, педагогические умения, работа в малых проектах, учебные формы, дидактическое содержание, практическая деятельность, внеаудиторная деятельность, экспериментальная деятельность, живые организмы, растение, животное, осознание жизненности, лабораторная деятельность.

METHODOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF RESEARCH SKILLS IN STUDENTS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Karakhonova Lobarxon Musoxonovna, head of the department «Technology of teaching natural sciences of UzSRIPN», PhD, senior research fellow

Abstract. Modern improvement of the textbooks and manuals of today's students directly leads to the development of the student's ability to work on himself, to be interested in research based on the sources of knowledge. When it comes to research competence and competence, in most cases, research related to student personality development is prominent. But today, the effective results of small research works carried out by students of general education schools emphasize the need to develop research skills in students.

Key words: educational process, biology, research skills, scientific research, orientation to scientific research, competence, ability development, teaching skills, work in small projects, educational forms, didactic content, practical training, extracurricular activities, experimental work, living organisms, plants, animals, awareness of living things, laboratory works.

Kirish. Uzlüksiz ta'lim muassasalarida, ko'p hollarda oliy ta'lim talabalarida tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bevosita tadqiqotchilik ko'nikmalarining kompetensiyaga aylantirilishi ko'p ma'noda ta'lim jarayonida aniq maqsadlarning to'g'ri qo'yilishi bilan xarakterlanadi. Maktab o'quvchilarida fanni o'zlashtirish va bevosita undagi kichik loyihalarni bajarish texnologiyalari asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari hozirgi kunda o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Shu ma'noda ta'kidlash joizki, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida endilikda «Atrofimizdagi olam» va «Tabiatshunoslik» fanlari o'rniga kiritilgan «Tabiiy fanlar» darsligining asosiy qismi amaliy mashg'ulotlarni qamrab olgan. Bu fanning reja asosida belgingan ko'p mavzulari amaliy mashg'ulotlar tarzida tashkil etiladi. Amaliy mashg'ulotlarni bajarish nafaqat sinfda, balki uning davomi sifatida uy sharoitida ham bajarish imkonini yaratadi. Bu esa, o'quvchilarning darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ishlariga imkoniyat yaratadi. Ya'ni darsdagi amaliy ishlar bevosita o'quvchilar tomonidan mustaqil bajarilishi qaysidir ma'noda ularning kichik tadqiqot ishlariga tayyorlaydi desak adashmagan bo'lamiz. Xuddi shunday boshlang'ich sinflardan keyingi ta'lim bosqichida biologiyadan 6-sinflarda ham «Tabiiy fanlar» o'qitiladi. Darslarni o'zlashtirishda mavzularni kichik tadqiqotlar shaklida o'quvchilarga o'rgatilishi bevosita ularda talqiqotchilik ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi. Bu esa, biologiya darslarini o'zlashtirishni ilmiy-tadqiqotchilikka yo'naltirish imkonini yaratadi. O'quvchilarning sinfdan sinfga o'tish davomida ularning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning metodik mazmunini to'g'ri tashkil etish bosqichma-bosqich yuqori sinf o'quvchilarining mustaqil ishlarini, kichik loyiha ishlarini bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich kompetensiyaga aylanib borishini rivojlantirish bugungi kunda zaruriy muammo sifatida qabul qilish o'rinli ekan.

Asosiy qism. Umumta'lim maktablarining 9-sinflarida biologiya darslarining didaktik mazmuni tahliliga ko'ra, mavzular bilan birgalikda, 8-ta laboratoriya mashg'uloti va 3-ta amaliy mashg'ulot keltirilgan. Mazkur biologiya kursida bevosita organizmning xujayraviy shakllari, uning kimyoviy tuzilishi va xususiyatlari, genetik asoslari, modda almashinuvi va organizmlarning individual rivojlanishi bilan bog'liq nazariy bilimlarni o'zida aks etgan mavzular keltirilgan. Bu mavzularni o'rganish uchun o'qituvchi tomonidan hozirgi kunda juda ko'plab innovatsion ta'lim usullari va vositalari joriy etiladi. Yuqori sinf o'quvchilarini tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda bajarilgan tadqiqot vazifasiga ham bog'liq bo'ladi. Ya'ni har bir o'quv predmeti maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'quvchilarning qiziqishlarini qamrab oladi. Biologiya darslari ham o'quvchilarni ko'p tomonlama o'ziga jalb etadi. Yuqori sinf o'quvchilari 9-sinfda «Biologiya» fani doirasida tabiat bilan bog'liq muhim ilmiy ma'lumotlarni, ularni anglashdagi ilmiy dalillar va ularning mohiyatini tushunish bo'yicha mavzularni o'zlashirib boradilar.

O'quvchi ta'lim muassasasida ta'lim olish jarayonida tadqiqotchilik bo'yicha quyidagi bir qator ishlarni bajaradi: mustaqil ravishda laboratoriya mashg'ulotlarini bajaradi; tabiatda kichik tadqiqot ishlarini bajaradi; maktab tirik burchagida hayvonlarning yashash tarzini o'rganadi, tadqiq qiladi; tadqiqot mavzulari bo'yicha referatlar yozadi; kichik loyiha ishlarini bajaradi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida bunday texnologiya va usullarni joriy etish nafaqat o'quvchilarni mavzuni oson o'zlashtirishga yordam beradi, balki o'qituvchilarning o'quvchilarga individual yondashuvni tashkil etishni xizmat qiladi. Endilikda yangi ta'lim standartlari va o'quv darsturilari, darsliklar mazmuni bo'yicha o'quvchilar ko'proq o'z ustida ishlashga, amaliy mashg'ulotlarni sinfda va sinfdan tashqari ishlarda mustaqil tayyorlashga o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Shu ma'noda biologiya darslarida o'quvchilarni o'z ustida ishlashga o'rgatish davomida o'zlariga qiziqarli mavzuni tanlab olish va bevosita u bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish uchun kichik tadqiqotlar shaklida yo'naltiriladi. Bu shakldagi

kichik tadqiqotlar bevosita o'quvchiga axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanishning zamonaviy metodlarini egallashga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ba'zi bir metodlarini o'zlashtirishga, o'zining tadqiqotchilik pozitsiyasini aniqlashga, amalga oshirayotgan kichik tadqiqotini yana davom ettirishga, vaqt o'tishi bilan tadqiqotchilik ko'nikmasini kompetensiya darajasiga yetkazilishiga imkon beradi. Ta'lim bilan bog'liq adabiyotlarda kompetentlik tushunchasiga juda ko'p olimlarning tadqiqiy fikr-mulohazalari keltirilgan. Kompetensiya – bu egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va uni amaliyotda qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetentlik (lot: competens – layoqatli, qobiliyati bor) shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining uning ijtimoiy-professional mavqei va o'ziga tegishli vazifalar bajarish, muammolar hal qilishga yetariligi ham haqiqiy moslik darajasi hisoblanadi [1, 120-b.]. Tadqiqotchilik kompetensiyasi mohiyatini tushunish uchun olimlar tomonidan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning bir guruhi [2, 118-b.] tadqiqotchilik kompetensiyasi kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida qabul qilishni ta'kidlaydi, ikkinchi bir guruh mutaxassislar esa [1, 3], tadqiqotchilik faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bir butun majmuidir deb hisolashadi. Bu borada biz o'z tadqiqotimizda tadqiqotchilik jarayoni uchun quyidagi ishchi ta'rifni tavsiya qilamiz. Tadqiqotchilik kompetensiyasi deganda, biz tanlangan muammoni yechishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mustaqil bilishga yo'naltirilgan tadqiqotchilik jarayonida shakllanadigan shaxsiy ko'nikmalarni deyish mumkin. Tadqiqotning asosiy g'oyasi faoliyatning dolzarb ilmiy muammolarni ko'rish, shakllantirish va yechish, yangi ijodiy yechimlarni topish va ularni amaliy faoliyatga joriy etishga qobiliyatli o'quvchilarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatga jalb etish va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyat doirasida ularning uzluksiz innovatsion tayyorgarlik tizimini ishlab chiqishga qaratilgan. To'g'ri maktab o'quvchilarida ko'nikmalarni kompetensiya darajasiga aylantirilishi biroz qiyin masaladek tuyuladi, maktab o'quvchilarining bevosita tadqiqotchilik kompetensiyasini egallashi bosqichma-bosqich davom etadi. Ya'ni o'quvchi kichik tadqiqotlarni amalga oshirish davomida o'rganilayotgan obyektning tadqiqot etish uni mustaqil o'rganish, izlanish, adabiyotlarni o'qish, internet ma'lumotlarini saralash kabi ilmiy faoliyatga yo'naltirish o'qituvchi hamkorligida bajarilganligi bois, o'quvchi har doim o'qituvchisidan ma'naviy ko'makka va e'tiborga ehtiyoj sezadi. Shu ma'noda ta'kidlash joizki, tadqiqotchilik ko'nikmalari har bir sinf o'quvchilari orasida juda ko'pchiligini tashkil etmasligi mumkin, lekin shunday bo'lsada aynan fanga qiziqishi bo'lgan yoki tadqiqot qilishni xohlovchilar bo'lishi mumkin. Agar o'qituvchi tomonidan o'z tajribasi davomida o'quvchini to'g'ri yo'naltirilishi kelajakda o'quvchida fan doirasida sof bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, ularni real baholay olish, mantiqiy fikrlashi, axborotni saralash va foydalana olish ko'nikmalarini ham birgalikda samarali rivojlantiriladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'nikmalar o'quvchining egallagan bilimi va ko'nikmalarining rivojlanib borishi hisobiga kompetensiyaga aylanib boradi. Tadqiqotchilik kompetensiyasi kompetentlikning tarkibiy qismi hisoblanib, bevosita uning samaradorligini ta'minlaydi. Tadqiqotchilik kompetensiyasi o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi va pirovardida ulardagi intellektual, kommunikativ, loyihalovchilik ko'nikmalarni kompetensiyaga aylantirilishi uchun asos bo'ladi. Yuqori sinf o'quvchilari uchun tashkil etiladigan tadqiqotchilik ishlari tadqiqotchilik kompetentligini o'zgartirish xarakteriga ega va tadqiqotchilik faoliyatining muhim natijasi bo'lib, biologiya fani doirasida olgan bilimlarini kelajakda tanlamoqchi bo'lgan kasbi bilan moslashtirish imkoniyatlari yaratiladi, natijada tadqiqotchilikka yo'naltirish asnosida biz o'quvchini kasb tanlash ko'nikmasini ham rivojlantiramiz va uni kasbga yo'llashga o'z hissamizni qo'shamiz. Bundan kelib chiqib, umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha yo'nalishlar tizimi ishlab chiqiladi. O'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishni bir necha misollarni keltirish asnosida ko'rib chiqamiz. Ishning birinchi bosqichida (bu o'quv yilining sentyabr oyiga to'g'ri keladi) o'quvchilarning layoqatlarini va qobiliyatlarini

aniqlanadi, ya'ni ularning qo'yi sinfda o'qish jarayonida, umuman olganda, to hozirgi o'quv bosqichiga kelguniga qadar qanday tadqiqotchilik ishi bilan shug'ullanganligi haqida, ulardagi kichik loyihalarni bajara olish bo'yicha motivatsiyalari bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Shundan so'ng ularga umumiy o'rta ta'lim muassasasi ta'lim jarayonida ishtirok etishi yoki bevosita mustaqil bajara olishi mumkin bo'lgan quyidagi tadqiqotchilik faoliyati turlari to'g'risida tushuntirish ishlari o'tkaziladi: tadqiqotchilik loyihagini tayyorlash; fan doirasida mavjud fan oylıklarida ishtirok etish; respublika miqyosida o'tkaziladigan konferensiyalarda ishtirok etish; ma'lum bir yo'nalishda o'zi o'rganayotgan muammo bo'yicha maqola tayyorlash va chop etish; respublika va xalqaro miqyosdagi turli xil tanlovlarda ishtirok etish. Biologiyadan 9-11 sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini kompetensiyaga aylantirish maqsadida kichik loyihalar bajarish faoliyatiga jalb etish ishi bevosita biologiya o'qituvchilar tomonidan tadqiqotchilik ishlari mavzularini tanishtirishdan boshlanadi. Tanlangan mavzular natijalariga ko'ra har bir o'quvchi uchun individual reja tuziladi. Har bir loyiha asosida ishlayotgan o'quvchining individual rejalarasi asosida haftada bir marta uchrashtirish tashkil etiladi. Tadqiqotchilik ishini tashkil etish o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quvchining sinfdan tashqari mashg'ulotlarida va to'garaklardagi faoliyati hisobiga amalga oshiriladi. Lekin hozirgi kunda o'quvchilarning ilmiy faoliyatga yo'naltirish dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turgan bir vaqtda tadqiqot ishlari uchun alohida soatlar ajratish va bu borada o'qituvchilarning iqtidorli o'quvchilar bilan tashkil etilayotgan faoliyatini ham to'g'ri baholash va rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'quvchining tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlanib borishi turli tanlovlarda ishtirok etish, ta'lim faoliyatida to'g'ri motivatsiya olishga imkon beradi, axborotni mustaqil izlash, to'plash, qayta ishlash va undan foydalanish, yangiliklarni o'ziga xos metod asosida o'zlashtirish, tajriba so'nggida o'z fikrini mustaqil himoya qila olishda yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, kichik loyihalarda tadqiqot o'tkazish asosida axborotni mustaqil izlash, uni tahlil qilish, yangi bilimlarni olish maqsadida interpretatsiya qilish o'quvchidagi tadqiqotchilik ko'nikmasini bosqichma-bosqich kompetensiyaga aylanishidagi dastlabki ilmiy faoliyatning boshlanishi desak to'g'ri bo'ladi. Yuqori sinf o'quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning yana bir bosqichi – bu o'quvchini tadqiqot ishini yozishga o'rgatish, birinchi navbatda – o'z ilmiy ishi natijasi bo'yicha kichik ilmiy maqolalar yozish san'atini tushuntirish va amalga oshirishdir. O'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etishning bunday metodikasi, tadqiqotchilik ishi ko'nikmalarini egallash, o'z ishini taqdim eta olishga o'rgatish va pirovardida o'z-o'zini boshqarish, egallagan bilim, ko'nikmasini taqdimoti asosida real namoyish etishga o'rgatish ko'nikmasini rivojlanib borishiga imkon beradi. Zero, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini kompetensiya darajasigacha rivojlantirish, ularning ta'limning keyingi bosqichlarida ilmiy-tadqiqotchilik ishlariga jalb etish imkoniyatini yuqori darajada oshiradi deb kafolatlashimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. - Т., 2015.
2. Адольф В.А. Профессиональная компетентность современного учителя. - К.: КГУ, 1998.
3. Зеер Э.Ф. Обновление базового профессионального образования на основе компетентностного подхода // Профессиональное образование. - М., 2007. - № 4. - С. 9-10.

TA'LIM JARAYONIDA AKSEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING OBYEKTIV DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Fozilov Jamoliddin Kamoliddinovich, O'zPFITI tadqiqotchisi (DSc)

Аннотация. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida aksiologik yondashuv asosida obektiv dunyoqarashni shakllantirishda kasbiy mahorat va intellektual, ilmiy salohiyati, insonning zaruriy ravishda dunyoni anglashi, tushunishi, bilish jarayonlarining pedagogik ta'sir vositalari yoritib berilgan.

Таянч so'zlar: ta'lim, shaxs, rivojlanish, aksiologiya, dunyoqarash, jamiyat, intellekt, ijtimoiy munosabat, tasavvur, qadriyat, tafakkur.

ФОРМИРОВАНИЕ ОБЪЕКТИВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ УЧЕНИКОВ НА ОСНОВЕ АКСЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ – КАК АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА ПЕДАГОГИКИ

Фозилов Жамолiddин Камолiddинович, соискатель (DSc) УзНИИПН

Аннотация. В данной статье выделены профессиональные умения и интеллектуальный, научный потенциал в формировании объективного мировоззрения на основе аксиологического подхода в образовательном процессе, средства педагогического воздействия на необходимое осознание и понимание личностью мира, познавательные процессы.

Ключевые слова: воспитание, личность, развитие, аксиология, мировоззрение, общество, интеллект, социальная установка, воображение, ценность, мышление.

FORMATION OF AN OBJECTIVE WORLD VIEW BASED ON AXEOLOGICAL APPROACH IN THE EDUCATIONAL PROCESS AS A DOLZARB PROBLEM

Fozilov Jamoliddin Kamoliddinovich, researcher (DSc) of UzSRIPS

Abstract. In this article, professional skills and intellectual, scientific potential in the formation of an objective outlook on the basis of the axiological approach in the educational process, the means of pedagogical influence of the necessary understanding and understanding of the world, cognitive processes of a person are highlighted.

Key words: education, personality, development, axiology, worldview, society, intelligence, social attitude, imagination, value, thinking.

Kirish. Bugungi kunda rivojlanayotgan Yangi O'zbekiston jamiyati yuksak kasbiy mahorat va intellektual, ilmiy salohiyatga ega bo'lgan yoshlarga ehtiyoj sezmoqda. Mikrosotsiumga qadam qo'yayotgan har bir yosh ijtimoiy munosabatlar, ilmiy taraqqiyotga ziyraklik bilan qaray olishi va obektiv baholay olishi, yangiliklarni tez idrok eta olishi lozim. Dunyoqarash – bu odamlarning o'zlari haqidagi va ular yashayotgan dunyo (tabiiy va ijtimoiy) haqidagi intellektual, hissiy, ong osti, g'ayri ixtiyoriy va boshqa tasavvurlar majmuidir. Dunyoqarash – bu inson hayotiy faoliyatini ichki qonun yoki borliq normasi sifatida belgilaydigan ma'naviy elementlarning majmuidir. Ushbu tushunchaga yaqin talqinni ko'plab mualliflarda topish mumkin [1].

Asosiy qism. «Dunyoqarash – bu shaxs yoki ijtimoiy subyektning faoliyatini belgilaydigan va uning harakatlari va tafakkur me'yorlariga organik ravishda kiritilgan prinsiplar (qarashlar) va bilimlar, ideallar (oliy maqsad) va qadriyatlar, umidlar va e'tiqodlar,

hayotning mazmuni va maqsadlariga qarashlar tizimi. Dunyoqarash – bu shaxs va jamiyatning o'zini anglash shaklidir, bu orqali subyekt o'zining ijtimoiy mohiyatini anglaydi va uning ma'naviy va amaliy faoliyatini baholaydi. Bu borada ko'pgina olimlarning o'ziga xos qarashlari mavjud bo'lib, quyida ularni keltirib o'tish o'rinlidir: V.I.Shubin va F.E.Pashkov tomonidan «dunyoqarash – bu shaxs va jamiyatning o'zini anglash shaklidir, bu orqali subyekt o'zining ijtimoiy mohiyatini anglaydi va uning ma'naviy va amaliy faoliyatini baholaydi» [2] fikr tavsilya etilgan. Shuningdek, D.Guding nazarida «dunyoqarash – bu biz u yerda turli xil voqealar va faktlarni yozadigan katta tasmadir. Uni obyektivga ham solishtirish mumkin, bu orqali biz uni tushunish uchun dunyoga qarashga harakat qilamiz» [1] degan ma'noni anglash mumkin [3]. «Har qanday dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati bu «shaxsiyat» hamda «men emas», subyekt va obyekt, inson va dunyoni farqlash va anglashdir» [4] degan mazmundagi falsafiy fikrlar muallifi T.N.Fedorenko tomonidan bildirilgan.

Dunyoqarash bu, avvalo, insonning zaruriy ravishda dunyoni anglash tushunish bilishi natijasida yuzaga keladigan qarashlar sistemasidir. Dunyoqarash dunyoning inson ongida o'ziga xos in'ikosi bo'lib u insonning dunyoni va o'z-o'zini anglashning alohida shaklidir. Dunyoqarash insonning uni qurshab turgan dunyoga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan muayyan ko'maqlari bilimlaridir. Dunyoqarash shu bilan birga insonning dunyoni progressiv ilmiy g'oya tamoyil nazariyalarni himoya qilish va safarbar etish ma'lum darajada tushunishi anglashi bilishi baholashi va shular asosida amaliy o'zlashtirishi hamdir. U insonning dunyoni bir butun yoki turli-tuman holda ko'rishi idrok etishi tasavvur qilishi tushunishi insonning dunyodagi o'z o'rnini va rolini belgilashi hamdir. Dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Bu jihatdan har bir davrning har bir avlodining, har bir kishining, har bir millatning o'ziga xos dunyoqarashi bo'ladi. Dunyoqarashning boshqa bir o'ziga xos xususiyati shuki, unda falsafa huquq fan siyosat san'at din axloq va shu kabi ijtimoiy ong sohalari asosida qaror topgan ma'lum munosabatlar aks ettirgan va sintezlashgan bo'ladi. Har qanday falsafa dunyoqarashdir. Falsafa olamga va odamga nisbatan eng umumiy qarashlarning yig'indisi hisoblanadi. Lekin har qanday dunyoqarash falsafiy emasdir. «Dunyoqarash» tushunchasi «falsafa» tushunchasiga nisbatan kengroqdir. Dunyoqarash falsafadan tashqari yana afsonaviy, badiiy, diniy va boshqa qarashlarni ham o'z ichiga oladi. Aksariyat hollarda o'quvchi-yoshlarda ma'naviy-madaniy his-tuyg'ular, obyektiv dunyoqarash yetarlicha shakllanmaganligi ayon bo'lmoqda. Chunki ularning obyektiv dunyoqarashi muhim qarorlar qabul qilishlariga asos bo'ladi va bu dunyoqarash o'quvchilarga erkin tanlov imkoniyatini beradi. Obyektiv dunyoqarash o'quvchining nuqtai nazarini barqarorlashtiruvchi asosiy vositadir.

Hayotda shaxs sifatida mavjud bo'lish va faoliyat ko'rsatish, dunyoning istiqboldagi taraqqiyotini anglash va dunyo tamaddunini anglab yetish obyektiv dunyoqarashning mahsulidir. Obyektiv dunyoqarash tufayli o'quvchi dunyo manzarasi, uning taraqqiyot jarayoni, rivojlanish tendensiyalari, olamni yaxlit idrok etishga oid qarashlar tizimini anglab yetadi. Shu bilan bir qatorda, obyektiv dunyoqarash moddiy borliq va shaxsning ushbu borliq ichida mavjudligi haqidagi yaxlit tasavvuridir. Moddiy borliqning nechog'li chuqur va batafsil aks etishi shaxsning ilmiy-diniy dunyoqarashi ko'lamiga bog'liq. Obyektiv dunyoqarash shaxsning moddiy borliqni idrok etishi, dunyoqarashi, nuqtai nazar va olamga bo'lgan obyektiv munosabatini ifodalaydi. U shaxs chiqaradigan hukmning xarakterini belgilaydi, uning xulq-atvor va faoliyat yo'nalishini aniqlaydi. Shaxsning fikri, hissiyotlari obyektiv dunyoqarashi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi [5].

Ta'kidlash joizki, obyektiv dunyoqarash o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Xuddi shu bilimlar o'quvchilar tomonidan tadqiqotchilik faoliyati natijasida qayta ishlanadi va ijodiy o'zlashtiriladi. O'quvchida vujudga kelgan ilmiy nuqtai nazarning barqarorligi unda hosil bo'lgan obyektiv dunyoqarashning tadrijiyligi va izchilligini ta'minlaydi. Ana shu sababli o'quvchi-yoshlarni umuminsoniy madaniyat talablari asosida tarbiyalash, aksiologik yondashuv asosida ularning obyektiv dunyoqarashini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Akseologiya atamasiga va mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, akseologiya – qadriyatlar kelib chiqishi rivojlanishi qonuniyatlarini tahlil qilish asosida muayyan jamiyat uchun qadriyatlar tizimini yaratishda ishtirok etadi). Qadriyat juda keng ma'nodagi tushuncha, ya'ni kishilik jamiyati, taraqqiyoti va istiqloli uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy, ma'naviy hodisalar qadriyatlar jumlasiga kiradi. Fan qadriyatlari haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish uchun oldin qadriyatlarining mazmun-mohiyatini tushunib olish zarur. Jumladan, qadriyat so'zini tor ma'noda ayrim xalq, millat, elat yoki ijtimoiy guruhlarning tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan o'z manfaatlari va maqsadlari yo'lida xizmat qiladigan barcha qimmatdorliklar majmuini tushunmoq lozim. Demak, qadriyatlarga kishilik jamiyati, taraqqiyoti va istiqloli uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy, ma'naviy hodisalarni kiritish mumkin. Shuningdek, qadriyatlarni tarixiy yondashuv asosida o'rganilganda, qadriyatlar insonlarning hayotini tartibga solib turuvchi ma'naviy mezondir. Chunki qadriyatlarda inson uchun ahamiyatli bo'lgan predmetlar, shakllar, jarayonlarning o'ziga xos jihatlari aks ettiradi. Har qanday falsafiy nazariya yondashuv o'rnida ma'naviyat, aksiologik bilim, shaxs dunyoqarash, barkamollik, milliylik, umumbashariy muammolar, mehnat va umuminsoniy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi kabi masalalarni u yoki bu tarzda aks ettiradi.

Rus olimi L.N.Stolovich qadriyatlar asosida qadriyatli ong yuzaga kelishi va uning vazifasi qadriyatli orientatsiya va qadriyatli tanlovni shakllantirishdan iborat ekanligini e'tirof etadi. Uning fikricha, qadriyatli onging to'rtta darajasi mavjud: dastlabki – qadriyatli baho (hissiy va ratsional), ikkinchi daraja – baholash faoliyati, uchinchi daraja – baholash faoliyatining anglangan mezon – ideal, to'rtinchi daraja – insonning olamga qadriyatli munosabatini ratsional umumlashtirish. Qadriyatli onging aynan ana shu yuqori darajasi inson ongida ilmiy qadriyatlarini ifoda etishini anglatadi. Demak, qadriyatlar moddiy, ijtimoiy ma'naviy davrlarda jamiyat va insonning manfaatlari va ehtiyojlari uchun katta ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, «Qadriyat narsa va buyumlarning qimmatiga nisbatan qo'llanilmasdan, balki inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqealikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar hamda boshqalarning qadriyatini ifodalash uchun ishlatiladigan kategoriyadir» [3]. Bugungi globallashuv jarayoni fanning qadriyatga aylanib borishini taqozo etadi.

Aksiologik yondashuv asosida o'quvchi-yoshlarda obyektiv dunyoqarashni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish zaruriyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan ilmiy asoslash talab etiladi. Bunday yondashuv qadriyatlarga, ular bilan bog'liq jarayonlarga nisbatan qo'llanilganida yaxshi ilmiy va amaliy natija beradi. Bunda qadriyatlar tartibsiz namoyon bo'ladigan va bir-biri bilan bog'lanmagan ijtimoiy hodisalar sifatida emas, balki u yoki bu davr, ijtimoiy subyektlar va boshqalar bilan bog'langan aksiologik sistemalar hamda ularning elementlari sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Qadriyatlarga bunday yondashishda ijtimoiy fanlarning yutuqlari, tarix, etnografiya, demografiya va sotsiologik tadqiqotlarning natijalariga tayanish qo'l keladi. Ammo qadriyatlarini o'rganishda faqat ana shular bilan chegaralanib qolish yaramaydi.

Balki reallik, uni namoyon bo'lish shakllari, voqea, hodisa va jarayonlarning qadri, ijtimoiy ahamiyatini anglash ham nihoyatda muhim. Bunda ularning ijtimoiy funksiyalari, o'ziga xos tashqi ta'sirini anglash katta ahamiyat kasb etadi. Faqat aksiologik yondashuv asosida qadriyatlarining ilmiy kategoriya sifatidagi mohiyati, boshqa tushunchalardan farqi, obyektiv asoslari va subyektiv anglab olinishi, namoyon bo'lish shakllari haqida to'g'ri ma'lumotlar olish mumkin. Bunda narsa, voqea, hodisalar, kishilar va ularning faoliyatiga qadr va qadrlanish darajasi nuqtai nazaridan qaraladi. Bunda quyidagi ustuvor vazifalarni hal etilishi zarur deb hisoblaymiz: globallashtirish jarayonida uzluksiz ta'lim subyektlarining intellektual va ma'naviy salohiyatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, ko'nikma, malakalari, egallagan kompetensiyalari o'rtasidagi nomutanosiblik; o'quvchi-yoshlarda obyektiv dunyoqarashni shakllanirish va rivojlantirish o'z-o'zidan yuzaga kelmasligi, balki doimiy ravishda olib boriladigan pedagogik faoliyat natijasida shakllantirilishi va bu jarayon aksiologik yondashuv asosida tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik mexanizm sifatida ko'rib chiqilmaganligi; aksiologik yondashuv asosida o'quvchi-yoshlarda obyektiv dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning ilmiy asoslangan samarali shakl, vosita va metodlarini qo'llanilishiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Yuqorida keltirilgan vazifalarni hal etish yo'llarini izlab topish tadqiqotning asosiy vazifalaridan bo'lib, aksiologik yondashuv asosida o'quvchi-yoshlarda obyektiv dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish strategiyalarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar:

1. Гудинг Д., Леннокс Д. Мировоззрение. - Я.: Свет, 2000. - 302 с.
2. Шубин В.И., Пашков Ф.Е. Культура. Техника. Образование. - Д.: Дело, 1999. - 309 с.
3. Бибихин В.В. Предисловие к работе Хайдеггера «Основные понятия метафизики» // Вопросы философии. - М., 1989. - № 9. - С. 109-115.
4. Федоренко Т.Н. Мировоззрение как категория философии и феномен сознания. - К., 2000. - 315 с.
5. Кувакин В.А. Твой рай и ад: человечность и бесчеловечность человека (философия, психология и стиль мышления гуманизма). - СПб.-М.: Алетея, Логос, 1998. - 360 с.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ

Муслимов Шерзод Нарзулла угли, докторант УзНИИПН, PhD, доцент

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические условия, определяющие успешность процесса формирования графической компетентности у будущих учителей технологии: мотивационно-ценностного, когнитивного, операционно-деятельностного и рефлексивного; интеграция творческо-графической и профессионально-педагогической подготовки будущих учителей технологии; организация мониторинга формирования графической компетентности у будущих учителей технологии на всех этапах обучения в высших учебных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: формирование, графическая компетентность, будущие учителя технологии.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA GRAFIK KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Muslimov Sherzod Narzulla o‘g‘li, O‘zPFITI doktoranti, PhD, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarida grafik kompetentsiyani shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydigan pedagogik sharoitlar muhokama qilinadi: motivatsion-qiyamat, kognitiv, operatsion-faoliyat va aks ettirish; bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy-grafik va kasbiy-pedagogik tayyorgarligini birlashtirish; bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarida grafik kompetentsiyani shakllantirish monitoringini tashkil etish oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning barcha bosqichlarida amalga oshadi.

Tayanch so‘zlar: shakllantirish, grafik kompetentlik, bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisi.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF GRAPHIC COMPETENCE IN FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS

Muslimov Sherzod Narzullaev ugli, doctoral of the UzRIPS, PhD, associate professor

Abstract. This article discusses the pedagogical conditions that determine the success of the process of formation of graphic competence of future teachers of technology: motivational-value, cognitive, operational-activity and reflexive; integration of creative-graphic and professional-pedagogical training of future teachers of technology; organization of monitoring the formation of graphic competence of future teachers of technology at all stages of training in higher educational institutions

Key words: formation of graphic competence of future teacher of technology.

Введение. Произошедшие изменения в содержании образования высшей педагогической школы Республики Узбекистан усиливают проблему процесса формирования графической компетентности у будущих учителей технологии. Сегодня обществу нужен новый педагог, гибко мыслящий, способный к творческому освоению профессии и овладению динамично развивающимися достижениями науки, техники и передового опыта.

Основная часть. Рассматривая специфику графической деятельности будущих учителей, следует отметить многообразие ее видов: проектирование, констру-

ирование, моделирование, рационализация, изобретательство. Это указывает на необходимость создания таких условий, которые бы способствовали формированию графической компетентности у будущих учителей в учебном процессе, при которых реализовались бы все этапы творческого процесса – подготовка проекта, работа над ним, материальное воплощение замысла. Многие исследователи под педагогическими условиями понимают совокупность объективных возможностей, обстоятельств и мер, которые сопровождают образовательный процесс [1].

На основе обобщения результатов исследования к числу наиболее значимых педагогических условий, определяющих успешность процесса формирования графической компетентности у будущих учителей технологии отнесены: обеспечение взаимосвязи компонентов структуры формирования графической компетентности: мотивационно-ценностного, когнитивного, операционно-деятельностного и рефлексивного; интеграция творческо-графической и профессионально-педагогической подготовки будущих учителей технологии; организация мониторинга формирования графической компетентности у будущих учителей технологии на всех этапах обучения в высших учебных образовательных учреждениях.

Первое педагогическое условие – обеспечение взаимосвязи компонентов структуры формирования графической компетентности: мотивационно-ценностного, когнитивного, операционно-деятельностного и рефлексивного.

Мотивационно-ценностный компонент формирования графической компетентности включает: осознание ценности творчества как феномена общественно-исторической практики; осознание значения творческо-конструкторской деятельности как вида общественно-полезной деятельности по преобразованию окружающей природной и предметной среды, созданию социально значимых материальных ценностей; осознание ценности образовательного и воспитательного потенциала обучения учащихся творческо-конструкторской деятельности в различных формах трудовой и профессиональной подготовки.

Когнитивный компонент формирования графической компетентности будущего учителя технологии определяет систему общепедагогических, методических, специально-предметных знаний как множество связанных между собой элементов, представляющих определенное целостное образование.

В содержание операционно-деятельностного компонента формирования графической компетентности будущего учителя технологии входят гностические, проектировочные, конструктивные, организационные и коммуникативные умения.

Рефлексивный компонент структуры формирования графической компетентности будущего учителя технологии включает в себя: личностную включенность в рефлексивно отображаемую учебную ситуацию, что проявляется в осмыслении своей причастности и ответственности за результаты деятельности учащегося; конструирование и адаптацию учебного материала в соответствии с возможностями учащегося; прогнозирование его возможных затруднений; стимулирование его самостоятельных действий при решении творческо-конструкторской задачи.

Второе педагогическое условие – интеграция графической и профессионально-педагогической подготовки будущих учителей технологии. Одной из важнейших предпосылок формирования графической компетентности будущего учителя технологии является изучение дисциплин, входящих в состав этой специальности: «Основы конструкторско-технологической деятельности», «Методика трудового

обучения», «Методика организации творческой технической деятельности», «Методика решения технических задач», «Психология творчества». Изучение предметных дисциплин в их совокупности со спецкурсами, практикумами и факультативными курсами позволяет обеспечить необходимый для будущего учителя уровень графической подготовки.

Третье педагогическое условие – организация мониторинга формирования графической компетентности будущего учителя технологии на всех этапах обучения в высших учебных образовательных учреждениях.

Вывод. Для определения эффективности влияния педагогических условий, созданных нами для повышения уровня формирования графической компетентности будущего учителя технологии, мы применили диагностирование, приоритетными методами которого являлись: метод экспертной оценки, наблюдение, изучение результатов деятельности студентов (рефераты, проектная деятельность), письменные и устные опросы (анкеты, тесты, опросы), индивидуальные и групповые беседы.

Литература:

1. Андреев В.И. Педагогика. - Казань: Центр инновационных технологий, 2000. - 608 с.
2. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Сыманюк Э.Э. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход. - М.: МПСИ, 2005. - 216 с.
3. Набатова Л.В., Гайнеев Э.Р. Творческо-конструкторская деятельность студентов как средство формирования критического мышления // Среднее профессиональное образование. - М., 2009. - № 8. - С. 22-24.

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MEDIATA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI: XALQARO VA MILLIY TAJRIBA**

Taylakova Shaxnoza Norbekovna, O'z JOKU kafedra mudiri, PhD, dotsent

Annotatsiya. Ta'limning yangi yo'nalishi, bir so'z bilan aytganda, ommaviy axborot va kommunikatsiya sohasidagi ta'lim bu – mediata'limdir. Mediata'lim termini tor mazmunda ta'limning umummadaniy tarkibiy qismi sifatida qo'llaniladi. U umumiy ta'limning maqsadlariga muvofiq keladi. Mediata'lim so'zining sinonimi sifatida pedagogikada mediamadaniyat va axboriy madaniyat so'zlari ham qo'llaniladi. Bugun axboriy madaniyat va mediasavodxonlik o'ta dolzarb masala hisoblanadai. Maqolada aynan umumta'lim maktablarida mediata'limni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni atroficha tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: umumiy o'rta ta'lim, mediata'lim, axborot madaniyati, mediasavodxonlik, ommaviy axborot vositalari, pedagogik yondashuvlar.

**РОЛЬ СМИ В РАЗВИТИИ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ
В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ
И НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОПЫТ**

*Тайлакова Шахноза Норбековна, заведующий кафедрой УЖМК Уз,
PhD, доцент*

Аннотация. Новым направлением образования, одним словом, образования в области массовой информации и коммуникации является медиаобразование. Термин медиаобразование используется в узком контексте как общекультурный компонент образования. Это соответствует целям общего образования. В педагогике слова медиакультура и новостная культура также используются как синонимы слова медиаобразование. Сегодня новостная культура и медиаграмотность считаются очень актуальными вопросами. В статье подробно анализируется роль средств массовой информации в развитии медиаобразования в общеобразовательной школе.

Ключевые слова: общее среднее образование, медиаобразование, информационная культура, медиаграмотность, средства массовой информации, педагогические подходы.

**THE ROLE OF THE MEDIA IN THE DEVELOPMENT OF MEDIA EDUCATION
IN SECONDARY SCHOOLS: INTERNATIONAL AND DOMESTIC EXPERIENCE**

Tailakova Shakhnoza Norbekovna, head of department in UJMCUz, PhD, dosent

Abstract. A new direction of education, in a word, education in the field of mass media and communication is media education. The term media education is used in a narrow context as a general cultural component of education. This is in line with the goals of general education. In pedagogy, the words media culture and news culture are also used as synonyms for the word media education. Today, news culture and media literacy are considered very topical issues. The article analyzes in detail the role of the media in the development of media education in secondary schools.

Key words: general secondary education, media education, information culture, media literacy, mass media, pedagogical approaches.

Kirish. Zamonaviy odam bolaligidanoq ulkan axborot oqimiga duch kelmoqda. Hali ham ma'lumotni filtrlay olmagan, faktlarni fikrlardan va sof axborot targ'ibot materiallaridan ajrata olmaganligi sababli, bola ommaviy axborot vositalarining ta'siriga moyil. Bu bolalar auditoriyasi uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan ommaviy axborot vositalarining jamiyat uchun alohida ahamiyatini anglatadi, ularning asosiy vazifasi shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvini amalga oshiradigan ijtimoiy mas'uliyatdir.

Asosiy qism. YuNESKO Mediata'lim deklaratsiyasini 1982-yilda qabul qilgan. Unga ko'ra, «Mediata'lim medianing barcha turlari (bosma, grafik, ovozli, ekranli va boshqalar) va turli texnologiyalar bilan chambarchas bog'langan. U insonlarga ommaviy kommunikatsiyadan ijtimoiy ongda qanday foydalanishni tushunish, boshqa odamlar bilan kommunikatsiya paytida mediadan foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirish kabi bilimlarni beradi. Shuningdek, quyidagi malakalar ham shakllantiriladi: mediamatnlar tahlil etish, tanqidiy qarash va yaratish; mediamatnlarning manbalarini, kontekstda ularning siyosiy, ijtimoiy, tijoriy yoki madaniy qiziqishlarini aniqlash; media tarqatayotgan mediamatnlar va ularning ahamiyatini izohlash; o'z shaxsiy mediamatnlarini yaratishga muvofiq keluvchi o'zga mediamatnlarni tanlash va unga qiziquvchi auditoriyani topish; mediaga ochiq kirish yo'li imkoniyatini qo'lga kiritish» [1, 39-b.].

Mediata'lim shaxsning axborot olish va tarqatish huquqining bir qismi. YuNESKO tomonidan mediata'lim dunyoning barcha mamlakatlari ta'lim tizimlari milliy o'quv rejalariga joriy etishni tavsiya etiladi. Hozirgi kunda Yevropa davlatlari, AQSh, Avstraliya va Rossiya singari mamlakatlarda mediata'lim majburiy fan sifatida ta'lim tizimiga kiritilgan. Rostov davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi I.V.Chelisevaning «Metodika i texnologiya media obrazovaniya v shkole i vuze» [2, 67-b.] nomli monografiyasining o'quvchilar va talabalar auditoriyasida mediata'lim darslarini tashkil etish, mediata'lim jarayonining shakllari, usullari va texnikasi bo'limida mediata'limni o'rganishda davriy nashrlar ahamiyati borasida shunday misol keltirilgan: «OAV manbalarini jalb qilgan holda darsda ishlashning yana bir qiziqarli shakli davriy matbuotdagi ilmiy-texnikaviy maqolalarni ko'rib chiqish bo'lishi mumkin. Muntazam ravishda, u yoki bu ilmiy ommabop jurnallar nashr etilishi bilan maktab o'quvchilari auditoriyani og'zaki yoki yozma (referat yoki ijodiy ish shaklida) eng qiziqarli nashrlar bilan tanishtiradilar. Keyinchalik bu ishlar maktab devoriy gazetasida chop etilishi mumkin».

«Mediata'lim» so'zi MDH davlatlari hududiga o'tgan asrning 80 yillarida kirib keldi. Inglizcha «media education» so'zini shunchaki so'zma-so'z tarjima qilish yaramaydi. U matndagi o'rniga ko'ra turli ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Shunga qaramay, medata'limning tayanch tushunchasini aniqlab olishimiz kerak. A.A.Jurin ularni uch turga bo'lgan: 1) Ommaviy axborot vositalarining bolalar va o'smirlarga ta'sirini o'rganuvchi va nazariy masalalarini ishlab chiquvchi, ta'lim oluvchilarni OAV dunyosi bilan uchrashuvga tayyorlovchi pedagogik fan. 2) Bolalar va o'smirlarni ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, medianing dunyodagi rolini tushunishga tayyorlovchi o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi amaliy faoliyati. 3) Ta'limning ommaviy axborot vositalarining madaniyat va dunyoni tushunishdagi roli haqida bilim beruvchi va media axborotlari bilan samarali ishlash ko'nikmasini shakllantiruvchi qismi [3, 24-b.].

Hozirgi vaqtda media'talim bir qator fanlarni (pedagogika, sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik) o'zida mujassam etgan, ommaviy kommunikatsiya qonuniyatlarini va turli ijtimoiy guruhlar tomonidan media resurslardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganuvchi fanlararo soha sifatida belgilanadi.

Rossiyada bolalar uchun 200 dan ko'p nomda gazeta va jurnal chop etilmoqda. Shuning uchun ham Rossiya bolalar nashrlari tipologiyasida nashrlar tarqatilish masshtabi bo'yicha bir nechta guruhga bo'linadi: Rossiya bo'ylab tarqatiladigan nashrlar, MDH davlatlari va yaqin xorijiy mamlakatlar bo'ylab tarqatiladigan nashrlar («Пионер», «Мы», «Штучка», «Путеводная звезда», «Круто», «Tom i Djerri» va h.k. jurnallar); Rossiya va MDH davlatlari bo'ylab tarqatiladigan nashrlar («Мурзилка», «Маруся», «Бумеранг», «Молоток», «Браво», «Yes!» va h.k. jurnal); faqat Rossiya bo'ylab tarqatiladigan nashrlar («Для самых-самых маленьких», «Карпуз» va h.k. jurnallar); mintaqa bo'ylab rus va milliy tillarda, ko'p hollarda ikki tilda chop etiladigan nashrlar (bugungi kunda Rossiyada 90 ta ana shunday jurnal chop etilmoqda. Ular orasida Cheboksarida chuvash tilida chiqadigan «Тангаш» («Tengdosh»), Saranskda mokshan tilida chop etiladigan «Якстер Тяштеня» («Qizil

yulduzcha»), Vladikavkazda osetin tilida chiqadigan «Nogdzau» («Pioner»), Elistada qalmoq va rus tillarida chop etiladigan «Bair» («Quvonch»), Qozonda tatar va rus tillarida bosiladigan «Sabıyǵ'a» («Bolajon») va boshqa jurnallar bor. Garchi mazkur oylik adabiy-badiiy bolalar jurnallari 2-3 ming nushada chop etilsa-da, matbuot bozorida o'z o'rniga ega); Rossiya Federatsiyasining alohida hududiy birliklari bolalariga mo'ljallangan viloyat (bunday nashrlar har bir viloyatda ikkitadan sakkiztagacha bor) va tuman hamda shahar nashrlari (Caviloyatida chiqadigan «Znayka», Volgograd viloyatida chop etiladigan «Новая улitsа» jurnallari) va h.k. nashrlari mavjud. Bundan tashqari, biror bir o'quv yurti, masalan, maktab, litsey, gimnaziya, kollej, texnikumlar muassisligida chop etiladigan bolalar nashrlari ham o'ziga xos o'ringa ega. F.M.Dostoevskiy bir marta o'ziga shunday savol beradi: «Olamni yovuzliksiz, biroq bolalarsiz qabul qila olish mumkinmi? Va shunday javob beradi: Yaxshisi hammasi o'z holicha qolsin, lekin bolalar bilan bo'lsin. Bolalar – dunyodagi be'maniliklarni va yovuzlikni muvozanatda ushlaydi. Insonda buyuk, oliyanob qobiliyat bor – bu kelajakda sodir bo'lish-bo'lmasligidan qat'iy nazar kelajak haqida o'ylashdir. Nega? Chunki kelajakda bizning farzandlarimiz yashaydi. Bolalar bu dunyoning abadiy mavzusidir. Ular hamisha insoniyatning asosiy tashvishi, fikr va umid markazida bo'lgan» [4, 55-b.]. Hozirgi zamon bolalarini internet tarmoqlari, hususan, Telegram, Instagram, Facebook va, ayniqsa, You tudedan mutlaqo ajratishni iloji bo'lmasligini hisobga olgan holda, jurnalda ushbu tarmoqlarda bolalar uchun qiziqarli va asosiysi aniq axborotlarga ega kanal va sahifalarni ma'lum qilib borish, ushbu kanal va sahifalar bilan hamkorlik qilish ijobiy ijodiy muhit hosil qilish ehtimoli bor. Zamonaviy bolalar qo'llaridagi gadjet orqali ma'lumot olishga ko'nikkan bo'lsa, aynan ana shu gadjetlar yordamida ularni bosma nashrlarga qaytarish, eng to'g'ri yo'l bo'lishi mumkin. Bugungi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlarning OAVda bolalarning huquqlari muntazam ravishda yoritilib kelinmoqda. 1999 yilning noyabr oyida Norvegiyaning Oslo shahriga OAV xodimlari, jurnalistlar, bola huquqlari bo'yicha ekspertlar to'planib, OAV butun dunyoda bola huquqlari rivojlanishiga qanday hissa qo'shishi mumkin, degan savolga javob izladilar va bu borada 5 ta yo'nalishni belgilab oldilar. Bu yo'nalishlar quyidagilar: bolalarning OAVga, shu bilan birgalikda yangi OAVda qatnashish huquqi; bolalarning OAVda ta'lim olish huquqi; bolalarning OAVga ega bo'lish huquqi; bolalarning OAVdan kelayotgan zarardan himoyalash huquqi; OAVning bolalar huquqlarini himoyalash va rag'batlantirishdagi roli.

Bolalarning OAVdan kelayotgan zarardan himoyalash huquqi punkti aynan bolalar mediata'limining funksiyalari orqali amalga oshiriladi. Bolalarga ma'lumot tarqatuvchi bolalar nashrlarining bu huquqni poymol qilgan taqdirida javobgarlikka tortilish ehtimoli mavjudligini tasdiqlaydi. OAVda bolalarning qanday yoritilishi boshqalarda ularga nisbatan shunday munosabatning shakllanishiga turtki bo'ladi. Aynan OAV bolalar masalalarini ijobiy yoki salbiy hal qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. OAVda aksariyat holatlarda bolalar passiv, indamas qurbonlar sifatida tasvirlaydi. Bolalar va o'smirlarning o'zlarining nomlaridan gapirishga imkon berish OAVda ular nima istashlari, o'zlarining yutuqlari, o'ylantirayotgan masalalari haqida fikrning shakllanishiga sabab bo'ladi. Xalqaro jurnalistlar federatsiyasining xabariga ko'ra, bolalar obrazlarini shakllantirishda OAV aksariyat holatlarda bir xil afsonadan foydalanadilar [5, 43-b.]. Bular: o'z individualigi va insoniyatini yuqotgan, rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qilayotgan oilalarning ahvoli, qashshoqlikda yashayotgan bolalar, urush va tabiiy falokatlar qurbonlari [6, 36-b.]. O'zbekiston umumta'lim maktablarida «Tarbiya» fani bilan mediata'limni integratsiyalash samarali bo'lishi mumkin. O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida esa, mediata'limdan foydalanish samaradorligini oshirishga maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, litsey, kasb-hunar kolleji, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda biz qanday natijalarga erishishimiz mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolaning yoshi va rivojlanishidan kelib chiqib, mediani turlarga ajratishga o'rgatish: verbal – ko'rish va kuzatish: turli multfilmlar, bolalar

uchun dasturlar va ko'rsatuvlarning asl mohiyatini tushuntirish; noverbal – eshitayotgan axborotlari: ertak, afsona, hikoya va she'rlarining mazmunini sharhlash; audiovizual – radiodasturlar, ovozi yozib olingan disklardagi ma'lumotlarni bolalarga tushunarli tarzda, real hayot bilan bog'lab sharhlab berish [7, 56]; ushbu media turlariga mansub axborotlarni tarbiyaviy ahamiyatini to'raligicha, soddalashtirilgan holda bola ongiga yetkazish, eng muhimi bolani real hayot va vizual olamning farqini anglashga o'rgatish zarur.

Boshlang'ich va o'rta (5-6) sinflarda: media shakllari va vositalarini tanlay olish (masalan, fotografiya, rasmlar, jurnal illustrasiyalarini tanlash va farqlash); vizual matn yoki qisqa syujet rejasini tuzish va aniqlash (fotografiya, video, komiks, ertak, kompyuter grafikasi va h.k.) o'z medialoyihasi taqdimotini tayyorlash va taqdim etish [8, 45-b.].

Maktabning yuqori sinflarida: surat asosida turli syujetlar yaratish (surat shakli va elementlarini o'zgartirgan holda); mavjud mediamatnlaridan foydalanish yuzasidan qarorlar qabul qilish (fotografiya, video, matbuot va h.k.), o'z qarorlarini muhokama qilish va asoslab berish; o'z medialoyihasini bajarish va taqdim etish.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari: maxsus matnlar va «xabarlar» jo'natish shakllari va texnologiyalaridan foydalanish asosida tajribalar o'tkazish; mediamatnlar tuzish va rejalashtirishda turli texnikadan foydalanish, natijani aniq va tanqidiy tahlil qilish; maxsus auditoriyaga mo'ljallangan mediamahsulotlarni o'sha auditoriya qanday qabul qilishini oldindan ko'ra olgan holda yarata olish; o'z medialoyihasini bajarish va taqdim etish. 8 yil avval masalaga konkret taklif berilganiga qaramay, muammo hali hanuz dolzarb va hal etilmaganicha qolmoqda.

Xulosa. Umumta'lim maktablarida mediata'limni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni bugun mustaqil shaxslar uchun turli-tuman mavzudagi gazeta jurnallar soni ko'p. Bilimga tashna, oqni qoradan ajrata olmaydigan yoshdagi bolalar uchun esa, narhi hamyonbop, mazmuni oltinga teng ilmlardan iborat bolalar davriy nashrlari esa, sanoqli ekani eng dolzarb muammoning o'zidir. Bolalarni fikrlashga undash faqatgina badiiy adabiyot bilan cheklanmasligi lozim.

Adabiyotlar:

1. Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO // Education for the media and the digital age. - Vienna: UNESCO, 1999.

2. Чельшева И.В. Методика и технология медиа образования в школе и вузе. - М.: Директ-медиа, 2013.

3. Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы // Медиаобразование. - М., 2005.

4. Лебедева А.Э. Приобщение детей к чтению классики как международная социальная и педагогическая проблема. - М., 1999.

5. Права ребенка и журналистика. Практический аспект: опираться на права: Учебная программа, одобренная региональным офисом ЮНИСЕФ по Центральной и Восточной Европе и Содружеству Независимых Государств (ЦВЕ/СНГ). - Дублинский технологический институт: UNICEF, 2007.

6. Qosimova N., Toshpo'latova N. O'zbekiston OAV da bolalar mavzusining yoritilishi: O'quv qo'llanma. - T., 2014.

7. Бэээлгэт К. Ключевые аспекты медиаобразование: Доклад на российско-британском семинаре по медиаобразованию. - М., 1995

8. Федоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность: Учебное пособие для вузов. - М., 2007.

INTERFAOL TA'LIM TURLARI VA UNING SHAKLLARI

Taylakova Dilnoza Norbekovna, *Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi «Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari» kafedrasi mudiri, PhD*

Annotatsiya. Maqolada interfaol o'yinlarning ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishi hamda interfaol mashg'ulotning maqsadi ochib berilgan. Shuningdek, muallif interfaol o'yinlarning funksiyalarni aytib o'tgan.

Tayanch so'zlar: *interfaol o'yinlar, funksiya, mashg'ulot, struktura, omil, predmetlarning o'yinli qo'llanilishi, real munosabatlar, texnologiya, samaradorlik.*

ВИДЫ ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ И ЕГО ФОРМЫ

Тайлакова Дильноза Норбековна, *заведующая кафедрой «Педагогика, психология и образовательные технологии» Национального центра подготовки учителей по новым методикам города Ташкента, PhD*

Аннотация. В статье раскрывается эффективное применение интерактивных игр в образовательном процессе, а также цель интерактивного обучения. Кроме того, автор упомянул о функциях интерактивных игр.

Ключевые слова: *интерактивные игры, функция, обучение, структура, фактор, игровое применение объектов, реальные отношения, технология, эффективность.*

TYPES OF INTERACTIVE EDUCATION AND ITS FORMS

Taylakova Dilnoza Norbekovna, *Head of the department «Pedagogy, psychology and educational technologies» of the National center for training teachers in new methods in Tashkent, PhD*

Abstract. The article reveals the effective application of interactive games in the educational process, as well as the purpose of interactive training. Also, the author mentioned the functions of interactive games.

Key words: *interactive games, function, training, structure, factor, playful application of objects, real relationships, technology, efficient.*

Kirish. Bugungi kunda interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish davrning asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish yuqori saviyada o'qitishni ta'minlash va malakali kadrlarni zamonaviy ta'lim dasturlari asosida tayyorlashdan iborat.

Asosiy qism. Interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish obyekti – barcha uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari bo'lib, unda amalga oshiriladigan asosiy ta'lim-tarbiya jarayonlari hisoblanadi. Talabalarning bilimga ehtiyojlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi o'qituvchi faoliyatini va mas'uliyatini oshiradi. Pedagogika sohasiga kirib kelayotgan yangiliklar, pedagogik texnologiyalar va inovatsiyalar zamonaviy yetuk kadrlarni pedagogik tarbiyalashda asos bo'lib xizmat qiladi.

«Pedagogik texnologiya» atamasi ikki xil ma'noda qo'llanilmoqda: 1. Zamonaviy texnika, elektron hisoblash mashinasi, kompyuter, audial, vizual asboblarni ta'lim-tarbiya

jarayoniga qo'llab samaradorlikni oshirish. 2. Ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o'rganish, qayd etish yo'llari bilan o'qituvchining kafolatlangan natijaga erishishni ta'minlash. Ta'limning kafolatlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko'rinadiki, natija maqsadga qancha yaqin bo'lsa, o'quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta'limning zamonaviy texnik vositalari va ilg'or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo'lib, ikkinchi talqin, ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o'rganish, qayd etish yo'llari bilan o'qituvchining kafolatlangan natijaga erishishini ta'minlash. Bunda ta'lim-tarbiya jarayoni quyidagi ketma-ketlikda loyihalashtiriladi: 1. Ta'lim-tarbiyani yuqori darajada samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilash. 2. Ta'lim-tarbiya natijasini oldindan qayd etish. 3. O'quv mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zarur ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlash. 4. Oldindan qayd etilgan, aniq kafolatlangan natijaga erishish uchun zarur tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdan iborat.

Ko'pgina asosiy interfaol usullar bugun o'qitishning interaktiv usullarini qo'llash bilan bog'liqdir. Interaktiv so'zi ingliz tilidagi «interakt» so'zidan olingan bo'lib, inter – bu o'zaro, akt – harakat qilish degan ma'noni bildiradi. Interaktiv o'zaro harakat qilish yoki nima bilan (masalan, kompyuter bilan) yoki kim bilan (odam bilan) suhbat, dialog (muloqot) rejimida bo'lishni bildiradi. Demak, interaktiv o'qitish – bu hammadan avval dialogli o'qitishdir, uni borishida pedagog va o'quvchining, o'quvchi va kompyuterning o'zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Aytib o'tish kerakki, interaktiv o'qitish – bu idrok etish faoliyatini tashkil qilishning maxsus shaklidir. U butunlay aniq va bashorat qilinadigan maqsadlarni nazarda tutadi. Bunday maqsadlarning biri o'qitishning shunday qulay sharoitlarini yaratishni, ularda o'quvchi o'zini muvaffaqiyatliligi, o'zini aqliy mustaqilligini his qiladi, interaktiv o'qitishning mohiyati shundan iboratki, unda o'quv jarayoni shunday tashkil qilinadiki, amalga barcha o'quvchilar idrok etish jarayoniga jalb qilinadilar, ular tushunish va bilganlari va o'ylaganlari bo'yicha refleks hosil qilish imkoniyatlariga egalar. O'quv materialini idrok etish, o'zlashtirish jarayonidagi o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati shuni bildiradiki, ularda har biri o'z alohida shaxsiy ulushini kiritadi, bilimlar, g'oyalar, faoliyat usullarini almashtirish ketadi. Inson o'zligini namoyon qilishi, uning takomillashuvi usulidir. Mashg'ulotlarda interfaol o'yin orqali bola: dunyoni anglaydi va real muammolarga duch kelganda ularni yecha oladi. Tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirisha oladi. Madaniy tushunchalarni anglashga o'rganib boradi. Boshqalarning hissiyotlarini tushunishga o'rganib boradi.

Pedagogning vazifa va mas'uliyatlaridan biri bolaning o'rgangan narsalarini qiyoslashi va mustahkamlashi uchun yangi narsalarni o'rganishi uchun ma'noli o'yinlarni uyushtirishdan iborat. Interfaol o'yin strukturasi quyidagi jarayonlar kiradi: o'yinchilar o'zlariga olgan rollar. Bu rollarni amalga oshirish vositalar sifatidagi o'yinli omillar predmetlarning o'yinli qo'llanilishi, ya'ni haqiqiy narsalarni o'yinli shartlari bilan almashtirish. O'yinchilar orasidagi real munosabatlardir.

Interfaol o'yinlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Ijtimoiylashtirish funksiyasi. O'yin bolani ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shilish uchun kuchli vositadir.

2. Millatlararo kommunikatsiya funksiyasi. O'quvchiga umuminsoniy qadriyatlar, boshqa millatlarning madaniyatini o'zlashtirish imkonini beradi. Chunki o'yinlar milliy va shu bilan bir vaqtda internatsional va millatlararo.

3. O'yinda o'zini namoyon qilish funksiyasi, ya'ni o'yin inson amaliyotining poligoni sifatida.

4. Kommunikativlik funksiyasi.

5. Diagnostik funksiyasi.

6. O'yinning terapevtik funksiyasi. U bolaning hulqida, muammosida va mashg'ulotlarda paydo bo'ladigan turli xildagi qiyinchiliklarni yengish vositasi sifatida foydalanishda namoyon bo'ladi.

7. Tuzatish (korreksiya) funksiyasi. Shaxsiy strukturasi ko'rsatkichlari ijobiy o'zgarishlar qo'shimchalar kiritish.

8. Ko'ngilochar funksiyasi. O'yinli pedagogik texnologiyalar. O'yin o'qitish metodi, bosh avlodning tajribasini kichiklarga uzatish sifatida qadimdan beri foydalanib kelgan.

Interfaol mashg'ulotning maqsadi: mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish; muammoli, vaziyatli, amaliy va hayotiy topshiriqlarni bajarish; fikrlashga majbur etish; faollashtirish; tashkilotchilik va yo'naltiruvchanlikka undash.

Interaktiv o'qitish jarayoni an'anaviy mashg'ulotdan farqli o'laroq bir qancha metodologik qirralar ustunligiga ega. Bu, avvalambor, o'quvchilarning mashg'ulot qoidalarini ishlab chiquvchi pedagog va bir-biri bilan faol, emotsional tUSDagi munosabatlariga ega bolalarning ish jarayoniga asoslanadi. Interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish shaxsning ta'lim markazida bo'lishi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari barcha innovatsion texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ularni amaliy faoliyatida qo'laydigan hamda biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilari innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni bilishlari lozim. Shundan kelib chiqib, interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirishning amaliy ahamiyati yuqori bo'lib, ta'lim-tarbiyani yuksalishida muhim o'rin tutadi. Har bir o'qituvchi ta'lim jarayonida, albatta, pedagogik innovatsion, axborot informatsion, muammoli ta'lim, interfaol va masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bilan birga, o'quvchilarning ham faolligini oshiradigan amaliy ahamiyatga ega bo'lgan o'yin texnologiyalarini qo'llay olishi lozim.

Barcha pedagog-o'qituvchilar o'z faoliyatlarida quyidagi interfaol ta'lim texnologiyalarni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olish belgilarini namoyon eta olishlari lozim: o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish; ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglashga yo'naltirilgan yangi kasbiy tafakurni shakllantirish; o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash; o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlariga yaqinlashtirilgan uslublar tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash.

Interfaol ta'limni qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron ta'lim resurslaridan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish amaliy ahamiyatini mustaqil ta'lim jarayonida tinglovchi kasbiy faoliyati natijalarini va talabalar uchun yaratilgan o'quv-metodik resurslarini elektron portfolio tizimiga kiritib borishi lozim. Zero, shunda o'quvchilar

innovatsion ta'lim texnologiyalariga oid nazariy bilimlarni mustaqil ravishda o'qib-o'rganish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Demak, innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy meyorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan meyorining yuzaga kelgan meyor bilan to'qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga yo'naltirilgan faoliyat sanaladi. U shaxsning, xususan, pedagogning innovatsion jarayonni tashkil etishga tashkiliy-texnologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorligi hisobiga tashkil etiladi. Pedagogik innovatsiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berish orqali ta'lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi hamda u ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi.

Fikrimiz shundan iboratki, o'qituvchi faoliyatining asosini dars tashkil etadi. Ta'lim jarayonining samaradorligini belgilash hamda maqsadga erishishning eng maqbul yo'li va usuli metodni tanlash bilan belgilanadi.

Xulosa. Ta'lim jarayoniga interfaol usullarni qo'llashda o'qituvchi ta'lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo'lib, bunda boshqaruv maqsadi ta'limning obyekt va subyekt sifatida o'quvchiga yo'naltiriladi. Demak, pedagogik texnologiya, ta'lim mazmuni usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltiriladi.

Adabiyotlar:

1. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши: Методик қўлланма / Тузувч.: Д.РФзиева, М.Усмонбоева, З.Холикова. - Т.: ТДПУ, 2013. - 136 б.
2. Асранов С. Янги педагогик технологиялар ва уларнинг имкониятлари // Замонавий педагогик технологияларнинг ташкилий ва илмий-методик муаммолари: Умумий-амалий анжуман материаллари тўплами. - Т., 2005.
3. Махмудова Д.Б. Ўқувчиларни касбга йўналтиришга оид педагогик фаолият элементлари орасидаги узвийлик ва узлуксизликни таъминлаш / Халқ таълими. - Т., 2017. - 1-сон. - Б. 54-59.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ РАЗВИТИЯ РЕЧИ

Нажмиддинова Гулноза Одилевна, PhD, и.о.доцента ТГПУ

Аннотация. В данной статье раскрыта педагогическая проблема работы по воспитанию детей дошкольного возраста посредством развития у них речи в дошкольных образовательных организациях. Приведены различные примеры воспитания ребёнка посредством развития его речи в дошкольном возрасте для того, чтобы его социальная адаптация к человеческому миру состоялась и прошла безболезненно.

Ключевые слова: *развитие, интеллект, задача, навык, мышление, форма, заинтересованность, успешность, готовность, игра, образование, формирование.*

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA NUTQINI RIVOJLANTIRISH ORQALI TARBIYA BERISHINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Najmiddinova Gulnoza Odilovna, TDPU dotsent v.b., PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha ishlarning pedagogik muammo sifatida tahlili ochib berilgan. Bolaning kattalar dunyosiga moslashishi va bun davrni og'riqsiz bo'lishi uchun maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalashning turli namunalari keltirilgan.

Tayanch so'zlar: *rivojlanish, intellekt, vazifa, ko'nikma, tafakkur, shakl, qiziqish, muvaffaqiyat, tayyorgarlik, o'yin, ta'lim, shakllantirish.*

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH THE DEVELOPMENT OF THEIR SPEECH

Najmiddinova Gulnoza Odilovna, PhD, associate professor of TSPU

Abstract. This article reveals the pedagogical problem of work on the education of preschool children through the development of their speech in preschool educational organizations. Various examples of raising a child through the development of his speech at preschool age are given in order for his social adaptation to the human world to take place and be painless.

Key words: *development, intellect, task, skills, thinking, form, interest, success, readiness, game, education, formation.*

Введение. По инициативе Президента Республики Узбекистан в сентябре 2017 года было создано Министерство дошкольного образования Республики Узбекистан. С этого момента начался отсчет нового периода в развитии системы дошкольного образования. В период с 1991 по 2017 годы в стране сложившаяся система управления дошкольным образованием не позволяла эффективно и своевременно устранять системные проблемы, разрабатывать и внедрять инновационные подходы, наблюдались несоответствия между демографическими тенденциями и состоянием инфраструктуры дошкольных образовательных организаций.

Основная часть. Основным условием усиления политической и экономической роли Узбекистана, повышения благосостояния её населения является обеспечение роста конкурентоспособности страны. Главное конкурентное преимущество высокоразвитой страны связано с возможностью развития её человеческого потенциала, который во многом определяется состоянием системы образования,

где находится источник обеспечения устойчивого экономического роста страны. Перед детьми от одного до трех лет встает задача постижения огромного окружающего мира и приобретения самых необходимых навыков. Процесс становления личности и ее нравственной сферы не может быть ограничен возрастными рамками. Он продолжается и видоизменяется всю жизнь. Как известно, старший дошкольный возраст отличается повышенной восприимчивостью к социальным воздействиям. Ребенок, придя в этот мир познает способы общения, поведения, отношения и использует для этого собственные наблюдения, делает выводы и умозаключения, подражает взрослым. Развиваясь путем проб и ошибок овладевает элементарными нравственными нормами жизни в человеческом обществе. Однако самостоятельный путь освоения нравственных норм не всегда эффективен и недостаточно обеспечивает освоение глубины морали. Поэтому роль взрослого как «социального проводника» очень важна и ответственна. Задача педагога – определить, чему, как и когда учить ребенка, чтобы его адаптация к человеческому миру состоялась и прошла безболезненно, определить какой механизм должен быть положен в основу педагогического воздействия.

Начальной ступенью формирования человеческого потенциала выступает дошкольное образование, поскольку известно, что наиболее высокие темпы развития, проявление индивидуальности происходит именно в дошкольном возрасте. Здесь закладывается фундамент личности, интенсивно формируются базовые социальные установки, основы мировоззрения, привычки, развиваются познавательные способности, эмоционально-волевая сфера, складываются многообразные отношения с окружающим миром. Билингв как носитель двух языков и культур обладает особой структурой личности, что делает актуальным изучение проблемы развития личности в билингвальном пространстве социума. Соответственно, чем раньше ребенок включается в межкультурное билингвальное взаимодействие, тем более эффективно происходит освоение второго языка. Для ребенка дошкольного возраста характерна отличительная черта – гибкость языка, которая способствует усвоению второго языка без затруднений. Формирование и развитие билингвизма в детском возрасте, когда процесс усвоения языков протекает естественно, может впоследствии оказать гармонизирующее влияние на поведение человека в области общественных отношений. Реализация такой глобальной задачи возможна при обеспечении целостного культурно-диалогического развития детей в условиях двуязычия. Стандартизация средств выражения является одной из ведущих признаков поставленной речи информационного и общественно-политического жанра. Следует отметить факт тяготения стандарта речи информационного и общественно-политического жанра к фразеологизации, чему способствует серийность, повторяемость.

Одной из важных проблем социолингвистики на современном этапе развития языкознания является определение основных особенностей современной языковой ситуации, кардинальных тенденций их динамики. При анализе обширного материала, как социальные функции государственных языков разных стран, вполне возможны широкие выводы и значительные обобщения. Измерение социальных функций языков и сравнение реального уровня функций с ценностными ориентациями народов-носителей языков с их предпочтениями могут дать добротный материал для объективной оценки разных типов языковых и билингвальных ситуаций в

регионах, а также для прогнозирования социальных последствий проведения в жизнь законов о языках в разных регионах. В результате разностороннего исследования билингвизма текущего периода мы пришли к следующим выводам и обобщениям, которые имеют важное теоретическое и практическое значение. Поскольку язык является составной частью национальной культуры, реальное содержание двуязычия, в первую очередь, отражает лингвокультурные и психологические ценности и ориентиры его носителя, а затем оно само влияет на них. По нашему мнению, исходя из современной языковой и билингвальной ситуации в различных регионах, можно дать такое определение двуязычия: билингвизм – это результат межкультурного взаимодействия различных культур народов, одна из форм адаптации совершенно иной или родственной языковой культуры. Рассматриваемая разновидность устной литературной речи и диалекта, в аспекте становления и развития двустороннего билингвизма является предметом исследования.

Анализ звуковой системы даёт основание полагать, что степень проявления интерференции зависит от того, насколько данная звуковая система находится в зависимости от звуковой системы родной речи. Фонологический контрастивно-сопоставительный анализ вскрывает возможное, потенциальное поле интерференции в звучащей речи. Однако для определения причин и глубины проявления интерференции недостаточен только фонологический анализ, так как фонологическая тождественность звуков не всегда является предпосылкой правильной, нормированной литературной речи на втором языке, т.е. парадигма конкретной фонемы, реализуемой в речи, родного языка не всегда совпадает с парадигмой фонемы второго языка. Условия проявления той или иной фонемы в речи могут совпадать полностью или частично, или не совпадать совсем. При полном совпадении парадигмы фонем обоих языков обычно фонетическая интерференция не имеет места, если функционирование какого-либо члена парадигмы не обусловлено другими фонетическими факторами, не имеющими аналогий в контактирующих языках. В системе вокализма на решающее влияние оказывает качественная редукция гласных звуков, а в системе консонантизма – фонематическая реализация коррелятивных согласных по признаку мягкости-твёрдости. Фонетическая интерференция различных видов вызывается также комбинаторными различиями, в частности, сочетанием гласных с мягкими согласными и скоплением согласных в начале слов.

Использование индивидом или коллективом людей двух языков в качестве средства общения людей, орудия выражения их мыслей и чувств; социолингвистический, который четко определяет критерии и имеет свой собственный социолингвистический статус, к числу которых мы относим следующие: наличие двух и более наций, народностей и их представителей на данной территории; наличие двух языков, служащих средством общения людей; наличие различных демографических и социальных групп; способ овладения вторым языком индивидом, коллективом, группой людей, народом; направление действия контактирующих языков в той или иной двуязычной общности людей; степень охвата носителей одного народа тем или иным типом двуязычия; ареал распространения двуязычия; степень активности проявления двуязычия в городской и сельской местности; психолингвистический, учитывающий: 1) лексико-грамматические и грамматические категории в первичном и вторичном языках; 2) языковые категории, не свойственные родному языку, но существующие во втором языке; 3) лексико-грамматические и

грамматические категории, присущие родному языку, но отсутствующие во вторичном языке и языковом сознании носителей последнего; лингвокультурологический, выражающийся в том, что каждый язык имеет свой способ концептуализации окружающей действительности.

Отсюда заключаем, что каждый язык имеет особую языковую картину мира, и языковая личность обязана организовывать содержание высказывания в соответствии с этой картиной; педагогический, учитывающий разработку лингвометодических основ усвоения второго языка, изучение условий возникновения двуязычия, функционирования родного и второго языков, ментальности видения мира этносом, знания психологии усвоения неродного второго языка, позволяющее разработку методики взаимосвязанного преподавания контактирующих языков. Системный характер языка наиболее четко и последовательно проявляется при овладении грамматическим строем второго языка. На первом этапе овладения языком влияние системы родного языка и родной речи является решающим в проявлении множественного характера интерференции. На втором этапе системность языка вызывает явление саморегуляции: усвоенные правильные навыки и умение порождения речи на втором языке, образуя свою собственную систему, начинают оказывать влияние на продуцирование новых правильных речевых клише и стереотипов, речевых произведений. На первом этапе овладения вторым языком саморегуляция речи находится под воздействием системы родного языка, а на втором этапе, при более высокой ступени двуязычия, сказывается преимущественное влияние системы второго языка, то есть на втором этапе усвоенные стереотипы второязычной речи оказывают сопротивление влиянию системы родного языка. В силу воздействия системности языка и саморегуляции во второй изоглоссе интерференция носит нерегулярной и экстенсивный характер, так как модели и стереотипы правильно построенного высказывания вовлекают в свою орбиту новые модели и стереотипы из арсенала второго языка.

Вывод. В заключении следует отметить, что перед языковедами стоят большие задачи по исследованию нерешённых проблем языковых контактов современного периода, в том числе актуальнейшее значение имеет исследование билингвистических языковых контактов в аспекте становления двустороннего билингвизма в регионе, а также лингвокультурологических концептов контактирующих языков в аспекте исследуемой проблемы.

Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан УП-5198 «О мерах по коренному совершенствованию управления системой дошкольного образования» от 30 сентября 2017 года.
2. Нажмиддинова Г.О. Issues of the development of connected speech in children 5-7 years old with a differentiated approach to learning // Scopus. Pal Arch's Journal of archaeology of Egypt/Egyptology. 2020. No. 6. 12.03. P. 8927-8933.

OILADA MAKTABGACHA YOCHIDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHDA SUHBAT METODINING AHAMIYATI

Abdullayeva Masuda Abdubannaevna, NamDU dotsenti, p.f.n.,
Abdullayeva Nilufar Sodiqjanovna, NamDU oq‘ituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila muhitida maktabgacha yochidagi bolalar nutqini o‘stirishda suhbat metodini ahamiyati nomliy maqolada ota-ona bolalar bilan munosabatlarda mehr, shavqat, xushmuomula, sevgi bo‘lishi, hech qanday pedagog-psixolog maslahati bolani tarbiyalash uchun yordam bera olmasligi hamda bolani qobiliyatli bo‘lganligi, aql-idroki, iste’dodi, go‘zalligi uchun emas, balki uning borligi uchun sevish kerakligi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: munosabat, mehr, xushmuomula, pedagog, psixolog, bola, tarbiya, shavqat, ta’sir, e’tibor.

ЗНАЧЕНИЕ БЕСЕДЫ В РАЗВИТИИ РЕЧИ ДОШКОЛЬНИКОВ В СЕМЬЕ

Абдуллаева Масуда Абдубаннаевна, доцент НамГУ, к.п.н.,
Абдуллаева Нилуфар Садикжановна, преподаватель НамГУ

Аннотация. В данной статье раскрывается проблема значения использования словесного метода в развитии речи детей дошкольного возраста в семье и о том, что родители должны быть добрыми, сострадательными, дружелюбными, любящими в отношениях с детьми и в противном случае педагогико-психологическая коррекция не будет эффективной и не сможет помочь в воспитании ребенка. О важности частого использования таких фраз, как: ты способный, умный, талантливый, старательный.

Ключевые слова: отношение, доброта, вежливость, воспитатель, психолог, ребенок, воспитание, сострадание, влияние, внимание.

THE IMPORTANCE OF CONVERSATION METHOD IN DEVELOPING THE SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE FAMILY

Abdullayeva Masuda Abdubannaevna, docent of NamSU,
Abdullayeva Nilufar Sodiqjanovna, teacher of NamSU

Abstract. In this article the importance of the interview method in the development of the speech of preschool children in the family environment, the importance of kindness, passion, politeness, love in the relationship between parents and children, that no pedagogues-psychologist’s advice can help to raise a child, and that the child is capable, it is highlighted that you should love not for your intelligence, talent, beauty, but for your presence.

Key words: attitude, kindness, politeness, educator, psychologist, child, upbringing, compassion, influence, attention.

Kirish. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy jabhalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida oila masalasiga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Albatta, bu bejiz emas, chunki porloq ertamizning tamal toshlari oilada qo‘yiladi. Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari ilk hayotiy tushunchasi va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bir qancha rivojlangan davlatlarda avj olgan COVID-19 infeksiyasi O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. Shu sababli yurtimizda pandemiya karantini joriy qilinishi boshqa sohalar singari maktabgacha ta’lim tizimi hamda ushbu sohada faoliyat olib borayotgan barcha rahbar xodimlarni, professor-

o'qituvchilarni, pedagog-tarbiyachilarni hamda maktabgacha yoshdagi farzandlari bor ot-onalarni ham birdek tashvishga soldi. Shu sababli bolalarni tarbiyalash bo'yicha tavsiyalarni boshlashdan avval e'tiboringizni tarbiyaning asosini tashkil qiluvchi har bir bolaga bo'lgan muhabbatga qaratmoqchimiz.

Asosiy qism. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish vazifalari. Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehri, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qayg'u, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat o'zgariganligi sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotning yangi shakli – qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, o'yin, predmetlar va o'yinchoqlar bilan tajriba o'tkazish, qog'ozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qo'shilib ketgan, so'ngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bog'liq bo'lmagan bilish mavzularidagi «nazariy» muloqot ko'rinishiga ega bo'ladi. Bolalarning katta yoshli odam bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojining qondirilmashligi ular o'rtasida emotsional jihatdan begonalashuvga olib keladi. U turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: ba'zi bolalar indamas, hurkak, arzimagan narsaga ham yig'lab yuboruvchi bo'lib qoladilar; boshqalari esa, negativizm, tajovuzni namoyon qilishadi. Bola hayotining to'rtinchi yilida tengdoshi uning uchun, eng avvalo, birgalikdagi amaliy faoliyat (rasm chizish, narsa yasash, tuzish va h.k.) ishtirokchisi, o'yindagi sherik sifatida qolaveradi. Bola tengdoshiga eng oddiy talablar, iltimoslar bilan murojaat qiladi va tengdoshining harakatiga baho beradi. Besh yoshli bolalar tengdoshlarining hadeb u yoki bu narsani so'rab, jonga tegishini salbiy baholaydi. Besh yoshga kelib, tengdoshlari bilan muloqotga va ular bilan bolalar jamiyatini vujudga keltiradigan birgalikdagi o'yinlarga bo'lgan ehtiyoj keskin ortadi. Bola hayotining beshinchi yiliga kelib, u o'z tengdoshlari o'rtasida o'z o'mini anglay boshlaydi. Kommunikativ qo'nikma rivojlanadi: bola salomlashadi va xayrlashadi, do'stini ismini aytib chaqiradi, to'rt-besh yoshlarga kelib — sherigini u o'ynayotgan rol nomi bilan chaqiradi («hoy, shofyor, arqon g'ildirakning tagiga tushib ketdi»).

Uch yashar bola nutqini rivojlantirishga oid vazifalar: bolaning imkon doirasi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishishi, kattalarning savol va takliflariga javob berishi, o'z istak xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifoda qilgan holda tashabbus ko'rsatib fikr bildirishga intilishini qo'llab-quvvatlang; tengdoshlari ishlariga qiziqishi, o'z taassurotlarini ular bilan o'rtoqlashishni istashi, o'yin harakatlari, ro'y berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga qiziqishini rag'batlantirish; bolangizning lug'at zahirasini kishilar, o'simliklar, oziq-ovqatlar, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari, o'yinchoqlar, narsa-buyum qismlari (ko'ylak yengi, cho'ntaklari va yoqasi; mashina eshigi va g'ildiragi kabilar) nomlari bilan boyitib boring. Gapda so'zlarni bir-biriga to'g'ri bog'lashni (masalan, «Kecha boraman» emas, «Bugun boraman») o'rgatishga alohida e'tibor bering; bolalarni unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaff qilishga o'rgating.

Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning metodik masalalari. Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti to'laqonli ijtimoiy rivojlanishning muhim shartidir. Shundan kelib chiqqan holda, bolada muloqotga intilish, muloqot bo'yicha sheriklarining talabiga javob berish, ijtimoiy jihatdan o'zini tutishga moslashuvchanlik va xushmuomalalilik kabi xislatlarni tarbiyalamoq zarur. Kattalar (ota-onalar, pedagoglar) shuni tushunishlari lozimki, qator holatlarda salbiy muloqot tajribasi bolani biron-bir harakatga undamaydi, balki bolani insoniy munosabatlar olamida o'zini ko'rsatishdan «aynitadi», himoya mexanizmlari – o'zi bilan insoniy olam o'rtasidagi «devor», atrofda olamni «ko'rmaslik» paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin: bola odamlar haqidagi savollarga javob bermaydi, suratlarda odamlarni «ko'rmaydi», odamlar va hayvonlarni tasvirlovchi o'yinchoqlar bilan o'ynamaydi. Muloqotdan faol bosh tortayotgan bolaning dunyosiga qo'pol aralashish salbiy oqibatlarga va tajovuzga

olib keladi. Salbiy kechinmalar cho'qqisida o'ziga nisbatan tajovuz tug'uladi. Bolaga oilada va maktabgacha ta'lim muassasasida psixologik jihatdan qulay bo'lishi, uning kattalar va tengdoshlari o'rtasida emotsional jihatdan qulay muhit yaratish, ular bilan o'zaro munosabatlardan quvonch va zavq olishlari uchun quyidagilar zarur: bolaga kattalar va tengdoshlarining turli emotsional holatdagi hissiyotlari va kechinmalari olamini ochib berish; bolaning boshqa bolalar bilan ishongan holatda muloqot qilishi uchun sharoit yaratish; quvonchli, qayg'uli, xotirjam, emotsional holatini ko'rish va tushunishga bo'lgan intilishni rivojlantirish; o'zini tutib turish va g'azab, qo'rquv, jahl hislarini ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda namoyon qilishni rivojlantirish (boshqa bolani turtmaslik, urmaslik, o'yinchoqni qo'ldan tortib olmaslik va h.k.); jamiyatda qabul qilingan muloqot usullaridan foydalanish ko'nikmasini tarbiyalash: ochiq chehra bilan salomlashish va xayrlashish, o'z iltimos va takliflarini xushmuomalalik bilan bildirish; yordam berganlik, mehmon qilganlik uchun, o'yinchoqni berib turganlik uchun minnatdorchiilik izhor qilish; o'rtog'ining iltimosiga xushmuomalalik bilan javob qaytarish; javobini xotirjamlik bilan tinglash; o'rtog'ini xafa qilmaydigan ohangda o'z noroziligini izhor qilish.

Pedagogik ishlar to'g'ri tashkil qilinganida maktabgacha yoshdagi bola besh yoshga kelib ijtimoiy rivojlanishning quyidagi ko'rsatkichlariga ega bo'ladi: insoniy munosabatlarni tushunadi, atrofdegilarning unga nisbatan yaxshi va yomon munosabatlarini his qiladi va anglaydi; ota-onasining, tengdoshining emotsional ahvolidagi o'zgarishlarni payqaydi; diqqat-e'tibor, hamdardlik izhor qiladi; «men xohlayman!» vaziyatga oid bevosita istagini to'xtatib turishga qodir. Empatiya (hamdardlik) va emotsional ekspressiya (quvonch, qayg'u va boshqa holatlarni ifodalash) xususiyatidagi kechinmalar bola xulq-atvori va muloqotining tartibga soluvchisiga aylanadi; bolalar barqaror o'yin birlashmalariga kirishi mumkin, muloqotda va birgalikdagi faoliyatda quvonch, zavqlanish, qayg'u va boshqa holatlarni ifodalash uchun emotsional ekspressiv nutqiy va nonutqiy vositalardan foydalanadi. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo'lishi lozim. Bunda ko'rgazmaviylik, o'yin usullari va didaktik o'yinlarni keng qo'llash zarur. Agar ota-ona bolalar bilan munosabatlarda mehr, shavqat, xushmuomula, sevgi bo'lmasa, hech qanday pedagog-psixolog maslahati bolani tarbiyalash uchun yordam bera olmaydi. Bundan tashqari, bolani qobiliyatli bo'lganligi, aql-idroki, iste'dodi, go'zallik uchun emas, balki uning borligi uchun seving! Ota-onalar uchun tavsiyalar! Hayotda tur xil vaziyatlarga duch kelamiz, vaqti-vaqti bilan dam olish kunlari, karantin yoki noqulay ob-havo sharoitida, uyda bir yoki bir nechta bolalar bilan uyda qolishga to'g'ri keladi. Aynan shunday paytlarda nima qilish kerakligi haqida savol tug'iladi. Ko'p bolali onalar ko'pincha uch yoki undan ortiq bolalar birga bo'lishsa, ular bir-birlari bilan juda maroqli o'ynashlarini hazil qilishadi, garchi bu holda ota-onalarning ishtiroki shunchaki nazorat emas, balki ularni birlashtiruvchi hisoblanadi. Ular bilan birga barcha ishlarni amalga oshiring: suhbatlashing, savol-javob qiling, she'r yodlang, ertak va hikoyalar to'qing, maqollar, tezyatishlar, topishmoqlar toping, mantiqiy savollar bering, sanang, hisoblang, o'lchang, yelimgang, shakllarni qirqing, to'qing, qurish-yasash mashg'ulotlarini bajarish orqali o'ziz bolaga namuna bo'ling. Aynan mana shunday damlar oilalarni birlashtiradi va uzoq muddatga yodda qoladi [2]. Bunday tadbirlarni uyni istalgan burchagidan foydalangan holda amalga oshirishingiz mumkin. Masalan: uyning balkoni yoki xovlida kichik ziyofatlar uyushtirish, oshxonada bolalar sevib iste'mol qiladigan taomlarni birgalikda tayorlash. Hattoki, dunyo xaritasi va bayroqlari orqali farzandingizga dunyo ilmini ham berishingiz mumkin. Chunki siz farzandingiz bilan uyda qolganingizda har qanday g'oya foydalidir. Umid qilamizki, biz bergan maslahat va tavsiyalarimiz siz uchun foyda keltiradi hamda qiziqarli bo'lgan mashg'ulotlarni ko'chaga chiqmasdan ham shu yerdan topa olasizlar.

Ertalabki badan tarbiya: 1. To'g'ri uyushtirilgan suhbat kun tartibi katta ahamiyatga ega. 2. Bolalarning uyqudan turish va uyquga ketish vaqtiga e'tibor berish. 3. Iloji boricha

bolalarni bir xil vaqtda uyg'onishga va uxlashga o'rgatish. 4. Uyqudan turgandan so'ng ertalabki badan tarbiya mashqlarni birgalikda bajarish. 5. Zavqli o'tkazish uchun bolalarni hoxishlariga qarab musiqa qo'yish. 6. Qo'shiq xirgoyi qilish, yoki mashqlarga mos she'rlar tuzish mumkin. «Ozoda qiz» she'rini aytib berish: Men Lolaman, Lolaman,

Ozoda qiz bo'laman.
Erta bilan turaman,
Yuz qo'limni yuvaman.

Bolalarda gigienik ko'nikmalarni go'dakligidanoq shakllantirish kerak. 2-2, 5 yoshidan yuz-qo'l yuvishni eslatib turish, nazorat qilish va ko'maklashish zarur. Tozallikka rioya qilish faqat bolaning sog'lig'ini saqlash uchungina emas, balki uni kelajakda ham pokiza bo'lishining omilidir. Bolani 2 yoshidan tishlarini tozalashga o'rgatish kerak. Buning uchun kichkintoyga bolalar tish cho'tkasi, pastasi berish lozim. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish vazifalari. Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehri, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qayg'u, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat o'zgartirishiga sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotning yangi shakli – qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, o'yin, predmetlar va o'yinchoqlar bilan tajriba o'tkazish, qog'ozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qo'shib ketgan, so'ngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bog'liq bo'lmagan bilish mavzularidagi «nazariy» muloqot ko'rinishiga ega bo'ladi. Bolalarning katta yoshli odam bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojining qondirilmasligi ular o'rtasida emotsional jihatdan begonalashuvga olib keladi. U turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: ba'zi bolalar indamas, hurkak, arzimagan narsaga ham yig'lab yuboruvchi bo'lib qoladilar; boshqalari esa, negativizm, tajovuzni namoyon qilishadi. Bola hayotining to'rtinchi yilida tengdoshi uning uchun, eng avvalo, birgalikdagi amaliy faoliyat (rasm chizish, narsa yasash, tuzish va h.k.) ishtirokchisi, o'yindagi sherik sifatida qolaveradi.

Xulosa. Empatiya (hamdardlik) va emotsional ekspressiya (quvonch, qayg'u va boshqa holatlarni ifodalash) xususiyatidagi kechinmalar bola xulq-atvori va muloqotining tartibga soluvchisiga aylanadi; bolalar barqaror o'yin birlashmalariga kirishi mumkin, muloqotda va birgalikdagi faoliyatda quvonch, zavqlanish, qayg'u va boshqa holatlarni ifodalash uchun emotsional ekspressiv nutqiy va nonutqiy vositalardan foydalanadi. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo'lishi lozim. Bunda ko'rgazmaviylik, o'yin usullari va didaktik o'yinlarni keng qo'llash zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4312-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son.

2. Babayeva D.R. Nutq o'stirish metodikasi: o'quv qo'llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2009. - 128 b.

3. Нажмиддинова Г.О. Психологические основы развития речи детей дошкольного возраста // Мактабгача таълим фидойиси ва оилашуноси: Республика илмий амалий талабалар анжумани материаллари. 2020 йил 2 март. - Т., 2020. - Б. 54-55.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИВАЮЩЕЙ СРЕДЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Садикова Дилафруз Хусановна, PhD, и.о. доцента ТГПУ

Аннотация. В данной статье говорится о том, что модель STEAM-образования, является важным компонентом многих проектов, реализуемых сегодня, в значительной степени зависит от создания новой предметно-пространственной среды системы образования в целом, обновления содержания, программно-методического обеспечения, материально-технической базы.

Ключевые слова: STEAM-технологии, STEAM-образование в дошкольном обучении, предметно-пространственная среда, обучение, LEGO-конструирование.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL QILISHDA STEAM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Sadikova Dilafruz Xusanovna, TDPU dotsent v.b., PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM ta'lim modeli bugungi kunda amalga oshirilayotgan ko'plab loyihalarning muhim tarkibiy qismi ekanligi haqida gapiriladi. STEAM ta'lim modeliga ko'p jihatdan ta'lim tizimining yangi obyekt – fazoviy muhitini yaratish, uning mazmuni, dasturiy ta'minoti va uslubiy ta'minotini yangilash, moddiy-texnik bazasi bog'liq.

Tayanch so'zlar: STEAM texnologiyalari, maktabgacha ta'limda STEAM ta'limi, obyekt-fazoviy muhit, o'rganish, LEGO qurilishi.

THE USE OF STEAM TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF A DEVELOPING ENVIRONMENT IN A PRE-SCHOOL

Sadikova Dilafruz Khusanovna, PhD, acting associate professor of TSPU

Annotation. This article states that the STEAM education model, which is an important component of many projects being implemented today, largely depends on the creation of a new subject-spatial environment of the education system as a whole, updating the content, software and methodological support, material and technical base.

Key words: STEAM technologies, STEAM education in preschool education, object-spatial environment, learning, LEGO construction.

Введение. STEAM – новая образовательная технология, сочетающая в себе несколько предметных областей, как инструмент развития критического мышления, исследовательских компетенций и навыков работы в группе.

Основная часть. STEAM – является развитием хорошо известной аббревиатуры STEM, за исключением того, что включается искусство.

S – science или наука.

T – technology, то есть технология.

E – engineering, что по-английски означает инженерия.

M – mathematics, царица наук – математика.

Под искусством, новая составляющая аббревиатуры A – art, могут пониматься совершенно разные направления – живопись, архитектура, скульптура, музыка и поэзия. Добавление искусства позволяет расширить контингент учащихся, вов-

леченных в проект, таким образом, ребята, не обладающие ярко выраженными способностями в проектировании и математике, могут помочь группе при эстетической реализации проекта. STEM-образование позволяет использовать научные методы, технические приложения, математическое моделирование, инженерный дизайн. Что ведёт к формированию инновационного мышления обучающегося, умений, навыков XXI века. По словам педагогов, интеграция позволяет быть успешным в большинстве профессий. Практически все специалисты отмечают, что прогрессивные технологии повышают мотивацию к обучению и расширяют базовые знания в области конструирования и программирования. STEM обучение – это инновационная методика, которая позволяет выйти на новый уровень совершенствования навыков у наших детей. С ее помощью мы сможем сформировать прогрессивную кадровую базу, которая позволит нам стать экономически независимой и конкурентноспособной страной.

Преимущества STEM-образования: Интегрированное обучение по темам, а не по предметам. Применение научно-технических знаний в реальной жизни. Развитие навыков критического мышления и разрешения проблем. Формирование уверенности в своих силах. Активная коммуникация и командная работа. Развитие интереса к техническим дисциплинам. Креативные и инновационные подходы к проектам. Развитие мотивации к техническому творчеству через детские виды деятельности с учётом возрастных и индивидуальных особенностей каждого ребёнка. Ранняя профессиональная ориентация. Подготовка детей к технологическим инновациям жизни. STEM, как дополнение к обязательной части основной образовательной программы (ООП) [1].

Как внедрить STEAM образование в детском саду? Во-первых, создание смешанной предметно-пространственной среды, которая позволит осуществить проектно-экспериментальную исследовательскую деятельность, созданию кабинетов IT-технологий, STEAM-лаборатории, LEGO-центров. Во-вторых, STEAM интегрирует различную деятельность дошкольников, которая объединяет все пять направлений и дает возможность демонстрации результатов. Ведь главный девиз STEAM-программы: «Минимум теории, максимум практики» [2]. Применение STEAM-технологий и использования конструкторов LEGO при организации образовательного процесса, дают возможность приобщать детей к техническому творчеству, что способствует формированию задатков инженерно-технического мышления, а также дает возможность проявлять детям инициативу и самостоятельность, способность к целеполаганию и познавательным действиям. Способствует развитию внимания, памяти, мышления, воображения, коммуникативных навыков, умение общаться со сверстниками, обогащению словарного запаса, формированию связной речи. В процессе освоения LEGO-конструирования, которое объединяет в себе элементы игры и экспериментирования, дошкольники познают основы современной робототехники, что способствует развитию технического творчества и формированию научно-технической ориентации у детей.

Программа STEAM-образования в дошкольном обучении имеет несколько модулей: 1. Дидактическая система Ф. Фребеля. 2. Экспериментирование с живой и неживой природой. 3. LEGO-конструирование. 4. Математическое развитие. 5. Робототехника. 6. Мультистудия «Я творю мир» [2].

Технология STEM-образования базируется на проектном методе, в основе которого всегда лежит ситуация познавательного и художественного поиска, как в

получении знаний на основе собственного опыта практической деятельности, так и последующего применения полученных знаний в приоритетных видах детской деятельности: игре, конструировании, познавательно-исследовательской деятельности с элементами технического творчества. Взаимосвязь и тесное взаимодействие областей знаний, объединенных в понятие «STEM-образование», делает процесс развития разноплановым и многопрофильным и позволяет детям понять непростой и очень интересный окружающий нас мир во всем его многообразии: наука, очевидно присутствует в мире вокруг нас, технология неизбежно проникает во все аспекты нашей жизни, инженерия демонстрирует свои возможности в окружающих нас зданиях, дорогах, мостах и механизмах, и ни одна профессия, ни одно из наших каждодневных занятий в большей или меньшей степени не может обойтись без математики. STEM-подход дает детям возможность изучать мир системно, вникать в логику происходящих вокруг явлений, обнаруживать и понимать их взаимосвязь, открывать для себя новое, необычное и очень интересное. Ожидание знакомства с чем-то новым развивает любознательность и познавательную активность; необходимость самим определять для себя интересную задачу, выбирать способы и составлять алгоритм её решения, умение критически оценивать результаты – вырабатывают инженерный стиль мышления; коллективная деятельность вырабатывает навык командной работы. Все это обеспечивает кардинально новый, более высокий уровень развития ребенка и дает более широкие возможности в будущем при выборе профессии.

Что же входит в «STEM-образование» и какие образовательные задачи решаются:

Образовательный модуль «Дидактическая система Ф. Фребеля»: экспериментирование с предметами окружающего мира; освоение математической действительности путем действий с геометрическими телами и фигурами; освоение пространственных отношений; конструирование в различных ракурсах и проекциях.

Образовательный модуль «Экспериментирование с живой и неживой природой»: формирование представлений об окружающем мире в опытно-экспериментальной деятельности; осознание единства всего живого в процессе наглядно-чувственного восприятия; формирование экологического сознания.

«LEGO – конструирование»: способность к практическому и умственному экспериментированию, обобщению, установлению причинно-следственных связей, речевому планированию и речевому комментированию процесса и результата собственной деятельности; умение группировать предметы; умение проявлять осведомленность в разных сферах жизни; свободное владение родным языком (словарный состав, грамматический строй речи, фонетическая система, элементарные представления о семантической структуре); умение создавать новые образы, фантазировать, использовать аналогию и синтез.

Образовательный модуль «Математическое развитие»: комплексное решение задач математического развития с учетом возрастных и индивидуальных особенностей детей по направлениям: величина, форма, пространство, время, количество и счет.

Образовательный модуль «Робототехника»: развитие логики и алгоритмического мышления; формирование основ программирования; развитие способностей к планированию, моделированию; обработка информации; развитие спо-

способности к абстрагированию и нахождению закономерностей; умение быстро решать практические задачи; овладение умением акцентирования, схематизации, типизации; знание и умение пользоваться универсальными знаковыми системами (символами); развитие способностей к оценке процесса и результатов собственной деятельности.

Образовательный модуль «Мультстудия «Я творю мир»: освоение ИКТ (информационно-коммуникационных технологий) и цифровых технологий; освоение медийных технологий; организация продуктивной деятельности на основе синтеза художественного и технического творчества.

Вывод. Каждый модуль направлен на решение специфических задач, которые при комплексном их решении обеспечивают реализацию целей STEM-образования: развития интеллектуальных способностей в процессе познавательно-исследовательской деятельности и вовлечения в научно-техническое творчество детей младшего возраста [3].

Литература:

1. Маъруфжонова С. STEAM технологии в начальной школе. - Наманган, 2020.
2. Шевцова С.А. STEAM-технологии. - М., 2020.
3. Захарченко Т.Н. Технология STEM образования. - СПб., 2021.

**MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHNING
INNOVATSION USULI**

Dilshodbekov Shoxboz Dilshodbek o'g'li, TDPU dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada muhandislik kompyuter grafikasi fanini zamonaviy CAD dasturlaridan va Mindmeister platformasidan foydalanib o'qitish usuli ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: CAD, Mindmeister, usul, vosita, platforma.

**ИННОВАЦИОННЫЙ МЕТОД ПРЕПОДАВАНИЯ ИНЖЕНЕРНОЙ
КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКИ**

Дилшодбеков Шохбоз Дилшодбек угли, PhD, доцент ТГПУ

Аннотация. В данной статье раскрывается методика обучения инженерной компьютерной графике с использованием современных САПР-программ и платформы Mindmeister.

Ключевые слова: САПР, Mindmeister, метод, инструмент, платформа.

INNOVATIVE METHOD OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS

Dilshodbekov Shokhboz Dilshodbek ugli, PhD, associate professor of TSPU

Abstract. This article reveals the methodology of teaching engineering computer graphics using modern CAD programs and the Mindmeister platform.

Key words: CAD, Mindmeister, Method, Tool, platform.

Kirish. Talabalarga CAD dasturlaridan foydalanish ikki yondashuv (2D, 3D) asosida o'rgatiladi. Birinchi yondashuvda kompyuter konstruktorning ishini osonlashtiruvchi «Elektron kulman» sifatida ishlatiladi. Ushbu yondashuv ikki o'lchovli geometrik modellashtirishga asoslangan.

Asosiy qism. 2D modellashtirish tizimlari X va Y o'qlari bilan belgilangan tekislikda chizmalar qurishni o'z ichiga oladi, ya'ni ortogonal proyeksiyalash qoidalariga amal qiladi.

Uch o'lchovli modellashtirish – bu konstruktorning g'oyalarini kompyuter ekranida hayratlanarli darajada haqiqiy va ishonchli tasvirlarda mujassamlovchi olamga sayohatdir. Huddi, qo'lingizni cho'zsangiz, hozirgina tasavvuringizdagina mavjud bo'lgan narsaga tega olasiz [1].

Bugungi kunda konstruktorlik dasturlari bozorining juda kengligi va takomillashib borayotganini inobatga olgan holda, ulardan muhandislik kompyuter grafikasi fanini o'qitishda talaba va pedagoglar uchun qulay bo'lganlarini tanlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, Sibir davlat temir yo'llari universitetida talabalar o'qishni tugatguncha KOMPAS-Grafik, KOMPAS-3D, AutoCAD, Autodesk Revit Structure, Revit MEP va Revit Architecture kabi dasturlardan foydalanishadi [2, s. 34-35].

Novosibirsk davlat arxitektura-qurilish universitetida KOMPAS va AutoCAD dasturlardan foydalanishadi [3, s. 62-63].

Belarusiyaning davlat transport universitetida talabalar AutoCAD dasturida tekis chizma bajarish ko'nikmalariga ega bo'lganlaridan so'ng, chizmadagi detalning fazoviy modeli Inventor dasturida bajariladi [4, s. 6-7].

Yuqoridagilarning barchasini inobatga olgan holda shuni aytish mumkinki, fan-texnika

taraqqiyoti jarayonida talabalar egallashi lozim bo'lgan ilmiy bilimlar miqdori ortmoqda, materialni o'rganish uchun ajratilgan vaqt esa, bir xil bo'lib qolmoqda. Respublikamizda muhandislik grafikasi fanlarining mazmuni va uni o'qitish usuli oxirgi 25 yilda o'zgarishsiz qoldi. O'zbekiston Respublikasi texnika va unga turdosh yo'nalishlarda 2000 yildan buyon faqat Autodesk kompaniyasining AutoCAD dasturidan foydalanilmoqda. Vaholanki, yuqorida nomlari keltirilgan horijiy oliy o'quv yurtlari talabalari bir necha konstruktorlik dasturlarini o'zlashtirishga muvoffaq bo'lishmoqda. Bu dasturlar konstruktorlik, funksional va texnologik tizimlarga taalluqlidir. Biz, pedagogika oliy o'quv yurtlari pedagog kadrlar tayyorlashini inobatga olish kerakligini ta'kidlagan holda, faqatgina konstruktorlik tizimiga taalluqli dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Biz, muhandislik kompyuter grafikasi fanidan olib boriladigan ma'ruza mashg'ulotida o'qitishning tushuntirish va tasvirlash, qiyoslash metodlaridan foydalanishni va ma'lumotlarni umumiydan hususiyga tamoyiliga asoslanib talabalarga yetkazishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shunga asosan, ma'ruza mashg'ulotlarining birinchi bosqichida: kompyuter grafikasi tarixi; kompyuter grafikasining qo'llanilish sohasiga ko'ra bo'limlari; konstruktorlik grafikasi bo'limi va uning tizimlari haqida to'liq ma'lumotlar beriladi. Bu bosqichda, tushuntirish va tasvirlash metodlari faol qo'llaniladi. Qiyoslash metodidan esa, bu yerda foydalanilmaydi. Masalan: kompyuter grafikasining qo'llanilish sohasiga ko'ra qanday bo'limlarga ajratilishi va ularning mazmunini tushuntirish. Bu yerda, bo'limlar va ularning qaysi sohaslar uchun mo'ljallanganligi o'qituvchi tomonidan og'zaki tushuntirilishi bilan birga, xarita ko'rinishida tasvirlab ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kompyuter grafikasini harita ko'rinishida tasvirlanishi talabalarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Qolaversa, ma'lumotni xarita ko'rinishida tasvirlash orqali talabalarga kompyuter grafikasi haqida umumiy ma'lumotlarni qisqa vaqtda uzatish imkoni mavjud. Harita yaratish uchun bir qator zamonaviy dasturlar bor, ammo biz kompyuter grafikasi haritasini internet brauzeri orqali onlayn ishlaydigan www.mindmeister.com sayt orqali yaratildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Kompyuter grafikasi xarita ko'rinishida

Xulosa. Bu yerda pedagog faqat kerakli bo'limga murojat qilishi, ma'lumotni umumiydan hususiyga qarab tushuntirishi va tasvirni uzoqlashtirishi yoki yaqinlashtirishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Корнеев В.Р., Жарков Н.В., Минеев М.А., Финков М.В. КОМПАС-3D на примерах: для студентов, инженеров и не только... - СПб.: Наука и техника, 2017. - 272 с.
2. Петухова А.В., Болтов О.Б. Графическое образование: от линии к концептуальной модели // Инновационные технологии в инженерной графике: проблемы и перспективы. - Брест, 2014.
3. Виговская Т.Ю. Инновации в преподавании графических дисциплин // Инновационные технологии в инженерной графике: проблемы и перспективы. - Брест, 2014.
4. Артюшков О.В., Киселевский О.С. Обучение студентов трёхмерному техническому моделированию // Инновационные технологии в инженерной графике: проблемы и перспективы: Материалы международной научно-практической конференции. 21-22 марта 2013 года. - Б., 2013.

**TARIXIY OBIDALAR BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA
TARBIYALANUVCHILARDA MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISH
JARAYONINING MOHIYATI**

Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, TDPU dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirish jarayonining mohiyati yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: *milliy qadriyat, milliy g'urur, tarixiy me'moriy obida, madaniy-tarixiy meros.*

**СУЩНОСТЬ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ
У ВОСПИТАННИКОВ В ПРОЦЕССЕ ОЗНАКОМЛЕНИЯ
С ИСТОРИЧЕСКИМИ ПАМЯТНИКАМИ**

Хасанова Шахноза Тохтасиновна, доцент ТГПУ, PhD

Аннотация. В данной научной статье освещена сущность процесса формирования у воспитанников национальной гордости в процессе ознакомления с историческими памятниками.

Ключевые слова: *национальная ценность, национальная гордость, исторический архитектурный памятник, культурно-историческое наследие.*

**THE ESSENCE OF THE PROCESS OF FORMATION OF NATIONAL PRIDE
AMONG PUPILS IN THE PROCESS OF FAMILIARIZATION
WITH HISTORICAL MONUMENTS**

Hasanova Shakhnoza Tokhtasinovna, associate professor of TSPU, PhD

Abstract. This scientific article highlights the essence of the process of formation of national pride among pupils in the process of familiarization with historical monuments.

Key words: *national value, national pride, historical architectural monument, cultural and historical heritage.*

Kirish. Ta'lim jarayonida umumbashariy milliy qadriyatlarga, o'zbek va Sharq an'analari va xalq an'analoriga hurmat, xalq og'zaki ijodiga muhabbat, burch va mas'uliyat hissi, Vatanga ishonch va ular bilan faxrlanish tuyg'ulari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik, jasurlik, metin iroda, kuchli xotira va milliy tuyg'ular orqali vujudga keladigan milliy g'ururni tarbiyalashda milliy qadriyat va an'analar, urf-odatlar va udumlar, tarixiy xalq qahramonlari va davlat arboblari, xalq og'zaki ijodi, ajdodlarning tarixiy-madaniy merosini ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarga yetkazish orqali yetuk shaxs bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi. Qolaversa, milliy g'ururni shakllantirish uzluksiz jarayon bo'lib, ayniqsa, uning maktabgacha ta'lim bosqichi ahamiyatga molikdir. Zero, dunyoqarashning asosiy qismi mazmun jihatidan aynan maktabgacha ta'lim davriga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risi»da Qonuni (O'RB-595-son 16.12.2019)ning maqsadi maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning 3-moddasida keltirilishicha maktabgacha ta'lim – bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni ma'naviy-axloqiy, intellektual, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz ta'lim

turidir. «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari»ning maqsadi – mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir [1].

Asosiy qism. Davlat talablarida quyidagi vazifalar qayd etilgan: maktabgacha katta yoshdagi bolalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida rivojlantirish, ta'lim-tarbiyaning mazmuni va sifatiga e'tibor qaratish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda ta'lim tizimini rivojlantirishning samarali shakl va usullarini joriy etish; ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish. Milliy qadriyatlarimizni o'rganish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yuzasidan islohotlar va ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yo'nalishda Vataniy tarixi va madaniyati, qadimiy an'analarini har tomonlama o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etdi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan fuqarolarda milliy iftixor hissini shakllantirish, ularda Vataniy tuyg'usini tarkib toptirishga intilishning zamirida milliy g'ururi yuksak munosib vorislar tayyorlash maqsadi yotadi. Ushbu nuqtai nazardan yosh avlodda o'zi tug'ilib o'sgan shahar, qishloq, mavze, mahalla bilan faxrlanish tuyg'usini tarkib toptirishda tarixiy obidalarni o'rganish yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega. Meloddan avvalgi I-III asrlardan buyon saqlanib kelinayotgan Jonbos qal'a, Qo'yqirilgan qal'a, Anqo qal'a, Tuproq qal'alarda, O'zbekistonning janubida topilgan – Kushonlar davriga oid ajoyib haykallari bo'lgan me'moriy yodgorliklar (Ayritom, Dalvarzintepa) topilmalaridan ko'ramiz. Xorazmshohlarning uch yirik burjli saroyi, undagi haykallar, devoriy rasm va o'ymakor bezaklar, Afrosiyob yodgorliklari ham ajoyib san'at asarlari namunalidir. Me'morchilik inshootlari xalqning go'zallik ideallari va jamiyatning moddiy ehtiyojlaridan tashqari, o'sha davr ijtimoiy hayotidagi asosiy g'oyalarni, diniy-siyosiy qarashlarni, uni qurdirgan shaxslarning istak-orzularini ham ifoda etadi. Hayotni, kishilar faoliyatini o'rganishning asosiy manbalaridan biri me'morchilik obidalaridir. Ularni ko'rish, bilish o'sha davr siyosatini, kishilarning turmush tarzi, diniy qarashlarini, ularning maqsadlarini bilish demakdir. Me'morchilik obidalari o'zining salobati, go'zalligi, rangi va naqshinkor bezaklari bilan o'sha davr san'ati va kishilarning mahoratlari haqida aniq tasavvurlarga ega bo'lish imkonini beradi. Shundan ko'rinib turibdiki, ma'naviy faoliyat, ma'naviy ravnaq jamiyat va millat hayotining, uning tarixi, ma'naviyatining ajralmas qismidir. Ma'naviyati yo'q jamiyat ham, millat ham o'zligini yo'qotadi. Yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda madaniyat va san'atning boshqa turlari qatori me'morchilik san'ati mahsuli bo'lgan me'moriy obidalar ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Me'morlik obidalarining tarbiyaviy ahamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning sintetik soha, ham moddiy, ham ma'naviy qadriyat sifatidagi jihatlari bilan tavsiflanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur elementlarini shakllantirishning tarbiyaviy tizimida jarayonga integrativ yondashish muhimdir. Bu integrativlikning tarkibiy komponentlari sifatida faoliyat turlari (masalan, tarixiy obidalariga ekskursiya – atrof-muhit bilan tanishish hamda ulardan olgan taassurotlar asosidagi faoliyat – tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish va h.k.) o'rtasidagi sintetik jarayonlarni ta'kidlab o'tish joiz. Tadqiqotimiz doirasida adabiyotlarni tahlil qilish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan milliy g'ururni tashkil etuvchi komponentlar aniqlandi. Tarixiy me'moriy obidalar vositasida

tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonni samarali tashkil qilish uning nazariy va amaliy jihatlariga bog'liqdir. An'anaviy ravishda nazariy xarakterdagi guruhlarini ikki turga bo'lish mumkin. Tadqiqot natijalaridan ayon bo'ldiki, mashg'ulotlari mazmuni – tarixiy obidalar, me'mor quruvchilar, usta hunarmandlar, naqqoshlar yoki xattotlar haqidagi tarixiy ma'lumotlar, rivoyat va afsonalardan foydalanishdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunday materiallardan tarbiyachi bevosita illyustrativ materiallar, bolalarbop hikoyatlar vositasida bolalarda tarixiy tafakkur elementlarini, ular asosida milliy iftixor kurtaklarini tarkib toptirish ishlarini amalga oshirish mumkin. Mashg'ulotlar joylardagi me'moriy obidalariga uyushtiriladigan sayohatlar shaklida amalga oshiriladi. Ta'kidlash joizki, sayohatlar bevosita obyektini real tarzda kuzatish va shartli ravishda «sirtqi ekskursiya» tarzida amalga oshirilishi mumkin. Bu borada D.Ro'zievaning «Muhabbat va sadoqat dostoni» mavzusidagi «Toj Mahal»ga sirtqi ekskursiya qilish yordamida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga oid tavsiyalaridan uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida modernizatsiyalashgan variantda foydalanish mumkin. Sirtqi ekskursiya natijasida toshkentlik bolalarni Samarqanddagi, samarqandlik bolalarni Buxorodagi, xivalik bolalarni Shahrisabzdagi me'moriy obidalar bilan tanishtirish vositasida ularda milliy g'urur elementlarini tarkib toptirish ko'lamini, ta'sir doirasini kengaytirish mumkin. Bolalarni me'moriy obidalar bilan tanishtirish vositasida ularda milliy g'urur elementlarini shakllantirish jarayonini integrativ asoslarida me'moriy obidalar bilan tanishish, ular haqidagi ma'lumotlardan olgan taassurotlar asosida tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish tarbiyaviy samarasi yuqori darajada bo'lishi tadqiqot natijalari asosida o'z isbotini topdi. Ushbu bosqichda shuni ta'kidlash joizki, me'moriy yodgorliklarga ekskursiyalarni tematik tashkil etish o'quv jarayonining ikki tomonlama samarali oqimini ta'minlaydi, ya'ni bu jarayonda bolalar ular bilan tanishish vositasida ham samarali ishtirok etadilar. Me'moriy yodgorlik va muzeydagi eksponatlar bilan, uning tarkibida joylashgan millat tarixi, undan faxrlanish hislari samaraliroq kechadi. Masalan, 2002 yil 31 avgustda ochilgan «Qatag'on qurbonlari xotirasini» me'moriy obida sifatida Sharq me'morligining eng yaxshi an'analarini o'zida mujassam etgan tarix va ma'rifat maskani sifatida bevosita millat ravnaqi, uning taraqqiyoti, ma'rifati uchun jonini fido qilgan yurt o'g'lonlari taqdiri haqidagi ekspozitsiyalar bilan birga ikki tomonlama ta'sir etadi. Buning samarasi yana shu omil bilan tavsiflanadiki, bolaning idrok etish organlari ichida ko'rish qobiliyati bilan bog'liq omillarning ahamiyati katta. Chunki psixologlarning xulosalariga asosan bolalarning ko'rish qobiliyati orqali xotirada saqlab qolish imkoniyatlari eshitish qobiliyatlarinikiga nisbatan 25 marta ortiqligi bilan e'tiborlidir. Xuddi shunday fikrlarni joylardagi qadamjolar – yuksak ma'naviy-intellektual salohiyatli allomalar xotirasiga atab bunyod etilgan, qaytadan tiklangan hamda rekonstruksiya qilingan maskanlarga uyushtirilgan ekskursiyalar ham o'ziga xos tarix sabog'i, Vatandan, unga jonini fido qilgan o'g'lonlardan faxrlanish hissini tarbiyalashning muhim omillaridan biridir. Me'moriy obidalar vositasida bolalarda milliy g'urur elementlarini tarkib toptirishning tavsiya etilayotgan yo'sinda tashkil etishning tarbiyaviy samarasi yana shu omil bilan tavsiflanadiki, tajribali tarbiyachilar ekskursiya yakunlari bo'yicha bolalar bilan o'tkazgan suhbatlar chog'ida ko'rganlarini xotirasida qayta tiklash, mustahkamlash, ularga shaxsiy munosabat bildirish kabi sifatlarini takomillashtirish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatlarini o'z imkoniyatlari darajasida badiiy obrazlarga aylantirish – ko'rganlari asosida hosil bo'lgan taassurotlari bo'yicha hikoyalar tuzish, tasviriy faoliyat vositasida ifodalash orqali milliy g'urur elementlarini ularning ongiga barqaror tarzda muhrlanishiga erishishlari mumkin. Me'moriy obidalariga sirtqi yoki natural ekskursiyalar uyushtirish va uning natijalarini faoliyatning boshqa turlarida ifodalash, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur elementlarini shakllantirish jarayonini turli didaktik o'yin elementlari

bilan boyitish orqali tarbiyaviy samarasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Zero, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning dunyoni, atrof-muhitni, shu jumladan, me'moriy obidalami idrok qilish jarayoni – ko'rish, eslab qolish, tasavvurida qayta tiklash va qayta tiklangan obrazlar vositasida narsa va hodisalarni anglash jarayoni kechadi. Bu jarayonda turli didaktik o'yinlardan foydalanish obyektlarni, xususan, me'moriy obidalami idrok etish hamda baholi qudrat tasvirlash vositasida ularni milliy iftixor, milliy g'urur obyekti sifatida anglash jarayoni samarali kechishi ta'minlanadi. Agar atrof-muhit, jumladan me'moriy obidalar bilan tanishish jarayoni monoton tarzda, zerikarli ko'rinishda amalga oshirilsa, shubhasiz uning tarbiyaviy samarasi past bo'ladi. Shuning uchun tarixiy me'moriy obidalami hunchaki tomosha obyekti emas, balki kuzatilayotgan, o'rganilayotgan obyekt, ya'ni pedagog olim Ye.S.Glozman fikricha, xalqning turmush tarzi va mehnat natijalari, tarixidan, madaniy-moddiy qadriyatning milliy-ma'naviy namunasi, ta'lim jarayoni vositasidan, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar uchun moddiy va ma'naviy qadriyat namunasi sifatida o'rganish lozim. Keng ma'noda tarixchilar, filosoflar, san'atshunoslarning tadqiqot obyektidir. Bir so'z bilan aytganda, me'moriy obida «ochiq osmon ostidagi muzey». Shuning uchun ham me'moriy obidalar tarbiyaning noyob muhiti (obyekti)dir [2].

Ta'lim jarayonini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida tashkil qilish zaminida tarbiyalanuvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish pedagogik kafolati hisoblanadi. Tarixiy-me'moriy obidalar vositasida bolalarda milliy g'urur elementlarini shakllantirish jarayonini tadqiq etish natijalari shundan dalolat beradiki, barcha bolalarga bir xil mazmun va shakldagi mashg'ulotlarni tavsiya etish maqsadga muvofiq emas. Chunki ayrim bolalar tarbiyachining u yoki bu tarixiy-me'moriy obida haqidagi hikoyasini diqqat bilan eshitadi. Biroq unga shaxsiy munosabat bildirmaydi, ya'ni eshiting orqali idrok etilgan obraz yuzaki tasavvur tarzida qolib ketadi. Shuning uchun ham tasavvurni jonlantirish, ular asosida faoliyatning boshqa turida jonlantirish, o'zlashtirish, anglash jarayonini takomillashtiradi. Aynan shu jarayonda differensial yondashish, ya'ni kimdir shakllar, yana kimdir ranglar bilan bog'liq bo'lgan didaktik o'yinlarga jalb etilsa maqsadga erishish oson kechadi. Tarixiy obidalar bilan tanishtirish va ularni tasvirlashga o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bolalar olgan taassurotlarini o'z ijodlarini namoyish qilish jarayonida anglab boradilar. Bu anglash jarayonining onglilligi bilish jarayonini samarasini ta'minlaydi. Shu tariqa ularda milliy mentalitetga xos bo'lgan jihatlarni, jumladan, tarixiy-me'moriy obidalar orqali milliy g'urur elementlari tarkib topib boradi. Bu omil mazkur jarayonning o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatini tavsiflaydi.

Bolalarni tarixiy obidalar bilan tanishtirish va tasvirlashga o'rgatishning negizida ta'limiy jarayonlar sodir bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan elementlar – shakllar (sharsimon, yarim shar – gumbaz; to'rtburchak – peshtoq; silindr, kesik konus – minora), turli tasvirlar va bezaklar, yozuvlar hamda ranglarni klassifikatsiyalash jarayonida ularda muayyan bilimlar, ko'nikma va malakalar tarkib topib boradi, tasvirlar, shakllar, ranglarni me'moriy obida elementlari sifatida integrativ tarzda tizimli idrok etish obyektlarni sintetik o'zlashtirishga asos bo'ladi. Bu borada maktabgacha ta'lim amaliyotchilari Yu.M.Apatkina, P.E.Andrianovalarning kuzatishlari diqqatga sazovordir. Ularning ta'kidlashicha, ongning simvolik funksiyalarini rivojlanishi bilan produktiv ijodiy faoliyat negizlari shakllanadi, kreativ fikrlash elementlari tarkib topib boradi. Bu sifatlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga molik omillardir. Bir faoliyat turini ikkinchi faoliyat turi bilan, bizning misolimizda tarixiy-me'moriy obidalar bilan tanishish natijasida olingan taassurotlarni ijodiy faoliyatda qayta tasvirlash orqali tanish material (tasavvur, taassurot)ga yangi kombinatsion ko'rinish

berish, mazmun va shakl nuqtai nazaridan «yangi obrazlar» yaratish ajdodlarimiz yaratgan, shuningdek, zamondosh quruvchi-ustalar tomonidan bunyod etilayotgan me'moriy obidalarni idrok etish, uni milliy iftixor sifatida e'tirof etish hamda undan milliy g'urur namunasi sifatida bahra olish maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning dunyoqarashini, shu jumladan, milliy mentalitetga xos sifatlarini shakllantirishning muhim shartidir. Bu sifatlar bolalarda turli jabhalar va faoliyat turlarida mustaqillik va faollik, topqirlik va yangi sharoitga moslashuvchanlik, namunalarga ijobiy ma'noda taqlid qilish va yangisini yaratishga bo'lgan ishtiyoq, original ijodiy yechimlar topishga intilish kabi hislatlarni tarbiyalaydi. Bir so'z bilan aytganda, bolalarda kreativ fikrlash elementlari tarkib topib boradi. Kreativlik esa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar shaxsining bazaviy tavsifidir. Tarbiyachilarimiz milliy g'urur elementlarini maktabgacha yosh davrida tarbiyalash muammosining murakkabligini e'tirof etadilar. Amaliyotdagi holatning o'rganilishi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy g'urur elementlarini tarkib toptirishga qaratilgan ishlarning tizimli olib borilmayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan, tarixiy obidalariga sayohatlar uyushtirish, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni xalq an'ana va asotirlari asosida vatanga muhabbatli qilib tarbiyalashga qaratilgan mashg'ulotlar Mustaqillik va Navro'z bayramlari munosabati bilangina ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uyushtirilmoqda, xolos.

S.Bulatov va O'.Mansurovlarning fikricha, «dunyoda ma'nosiz so'z bo'lmaganidek, ma'nosiz naqsh ham yo'q». Ko'kaldosh binosiga ishlatiladigan kvadrat naqshlar – dunyoning to'rt tomoni, mustahkamlik, olamning cheksizligi, osmonning bepoyonligi, abadiylik, yorug'lik, olamning asosi 4 unsur (suv, havo, tuproq, olov)dan tashkil topganligini; charxpalak shaklidagi naqshlar – abadiy harakat timsoli, o'n ming yillik baxt, quyosh ramzi, o'lish va tirilish haqidagi diniy aqidalar belgisi va boshqalar ma'nolarni anglatadi [3]. Qadimiy me'morchiligimiz an'analarida oddiy tuyulgan naqshlarda ham olam-olam ma'no-mazmun mavjud, xususan, charxpalak – abadiy harakat timsoli, olam abadiy harakatda degan ma'noni bildiradi. U yana omad, o'sish, ko'tarilishni ham ifoda etadi. Markaziy Osiyo me'morchiligi o'rganilgan tadqiqotlarda ravoq va gumbazlar shakli ustida ko'p bosh qotirilgan. Osori atiqalardagi ravoq va gumbazlar shaklini tekshirib, ularni yasash qonun-qoidalarini aniqlangan. Endilikda Forobiyning geometriyaga oid risolalaridan bu savolga aniq javob topildi. Qadimgi me'morlar ravoq va gumbaz shakllarini keng tajribadan o'tgan, ancha oson va qulay geometrik yasash usullari bilan belgilaydilar. Forobiy doira, uchburchak, kvadrat, muntazam ko'pburchaklar geometriyasi haqidagi fikrlarida doimo shakllardagi mutanosiblik – proporsiya, nisbat masalalari hal etilganligini ko'ramiz. Markaziy Osiyo me'morligining X-XVII asrlarga oid yodgorliklarida Forobiy kuzatgan, tahlil etgan geometrik proporsiyalarning keng qo'llanilgani aniqlandi. Bolani milliy qadriyat va an'analar, tarixiy obidalarning ulug'vor, ayni chog'da oddiy va samimiy muhiti ta'sirida tarbiyalash uchun ota-onalarning o'zida milliy qadriyatlarga nisbatan munosabat tubdan o'zgartirish lozim. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur elementlarini shakllantirish uchun eng ta'sirchan manbalar, vositalardan foydalanish pirovard natijada o'z yurtining tarixi, ma'naviy va madaniy qadriyatlari, milliy an'analaridan faxrlanuvchi, milliy g'ururi baland avlodni tarbiyalashning muhim omillaridan biridir. Yosh avlodda milliy g'ururni shakllantirish pedagogika fani va ta'lim amaliyoti uchun dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biridir. Shu ma'noda millat tarixini, uning yashash tarzi va boshqa xususiyatlarini o'ziga jo etgan ijtimoiy-tarixiy hodisa, ta'sirchan manba – me'moriy obidalar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur elementlarini shakllantirish

bu jarayonni samarali kechishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda milliy g'urur elementlarini shakllantirish jarayoni tolerantlik elementlarini inkor etmagan holda amalga oshirilishi lozim, ya'ni muayyan millat, xalqqa tegish qadriyatlar, an'analar boshqa millatni kamsitish maqsadida qo'llanilmasligi lozim.

Xulosa. Shunday qilib, bolalarda milliy g'urur elementlarini tarkib toptirishda tarixiy me'moriy obidalarga oid materiallardan foydalanish ta'sirchan omil ekanligi ularni ham moddiy, ham ma'naviy qadrga egaligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham ulardan faxrlanishga o'rgatuvchi omil va vositalardan unumli foydalanish talab etiladi. Zero, mazkur jarayon shunisi bilan ham ijtimoiy, ham pedagogik, demakki, ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida»: lex.uz
2. Глоzman Е.С. Методика музейной педагогики в школе как уникальная воспитывающая среда // Педагогическое образование. - М., 2009. - № 5. - С. 22-25.
3. Bulatov С., Mansurov О'. Milliy me'morchilikda amaliy san'at falsafasi. - T.: Fan, 2005.

BOLALAR EMOTSIONAL SOHASIDAGI BUZILISHLARNING PSIXOKORREKSIYASI

Agzamova Malika Muratovna, *TDPU qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmii markazi
Pedagogik psixologiya laboratoriyasi mudiri, PhD*

Annotasiya. Maqolada bolalardagi emotsional sohaning o'ziga xos rivojlanishi va undagi buzilishlar, emotsional buzilishlar turlari, kelib chiqish sabablari, determinantlar hamda emotsional buzilishlarni bartaraf etish bo'yicha psixokorreksion usullar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: bola, emotsiya, emotsional buzilishlar, determinantlar, psixokorreksiya, art-terapiya usullari.

ПСИХОКОРРЕКЦИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ НАРУШЕНИЙ У ДЕТЕЙ

Агзамова Малика Муратовна, *заведующий лаборатории
Педагогической психологии Учебно-научного центра Психологии при ТДПУ, PhD*

Аннотация. В статье представлены особенности развития эмоциональной сферы детей, нарушение эмоциональной сферы, виды эмоциональных расстройств, также причины, детерминанты возникновения и психокоррекционные методы устранения эмоциональных нарушений.

Ключевые слова: ребенок, эмоция, эмоциональные нарушения, детерминанты, психокоррекция, арт-терапевтические методы.

PSYCHO-CORRECTION OF EMOTIONAL DISORDERS IN CHILDREN

Agzamova Malika Muratovna, *head of the laboratory of educational psychology
of the educational and scientific Center of psychology TDPU, PhD*

Abstract. The article presents the features of the development of the emotional sphere of children, violation of the emotional sphere, types of emotional disorders, as well as the causes, determinants of occurrence and psycho-corrective methods for eliminating emotional disorders.

Key words: child, emotion, emotional disorders, determinants, psychocorrection, art therapy methods.

Kirish. Bola emotsiyasi psixologik rivojlanishning va jamiyatga moslashishning asosiy faktori sifatida psixik faollikni qo'zg'atadi, kreativlikni shakllantirishga imkoniyat yaratadi va eng muhimi bolaning jismoniy va psixomotor rivojlanishiga sabab bo'ladi. Emotsional farovonlik bolalik davrida muvaffaqiyatli psixologik rivojlanishning eng muhim shartidir. Bu sohadagi buzilishlar ontogenezning barcha bosqichlarida shaxsiy rivojlanish jarayonida namoyon bo'ladi. Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, 6 yoshgacha bo'lgan taxminan 17% bolalarning barcha emotsional (xissiy) kasalliklardan aziyat chekadi [1]. Bunday bolalarda rad etish va jabrlanishning izchil va barqaror tajribalari keyingi bolalik va o'smirlilik davrida xavotir buzilishlarining (ayniqsa, ijtimoiy fobiya) rivojlanishiga olib kelishi mumkin [2]. Bu muammoni o'rganish va oldini olish maqsadida YUNISEF «2021-yilda bolalarning jahondagi holati» nomli ma'ruzasida, bolalarning psixik sog'lomligi holati haqida ma'lumot berib, har bir bolaning farovon psixik rivojlanishi uchun zaruriy investitsiyalarni ajratilishi zarurligini ta'kidladi [3]. Demak, bolani har taraflama mukammallik va uyg'unlikda shakllanishida emotsional soha uyg'unligi va ijobiy emotsional holatlar muhim ahamiyat

kasb etadi. Emotsional sohadagi vujudga keladigan va mavjud buzilishlarni o'z vaqtida diagnostika va psixokorreksiya qilinishi bolalarning farovon, uyg'un rivojlanishida, shuningdek, uning oilasi va umuman jamiyat hayotida muhim hisoblanadi.

Asosiy qism. Bolalarning emotsional rivojlanish muammosini madaniy-tarixiy yondashuv doirasida L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, P.P.Blonskiy, S.Rubinshteynlar qayd etganlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishining yoshga bog'liq jihatlari bir qator taniqli olimlar o'rganganlar (L.A.Abromyan, A.V.Zaporozhets, G.M.Breslav, L.P.Strelkova, A.D.Kasheleva, Ye.I.Izatova, Yu.A.Lapteva, V.M.Minayeva, I.V.Faustova, Ye.A.Aleksyeva va boshqalar). Yu.M.Milanich esa, bolalarda emotsional soha buzilishini 3 guruhga ajratgan. Birinchi guruhga muallif bolaning o'tkir emotsional reaksiyalarni birlashtirgan, ya'ni aniq nizoli vaziyatlarni ifodalovchi reaksiyalar: qarshilik reaksiyasi, agressiya (tajovuzkorlik), isterika, qo'rquv va arazlilik [4]. Ikkinchi guruhga muallif tarang emotsional holatlarni, ya'ni qayg'u, xavotir, kayfiyat buzilganlik, xadiksirash va uyatchanlikni kiritadi. Uchunchi guruhga Yu.M.Milanich emotsional holatlar dinamikasi buzilishi turlarini kirgizgan, ya'ni affektiv portlash va beqarorlik, ijobiy his-tuyg'udan salbiy his-tuyg'uga o'tish tezligi va aksincha.

Emotsional buzilishlar turlari haqida yana I.M.Chistyakova va hammualliflar ham o'z qarashlarini bildirganlar. Ular emotsional buzilishlarni 3 guruhga ajratganlar: kayfiyat buzilishi, xulq-atvor buzilishi va psixomotorikani buzilishi [5]. Kayfiyat buzilishini muallif, o'z navbatida, ikki guruhga ajratgan: emotsionallikni kuchayishi (eyforiya, disforiya, depressiya, xavotir, qo'rquv xislari) va emotsionallikni susayishi (apatiya, emotsional axmoqlik va paratimiya). Xulq-atvor buzilishni ham ikki guruhga ajratadi: giperfaollik va agressivlik (tajovuzkorlik). Psixomotorikani buzilishiga esa, mualliflar amimiya, gipomimiya va sust ifodalangan pantomimika kabi buzilishlarni kirgizganlar. So'nggi paytda bolalar emotsional sohasida buzilishlarning ko'payishi muammosi dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda. Ayniqsa, bu holat maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatilib, bunday holat bolalarning ijtimoiylashuviga va shaxslararo munosabatlarida qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. D.I.Feldshteyn ta'kidlashicha, so'nggi yillarda emotsional (xissiy) sohasida muammolar mavjud bolalar soni ortib bormoqda, bu xissiy noqulaylik holati, doim himoyasizlik xissi, yaqinlarining qo'llab-quvvatlashining yetishmasligining kuchlligi bilan belgilanmoqda. Bunday holatdagi bolalar odatda kuchli xavotirga ega, zaif va atrofdagilar bilan keskin munosabatda bo'lishadi.

Emotsional buzilishlar yoki bolaning xissiy sohasi rivojlanishidagi buzilishlar – bu xavotir, qo'rquv, o'jarlik, asabiylashish va xafagarchilik, kayfiyatning osongina o'zgarishi va boshqalar bo'lib, ular atrof-muhit bilan erkin aloqa o'rnatishga to'sqinlik qiladigan xatti-harakatlar reaksiyalari bilan birga keladigan barqaror xissiy holatlardir. Keyinchalik emotsional buzilishlar shaxsning dezadaptatsiyasiga, ya'ni ijtimoiy moslasha olmasligiga olib keladi [6].

Hozirgi kunga qadar bolalardagi emotsional soha buzilishlarining kelib chiqish omillarini o'rganishda ko'pgina olimlar o'z fikrlarini bildirib, turli xil sabablarni qayd etganlar. Umumiy tasnifga soladigan bo'lsak, emotsional buzilishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga biologik, psixologik va ijtimoiy-psixologik kabi xavf omillari ajratiladi. Bolaning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirining tabiati emotsional buzilishlar rivojlanishining asosiy sabablaridan biridir. Kattalar, tengdoshlar va, ayniqsa, oila bilan aloqa qilishning noqulay tajribasi maktabgacha yoshdagi bolada emotsional buzilishlarni shakllanishiga olib keladi [7]. Bolalardagi emotsional buzilishlarni bartaraf etishda psixologik ta'sirlarning yaxshi

tashkil etilgan tizimi bo'lishi kerak. Ayniqsa, u bolalarda xissiy noqulaylikni yengillashtirishga, ularning faolligi va mustaqilligini oshirishga, tajovuzkorlik, asabiylashish, xavotirli shubha va boshqalar kabi xissiy buzilishlar natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi shaxsiy reaksiyalarni bartaraf etishga qaratilgan. Ushbu bolalar bilan ishlashning muhim bosqichi – bu o'z-o'zini hurmat qilish, o'z-o'zini anglash darajasi, xissiy barqarorlikni shakllantirish va o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liq.

Mahalliy va xorijiy psixologiyada bolalardagi xissiy buzilishlarni tuzatish, korreksiyalashga yordam beradigan turli xil usullar qo'llaniladi. Ushbu usullarni o'tkazish bo'yicha ikki asosiy guruhga bo'lish mumkin: guruhiy va individual tarzdagi korreksion mashg'ulotlar. Bolalardagi emotsional soha buzilishlarni korreksiya qilish usullaridan ekspressiv san'atga asoslangan terapiya usullari: art-terapiya, musiqa terapiya, raqs terapiya, ertak terapiya usullarini qo'llash mumkin. Chizish va modellashtirish usullari tajovuzkor xis-tuyg'ularni ijtimoiy jihatdan maqbul tarzda ifodalash imkoniyatini beradi, ular emotsional buzilishlarni bartaraf etishning xavfsiz usullaridir. Ushbu usullar bolalardagi psixokorreksiyalash ishlari jarayonini tezlashtiradi, chunki ichki tajribalarni og'zaki tasvirlardan ko'ra vizual tasvirlar yordamida ifodalash osonroq. Bu turli xil tematik rasmlarni chizish («Men», «Mening oilam», «Do'stlar», «Men bog'chadaman» va boshqalar) yoki tayyor chizmalarni bo'yash bo'lishi mumkin. Art-terapiya usullari, shuningdek, ichki nazorat va tartib tuyg'usiga xissa qo'shishi mumkin, chunki ular shakl va rangni tanlash zaruratiga olib keladi.

O'yin terapiya – bu bolaning ichki dunyosini o'rganish uchun ishlatiladigan art-terapiya usullaridan biri, u o'yindan foydalangan holda bolalarga ta'sir qiladi va taranglik, tajovuz, xavotir va qo'rquvni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi mumkin. O'yin vaziyatlari bolaga ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish, xarakter va xatti-harakatlarning noqulay xususiyatlarini tuzatish usullarini ko'rsatishga imkon beradi.

Qum terapiya – bu tabiiy materiallardan foydalanadigan psixoterapiya usullaridan biri: qum, toshlar, qobiqlar, suv, o'simliklar va miniatyur xaykalchalardan foydalangan holda kompozitsiyalar yasash mumkin. Bolalarda qum bilan ishlashda miyaning ikkala yarim sharlari faollashadi, xissiy stressni yengillashtiradi, o'ziga bo'lgan ishonch va o'zini o'zi qadrlash kuchayadi, estetik qobiliyatlari ham rivojlanadi.

Ertak terapiya – «ertak bilan davolash» art-terapiya usullaridan biri hisoblanadi. Ertak terapiya orqali tarbiya, ta'lim, xulq-atvorni tuzatish, emotsional sohadagi psixologik og'ishlarning oldini olish muammolarini xal qilish mumkin. Bolalar psixologiyasida bu usul bolalarni bog'chaga moslashishini, salbiy xulq-atvor reaksiyalari, qo'rquv va fobiyalarni ishlab chiqish, yaxshilash uchun ishlatiladi, muloqot qobiliyatlari, o'z-o'zini hurmat qilishni oshirishda qo'llash mumkin.

Musiqa terapiya – musiqadan vosita sifatida foydalanadigan psixoterapevtik usullardan biridir. Musiqa terapiyasining uch xil shakli mavjud: retseptiv musiqa terapiyasi (passiv, ya'ni mijoz oddiy tinglovchi pozitsiyasini egalla, sessiyada faol ishtirok etmaydi); faol (musiqiy material bilan faol ishlashga asoslangan: instrumental o'ynash, qo'shiq aytish); integrativ (yorqin rasmlar, slaydlar, video yozuvlar yordamida nutq, eshitish, ko'rish va aqliy zaiflashuvi bo'lgan bolalar bilan foydalaniladi).

Drama terapiya – art-terapiyaning jadal rivojlanayotgan yo'nalishi bo'lib, asoschisi J. Moreno (30-40 yillar Venada «Spontanlik teatri», Nyu Yorkdagi «Terapevtik teatr») hisoblanadi. Ushbu usul psixologning maxsus tayyorgarligini talab qiladi va musiqa, raqs, bo'yanish, chizish, yozish va boshqa ko'p narsalarni o'z ichiga oladi. Drama

terapiyasi drammatizatsiya sifatida keng qo'llaniladigan texnikadan foydalanadi, ya'ni qandaydir bir hikoyani ijro etish zarur. Shuningdek, drama terapiyasi rolli o'yinlardan keng foydalanadi va ular orqali bolalarni boshqalar bilan muloqot qilishga o'rgatadi. Shuningdek, bolalardagi emotsional soha buzilishlarni korreksiya qilishda bolaning otanalari (qonuniy vakillari) bilan hamkorlik qilish ham muhim hisoblanadi. Ushbu hamkorlik munosabat o'rnatish psixologiyasi, kundalik tartib va ovqatlanish bo'yicha tavsiyalar bilan boshlanishi kerak. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish barcha tuzatish ishlarining muvaffaqiyati uchun zarur psixo-fiziologik asosni yaratadi.

Xulosa. Bolalarning emotsional sohasi buzilishi zamonaviy jamiyatning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, insonlarning ko'pgina muammolari ularning bolaligidagi emotsional buzilishlari negizida kelib chiqadi. Bolaning emotsional sohasini uyg'unlikda rivojlanishi sog'lom psixida rivojlanishining garovi hisoblanadi. Emotsional buzilishlar bolada tashqi olamning adekvat ko'rinishini faol pozitsiyasi, bu olam bilan barqaror va xarakatchan munosabatini yaratishda qiyinchilik tug'diradi, shuningdek, keyingi yosh davrlarda shaxsning moslashuvini yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shunday ekan, bolalarda emotsional soha buzilishlari muammosini o'rganish, shuningdek, mazkur muammoni bartaraf etish usullarini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Emotsional buzilishlar mavjud bolalarga samarali yordam berishda, ayniqsa, ularning sabablarini, ya'ni rivojlanish determinantini aniqlash hamda o'z vaqtida psixokorreksion tadbirlarni amalga oshirish muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Von Klitzing K., Dohnert M., Kröll M., Grube M. Mental Disorders in Early Childhood. 2015. - 112 (21-22). - P. 375-386.
2. Rubin K.H., Bowker J., Kennedy A. Avoiding and withdrawing from the peer group in middle childhood and early adolescence. In: Rubin KH, Bukowski W, Laursen B, editors. Handbook of Peer Interactions, Relationships, and Groups. New York: Guilford; 2008. Rubin KH, Coplan RJ, Bowker JC. Social withdrawal in childhood. Annu Rev Psychol. 2009. - 60. - P. 141-171.
3. Детский фонд ЮНИСЕФ сообщает о положении детей в мире в 2021: <https://www.unicef.org/eca/media/18046/file/Full%20report.pdf>
4. Миланич Ю.М. Психологическая коррекция эмоциональных нарушений у детей дошкольного возраста: Дис ... канд. псих. наук. - СПб., 1998. - 161 с.
5. Чистякова М.И. Психогимнастика. - М.: Просвещение, 1990. - 298 с.
6. Лебеденский В.В., Никольская О.С., Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Эмоциональные нарушения в детском возрасте и их коррекция: Учебное пособие. - М.: УМК «Психология», 1990. - 173 с.
7. Тайджанова М.М. Психологические особенности эмоциональных нарушений в старшем дошкольном возрасте: Дис. ... д-ра филос. по психол. наукам. - Т., 2022.

CHET TIL O'QITISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

**Saimnazarova Dilnoza Abdunematovna, PhD,
Xusanova Saida Burxanovna, TDPU o'qituvchisi**

Annotatsiya. Maqolada chet til o'qitish metodikasining nazariy masalalari, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, chet til o'qitish metodikasi predmeti, maqsadi, mazmuni, vositalari va boshqa lingvodidaktik tushunchalar haqida muxtasar fikrlar bayon etildi.

Tayanch so'zlar: metodika, lingvodidaktika, o'quv predmeti, ta'lim sharoiti/maqsadlari /mazmuni/vositalari.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

**Саимназарова Дилноза Абдунематовна, PhD,
Хусанова Саида Бурхановна, преподаватель ТГПУ**

Аннотация. В статье представлены теоретические вопросы методики обучения иностранному языку, а именно, краткие размышления о предмете, цели, содержании, средствах и других лингводидактических концепциях методики обучения иностранному языку.

Ключевые слова: методика, лингводидактика предмет обучения, условия обучения языку/цели/содержание/средства.

THEORETICAL BASIS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

**Saimnazarova Dilnoza Abdunematovna PhD,
Xusanova Saida Burkhanovna teacher of TSPU**

Abstract. The article deals with the theoretical issues of the methodology of teaching a foreign language, to be more specific, thoughts about the subject, aims, content, aids and other linguodidactic concepts of the foreign language teaching methodology.

Key words: methodology, linguodidactics, subject, language teaching conditions/goals/content/means.

Kirish. Har qanday fandan ta'lim beruvchi mutaxassis o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani mukammal ado etishi lozim. Qaysi soha vakili bo'lishidan qat'iy nazar, o'sha fan haqida o'quvchiga zarur va yetarli axborotni yetkazib bera olish darajasidagi bilimni egallagan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chet tilni kasb sifatida tanlaganlar ushbu tilni o'qitish nazariyasidan batafsil xabardor bo'la olsagina, amaliy faoliyatni o'rgatish masalasida ham kutilgan natijaga erishadi.

Asosiy qism. Chet til o'qitish metodikasining predmeti haqida so'z yuritilar ekan, avvalo, metodika terminiga to'xtalib o'tamiz. Yirik o'zbek lingvodidaktiklarimizdan professor J.J.Jalolov metodika terminining uch ma'nosini ajratib ko'rsatgan: birinchisi, turli ta'lim muassasalarida o'quv predmeti sifatida, masalan, metodika darsi bo'lmoqda; ikkinchi ma'nosi, ta'limning metodik usullar yig'indisi. Masalan, men pedagogik tajribamda ko'plab zamonaviy metodikalardan foydalanaman; uchinchi, ta'lim nazariyasi va maxsus fan. Masalan, bu o'quv-uslubiy qo'llanmada metodika yaxshi yoritilibdi. Maqolamizda metodika so'zining uchinchi terminologik ma'nosi haqida fikr yuritishga baholiqudrat xarakter qildik. Boshqa olimlarning ta'riflashicha, chet til o'qitish metodikasi ta'lim maqsadlari, ta'lim mazmuni, ta'lim vositalari va usullarini o'rganuvchi fan hisoblanadi (chet til, xususan,

ingliz tili dunyo aholisining to'rtidan bir qismi shu tilda muloqot qiladi. Yer yuzining taxminan 7,5 milliard aholisidan 1,5 milliard ingliz tilida gaplashadi, bu yer aholisining 20 foizini tashkil qiladi).

Fanlarning uch guruhi mavjud bo'lib, ulardan, birinchisi, nazariy bilimlar beradigan fanlar. Bunda chet til o'qitish metodikasi haqida nazariy, ilmiy ma'lumotlar bilan tanishtirib boriladi. Ikkinchi guruhga amaliy bilimlar beradigan fanlar kiradi. Bu guruh fanlari faoliyatni o'rgatadi. Til o'rgatish jarayonida nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv)ni mukammal egallash alohida ahamiyat kasb etadi. Uchinchi guruh ham amaliy bilimlar beradigan fanlar hisoblanib, ikkinchisidan farqli o'laroq, psixologiya tushunchasi bilan aytganda, qo'l-haraxat analizatori ishtirok etadigan, rasm, duradgorlik, o'ymakorlik, chevarlik kabilarni misol tariqasida keltiramiz.

Jamiyat a'zolarining ona tilida yoki o'zga til(lar)da axborot egallash va uzatish bilan mashg'ul bo'lishlari davrimiz kun tartibidagi eng zaruriy talablar qatoridan o'rin oldi. Ingliz tilini o'rganish jarayoni ushbu tilda nutq faoliyatining asosiy turlarini egallash demakdir, ya'ni gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv haqida so'z bormoqda. Jahonda sodir bo'layotgan globallashuv jarayoni chet tilda muloqot qilishni o'rgatishga ustuvor masala deb qarashga sabab bo'lmoqda. Shu bois, ushbu ilmiy-metodik muammo xalqaro miqyosda keng tadqiqot etilganligiga qaramasdan, asrimiz boshida mazkur masalani qayta ko'rib chiqish va yangi yondashuvlarni keng mutaxassislar ommasiga tavsiya etish zaruriyati tug'ilmoqda.

Psixofiziologiya muammolarini o'rganishda yirik ruhshunos N.I.Jininning alohida xizmatlari bor. Olimning fikricha, nutqni idrok etib tushunish va idrok etishga maylikni nazorat qilish uchun analizdan sintezga o'tish jarayonini o'rganish kerak. Shuningdek, psixologik nazariyada to'rtta analizator, ya'ni ko'ruv, eshituv, nutq-xarakat, qo'l-xarakat analizatorlari nutq faoliyatining to'rttala turida o'ziga xos maxsus vazifani bajaradi va faoliyat jarayonida biri ikkinchisini nazorat qiladi. Ma'lumki, nutq faoliyat sifatida psixolingvistika fanining obyekti hisoblanadi. Chunonchi, psixolingvistik tadqiqotlarda nutqning sodir etilish va idrok qilinish jarayoni bevosita tahlilga tortiladi. Ushbu ikki chet tilda nutqning sodir etilishi gapirish va yozuv nomlari bilan ataladigan nutqiy faoliyat turlarini tashkil etadi, nutqni idrok etish esa, tinglab yoki o'qib tushunish orqali amalga oshiriladi. Demak, retseptiv planda nutq idrok etib tushuniladigan va produktiv jihatdan esa, gapirish va yozuv orqali axborot uzatish nazarda tutilmoqda. Har qanday tilda, jumladan, chet tilda, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, o'rganilayotgan ingliz tilida o'quvchi/talaba to'rtta asosiy nutq faoliyati turlarini egallashlari dasturiy talablar doirasiga kiradi. Ularning nomlarini til o'rganuvchining lisoniy tajribasida mavjud bo'lgan uch tilda keltiramiz: o'zbekcha – gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv; русча – говорения, аудированя, чтения, письмо; inglizcha – speaking, listening, reading, writing.

Maqolamizning qisqa izohidan kelib chiqib, chet til o'qitish metodikasida foydalaniladigan tushunchalar (notions) haqida to'xtalamiz. Chet til o'qitish metodikasida tushunchalar sirasiga ta'lim sharoiti, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim vositalari kabilari kiritilgan.

Til o'rgatish sharoiti tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: birinchisi, til o'rgatila-yotgan o'quv muassasasining turi, ikkinchisi, til o'rganuvchilarning til tajribasi, o'quvchi/talabaning yoshi, tilga bo'lgan qiziqishidan kelib chiqib tayanch bilimi (background knowledge) inobatga olinadi, uchinchisi, til o'rganuvchining psixologik tipologik xususiyati (psixolog olimlar tomonidan isbotlangan, yosh davrlar psixologiyasida keltirilgan

ma'lumotlarga ko'ra, inson tilni turli yoshda keskin farqli ravishda o'zlashtiradi), to'rtinchisi, til o'rgatishga ajratilgan vaqt masalasi esa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida 45 daqiqa, oliy ta'lim muassasalarida 80 daqiqa dars mashg'ulotlari olib boriladi. Bundan tashqari, sinf/auditoriyadan tashqarida olib boriladigan mashg'ulotlarda, o'quv markazlarda intensiv hamda ekstensiv tarzda o'qitishda ham vaqt masalasiga alohida e'tibor beriladi.

Til o'rgatish maqsadlari haqida so'z yuritishdan oldin maqsad tushunchasining ta'rifi keltirishni joiz deb bildik. Demak, turli maqsadlar turlicha ehtiyojlardan paydo bo'lar ekan, maqsad esa, rejalashtirilgan natija, tasavvurdagi oqibat ma'nosini anglatadi. Yetuk rus olimalaridan G.V.Rogova o'zining ilmiy faoliyatida amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi kabi chet til o'qitish maqsadlarini chuqur tahlil va tadqiq qilgan. Bularning ichida amaliy maqsad etakchi vazifani bajarib, shu bilan birga, muloqotdoshning nutqini idrok etish va o'z fikrini to'g'ri bayon eta bilish tushuniladi. Chet til o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'quvchi/talabalarga boshqa fanlardan olinadigan umumiy ta'lim bilan birgalikda tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati, tarixi, urf-odatlar, qadriyatlaridan xabardor bo'lib borishadi. Navbatdagi maqsadlardan biri – tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lib, o'quvchi/talabalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Chet til o'qitishning keyingi maqsadi – ta'lim oluvchining aqliy, psixologik, fiziologik xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgandir. O'qish uchun tanlangan matn yoki risoladan o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan axborotni ajrata bilish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Jahon miqyosida innovatsion g'oyalar keng tarqalayotgan bir paytda, yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qismlar, asosan, uchta kategoriya bilan ifodalanishi mumkin. Chet til o'rgatish metodikasida nimani o'rgatamiz savoliga javob izlanganda, biz albatta, nafaqat til o'rgatish, balki, boshqa o'quv predmetini o'rgatishda ham ta'lim mazmuni tushunchasi muhim rol o'ynaydi deb javob beramiz.

Til o'rgatish mazmuni tushunchasi doirasiga: 1) nutqiy mavzular, 2) nutq malakalari, 3) til materiali kabilar kiradi. Metodist olim tomonidan yaratilgan nutqiy mavzular (og'zaki nutq, o'qish, yozuv) yordamida muallim auditoriyada o'quvchilarga amaliy faoliyatda o'rgatadi, ya'ni til birliklari (leksika, grammatika, talaffuz)ni amaliyotda qo'llab, nutq malakalari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv)ni shakllantirishga erishadi. Qisqaroq qilib aytadigan bo'lsak, chet til o'qitish mazmuni muhim metodologik masala hisoblanadi. Ta'lim mazmuni tanlanadi (selection), taqsimlanadi (distribution), tasniflanadi (classification) va taqdim etiladi (presentation).

Til o'qitish metodi chet til o'qitishning amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi maqsadlariga erishishni ta'minlovchi o'qituvchi va o'quvchi amaliy faoliyatining yig'indisi tushuniladi. Metod nutq faoliyati turlari bilan bog'liq bo'lgan metodik prinsiplar majmuidir. Metod tushunchasi lingvodidaktika tarixidagi kashf etilgan butun bir yo'nalishlar (aralash, to'g'ri, qiyosiy, tarjima, ushbu metodlar uzoq tarixdan boshlab tatbiq etilib kelinib, u haqida ko'plab manbalarda batafsil yoritilgan va bugungi kungacha davom etib kelinmoqda), bu yo'nalishlarga kiradigan til o'qitish tizimi (Guen metodi, Palmer metodi kabilar) va nihoyat, o'qituvchi va o'quvchining tilni amaliy egallash chog'ida qo'llanadigan metod. Tarjima metodi o'qituvchilar tomonidan shu kungacha keng foydalanib kelinayotgan metodlardan biri bo'lib, chet tildagi material ona tiliga tarjima qilinadi. Matn o'qishni o'rgatish chog'ida dastlab, so'z, so'z birikmalari, so'ng gap tarjima qilinib matn mazmunini tushunishga o'rgatilgan. To'g'ri metod esa, tarjima metoddan keskin farq qilgan holda, ona tilidan butunlay chetlab o'tilgan, va hatto, grammatik hodisalarni o'rgatish jarayonida ham ushbu metoddan foydalanilgan. Hozirgi kunda chet til darslarida keng qo'llanib

kelinayotgan audiovizual va audiolingval metodlari ham yuqorida ta'rifini keltirgan, to'g'ri metodning yangi ko'rinishlaridan biridir. Ongli-qiyosiy metod talabi bo'yicha o'qituvchi tomonidan mashqlar tizimini tuzishda qiyoslab tuzilgan mashqlar qoida asosida bajariladi. Chet til o'quv predmetini o'rganishda turli lingvistik va psixologik nuqtai nazarlardan kelib chiqilgan. Masalan, tarjima metodi keng qo'llanilgan davrlarda ona tilining ingliz tilini o'rganishdagi o'rni yuqori bo'lgan, chet tilda nutqni egallash amaliy maqsad qilib qo'yilganda til o'rganuvchi uchun faqat gapirish asosiy vazifani o'tagan. Chet til o'rganish, boshqa o'quv predmetlari kabi o'quvchi/talabalarga yangi va foydali axborot berish chet til o'quv predmetining asosiy ustuvor vazifa darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek, o'qitish mazmunini tayyorlash va amalda tatbiq etish Yevropa ittifoqi ishlab chiqqan CEFR ma'lumotlaridan foydalanish ham o'rinli deb bilamiz.

Xulosa. Maqolada keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda xulosa o'rmi aytish mumkinki, til ta'limshunosligi (lingvodidaktika) fanida ba'zi tushunchalarni qisqacha bayonini keltirdik. Ushbu ro'yxatni yanada kengaytirish mumkin, yuqorida keltirilgan misollar lingvodidaktikada keng qo'llaniladigan terminlar haqida muayyan tasavvur xosil qiladi.

Adabiyotlar:

1. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh., Mavlonov M., Tuychieva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: O'quv-metodik qo'llanma. - T.: TDPU, 2004. - 132 b.
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv-yurtlari (fakul'tetlari) talabalari uchun darslik. - T.: O'qituvchi, 2012. - 432 b.
3. Жинкин Н. Механизмы речи. - М.: Изд-во Академии педагогических наук, 1958. - С. 130.
4. Пассов Е.И. Методология методики: теория и опыт применения (избранное). - Липеск: ЛГПУ, 2002. - 228 с.

TALABALARNING KASBIY-AMALIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Matnazarova Karomat Otaboyevna, QU, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Insonning kamol topishi uning hayoti davomida olgan ta'limi, egallagan kasbi va bilimiga bog'liq. Talabaning kasbiy fazilatlari bilim olish jarayonida shakllanadi, u o'z kasbiy faoliyatining boshida ularni faol ravishda amalga oshira boshlaydi va vaqt o'tishi bilan tanlagan kasbiga mos keladigan kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Таянч so'zlar: talaba, ta'lim, kasbiy fazilat, ko'nikma, kasbiy kompetentsiya, kasbiy-amaliy ko'nikma, faoliyat, bilim.

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ

Матназарова Каромат Отабоевна, д.ф.ф.н. (PhD), КУ

Аннотация. Развитие личности зависит от образования, профессии и знаний, которые он получил в течение жизни. Профессиональные качества студента формируются в процессе приобретения знаний и он начинает активно их реализовывать в начале своей профессиональной деятельности, со временем приобретает профессиональные навыки, подходящие для избранной профессии.

Ключевые слова: студент, образование, профессиональные качества, навык, профессиональная компетентность, профессионально-практические навыки, активность, знания.

STAGES OF FORMING PROFESSIONAL AND PRACTICAL SKILLS IN STUDENTS

Matnazarova Karomat Otaboevna, PhD, KU

Abstract. The development of a person depends on the education, profession and knowledge that he received during his life. The professional qualities of a student are formed in the process of acquiring knowledge, he begins to actively implement them at the beginning of his professional activity, and over time acquires professional skills suitable for the chosen profession.

Key words: student, education, professional qualities, skill, professional competence, professional and practical skills, activity, knowledge.

Kirish. Bugungi kunda, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida pedagog mutaxassislarni tayyorlash zamon talablari darajasiga javob bera oladigan xalqaro andozalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasi yangi mexanizmning keskin o'zgarishlariga moslasha oladigan va har qanday sharoitda raqobatlasha oladigan pedagog mutaxassislarni tayyorlash borasida zamonaviy ta'lim tizimiga egadirlar.

Asosiy qism. Hozirgi paytda tayyor bilimlarni o'zlashtirish asosiy maqsad bo'lmay, eng asosiysi talaba-yoshlarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilish obyektiv zaruriyatga aylandi. Shunday ekan bugungi kunda xalqning boy zamonaviy madaniyati, iqtisodiyoti, fan va texnika hamda texnologiyalarning yutuqlari asosida mutaxassislarni tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Inson taraqqiyoti uning yashash davri davomida olgan ta'limi, egallagan kasbi va bilimiga bog'liq. Insonlar hayotida ta'limning o'rni nihoyatda katta va quyidagilar bilan belgilanadi:

1. O'tmishni hozir va kelajak bilan uyg'unlashtirish. Bu o'tmishni o'chirib tashlamas-

dan, balki unda haqiqatni ko'rish, xolis tahlil qilish, undan xalqimiz tarixiy o'tmishiga oid bugun va ertaga foydalanish mumkin bo'lgan ahamiyatli hamda kerakli manbalarni yo'qotmasdan olish, ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz tarixini asrab-avaylash demakdir. Tarixni unitar ekanimiz, ajdodlarimizning bosib o'tgan hayot yo'lini ham unutamiz. Zero, Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek: «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q».

2. Turli irqqa, dinga, millatga mansub va turli tillarda gaplashadigan odamlarning bir-birini hurmat qilishi uchun sharoit yaratish. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agar millatlar o'z madaniyati, tili va adabiyotini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lmasa, jamiyatda ahillik bo'lmaydi. Faqat o'z milliy madaniyati, tili va adabiyoti bilan cheklanib qolgan davlat rivojlanmaydi.

3.»Otalar va bolalar», ya'ni turli yosh avlod vakillari o'rtasidagi hamjihatlik muammosini hal etish.

4. Dunyoda ro'y berayotgan globallashuv jarayonini hisobga olingan holda ijtimoiy hamjihatlik uchun sharoit yaratish. «Sharq-G'arb», «Shimol-Janub» yoki shunga o'xshash yo'nalishlarda odamlar o'rtasida hal etilmaydigan ziddiyatlar bo'lmasligi lozim.

Ko'nikma va malakalami o'quv jarayonida shakllantirish maxsus pedagogik vazifa hisoblanadi. Aksariyat o'qituvchilar bu muammoni yetrisha e'tibor qaratishmaydi. Ko'pincha ushbu ko'nikma va qobiliyatlarni maxsus, maqsadli rivojlantirish shart emas, deb hisoblashadi, chunki talabalar o'zlari o'quv jarayonida kerakli ko'nikmalarni egallaydilar – bu esa, noto'g'ri yondashuvdir. Talabani kasbiy sifatleri o'qitish davrida shakllanadi, kasbiy faoliyat boshlanishi bilan ularni faol amalga oshira boshlaydi va oxir-oqibat tanlagan kasbiga mos kasbiy ko'nikmaga ega bo'ladi. Kasbning muvaffaqiyatli bo'lishi va o'zini mutaxassis sifatida anglashi o'ziga xos kasbiy fazilatlar va kasb mahoratiga bog'liq. Kasbiy faoliyat sifati ma'lum bir kasbiy ko'nikmalarni talab qiladi. Mutaxassisning kasbiy sifatleri quyidagilardan iborat: ishni tashkil qilish qobiliyati; rejalashtirish; ustuvorliklarni aniqlash; rahbariyat tomonidan qo'yilgan vazifani ortiqcha shov-shuvsiz bajarish; ish jarayonlarini aniq muvofiqlashtirish [1]. Kasbiy kompetentsiya - bu mutaxassisning o'ziga ishonib topshirilgan mavzu sohasidagi masalalar va vazifalarni hal qilish qobiliyatlari [2]. Bizning tadqiqotimizda kasbiy sifatlar, kasbiy kompetentsiya, kasbiy malakalar o'rganilmagan. Ko'nikma - bu harakatni amalga oshirish jarayonida ishlab chiqilgan ongli harakatning avtomatlashtirilgan elementi hisoblanadi. Har qanday kasbiy faoliyat murakkab jarayon bo'lib, katta hajmdagi axborotni qayta ishlashni talab qiladi. Samarali ishlash uchun ong sohasidagi ba'zi ma'lumotlarni olib tashlash va bir qator harakatlarni avtomatik ravishda bajarish kerak. Bu funktsiyani ko'nikma bajaradi [3].

Kasbiy ko'nikmalar – bu tashkilot xodimiga o'z ish vazifalarini bajarishda yordam beradigan shaxsiy fazilatlar, ko'nikmalar va qobiliyatlar tushuniladi. Aksariyat hollarda har qanday ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun asosiy kasbiy ko'nikmalar quyidagilardir: muloqot qobiliyati, matnli ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyati, qiyinchiliklarni yengish va qaror qabul qilish qobiliyati. Ko'rib chiqilayotgan ishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, uni muvaffaqiyatli yakunlash uchun maxsus ko'nikmalar talab qilinishi mumkin [4].

Pedagogik amaliyot ta'limga Hard skills va Soft skills tushunchalari kirib keldi. Hard skills (kasbiy ko'nikmalar) – faoliyatning texnik tomoni bilan bog'liq ko'nikma va malakalar majmui. Bunday ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun materialni o'rganish, yodlash va tahlil qilish kerak. Bu ma'lum bir aql darajasini talab qiladi. Hard skillslarni namoyish etish mumkin, ular ish uchun murojaat qilishda majburiy talablar bilan bog'liq, ular ish tavsiflarida ko'rsatilgan.

Soft skills (shaxsiy fazilatlar, moslashuvchan ko'nikmalar) shaxsiy fazilatlar, qoida tariqasida, insonning shaxsiy tajribasi, uning fe'l-atvori va temperamenti bilan bog'liq bo'lib, hamkasblar, mijozlar va sheriklar bilan samarali hamkorlik qilish uchun muloqot qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ular har qanday o'ziga xos ko'nikmalarga qaraganda biroz subyektiv va hissiy tarkibiy qismga asoslangan [5].

Amaliy ko'nikmalar ma'lum bir jarayonni o'rganishga bog'liq. Amaliy ko'nikmalarning asosiy tarkibiy qismlari: shaxsiy tajribadan o'tish; amalga oshirishda qiyinchiliklarsiz; avtomatizmga olib kelish [4]. Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bevosita o'quv jarayonida amalga oshiriladi. O'quv jarayoni davomida talaba ma'lum faoliyat turlarini bajarish uchun bilim, ko'nikmalarni egallaydi va bu rivojlanishning istalgan bosqichida taraqqiyotni anglatadi.

Amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda va mashg'ulotni tashkil etishda o'qituvchi quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi: tarbiyaviy ishlarning maqsadlarini belgilash; materialni o'zlashtirishda talabalarning ehtiyojlarini shakllantirish; materialning mazmunini aniqlash; o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish; o'quv faoliyatiga emotsional ijobiy xarakter berish; talabalarning o'quv faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish; natijalarni baholash [6]. Kasbiy-amaliy ko'nikmalar tanishuv, tayyorgarlik va loyihalashtirish, variativ bosqichlarida shakllantiriladi.

Kasbiy-amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bosqichlari

Bosqichlar	Bosqich mohiyati	Bosqich maqsadi	Bajarish xususiyatlari
Tanishuv bosqichi	Harakat va uning ifodalanishini tushunish	Biror amalni bajarishni bilish	Maqsadni aniq tushunish, lekin unga erishish yo'llari, harakatlarni bajarishda xatolar mavjud
Tayyorgarlik (analitik) bosqich	Harakatning ongli, lekin bexato bajarilishi	Harakatning alohida elementlarini o'zlashtirish, ularni qanday bajarishni tahlil qilish	Harakatni qanday bajarish haqida aniq tushuncha mavjud, lekin noto'g'ri va beqaror bajarish kuzatiladi. Ko'p keraksiz harakatlar, harakatni bajarishga yuqori darajadagi konsentratsiya, kuchsiz nazorat mavjud
Loyihalashtirish (sintetik) bosqichi	Harakat elementlarini avtomatlashtirish	Elementar harakatlarni yagona harakatga birlashtirish	Harakatlar sifatini yaxshilash, ularni birlashtirish, keraksiz narsalarni bartaraf etish, diqqatni natijaga o'tkazish, nazoratni yaxshilash
Variativ (vaziyatli) bosqich	Harakatning vaziyatga moslashuvchanligi	Harakatni o'z boshimchalik bilan tartibga solishni o'zlashtirish	Maxsus sezuvchi ("his-tuyg'u") va fikriy sintezlar ("sezgi") asosida harakat nazoratini tegishli bajarish

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy-amaliy ko'nikmalarini shakllanishi uchun kasbiy-amaliy ko'nikmalarga xos belgilarni aniqlash talab etiladi. Ya'ni, faoliyatning aniq tashkil etilishi va tezligi, turg'unlik (halaqit beruvchi holatlarga qaramasdan harakatlarning aniqligi va maromni ta'minlash ko'rsatkichi); mustahkamlik (ko'nikmaning amaliy jihatdan harakat bajarilmagan davrdagi saqlanish holati); moslashuvchanlik (turli holatlarda samarali foydalana olish hamda ma'lum holatlarda eng ko'p foyda beruvchi uslubni qo'llash); bajaruvchanlik (talaba asoslari o'zlashtirilayotgan kasb-hunarga mos bo'lgan mehnat mashqlari va ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish).

Xulosa. Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv ko'nikmalarining turli tushunchalari, ya'ni mashqlarni bajarish, takrorlash, maqsadga muvofiq. Ko'nikmani alohida shakllantirish hech qachon mustaqil ajratilgan jarayon emas. Unga shaxsning avvalgi barcha tajribasi va mahorati, faoliyat maqsadi ta'sir ko'rsatadi. Har bir ko'nikma inson ega bo'lgan harakatlar tizimida mavjud. Ta'lim samaradorligini oshirishda va takomillashtirishda pedagogik va didaktik tizimlardan foydalanish zarur.

Adabiyotlar:

1. Какие профессиональные качества наиболее востребованы и как их развить? / Идеи Саморазвития: yandex.ru.
2. Профессиональные навыки и компетенции руководителя: понятие и оценка компетенции: <https://delen.ru/nyuansy-biznesa/professionalnaya-kompetenciya.html>
3. Навыки, умения, привычки и процесс их формирования: poisk-ru.
4. Основные навыки человека, которыми обладают все: yandex.ru
5. Hard skills и Soft skills: отличия этих понятий и почему они важны при устройстве на работу: hrlider.ru
6. Организация обучения при формировании практических навыков: studbooks.net

Ekologiya va Atrof-muhit konsepsiyasi

Azimova Sayyora Toshtemirovna, O'zPFITI doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologiya tushunchasi, uning paydo bo'lishi hamda muhit haqida, ekologiya va atrof-muhitni asrash zarurligi to'g'risida ma'lumotlar va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: ekologik omil, ekologiya, tirik organizmlar, ekologik muhit, tabiat, muhofaza, atrof-muhit.

Концепция экологии и окружающей среды

Азимова Сайёра Тоштемировна, докторант УзНИИПН

Аннотация. В данной статье представлена информация и рекомендации о понятии экология, ее возникновении и окружающей среде, необходимости защиты экологии и окружающей среды

Ключевые слова: экологический фактор, экология, живые организмы, экологическая среда, природа, охрана, окружающая среда.

CONCEPT OF ECOLOGY AND ENVIRONMENT

Azimova Sayyora Toshtemirovna, doctoral of UzSRIPS

Abstract. This article provides information and recommendations about the concept of ecology, its emergence and the environment, the need to protect ecology and the environment.

Key words: ecological factor, ecology, living organisms, ecological environment, nature, protection, and environment.

Kirish. Hozirgi kunda butunjahonda ekologiya bo'yicha turli hil muammolar kuzatilmoqda. Yurtimizdagi eng dolzarb bo'lgan bunday muammolardan biri bu «orol fojiasi» hisoblanadi. Ekologiyada bo'layotdan o'zgarishlar uning buzilishi tirik organizmlarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi, ya'ni har bir muammoga jiddiy nazar tashlab uni o'rganish, yechim topish, ekologiya buzilishini oldini olish, avvalam bor, o'zimiz insonlarning salomatlik garovidir.

Asosiy qism. Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, qulay ekologik holatni barqaror saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlash hamda sohada sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish maqsadida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2021-yil 30-dekabr PQ-76-son qaroriga muvofiq yurtimizda: ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirini oldini olish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish borasida jamoatchilik, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratiga uslubiy yordam ko'rsatish va ko'maklashish, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlanmoqda. Atrof-muhitning qulay ekologik holatini, ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va obyektlarning muhofaza qilinishini ta'minlanmoqda o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ular turlarining xilma-xilligini, tabiiy turkumlari yaxlitligini va ularning yashash muhitini saqlash, qayta tiklanishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat nazoratini olib borish, maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasida

davlat va xususiy sherikchilikni faol jalb qilgan holda tizimni tashkil etilmoqda. Atmosfera havosi, er, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, hayvonot va o'simlik dunyosini, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat ekologik nazoratini o'rnatilmoqda. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishini «Korrupsiyasiz soha»ga aylantirish, ekologik tarbiya, targ'ibot va ta'lim tizimini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga ko'maklashilmoqda. Bu dunyo murakkab va sirli tuzilgan, mana shu dunyoda yashash esa, undanda murakkab. Olamdagi har bir tirik jon, tirik organizmlar hayotining tashqi muhit bilan bog'liqligi qadimdan ma'lum, albatta. Antik davrni o'zidayoq ko'plab faylasuflar o'z asarlarida o'simliklar, hayvonlar va boshqa tirik jonzotlar yashashi, hayot tarsi, tuproq va iqlim sharoitlari bilan bog'liqligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tganlar. Insonlar tabiat bilan uyg'un holda yashagani tufayli, tabiatni o'rganish ularni tabiiy ehtiyojiga aylangan. Bu ehtiyoj tufayli insonlar atrof-muhit, o'simliklar va hayvonot olami, tabiatda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlarni sirli tomonlarini o'rgana boshlagan. Inson ongi, mantiqiy fikr yuritish qobiliyati va tafakkuri rivojlangani sari, tabiatdagi hayotning mohiyatini anglab yetish imkoniyati yuzaga kela boshladi.

«Ekologiya» terminini fanga kiritishga bo'lgan ilk qadam Nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan qo'yildi. E.Gekkel bu ishni 1866-yilda bajargan bo'lib, u bu atama haqida shunday fikrlar aytib o'tgan: «Ekologiya ayrim individlarning rivojlanishi, ko'payishi, yashashi, populatsiyasi va jamolarning tarkibi hamda o'zgarishlarini yashash muhitiga bog'liq holda o'rganadi». Ekologiya o'zi nima u yunoncha «oikos» – uy, boshpana, «logos» – fan, ta'limot, degan ma'nolarni anglatadi. Ekologiya biologik tizimlar turiga qarab quyidagi bo'limlarga ajratiladi: autekologiya (faktorial ekologiya), demekologiya (populyatsiyalar ekologiyasi), sinekologiya (jamoalar ekologiyasi), biogeotsenologiya (ekotizimlar ekologiyasi), global ekologiya (biosfera ekologiyasi), evolyutsion ekologiya va tarixiy ekologiya. Avvallari biron bir insondan ekologiya haqida so'rasangiz, u qisqacha «Atrof-muhit bilan bog'liqlik» deya javob berardi. Ba'zi insonlar esa, mana shu atama haqida esa, deyarli ma'lumotga ham ega emas bo'lib chiqardi. XX asrning 70-yillariga kelib fikrlar o'zgarib boshladi. Hozirgi kunga kelib kimdan so'ramang birinchi bo'lib hayoliga kelgan narsa bu ekologik muammolardir. Buni sababi insoniyatni tabiatga aralashuvi meyoridan oshib ketganligidadir. Bu dunyoda har bir bitta narsani meyor yaxshi. Bunga amal qilish zarurligi deyarli barchani qiziqtirishi kerak [1]. Hattoki inson uchun zarur bo'lgan kislorodning ham meyor yaxshi, chunki u kamayib ketsa atmosferada gazlar miqdori oshib ketishiga olib keladi. Agarda kislorod miqdori oshib ketsa, yer sirtidagi harorat maksimal darajaga ko'tariladi, sodda qilib aytganda, yer mikroto'lqinli pechga aylanadi, odamlar esa, uning ichida qovurilayotgan bodirog'larga. Bu esa, yakun odamzod uchun intihoh. Bu bir misol. Bunday misollardan ko'plab keltirish mumkin. Ekologiya muammosi hozirgi kunda global muammoga aylanib ulgurangligiga ko'p bo'ldi. Global isish, Antarktida muzlarini erishi, buning oqibatida suv toshqinlarini ko'payishi, azon qatlamini yemirilishi, ko'plab yong'inlar, ichimlik suv zaxirasini tugab borishi, bu shunchaki uchdan biri holos. Bu muammolar insoniyatga tobora ko'proq havf sola boshladi. Buning yechimlarini esa, hali hamon kutmoqdamiz. Biz bunga shunchaki ko'z yuma olmaymiz. Albatta, ko'plab olimlar bu muammolarni hal etishga urinmoqda, ba'zilarini deyarli hal etishga ham erishishdi. Ammo bu yetarli emas. Bu shunchaki muammoni vaqtinchalik muzlatib qo'yishdek gap [2]. Hammasini o'z holiga qaytarish uchun insoniyat o'z taraqqiyotidan voz kechishi kerak. Bir qarashda, bu ilojisizdek ko'rinadi, biroq hammasini o'z holiga qaytarishning iloji bor va buni qilsa bo'ladi. Tabiatni asrash har birimizni burchimizdir. Insonlarni lol qoldiradigan uni qalbini tub-tubidan o'rin egallagan go'zallik ham tabiat mo'jizasi. Odamlarni chinakamiga hayratga sola oladigan va tuyg'ularini jo'shqinlantiradigan mana shu tuyg'ularni kuchaytiradigan ham tabiatdir. Insoniyat tabiat

oldida oqizligini barcha anglab yetgan bo'lsa kerak. Garchi vaqt kutib turmasa-da, hammasini tog'rilash uchun insoniyat ixtiyorida yetarlicha vaqt bor deb hisoblayman [3].

Ekologik muhit, bu jonzoqlarning manfaatlarini atrof-muhit bilan alohida-alohida va to'la-to'kis ko'rib chiqib, ularni bir vaqtning o'zida tekshirish o'rniga tekshiradigan ilm-fan bo'limi. Organizmlarning yashash muhitiga ijobiy va salbiy ta'sirini o'rganadigan ekologiya ekologik muammolarni kamaytirish va hayotning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Ekologik muhitga nisbatan sezgir bo'lishni va xabardorlikni oshirishni taklif qilish uchun, yashil atrof-muhit, yashil dunyo va yashil yoriq kabi tabiatni va tozalikni yodga soladigan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Shu bilan birga, ko'pgina olimlar va, ayniqsa, Evropa Ittifoqi mamlakatlari bu masala bo'yicha juda ko'p ish bor, ijtimoiy mas'uliyat siz yashayotgan muhitga zarar etkazmasligi kerak. Bu rad etilmaydigan ko'rinadigan haqiqatdir. Sizing hayot sifatigiz va kelgusi avlodlarning davomiyligi uchun har kim zarur sezgirlikni namoyon qilishi kerak. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Shimoliy Karolina Universitetida ishlaydigan «Dietanolamine-DEA mad madde» da bugungi kunda 1978 126 navlari bo'yicha Marmara dengizi hujayralarini o'ldirgan miya hujayralari soni kamaygan. 25 gacha dengiz organizmlari 2050% yo'qolishi taxmin qilinmoqda. Balans tez yomonlashmoqda. Barcha tirik mavjudotlar ta'sir ko'rsatadi [4]. Tabiiy balansdagi buzilishning eng katta ta'siri kimyoviy moddalar, tezkor energiya iste'moli, tabiiy resurslarni yo'q qilish va qayta tiklanmaydigan chiqindilar mavjudligi kabi ko'plab sabablarga bog'liq. Tabiatda buyruq bor. Masalan, jonli mavjudotlar bir-birini yeb olish sharti bilan tirik qolishadi. Iqlimning tez yomonlashishi hayvonlar va o'simliklarning yashash sharoitlarini kuchaytiradi, oziq-ovqat mahsulotlarini dezinfektsiyalash kimyoviy moddalar bilan amalga oshirilganda, o'simliklarning tarkibi buziladi va kanserogen moddaga aylanadi. Iste'molchilar o'zlarini ogohlantiruvchi va kamroq ifloslanishni yuzaga keltiradigan, zararli chiqindilar yo'q qayta ishlanadigan, o'z-o'zini tiklaydigan resurslarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish orqali yanada xavfsiz bo'lishini biladilar. Tadqiqotlar va so'rovlarga ko'ra, iste'molchilar atrof-muhitga tegishli ekologik mahsulotlarga aylandi.

Xulosa. Ekologik mahsulotlar ma'lum bir mavzu bilan chegaralanmaydi, lekin tarqatish tizimi, ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyolarni xarid qilish, ishlab chiqarishning barcha bosqichlari va iste'molchilarga yetkazib berish, qadoqlash va etiketlash jarayoni yakuniy iste'moldan so'ng chiqindilarigacha bo'lgan barcha jarayonlarga ustun keladi. Oziq-ovqat ishlab chiqarish, kiyim-kechak, tayyor kiyim, energiya ishlab chiqarish, shaxsiy parvarishlash – kosmetika mahsulotlari, qurilish qurilishi, erni muhofaza qilish kabi ko'plab sohalarda ekologik mahsulotlardan foydalanish mumkin. Ekologik mahsulotlardan foydalanishning afzalliklariga ko'yidagilar kiradi: barqaror tabiiy resurslar, tirik mavjudotlar avlodlari davom etmoq, jismoniy va aqliy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, dunyoning uzoq umr ko'rishini ta'minlaydi, yangi avlodlar yashil va xavfsiz dunyo bilan qoladi, xalqaro bozorlarga savdo nuqtai nazaridan kirishni osonlashtiradi, iqtisodiyotni jonlantirish, raqobatbardoshlikni oshiradi, turizmni takomillashtiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ekologik mahsulotlarda foydalanib biz atrof-muhitni o'z sog'ligimizi, qolaversa, tabiiy boyliklarga boy bo'lgan ona zaminimizni asragan bo'lamiz.

Adabiyotlar:

1. Коробкин Д.А., Переделский Л.В. Экология. - М., 2005.
2. Колесников С.И. Экология: Учебник (для бакалавров). - М., 2020.
3. www.ziyonet.uz
4. Парсон Э. Защита озонового слоя: наука и стратегия. - Оксфорд: ОУ, 2003.

МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Асадова Шахло Рахматилла кизи, докторант ТГПУ

Аннотация. Исследование межличностных отношений по-прежнему остается актуальным в контексте диагностики их влияния на личность и ее жизнедеятельность, адаптации человека в коллективе, особенно, если его принадлежность к обществу носит вынужденный и временный характер, например, в студенческом коллективе. Кроме того, в изучении взаимоотношений возникла необходимость перенести акценты с теоретических представлений на рассмотрение повседневных отношений, мотивов поведения в коллективах, группах, на разработку способов их гармонизации.

Ключевые слова: *межличностные отношения, студенческий коллектив, взаимоотношения, информированность, популярность.*

TA'LIM MUASSASALARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR

Asadova Shaxlo Raxmatilla qizi, TDPU doktoranti

Annotatsiya. Shaxslararo munosabatlarni o'rganish ularning shaxsga va uning hayotiy faoliyatiga ta'sirini tashxislash, jamoaga moslashtirish nuqtai nazaridan dolzarb bo'lib qolmoqda, ayniqsa, agar unga tegishli bo'lish majburiy va vaqtinchalik bo'lsa, masalan, talabalar jamoasida. Bundan tashqari, munosabatlarni o'rganishda diqqatni nazariy g'oyalardan kundalik munosabatlarni, jamoalarda, guruhlarda o'zini tutish motivlarini ko'rib chiqishga, ularni uyg'unlashtirish usullarini ishlab chiqishga o'tkazish zarurati tug'ildi.

Tayanch so'zlar: *shaxslararo munosabatlar, talabalar jamoasi, munosabatlar, xabardorlik, mashhurlik.*

INTERPERSONAL RELATIONS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Asadova Shakhlo Rakhmatilla qizi, doctoral of TSPU

Abstract. The study of interpersonal relationships remains relevant in the context of the diagnosis of their impact on the personality and its vital activity, the adaptation of a person in a team, especially if his belonging to it is forced and temporary, for example, in a student team. In addition, in the study of relationships, it became necessary to shift the focus from theoretical concepts to the consideration of everyday relationships, motives of behavior in collectives, groups, and the development of ways to harmonize them.

Key words: *interpersonal relationships, student body, relationships, awareness, popularity.*

Введение. Педагог в вузе имеет дело с разными студенческими группами, поэтому для преподавателя важно знать основные характеристики межличностных отношений и коллектива. Углубленное понимание закономерностей и феноменов межличностных отношений в коллективе является одним из условий обеспечения всестороннего развития личности.

Основная часть. В философской литературе разработка проблемы отношений тесно связана с рассмотрением таких категорий, как деятельность и общение, и занимает значимое место. Методологическая общность подходов к изучению этих категорий проявляется в том, что большинство из них разделяют принципиальную позицию о единстве отношений, общения и деятельности, однако характер этого

единства понимается по-разному. Понятие «отношение» философы рассматривают в рамках как субъект-объектных, так и субъект-субъектных связей. При этом общим для одной и другой связи выступают модальные отношения (положительная, отрицательная, нейтральная) и устойчивость. А существенным отличием субъект-объектного отношения от субъект-субъектного является однонаправленность первых; субъект-субъектные связи, напротив, характеризуются взаимностью. Субъект-субъектным отношениям свойственна как постоянная взаимность, так и изменчивость, что объясняется активностью обеих сторон. Однако только при условии наличия взаимности отношений возможно образование так называемого «совокупного фонда»: общего и нового межсубъектного образования (взгляды, чувства). Акцент на такие свойства межличностных отношений, как взаимность и изменчивость, приводит к мысли о том, что взаимоотношения переживают развитие, а потому изучить их можно только в развитии. Опираясь на принципы системного анализа, М.С.Каган освещает проблему межсубъектных отношений в коллективе с позиции деятельностного подхода и называет практическим межсубъектным отношением «лишь такое, в котором участники единого действия выступают ... как равно активные и равно свободные партнеры, ориентирующиеся друг на друга ... как на инициативно-самодельствующие субъекты». Из этого определения следует, что межличностные отношения – это всегда субъект-субъектные связи, не любые практические связи людей (иногда случается так, что один субъект использует другого как объект), а только те, в которых они выступают как полноценные субъекты. Отношения субъектов друг к другу строятся таким образом, что каждый «вносит свою лепту активности, целенаправленности, сознания и самосознания, избирательности и свободы в достижение общего результата». В совместных действиях активность каждого участника направлена как на обрабатываемый объект, так и на других субъектов, вместе с которыми эта обработка осуществляется. М.С.Каган заметил, что практическая деятельность людей, выполняемая коллективно, почти всегда требует их «материального, вещественно-энергетического взаимодействия»; при этом он особо подчеркивает, что «умение эффективно действовать ..., находить оптимальное решение задачи не заложено у человека, как у животного в генетической программе, в инстинкте, а обретается в онтогенезе, в процессе его обучения, образования и общественного воспитания». Отсюда следует вывод о том, что именно педагогика призвана помочь молодому человеку научиться правильно и эффективно взаимодействовать в коллективе. Высказывание о том, что общение «предполагает духовную регуляцию, включает в себя духовные действия субъектов» и имеет при этом целью «"духовное единение партнеров», «достижение их духовной общности» позволяет сделать заключение о том, что общение людей как межсубъектное отношение подразумевает их глубокое взаимное влияние. Подобное влияние взаимоотношений в молодежных коллективах должно нести в себе положительное воспитательное начало. Поэтому, чтобы избежать его стихийности и, как следствие, непредсказуемых последствий, требуется соответствующее педагогическое вмешательство. Иной подход к взаимосвязи категорий отношение, общение и деятельность развивает Л.П.Буева, которая не причисляет общение к ряду отношений, описывая взаимосвязь этих категорий, а пишет о том, что общение представляет собой форму связи, в которой конкретизируются и проявляются отношения. Кроме того, объективные отношения между людьми в процессе деятельности определяют

всю совокупность субъективных характеристик общения. Наряду с деятельностью, ученый называет общение «одним из существенных факторов сложного процесса социальной детерминации поведения человека», добавляя при этом, что «оно является одним из важнейших условий формирования сознания и самосознания личности, стимулятором ее развития, включается в мотивационно-побудительный процесс».

Как правило, преподаватели в своей работе сосредотачивают свое внимание главным образом на учебной дисциплине как таковой и, возможно, именно этим во многом обусловлены неудовлетворительные данные констатирующего эксперимента. Между тем, следует помнить, что перед преподавателем стоит не единственная задача - передать предметные знания студентам. Круг его задач гораздо шире, чем подача учебного материала и последующий контроль усвоения полученных студентами знаний. Преподаватели вуза не занимаются организацией внеаудиторной работы студентов. Исключение составляют те, кто воспитывает студентов на основании своих личных привязанностей. Отсутствие умения строить полноценные взаимоотношения может привести к изоляции молодого человека от компании сверстников. Это во многом затрудняет его социальное и личностное развитие. Студенты, занимающие неблагоприятное положение в коллективе, как правило, отличаются заниженной самооценкой и становятся жертвами агрессивности, а иногда и жестокости со стороны сверстников. Этим обусловлена необходимость формирования межличностных отношений в студенческом коллективе, которое предусматривает освоение студентами практических способов конструктивного взаимодействия в коллективе. Мы установили, что формирование межличностных отношений в студенческом коллективе возможно лишь в процессе специально организованной педагогом деятельности, которая представляет собой основное средство воспитания будущего специалиста. Главным видом деятельности студентов в вузе является учеба. Поэтому совокупность методов, которые использует преподаватель в ходе организации учебно-воспитательного процесса определяет особенности формирования взаимоотношений в студенческом коллективе. Формирование межличностных отношений в студенческом коллективе определенным образом зависело от активизации процесса обучения. Активизация процесса обучения выступила важнейшим условием формирования межличностных отношений в студенческом коллективе, а потому влияла на все показатели сформированности взаимоотношений в коллективе. Активизация процесса обучения включала комплексное применение активных методов обучения, использование групповых форм обучения, индивидуализацию и дифференциацию обучения, а также активизацию познавательной деятельности студентов.

Для популярности молодого человека в кругу своих сверстников важной является его субъективная информированность и эрудиция. Это означает, что эрудиция определяет положение социометрический статус личности в студенческом коллективе. Таким образом, мы пришли к заключению о том, что деятельностью, способствующей преодолению студентами психологической изоляции в коллективе, является активная познавательная деятельность. Именно активизация познавательной деятельности студентов подчинена решению проблемы снижения числа студентов с неблагоприятным статусом в коллективе.

Чтобы повысить уровень общей информированности и эрудиции, преподаватели учили студентов обрабатывать информацию, получаемую из различных источников.

Информационная образованность обязательно предполагала овладение методологическим инструментом для получения, восприятия и критического анализа информации, и являлась причиной роста популярности студента. Поскольку познавательная активность, с одной стороны, предполагала эффективное овладение знаниями и способами деятельности, а, с другой стороны, мобилизацию нравственно-волевых усилий в достижении учебно-познавательной цели, она, тем самым, стимулировала гармоничное интеллектуальное и личностное развитие студентов, а потому влияла на рост их популярности в коллективе.

Вывод. Таким образом, мы рассмотрели межличностные отношения студентов, которые оказывают несомненное влияние на межличностные отношения в студенческом возрасте. Динамичные процессы структурирования, формирования и изменения межличностных отношений оказывают сильное действие на личность студента, успех его учебной деятельности и профессионального становления, его поведение. Благоприятное положение студента в окружающей его среде содействует нормальному развитию его личности.

Литература:

1. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человека-знания. - СПб.: Питер, 2001.
2. Каган М.С. Философия культуры. - СПб.: Петрополис, 1997. - 415 с.
3. Куницына В.Н., Казаринова Н.В., Погольша В.М. Межличностное общение: Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2003.
4. Педагогика и психология высшей школы / Под ред. М.В.Буланова. М.В.Топоркова. - Ростов на Дону, 2002.
5. Свенцицкий А.Л. Социальная психология: Учебник для бакалавров. - Люберцы: Юрайт, 2016. - 408 с.
6. Свенцицкий А.Л., Панфёров В.Н., Куликов Л.В. и др. Социальная психология общения: Монография. - М.: Инфра-М, 2017. - 64 с.

PEDAGOGIK XODIMRLARNING JAMOA YAXSHILIGI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHINING AHAMIYATI

Rashidova Nargiza Rashid qizi, Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi yetakchi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Annotasiya. Ushbu maqolada kasb-hunar ta'limi pedagogik jamoasining jamoaviy rahbarlik vakolatlarini rivojlantirishdagi yondashuvlar va ularning ahamiyati muhokama qilinadi. Maqolada, shuningdek, yondashuvlar asosida o'qituvchilarning jamoaviy etakchilik kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi muhokama qilinadi.

Tayanch so'zlar: kasbiy ta'lim, o'qituvchilar tarkibi, innovatsion yondashuvlar, jamoani boshqarish kompetensiyasi.

THE IMPORTANCE OF INNOVATION APPROACH IN THE DEVELOPMENT OF TEAM LEADERSHIP COMPETENCE OF TEACHING STAFF

Rashidova Nargiza Rashid kizi, base doctoral student of the Institute of pedagogical innovations, management of vocational education and retraining and advanced training of teaching staff

Abstract. This article discusses approaches and their importance in the development of the competence of team leadership of teaching staff of vocational education. The article also examines the effectiveness of the development of team leadership competence of teaching staff based on approaches.

Key words: professional education, teaching staff, innovation, team leadership competence.

Kirish. Hozirgi kunda butunjahon ta'lim tizimida pedagog kadrlarning o'rmi o'zgargan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir vaqtda pedagog kadrlar o'quvchi va talabalar uchun yagona bilim manbai emasligi ayni haqiqat. Shu sababli O'zbekistonda ham professional ta'lim tizimi shunday tashkil etilyaptiki, unda pedagog kadrlarning asosiy vazifasi o'quvchilarga ta'lim berishda kognitiv va tanqidiy fikrlashni shakllantirish. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlar kasbiy faoliyatini tashkil etishda va ularning malakasini oshirish jarayoniga mos ravishda yondashuvlarni tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Bizning tadqiqot ishimizda innovatsion, aksiologik va androgogik yondashuvlar didaktik jarayon nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.


Asosiy qism. Pedagogik tadqiqotlarda «yondashuv» tushunchasi quyidagicha ko'rib chiqiladi: asosiy tushuntirish tamoyili; ko'rib chiqilayotgan jarayon rivojlanishining asosiy qonunlarini talqin qilish; jarayondagi xodisalardinamikasini ta'minlovchi asosiy mexanizmlarning tavsifi; pedagogik faoliyatning o'zaro bog'liqlik tushunchalari, g'oyalari va usullari to'plami; murakkab muammolarni hal qilishning metodologik vositalari [5]. V.A.Slastenin, I.F.Isayev, YE.N.Shiyanov kabi olimlarning fikricha, pedagogikada «yondashuv» atamasi ta'lim va tarbiya strategiyasini belgilovchi tamoyillar to'plami sifatida tavsiflanadi. Har bir tamoyil o'quv jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal qilishni tartibga soladi, ularning o'zaro bog'liqligi esa, uning asosiy ziddiyatlarini hal qilishdir.

Bizningcha, ta'limda yondashuv o'qitish metodikasida va mashg'ulot samaradorligida muhim jarayon hisoblanadi. Mashg'ulot maqsadiga erishishda o'quv jarayoniga tadbiq qilingan metodlar, texnologiyalar, vositalar bilan bir qatorda yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan tadqiqot ishimizda biz tomondan tanlangan innovatsion, aksiologik va andragogik yondashuvlar qanday yondashuv? Nima uchun biz pedagog kadrlarning jamoaviy liderlik kompetentligini rivojlantirishda aynan mana shu yondashuvlarga murojaat

qildik? Mana shu kabi savollarga javob topish va yondashuvlarning mazmun va mohiyatini aniqlash, ilmiy-pedagogik jihatdan tushunish uchun biz avval «innovatsiya» tushunchasini hamda uning pedagog kadrlarning jamoaviy liderlik kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

«Innovatsiya» tushunchasi ilk marotaba 1912-yil Avstriya olimi Y.A.Shumpeter tomonidan «iqtisodiy inqirozlamni bartaraf etuvchi vosita» ma'nosida qo'llanilgan [6]. F.Udvadia ma'lumotlariga ko'ra, innovatsiya shaxs uchun yangi bo'lgan faoliyat yoki texnologiyani qabul qilishi; shaxsning tez o'zgaruvchan noaniq sharoitlarga moslashishi [7]. P.D.Kitaygorodskiy «innovatsiya» tushunchasini «yangi ilmiy akademik bilim, xizmat, texnologiya yoki mahsulotlarni tijoratlashtirish jarayoni», – deb hisoblaydi [4]. «Innovatsiya» tushunchasini o'rganib, T.F.Berestova «innovatsiya – bu yangilikning bozorga mahsulot, xizmat yoki texnologiya shaklida kirish uchun zarur bo'lgan g'oyaning kelib chiqishi, uning texnologik ishlab chiqilishidan to rasmiy holatga kelish jarayonidagi moliyalashtirish bosqichlar», – deya ta'kidlab o'tgan [1]. Rossiya olimi V.P.Deliyaning ham nazariyasiga ko'ra, «innovatsion jarayonning negizida voqelik va inson faoliyatidagi tub yoki bosqichma-bosqich o'zgarishlar» deyilgan [2]. Fikrimizcha, XXI asr har qanday sohaga innovatsion yondashish zamon talabidir, shu jumladan, pedagogikaga ham. Malaka oshirish kurslarida innovatsion yondashuv asosida pedagog kadrlarning jamoaviy liderlik kompetentligini rivojlantirish uchun, avvalo, innovatsion ta'lim muhitini hosil qilish, zamonaviy pedagogik metodlarni, texnologiyalarni takomillashtirish yoki joriy qilish, ularni ommalashtirish va muammolarga jamoaviy yechim topish zarur. Innovatsion ta'lim va innovatsion faoliyat turli kontekstlarda ko'rib chiqiladi: innovatsion yondashuvni amalga oshirish vositasi sifatida hamda pedagog kadrlarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish sharti sifatida yuzaga keladi.

Quyida keltirilgan 1-rasmda biz ta'lim tizimiga an'anaviy va innovatsion yondashuvning qiyosiy tavsifini keltirib o'tdik. Innovatsion yondashuv nafaqat o'quv jarayoniga balki ta'lim tizimiga joriy etish ijobiy natija beradi deb hisoblaymiz.



1-rasm. An'anaviy va innovatsion yondashuvning qiyosiy tavsifi

Quyida keltirilgan jadvalda biz ta'lim tizimiga an'anaviy va innovatsion yondashuvning qiyosiy tavsifini keltirib o'tdik.

Innovatsion yondashuv nafaqat o'quv jarayoniga balki ta'lim tizimiga joriy etish ijobiy natija beradi deb hisoblaymiz.

Pedagog kadrlarning jamoaviy liderlik kompetentligini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish ta'lim oluvchining ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini namoyon eta olish, o'quv materiallarini o'zlashtirishda ijodiy, tanqidiy, kreativ yondashish, muammoli vaziyatlarga jamoaviy va samarali yechim topish imkonini beradi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan olimlar nazariyalaridan umumiy xulosa sifati ta'kidlash joizki, har qanday ta'lim tizimi ochiqlik, ko'p bosqichlik, ko'p darajali, ko'p funksiyali, ko'p yondashuvlilik va uzluksizligi bilan ajralib turadi. Malaka oshirish tizimining muhim xususiyati shundaki, u bir tomondan – uzluksiz ta'lim tizimi, ikkinchi tomondan – kattalar ta'limi tizimi sifatida faoliyat ko'rsatadi [3]. Qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarida kattalar ta'limini tashkil etishni innovatsion, aksiologik hamda androgogik yondashuvlarga asoslangan axborot-metodik ta'minotini belgilash samarali natijalarga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Берестова Т.Ф. Инновация и инновационная деятельность: пределы понятий // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. - Ч., 2008. - № 3 (15). - С. 70-76.

2. Делия В.П. Инновационное мышление в XXI веке. - Балашиха: Де-По, 2011. - 232 с.

3. Варкина Е.А. Формирование экономической компетентности руководителя образовательного учреждения в системе повышения квалификации: Дис. ... канд. пед. наук. - Оренбург, 2009. - 229 с.

4. Китайгородский П.Д. К вопросу о понятии «инновация» // Юбилейные февральские чтения. - М., 2012. - С. 315-317.

5. Сериков В.В. Личностный подход в образовании: концепция и технологии: Монография. - Волгоград: Перемена, 1994. - 150 с.

6. Schumpeter J.A. Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung // Duncker & Humblot. - 1912.

7. Udwadia F.E. Creativity and innovation in organizations: two models and managerial implications // Technological forecasting and social change. - 1990. - Vol. 38, Issue 1. - P. 65-80.

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA FAOL O'QITISH USULLARINING AHAMIYATI

Tolipova Malika Saloxiddinovna, Pedagogika innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruvi hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish va ularning ijodiy faolligi darajasini oshirish maqsadida ta'lim muassasining o'quv jarayoniga faol o'qitish usullarini joriy etish zarurligi asoslanadi. O'quv loyihalaridan foydalanish talabalarning ijodiy yo'nalishini faollashtirishga, axborot va taqdimot ko'nikmalarini idrok etish sohasini kengaytirishga, shuningdek, bilimlarni mustaqil ravishda egallash va amalda qo'llashga yordam beradi.

Tayanch so'zlar: *innovatsiyalar, faol o'qitish usullari, shaxsni rivojlantirish, loyiha usuli, loyihaviy faoliyat.*

ЗНАЧЕНИЕ АКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Толипова Малика Салохиддиновна, докторант Института педагогических инноваций, переподготовки и повышения квалификации руководящих и педагогических кадров профессионального образования

Аннотация. В статье обосновывается необходимость внедрения методов активного обучения в образовательный процесс учебного заведения с целью совершенствования подготовки будущих специалистов и повышения уровня их творческой активности. Использование учебных проектов способствует активизации творческой направленности учащихся, расширению сферы восприятия информации и презентационных навыков, а также самостоятельному приобретению и применению знаний на практике.

Ключевые слова: *инновации, активные методы обучения, развитие личности, метод проекта, проектная деятельность.*

THE IMPORTANCE OF ACTIVE TEACHING METHODS IN PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

Tolipova Malika Saloxiddinovna, doctoral student of the Institute of pedagogical innovations, retraining and advanced training of leading and pedagogical personnel of vocational education

Abstract. The article makes the case for the introduction of active learning methods in the educational process of the College in order to improve the training of future professionals and to raise the level of their creative activity. A teacher's experience on the application of project-based learning. It is shown that the use of the training projects helps to activate the creative direction of students, expanding the scope of information perception and presentation skills, and a separate acquisition and application of knowledge in practice.

Key words: *innovation, active methods of learning, personal development, project-based learning, project work.*

Kirish. So'nggi yillarda jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar kasb-hunar ta'limi uchun mutaxassislarni tayyorlashda yangi maqsadlarni qo'ydi. Bugungi kunda shaxsning kasbiy jihatdan muvaffaqiyati, asosan, uning ijodiy salohiyati bilan

belgilanadi. Shu sababli, yuqori darajadagi umumiy bilimlarni bergan ta'lim har bir talaba shaxsiyatining ijodiy rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim bilan almashtirilishi kerak. Bunday mutaxassislarini tayyorlashdan oldin kasbiy muassasalarda o'qitish mazmuni, usullari va shakllaridagi o'zgarishlar, ya'ni pedagogik innovatsiyalar zarur. Aynan «innovatsion ta'lim» talabalarning loyiha faoliyati, shuningdek, kelajakka yo'naltirilgan faoliyat turi sifatida o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatini shakllantirishi kerak.

Asosiy qism. Ta'lim faoliyatidagi innovatsiyalar – bu ijtimoiy va bozor talabi bilan ajralib turadigan ta'lim xizmatlari shaklida natijaga erishish uchun yangi bilimlar, texnikalar, yondashuvlar, texnologiyalardan foydalanish. Innovatsion tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, yangiliklarning aksariyati o'qitish texnologiyalari va usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish yo'nalishlaridan biri bu faol o'qitish usullaridan foydalanishdir. To'g'ri tanlangan usullar kelajakdagi mutaxassislarini tayyorlash sifatiga samarali ta'sir ko'rsatishi, ularning aniq ijodkorlikka ega bo'lgan ijodiy shaxs sifatida shakllanishiga hissa qo'shishi mumkin. Ijodkorlik individuallik va shaxsning barcha potentsial imkoniyatlarining maqbul rivojlanishi sifatida ijodkorlik uchun umumiy universal qobiliyat sifatida faqat ijodiy jarayonda namoyon bo'ladi va amalga oshiriladi.

Ta'limning har qanday usuli ma'lum darajada shaxsning rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, agar talabalar tubdan yangi uslubiy asoslarga uyg'unlashtirilgan o'quv jarayoni bilan ta'minlanadigan, o'qituvchilar va talabalarning ijodiy faoliyati natijasida yuzaga keladigan va talabaning kasbiy tayyorgarlikning passiv obyektidan o'zaro ta'sir mavzusiga aylanishini nazarda tutadigan faol faoliyatga kiritilsa, rivojlanish natijasi yanada samarali bo'ladi.

Faol usullarning paydo bo'lishi va rivojlanishi kasbiy ta'lim muassasalari oldida yangi vazifalar paydo bo'lganligi bilan bog'liq: nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki kognitiv qiziqish va qobiliyatlarni, ijodiy fikrlashni, mustaqil aqliy mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlashdir.

A.Verbitskiy «faol o'rganish» tushunchasining mohiyatini quyidagicha izohlaydi: faol o'rganish didaktik jarayonni tashkil etishning, asosan, tartibga soluvchi, algoritmlangan, dasturlashtirilgan shakllari va usullaridan kognitiv motivlar va qiziqishlarning tug'ilishini ta'minlaydigan rivojlanayotgan, muammoli, tadqiqot, qidiruv usullariga o'tishni anglatadi. Faol usullardan foydalanishning asosiy maqsadi kelajakdagi mutaxassisning kasbiy shakllanishi uchun sharoit yaratish, o'quv jarayoni ishtirokchilarining faolligini oshirishdir. Ta'lim muassasalarida faol usullarning ko'plab modifikatsiyalari qo'llaniladi, bu erda usullar o'qitish shakllari va vositalari bilan birlashadi va ba'zida bu toifalarni ajratish juda qiyin.

Kasb-hunar ta'limi sohasida turli xil faol o'qitish usullaridan foydalanish mumkin: «tadqiqot», «muammoli vaziyat», «interaktiv o'yin», «aqliy hujum», «davra suhbatlari», «loyiha» va boshqalar. Shu bilan birga, professional ta'lim tizimida ko'p yillik tajriba va oliy ta'lim o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini, loyihaviy ta'limdan foydalanish, uning uslubiy asosi guruhi va guruhdan tashqari ishlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan loyiha usuli eng istiqbolli hisoblanadi.

Loyiha ishini qo'llashning asosiy maqsadi: «Loyiha» atamasi lotincha «projectus» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «oldinga tashlangan» degan ma'noni anglatadi. Loyiha deganda «texnik hujjatlar-yaratilgan binolar, inshootlar, mashinalar, qurilmalarning maketlari; hujjatning dastlabki matni; reja. Dizayn – bu loyihani tuzish, kelajakda

biror narsa qilishni, rejani tuzishni, obyektini tekislikda ko'rsatishni anglatadi». Talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatiga nisbatan dizayn yoki proektsion faoliyatni har qanday o'quv loyihalarini yaratishga qaratilgan, shuningdek, nazariy va empirik darajadagi turli xil o'quv muammolarini hal qilish uchun foydalaniladigan prognozlash, rejalashtirish va modellashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish faoliyatining, o'ziga xos turi sifatida belgilanadi.

Loyihani o'qitish talabning bilim ko'nikmalarini rivojlantirish, uning qobiliyati, zamonaviy texnologiyalarni axborot dunyosida harakat qilish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tizimi asosida amalga oshiriladi. O'quv jarayonida loyiha usuli turli xil ta'lim resurslaridan foydalanishga qaratilgan bo'lib, ilmiy-tadqiqot va o'quv adabiyotlari bilan qog'ozda mustaqil ishlashni, shuningdek, elektron axborot resurslaridan foydalanishni nazarda tutadi. Umumiy ma'noda, loyihani o'qitish bu oldindan ajratilgan qismni o'zlashtirish bo'yicha operatsiyalar va texnikalar to'plami faoliyatning ma'lum bir turini nazariy yoki amaliy bilishdir. Loyiha usuli har qanday muammoni hal qilishi kerak, bu bir tomondan turli xil o'quv vositalaridan foydalanishni va boshqa tomondan turli xil bilimlarni amalda qo'llash zarurligini ta'minlaydi. Loyiha usulini qo'llash natijasi muammolarning aniq echimlari bo'lishi kerak, masalan, foydalanishga tayyor natija. Loyiha usulini pedagogik texnologiya sifatida ko'rib chiqish nuqtai nazaridan shuni ta'kidlash mumkinki, u ko'p hollarda ijodiy bo'lgan qidiruv, tadqiqot va boshqa muammoli usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Loyiha usuli bilan ishlashda hisobga olinishi kerak bo'lgan ba'zi talablar mavjud.

Loyiha usulidan foydalanishning asosiy talablari quyidagilardan iborat: integratsiyalashgan bilim va tadqiqot echimini izlashni talab qiladigan muhim muammoning mavjudligi; taxmin qilingan natijalarning nazariy, amaliy va kognitiv ahamiyati; talabalarning mustaqil (individual, juftlik, guruh) faoliyati; loyihaning tarkibiy qismini tuzish (bosqichma-bosqich natijalarni ko'rsatgan holda); tadqiqot usullaridan foydalanish (muammoni va undan kelib chiqadigan tadqiqot muammolarini aniqlash, ularni hal qilish uchun farazlarni ilgari surish, tadqiqot usullarini muhokama qilish, natijalarni ro'yxatdan o'tkazish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosalar).

Proektsion faoliyatni tashkil qilishda biz loyiha kichik ijodiy ish, bosqichma-bosqich - g'oyadan uni amalga oshirishgacha, obyektiv yoki subyektiv yangilikka ega ekanligidan kelib chiqamiz; loyiha ustida ishlash jarayonida talaba real jarayonlarni tushunadi, aniq vaziyatlarni boshdan kechiradi, hodisalarga chuqur kirib borish, yangi jarayonlar, obyektlar va boshqalarni loyihalash bilan shug'ullanadi. Loyihalar individual yoki guruhlarda amalga oshirilishi mumkin. Loyiha usulini amalda qo'llash o'qituvchining pozitsiyasini tubdan o'zgartirishga olib keladi. U bilim tashuvchisidan talabalarning bilim jarayoni va tadqiqot faoliyati tashkilotchisiga aylanadi. Loyiha usuli yordamida trening o'tkaziladigan auditoriyaning psixologik iqlimi tubdan o'zgartiradi, bu esa, o'qituvchining faoliyatini ta'limdan tashkilotchilikka o'zgartiradi. O'qitishning faol usullari talabalarni o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida faol aqliy va amaliy faoliyatga undaydi va talabalarning bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Ular, asosan, ma'lum bir muammoni hal qilish yo'llari to'g'risida erkin fikr almashishni o'z ichiga olgan dialogga asoslanadi. Har bir usul uni qo'llagan kishi tomonidan faollashtiriladi. Faol o'qitish usullari bilan ish juftlikda, guruhlarda, individual ish bilan birlashtiriladi.

Xulosa. Shunday qilib, loyiha faoliyatining progressiv roli kelajakdagi mutaxas-

sislarning ijodiy yo'nalishini faollashtirish jarayonida axborotni idrok etish va taqdim etish sohasi sezilarli darajada kengayib borishi, ma'lum bilim qobiliyatlari shakllanishi va takomillashtirilishi, aqliy faoliyat jarayonlari uyg'unlashishi va bilimlarni mustaqil ravishda egallash va amalda qo'llash qobiliyatlari rivojlanishi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. Лаврентьев Г.В., Лаврентьева Н.Б., Неудахина Н.А. Инновационные обучающие технологии в профессиональной подготовке специалистов. - Ч. 2. - Барнаул: АГУ, 2002. - 185 б.
2. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. - М.: Высшая школа, 1991. - 207 б.
3. Современный словарь иностранных слов: ок. 20000 слов. - М.: Русский язык, 1992. - 740 б.
4. Чупрова Л.В. К вопросу об инновационных методах обучения в вузе // Сборники конференций НИЦ Социосфера. - П., 2012. - № 23. - С. 32-35.
5. Чупрова Л.В. Развитие креативности студентов в условиях современного образовательного процесса // Сборники конференций НИЦ Социосфера. - П., 2012. - № 41. - С. 103-106.
6. Чупрова Л.В. Системное становление творческой личности будущего специалиста в образовательном процессе вуза // Вестник Магнитогорского государственного технического университета. - М., 2012. - № 3. - С. 82-85.

**OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MADANIYAT
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Usmanova Feruza Saidaxmedovna, SamDU doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida madaniyat kompetentlikni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o'rganilib, faol va harakatchan, tashabbus ko'rsatib, o'zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, innovatsion tafakkurga ega va ta'limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish va ta'minlash masalalari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: madaniyat, ma'naviyat, innovatsion rivojlanish, milliy an'analar, kompetensiya, tafakkur.

**РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ВЫСШЕЙ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

Усманова Феруза Саидахмедовна, докторант СамГУ

Аннотация. В данной статье изучено развитие культурной компетентности у студентов высших учебных заведений как педагогическая проблема, а также раскрыты вопросы формирования и обеспечения компетентности педагогов, которые активны и динамичны, проявляют инициативу, четко понимают свои профессиональные цели, обладают нестандартным мышлением и готовы внедрять инновации в образование.

Ключевые слова: культура, духовность, инновационное развитие, национальные традиции, компетентность, мышление.

**DEVELOPMENT OF CULTURAL COMPETENCE IN STUDENTS OF HIGHER
EDUCATION INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM**

Usmanova Feruza Saidakhmedovna, doctoral of SamSU

Abstract. In this state, the development of cultural competence of students of higher educational institutions is studied as a pedagogical problem, as well as the issue of training and ensuring the competence of pedagogues, who are active and dynamic, show initiative, clearly understand their professional goals, have non-standard thinking and ready internal innovation and education.

Key words: culture, spirituality, innovative development, national traditions, competence, thinking.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yoshlar o'rtasida «madaniyat» tushunchasini, gapirish, muomala qilish, o'zini tuta bilish kabi sifatlarni singdirish, ayniqsa, talabalarning nafaqat bilim olishi, balki, madaniyatli bo'lishiga e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda PQ-4038-son qaroriga [1], asosan, «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi»da tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh

avlod tarbiyasida keng qo'llash; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash; aholi, jumladan, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va kengaytirish; madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, madaniyatni yanada keng tadqiq va targ'ib etishda innovatsion g'oyalarni va texnologiyalardan samarali foydalanish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Hozirgi kunda pedagogik ilmlar tasnifida aynan bo'lajak mutaxassislar kompetensiyasi masalasi o'z dolzarbligi, katta qiziqish uyg'otayotganligi va ta'lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlash uchun muhimligi va zaruriyatini namoyon etmoqda. Faol va harakatchan, tashabbus ko'rsatib, o'zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, innovatsion tafakkurga ega va ta'limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish va ta'minlash, bu masalalarni ta'lim va tarbiya jarayonining eng muhim unsurlaridan biri ekanligini targ'ib qilish taqozo etmoqda [2]. Madaniyatning jamiyat hayotidagi o'rni ko'p jihatdan kishilar bilimining ijtimoiy rivojlanishida tutgan o'rni, ularning tajriba, ko'nikma, malakalari, kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Madaniyat bu – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi sanaladi. «Madaniyat» so'zining lug'aviy ma'nosi «shaharlik», «shaharga oid» bo'lsa, uning ma'noviy izohi «odob-axloq»ni anglatadi. Demak, bugun yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratishda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish g'oyat muhimdir. Albatta, bu borada moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash, targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi [3] va uni amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi» tasdiqlandi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida madaniyat kompetentligiga qo'yilayotgan talablar hozirgi kunda quyidagi ziddiyatlar va nomutanosibliklarning mavjudligini ko'rsatadi: oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning obyektiv zaruriyati va uning nazariy va amaliy asoslarini yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi; madaniyat kompetentligining ta'lim-tarbiya jarayonida asosiy o'rinni egallashi va oliy ta'lim talabalarida o'rtasida shakllanishi uchun nazariy asosning mavjud emasligi; oliy ta'limda talabalarining madaniyat kompetentligini shakllantirish uchun o'quv-uslubiy yordam bo'lgan ehtiyoji va bunday yordam berilishini ta'minlovchi metodika hamda vositalarning rivojlanmaganligi; oliy ta'lim pedagogika yo'nalishlarida talabalar mustaqil bilim olish faoliyatini faollashtirish, faol ta'lim olish shakl, metod va imkoniyatlariga ega bo'lish ehtiyoji, shuningdek, ta'lim jarayonida pedagog kadrlarning yetarli darajada madaniyat kompetensiyasiga ega emasliklari; madaniyat kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlarining samarali imkoniyatlaridan to'laligicha foydalanish maqsadida zarur pedagogik shart-sharoitlarning yaratilmaganligi. Bu kabi ziddiyatlar va nomutanosiblikning asosiy manbai va sababi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikni, talabalarining madaniyat kompetentligini rivojlantirishni ta'minlovchi mavjud tizimning mukammal emasligidir. Ana shu ziddiyatlar va nomutanosibliklarning yechimini topish dissertatsiya ishining muammosini tashkil etadi va uning dolzarbligini belgilaydi. Muammoning dolzarbligi va uning yetarli darajada o'rganilmaganligi ushbu dissertatsiya tadqiqotining mavzusini «Oliy ta'lim muassasalari talabalarining madaniyat kompetentligini

rivojlantirish texnologiyasi» deb nomlanishiga asos bo'ldi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayonlari tezkor rivojlanish dinamikasi ta'lim tizimi oldida ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'ydi. Pedagogik madaniyat muammolari bo'yicha F.N.Gonobolin, N.V.Kuzmina, A.I.Sherbakov, A.A.Slastenin va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu tadqiqotlarda pedagogik faoliyatning turli xil sifatleri va ko'rsatkichlari o'rganilgan va pedagogik faoliyat orqali o'qituvchining pedagogik madaniyati darajasini, uning mazmuni va mohiyatini anglyadilar. E.A.Grishin pedagogik madaniyatni ifoda etib, o'qituvchining quyidagi kasbiy ahamiyatga molik sifatlarini ko'rsatadi: umumiy bilimdonlik; o'z fanini bilish; pedagogik bilim va mahoratlarni doimiy rivojlantirib borish; pedagogik kasbini sevish; odamiylik, haqiqatgo'ylik va talabchanlik; ko'zatuvchanlik, e'tiborlilik va odoblilik.

V.A.Slastenin pedagogik madaniyatning integral ko'rsatkichlari deb quyidagilarni hisoblaydi: mutaxassislik sharafi va g'ururini his etish; jamiyatga xizmat qilish shakli sifatida pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi. V.A.Kan-Kalik pedagogik faoliyat madaniyati tizimiga quyidagilarni kiritadi: ijodiy individuallik – sezgi, farosat, odob, intuitsiya V.A.Kan-Kalik pedagogik faoliyatga ijodiy jarayon sifatida qaraydi. Pedagogik mahoratga u pedagogik mahoratlilikni kiritib, uni pedagogik madaniyatning bir qismi deb hisoblaydi. Pedagogik madaniyatning muhim tashkil etuvchilari sifatida V.I.Pisarenko quyidagilarni ko'rsatadi: intelligentlilik; bilimlar doirasining kengligi; kasbi bo'yicha bilimlarining chuqurligi; ilmiy va ijtimoiy ma'lumotlar oqimida yo'l topa olish mahorati; pedagogik faoliyatda bilim va mahoratlardan foydalana bilishi [4]. Dissertatsiya tadqiqotida madaniyat kompetentligi tushunchasi asosida shuni asoslash mumkinki, shaxsning madaniyat kompetentligi uning madaniy qadriyatlarga ishtiroki darajasi, bilimlarni o'zlashtirishga munosabati, axloq va munosabatlarning barqaror ma'naviy tamoyillarini shakllantirish, estetik hislarni rivojlantirish darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun, avvalo, madaniyat va ta'lim o'zaro bog'liqligini ochib ko'rsatish lozim. L.P.Bueva [5] ta'kidlab o'tganidek, «madaniyat va ta'lim yagona jarayonning genetik yagona ikkita tomoni sifatida chiqadi. Ularning kamroq yoki ko'proq darajada hamohang o'zaro harakati bilim va qadriyatlarning ishlab chiqarilishi, tarqalishi, uzatilishi, o'zlashtirilishi va qo'llanilishini ta'minlaydi». Demak, ta'lim jarayonida madaniyatning o'zlashtirilishi shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish asosiy yo'li bo'lib chiqadi. Hammaga ma'lumki, madaniyat shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishda ta'lim qadriyati sifatida turmush, fikrlash, dam olish, muloqot, mehnat, munosabat, dunyoqarash, ilmiy, axloqiy va estetik faoliyatdagi madaniyati sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotimizda bizlar shunga yo'nalishni oldikki, ta'lim shaxs tomonidan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, dunyoqarashni, g'oyaviy-axloqiy pozitsiyani shakllantirish, ijodiy zamin va qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni va natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, ta'lim odamni madaniy qadriyatlarga ishtirokini ta'minlaydigan jarayonning o'zi bo'ladi. Mazkur muammo bo'yicha adabiyotlarni o'rganish davomida bizlar aniqladikki, «madaniyat» atamasining ko'p ma'noligi aniq, mazmundor va yagona tushunchani olish uchun imkon bermaydi. Biroq ko'plab olimlarning ishlari bizlarni madaniyatni ijtimoiy va individual hayot barcha jabhalariga ahamiyati mavjud murakkab ijtimoiy fenomen sifatida tushunishga yaqinlashtirdi. Masalan, A.I.Arnoldov [6] mazkur tushunchani «odam tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy-madaniy meyorlar tarixiy rivojlanadigan tizimi, axloq va muloqotni tashkil qilish usuli, shuningdek, moddiy ishlab chiqarish usuli bilan shartlangan odamning turmush kuchlari rivojlanishi jarayoni, uning o'z-o'zini namoyon qilishi, ijodiy faoliyati jarayoni, odam yashaydigan dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirishga qaratilgan mohiyatan ijtimoiy ahamiyatli jarayon» deb

tavsiflaydi. «Madaniyat – jamiyatning, odamning ijodiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirish tarixiy ma’lum darajasi bo’lib, mazkur daraja odamlarning turmushni va faoliyatni tashkil qilish turlari va shakllarida, ularning o’zaro munosabatlarida, shuningdek, ular tomonidan yaratiladigan moddiy va ma’naviy qadriyatlarida ifodalangan bo’ladi».

Y.V.Yakovlev [9], N.O.Yakovleva [10] va V.P.Panasyuk [4] kabi boshqa olimlarning fikriga ko'ra, pedagogik konsepsiya tarkibiy jihatdan quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: konsepsiya bo'yicha umumiy qoidalar, xususan: uning ta'rifi, maqsadi, huquqiy ta'minoti, chegaralari va qo'llanishi sohasi; konsepsiyaning tushunchalar apparati (asoslari): konsepsiya doirasida ishlatiladigan asosiy tushunchalar va ularning ta'riflari, shuningdek, ular orasidagi aloqalar; konsepsiyaning nazariy va uslubiy asoslari: konsepsiyaning nazariy yadrosini shakllantirish uchun, asos bo'lib xizmat qiladigan uslubiy yondashuvlar; konsepsiyaning yadrosi (o'zagi): qonuniyatlar to'plami va hodisaning tegishli tamoyillari, o'rganilayotgan jarayon; konsepsiyaning mohiyati va semantik mazmuni: pedagogik va boshqaruv faoliyati sohasida konsepsiyaning asosiy qoidalarini qo'llashni nazariy asoslash (tizim modeli, uning funksional tarkibi, texnologiyasi va amalga oshirish shartlari). Shu bilan birga, ta'lim sifatini boshqarishda, uni amalga oshirishning turli yondashuvlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik va psixologik manbalarning qiyosiy tahlili, ta'lim sifatini boshqaruvini rivojlantirishga oid bir qator ilmiy yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi: ta'lim sifatini boshqarish faoliyat sifatida (M.M.Potashnik) [5]. Mazkur, boshqaruv aniq predmet (natija)ni qo'lga kiritishga qaratilgan bo'ladi. Bu jarayonda, subyektiv tajriba o'zgaradi; boshqaruv, bir tizimni boshqa bir tizimga ta'siri (N.S.Sunsov, N.D.Xmel va boshq.).

Subyektni obyektga ta'siri natijasida, obyektga o'zagrishlar (yangi sifatlarini o'zlashtirish va boshq.) kuzatiladi; boshqaruv, bu subyektlarni o'zaro ta'siri (V.I.Zvereva, P.I.Tretyakov, T.I.Shamova va boshq.) [9]. Bunda, o'zgarish o'zaro aloqadorlikda kechib, kasbiy sifatlarini amaliyotda namoyon etishi natijasida, uni o'zlashtirish ta'minlanadi.

O'rganilgan manbalarning kontent tahlili hamda o'tkazilgan empirik tadqiqotlarning natijasi sifatida ta'kidlash lozimki, oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari ta'lim sifatini boshqaruvning muhimligini anglash uchun, ularning kasbiy vazifalari doirasida: ta'lim muassasasining maqsadini shakllantirish jarayonini; ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonini; ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishni; pedagog kadrlarni (personalni) tanlash va saralash jarayonini; pedagogik va akademik guruhlarining jamoa shakliga keltirish jarayonini; ta'lim tizimining iqtisodiy rivojlanish jarayonini; moliya va buxgalteriya hisobini; ilmiy-uslubiy, halqaro hamkorlik faoliyat jarayonini; ta'lim sifatini ta'minlash va baholash jarayonini; mehnat va ish haqini taqsimlash jarayonini; moddiy-texnik resurslardan foydalanish (taqsimlash) jarayonini; ta'lim marketingini; ta'lim sohasidagi axborot va ta'limning kompyuterlashtirish jarayonini; oliy ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini; fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni ta'minlash jarayonini boshqarish kabi o'ziga xos faoliyat yo'nalishlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin bo'ladi. Bu o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari o'z faoliyatida ta'lim sifatini boshqaruvning maqsadi va predmetini ajratib olishlari, shuningdek, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va takomillashtirish mexanizmlarini belgilab olishi lozim. Tahlillarga tayandigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifatini boshqarishni rivojlantirishda akmeologik, tizimli va funksional-strukturaviy yondashuv integratsiyasiga asoslangan kompetentli yondashuv samarali yondashuvlardan ekanligini ta'kidlash mumkin bo'ladi. Y.Ismadiyarov tadqiqotlarida oliy ta'lim sifatini boshqarishda innovatsion menejment modelini joriy etishda ta'lim menejmentlari, ya'ni oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining kasbiy kompetentligini yetakchi omillardan biri sifatida qayd etadi. Bu borada tadqiqotchi, ta'lim menejmentlari innovatsion faoliyat, original, yangi yondashuvlarni mustaqil izlash, ularni anglash, shuningdek, ta'lim jarayoniga samarali tatbiq qilish bo'yicha

bazaviy bilimlarga ega bo'lishi, kompetentlik doirasida amaliy harakatlarni bajarishi, yuqori tashkilotlar, maslahatchilar, shuningdek, tegishli ekspertlar bilan samarali o'zaro hamkorlikni tashkil qilishi, qarorlarning muhimligini belgilashi, jamoada ishlay bilishi, olib borilayotgan ishlarning samaradorligi baholay olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarurligini empirik tahlillar orqali asoslaydi [3]. Bizningcha, aynan shu davrda, ta'lim ehtiyojlari va boshqaruv amaliyotida namoyon bo'lgan muammolarni yechishda uni qonuniyatlarini o'z aksini topadi. Ta'limni axborotlashtirish va globallashtirish sharoitida ta'lim sifatini boshqaruvni shakllantirish va rivojlantirish ilmiy-pedagogik mavzu hisoblanadi: ta'lim sifatini boshqarishga kompetentligi yondashuv, boshqaruv uchun amalga oshiriladigan harakatlarni boshqaruv kompetentligiga ega bo'lish (R.W.White, N.D.Kuchugurova, A.V.Xutorskoy, O.S.Anisimov va boshq.); ta'lim sifatini boshqarishga aksiologik yondashuv, pedagogik boshqaruv shaxsni ijtimoiy-madaniy qadriyatlar majmuasi sohibi (A.I.Arnoldov, Yu.I.Efimov, I.I.Gromov, A.V.Kiryakova, V.P.Tugarinov, N.Z.Chavchavadze va boshq.); boshqaruvga ta'lim jarayoni sifatida yondashuv, amal qilganda, pedagogik boshqaruv ssenariyasini tadbiiq etish texnologiyasi ko'rinishida boshqaruv ko'nikmalarni shakllantirish/rivojlantirish (V.A.Yakunin, V.S.Agapov, Yu.M.Yuldashev va boshq.); ta'lim sifatini boshqarishga shaxsiy-faoliyatli yondashuv, boshqaruv maqsadi so'ngi natijaga emas, balki rivojlanish jarayoniga qaratilgan (N.L.Galyeva); ta'lim sifatini boshqaruvga pedagogik reflektiv tarzda yondashuv, boshqaruv tipini belgilashni ta'minlash (T.M.Davidenko, Yu.A.Konarjevskiy, T.I.Shamova, L.A.Shipilina, O.Musurmonova va boshq.) kabi ilmiy nazariyalar mavjud.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish, boshqaruvchining hulq namunasiga ham taalluqli ekanligini ko'rsatib o'tish lozim. Boshqaruv jarayonini muvofiqiyatli kechishi boshqaruv uslubi va boshqaruvchining xulqini ta'sir ko'rsatishi va namuna bo'lishi jihatlari bilan boshqaruvda inson omili bilan bog'liq faktorlarga taalluqli bo'ladi. Bunda, xodim (ijrochi)larning munosabati va rahbarning ularga bo'lgan munosabati jarayonni tavsiflovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Masalan, V.Kessel pedagogik jarayonni boshqarish uslubiga bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlarini aniqlab, bunda bilim (umumiy, maxsus-ilmiy, kasbiy, metodologik va boshq.) ijtimoiy yetukli, qobiliyat; malaka va ko'nikma (kasbiy, maxsus va umumiy), ishonitirish, qiziqishlar va talab qilish darajasi kabilarni ko'rsatib o'tgan.

Rahbarning shaxsiy xususiyatlaridan, uni faoliyatini tashkil qilish tamoyillari tizimidan kelib chiqib, quyidagi boshqaruv uslublari ajratilgan: muvozanatli (masofaviy), kirishuvchan (muloqotchan), maqsadga tayangan (maqsadni shakllantiruvchi), boshqaruvchi, muammoli, tashkillashtirilgan.

Tadqiqotchi R.S.Gilyarovskiy ta'lim sifatini boshqaruvning yetti uslubini ajratadi: direktiv, kollegial, liberal, direktiv-kollegial, direktiv-liberal, kollegial-liberal va kombinatsiyaviy ko'rinish. Ko'rsatib o'tilgan uslublarning hech qaysisi universallikka da'vo qila olmaydi, ularning har biri yutuq va kamchiliklarga ega [2].

Fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqaruv faoliyati haqida munosabat bildirishda, uning asosiy tamoyillariga e'tibor qaratish lozim. Shunda, boshqaruv faoliyatining tamoyillari quyidagicha ifodalanadi: a) boshqaruv jarayoni, rahbarning barcha faoliyat turini o'zida mujassamlashtiradi; b) rahbar-xodim tizimi darajasida ularning aloqadorligi hamkorlik darajasida ifodalanadi; v) rahbarning boshqaruv faoliyatini tahlil qilishda muassasaning joriy holati inobatga olinadi; g) rahbarlik faoliyatining natijasida nafaqat jamoa a'zolarining ma'naviy va funksional holati o'zgaradi, balki ularning rivojlanishi kuzatiladiki, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari bunga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Pedagog olim M.Yuldashev ilmiy izlanishlari davomida TQM (sifatning umumiy

menejmenti)ning turli namunalari o'rganib, boshqaruv amaliyotida faoliyat samaradorligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi 8 ta asosiy tamoyilga amal qilishni tavsiya etadi: 1. Muassasa va iste'molchilarning o'zaro bog'liqligi. 2. Rahbariyatning roli. 3. Xodimlarni jalb qilish. 4. Jarayonli yondashuv. 5. Boshqarishga tizimli yondashuv. 6. Doimiy takomillashuv. 7. Dalillarga asoslangan holda qarorlar qabul qilish. 8. Hamkor bilan o'zaro manfaatli munosabatlar [7].

Tadqiqotchi tomonidan ko'rsatilgan tamoyillar, bevosita ta'lim muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyatida amal qilinishi, saqlanishi shart bo'lgan darajada tarzida ifodalanib, faoliyat samaradorligini ta'minlashga qaratilgandir. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish o'z prinsiplariga ega bo'lib, S.Turg'unov, L.Maqsudova, N.Tojiboyeva, G.Nazirova va M.Umaraliyevlarning ko'rsatib o'tishicha ularga amal qilish, boshqaruv samaradorligini ta'minlashga, sifat o'zgarishiga keltirishi mumkin.

Xulosa. Ta'lim sifatini boshqaruv tushunchasi asosida, ijtimoiy mazmun kasb etuvchi maqsadlarga erishish uchun, boshqaruv subyektlarini maxsus tashkil etilgan faoliyati tushunilsa, bunda ta'lim sifтини boshqarish oliy ta'lim muassasasi rahbar kadrlari shaxsida rivojlantirish kasbiy (pedagog) jamoada ijobiy kasbiy muhitni yarata olishda, muassasa faoliyatini takomillashtirishda, xodimlarni rag'batlantirishda, asosli qarorlar qabul qilish kabilarda ifodalanadi.

Adabiyotlar:

1. Берлим Л.И. Управленческая компетентность менеджера образования // Известия РГПУ. - М., 2007. - № 53. - С. 276-281.
2. Гиляровский Р.С. Информационный менеджмент: управление информацией, знанием, технологией. - СПб.: Профессия, 2009. - 217 с.
3. Ismadiyarov Ya.U. Oliy pedagogik ta'lim tizimida innovatsion menejmentni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fanl. d-ri ... Dis. avtoref. - T., 2018. - 32 b.
4. Панасюк В.П. Педагогическая система внутришкольного управления качеством образовательного процесса: Дис. ... д-ра пед. наук. - СПб., 1998.
5. Поташник М.М. Эксклюзивные аспекты управления школой: Пособие для руководителей образовательных учреждений. - М.: Легион, 2016. - 344 с.
6. Тургунов С.Т. Теоретические основы управленческой деятельности директора средних общеобразовательных учреждений: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. - Т., 2007. - 43 с.
7. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirishda sifat menejmenti tizimini joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari // Zamonaviy ta'lim. - T., 2016. - 1-son.
8. Шамова Т.И. Управление образовательными системами: Учебное пособие для студентов учебных заведений / Под ред. Т.И.Шамовой. - М.: Академия, 2002. - 384 с.
9. Яковлев Е.В. Концепция внутривузовского управления качеством образования будущих специалистов // Вестник института развития образования и воспитания подрастающего поколения при ЧГПУ. Сер. 3: Управление качеством профессионального образования. - Ч., 2001. - № 3. - С. 25-40.
10. Яковлева Н.О. Педагогическое проектирование инновационных образовательных систем. - Челябинск: ЧГИ, 2008.

**TALABALARINING SOG‘LOM TURMUSH TARZI MADANIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Ro‘ziyeva Muxayyo Erkinovna, UrDU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni asosiy yo‘nalish sifatida olib, jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish fanlarini o‘qitish islohotini amalga oshirish, maktabgacha ta‘lim bosqichida ta‘lim o‘rniga o‘yinlardan foydalanish, shaxsiy gigiyena qoidalari va hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini yoshligidan tarbiyalash kerakligi yoritilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinfda esa, o‘quvchilar atrofidagi hayotga e‘tibor qaratish, bu borada muayyan bilim va ko‘nikmalarni egallash va bilimlarni bosqichma-bosqich kiritish, kognitiv qobiliyatni yaxshilash bilan, asta-sekin prinsipial kashfiyotga kirish kerakligi ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: *integratsiya, sport, ruhiy salomatlik, salomatlik tarbiyasi, sog‘lom turmush.*

**ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ
В ПОВЫШЕНИИ КУЛЬТУРЫ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У СТУДЕНТОВ**

Ruzieva Muxayё Erkinovna, научный сотрудник УрГУ

Аннотация. В данной статье, взяв за основное направление формирование здорового образа жизни, осуществление реформы преподавания физической культуры и наук о здоровье, использование игр вместо обучения на дошкольном уровне, правил личной гигиены и быта подчеркнuto, что навыкам безопасности следует обучать с раннего возраста. Кроме того, в начальных классах выявлено, что необходимо обращать внимание на жизнь вокруг учащихся, приобретать в связи с этим определенные знания и умения, постепенно внедрять знания, совершенствовать познавательные способности, постепенно входить в принципиальное открытие.

Ключевые слова: *интеграция, спорт, психическое здоровье, санитарное просвещение, здоровый образ жизни.*

**POSSIBILITIES OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING
THE CULTURE OF A HEALTHY LIFESTYLE OF STUDENTS**

Ruzieva Muxayyo Erkinovna, researcher of UrSU

Abstract. In this article, taking the formation of a healthy lifestyle as the main direction, the implementation of the reform of the teaching of physical culture and health sciences, the use of games instead of teaching at the preschool level, the rules of personal hygiene and everyday life. stressed that safety skills should be taught from an early age. Also in the primary grades, it was revealed that it is necessary to pay attention to the life around students, to acquire certain knowledge and skills in this regard, to gradually introduce knowledge, improve cognitive abilities, and gradually enter into a fundamental discovery.

Key words: *integration, sport, mental health, health education, healthy lifestyle.*

Kirish. Insonlarni tarbiyalash nuqtai nazaridan salomatlik tarbiyasi tarbiyaning muhim qismi bo‘lib, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya va mehnatning «besh tarbiyasi» bilan chambarchas bog‘liqdir. «Bir vaqtning o‘zida beshta ta‘lim»ga rioya qiling, maqsad – ta‘limni insonning o‘ziga qaytarish, ta‘lim olishdan maqsad qog‘oz hisobot kartasini olish emas, balki bolalarning yaxshiroq va sog‘lom

bo'lib o'sishiga imkon berishdir. «Beshta ta'lim»ni bir vaqtning o'zida rivojlantirishga rioya qilish – sifatli ta'limni har tomonlama rivojlantirish, o'quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashni muhim o'ringa qo'yish va sog'liqni saqlash ta'limi, hayot ta'limi, jismoniy mashqlar, aqliy salomatlikni birlashtirishdir. ta'lim va ijtimoiy mas'uliyatni bolalarning suyaklari va qoniga singdirib, ularni qalbiga muhrlab qo'yadi. Bolalar genlari tuganmas kuch va kelajak rivojlanishi uchun asosiy yordam beradi.

Asosiy qism. O'rta maktab bosqichi – bu sog'liqni saqlash savodxonligining bilimlarni uzatish bosqichi va ta'lim usuli bilimlarning izchilligiga e'tibor berishi kerak, bilimning ichki singdirilishi va sog'lom xulq-atvorga eksport qilinishini ta'minlash uchun e'tiqod va harakatlar; o'rta maktab bosqichi sog'liqni saqlash savodxonligini oshirish bosqichidir va ta'lim usuli chuqur bo'lishi kerak. Shaxsiy xulq-atvori, sog'liqni saqlash strategiyasini rejalashtirish va shakllantirish qobiliyati; kasbiy ta'lim jismoniy va ruhiy salomatlik bilan mehnat salomatligi bilan uyg'unlashishi va malakali yuqori sifatli texnik va texnik xodimlarni yetishtirishi kerak; oliy ta'lim, asosan, qo'llash bilan tavsiflanadi, bu, asosan, qarorda aks etadi. O'z-o'ziga ishonish, ijtimoiy sog'liqni saqlash yordamini faol izlash va undan foydalanishni o'rganish, ijtimoiy mas'uliyatni himoya qilish va kelajakdagi ota-onalar uchun bilim zaxiralarini tayyorlash. «Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish tizimini tashkil qilishda quyidagi muammolar kuzatilmoqda: fuqarolarni sog'lom turmush tarzini olib borishga jalb qilish bo'yicha targ'ibot ishlari yetarli darajada amalga oshirilmayapti; axborot-ma'rifiy kompaniyalar qisqa davom etadi va muntazam ravishda o'tkazilmaydi; yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligini kuchaytirish sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha faoliyat yo'lga qo'yilmagan; sog'lom va parhez ovqatlanish hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasida zamonaviy bilimlar, ko'nikmalar va mahoratga ega bo'lgan mutaxassislarning yetishmasligi kuzatilmoqda; tibbiy oliy ta'lim muassasalarining ko'pchilik o'qituvchilari yetarlicha amaliy ish tajribasiga ega emas; mamlakatda yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasi va sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun respublika darajasida ham, hududiy darajada ham ma'sul muassasalar mavjud emas»[1].

Sog'liqni saqlash va sportning integratsiyasi oddiy jismoniy birlashish emas, siyosat talablarini mexanik ravishda amalga oshirish yoki modaga rioya qilgan holda kursning «imzolari»ni o'zgartirish emas, balki tushunchalarni o'zgartirish va konsepsiyalarni yangilash orqali boshqariladigan o'quv dasturi tizimi innovatsiyasidir, shuning uchun sog'liq va sport bir-birini quchoqlaydi «Kimyoviy reaksiya»ni yuzaga keltirish uchun ta'lim, sport, sog'liqni saqlash va sog'liqni saqlash bo'limlari, maktab va o'qituvchilar ma'muriyati «mazhabparastlik»dan xalos bo'lishi, har tomonlama qulay shart-sharoit yaratish uchun birgalikda harakat qilishi, hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator muammolarni hal qilish va mustahkam poydevor qo'yish, haqiqiy integratsiyaga erishish mumkin.

Ichki sharoitlar nuqtai nazaridan mafkuraviy tushunish bo'yicha konsensusga erishish kerak. Xususan, maktab direktorlari va ushbu kurs o'qituvchilari o'z tushunchalarini o'zgartirishi, sog'liqni saqlash va sportning integratsiyasi uchun oqilona va hissiy shaxsiyatni shakllantirishi, qiyinchiliklardan qo'rqishdan xalos bo'lishi, ta'lim tizimini isloh qilishda faol ishtirok etishi, donishmandlik bilan o'z hissasini qo'shishi, yangi yutuqlar yaratishi zarur. Ikkinchisi – intizom qurilishining yuqori darajadagi

dizaynini mustahkamlash. Ta'lim va ilmiy tadqiqot xodimlari to'siqlarni yo'q qilishlari, barcha jabhalarni qamrab olishlari, chuqur izlanishlar olib borishlari, innovatsiyalarga jur'at etishlari va intizom qurilishi darajasida ko'p tarmoqli va fanlararo chuqur integratsiyani amalga oshirishlari kerak.

Oliy o'quv yurtlarda kadrlar tayyorlash va o'qituvchilar malakasini oshirish uchun ilmiy va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan integratsiya nazariyalari, yondashuvlari va usullarini ilgari surish, amaliyotni kuchaytirish, fikr-mulohazaga e'tibor berish, takomillashtirishni davom ettirish va tadqiqot natijalarini doimiy ravishda yaxshilashdir. Uchinchi, kollej va oliy o'quv yurtlarining kadrlar tayyorlash va o'quv dasturlari tizimiga innovatsiyalar kiritish, yangi o'qituvchilarni tayyorlash. Maktab salomatligi va sport integratsiyasini tizimli ravishda sifat jihatidan yaxshilash o'qituvchilar sifatini oshirishdan ajralmasdir. Xushxabarchilar, birinchi navbatda, yo'lni tushunishlari kerak va o'qituvchilar, birinchi navbatda, bir qadam o'rganishlari va bir qadam chuqurroq o'rganishlari kerak [2].

Oliy o'quv yurtlarida tegishli kasbiy kadrlar tayyorlash dasturlarini isloh qilish, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sog'lomlashtirish va malakasini oshirishni kuchaytirish, sog'liqni saqlash bo'yicha ta'lim va tarbiyani milliy kadrlar tayyorlash rejasiga kiritish; o'qituvchilarni tanlovlarda, malaka oshirishda, o'qishda va boshqalarda ishtirok etish uchun tanlash; yuqori sifatli o'qituvchilarning o'sishini qo'llab-quvvatlash usullari. To'rtinchi, o'qitish va ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish. Tajribali o'qituvchilar ishtirokida o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish, kurslarni sayqallash, o'qitish mazmunini yaxshilash, o'qitish uslublarini chuqur o'rganish va ular bilan muloqot qilish orqali o'z o'qishlarini kuchaytirish, keng qamrovli ta'lim ssenariyalarini yaratish va yuqori sifatli sport turlarini sayqallashtirish kerak. Sog'liqni saqlash va sport integratsiyasining eng yaxshi sharoitlarini va optimal kombinatsiyasini yaratish uchun sog'liqni saqlash kurslari bilan integratsiya. Tashqi sharoitlar nuqtai nazaridan, salomatlik va sport o'rtasida uyg'un muhit yaratish kerak. Sog'liqni saqlash va sportni jamiyat va ishlab chiqarishga integratsiyalashuvi zarurligini keng targ'ib qilish, sog'lomlashtirish va sport integratsiyasining uyg'un muhitini shakllantirish, umumiy islohotga hissa qo'shadigan barcha kuchlarni safarbar etish, maktab o'quv dasturini isloh qilish mazmunini boyitish va maktab ta'limini o'quvchilar salomatligi uchun yaxshilash. O'sish va jamiyatning sog'lom rivojlanishiga xizmat qilish. Ikkinchisi, ekologik ta'limga ahamiyat berish. Yaxshi sog'lom va sport madaniyatiga ega bo'lgan maktab salomatlik va sportning amalga oshirilishi va ta'siriga yordam berishi, o'quvchilarning sog'lomlashtirish qobiliyatlarini nozik tarzda rivojlantirishga imkon beradi.

Sog'liqni saqlash ta'limi – bu sog'liqni saqlashni mustahkamlashning o'zagi bo'lgan ta'limdir. Rejalashtirilgan maktabda sog'liqni saqlash bo'yicha o'qitish orqali o'quvchilarning sog'lig'i haqida xabardorligi va aholi salomatligi haqida xabardorligini oshirish, zarur sog'liqni saqlash bilimlari va ko'nikmalarini o'zlashtirish, o'quvchilarni sog'lom xulq-atvor va turmush tarzini ongli ravishda qabul qilish va saqlashga yordam berish, sog'likka ta'sir qiluvchi xavflarni kamaytirish yoki bartaraf etishdir.

Xulosa. Maktabda sog'liqni saqlash bo'yicha o'quv mashg'ulotlarida yoshlarda salomatlik ongini rivojlantirish va o'quvchilarning sog'lig'i sifatini yaxshilash asosiy boshlang'ich nuqta sifatida qabul qilinishi, amaliylik va samaradorlikka e'tibor qaratilishi kerak. Sog'liqni saqlash bilimlarini o'rgatish va sog'liqni saqlash

ko'nikmalarini o'rgatishda teng e'tibor tamoyiliga rioya qilish; sog'liqni saqlash bilimlari va ko'nikmalarini o'rgatishda spiral progressiya tamoyiliga; sog'liqni saqlash bilimlari, sog'liqni saqlash va salomatlik haqidagi bilimlarni o'qitishni birlashtirish prinsipiga rioya qilish; umumiy talablarni mahalliy voqelik bilan uyg'unlashtirish tamoyili; sog'liqni saqlash ta'limining nazariy bilimlari o'quvchilarning haqiqiy hayoti bilan uyg'unlik tamoyili. Bosqichma-bosqich asosiy fikrlarga e'tibor qaratish va sog'liqni saqlash sohasidagi bilimlarni o'zlashtirish, sog'liqni saqlash ko'nikmalarini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sog'lom xulq-atvor va turmush tarzini shakllantirishni doimiy ravishda mustahkamlash va targ'ib qilish.

Adabiyotlar:

1. Салимов Ў.Ш. Аҳоли ва талабалар соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг ҳуқуқий-меъёрий асослари // Fan. - Т., 2021. - 4-сон. - В. 63.
2. Ма'муров В.В. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi: Darslik. - Buxoro, 2019. - 224 b.

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILAR AQLIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Po'latova Kamola Nuraliyevna, O'zPFITI doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarida o'quvchilar aqliy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari maxsus adabiyotlar orqali tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida geometrik masalalar yechish, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida geometrik tasavvurni shakllantirish metodikasiga oid pedagogik nazariyalar asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: *geometrik figuralar, arifmetik masalalar, pedagogik vositalar, formulalar, amaliy mashqlar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ УМСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Пулатова Камола Нуралиевна, докторант УзНИИПН

Аннотация. В данной статье с помощью специальной литературы проанализированы педагогические основы развития умственных способностей учащихся на уроках математики в начальных классах. Кроме того, в статье представлены педагогические теории, касающиеся методики решения геометрических задач на уроках математики начальной школы, формирования геометрического воображения у учащихся начальной школы.

Ключевые слова: *геометрические фигуры, арифметические задачи, педагогические средства, формулы, практические упражнения.*

PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF THE DEVELOPMENT OF MENTAL ABILITIES OF STUDENTS IN THE LESSONS OF MATHEMATICS IN THE PRIMARY SCHOOL

Pulatova Kamola Nuralievna, doctoral of the UzRIPS

Abstract. In this article, with the help of special literature, the pedagogical foundations for the development of the mental abilities of students in mathematics lessons in primary school are analyzed. The article also presents pedagogical theories concerning the methodology for solving geometric problems in elementary school mathematics lessons, the formation of geometric imagination in elementary school students.

Key words: *geometric figures, arithmetic problems, pedagogical tools, formulas, practical exercises.*

Kirish. So'ngi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim, ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz» [1, 89-b.], – deb ta'kidlashi ta'lim sohasining yangilanishida ustivor vazifa bo'lib sanaladi. Chunki shu jamiyatda yashaydigan inson keng faoliyatga tayyorlanar ekan, uning rivojlanishi, tafakkurini yangilashda o'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalarini kiritish o'quvchilarning mustaqil erkin fikrlash ijodkorlik faoliyatlarini, aqliy qobiliyatini rivojlantirishini taqazo etadi.

Asosiy qism. Matematika darslarida zamonaviy metodik vositalardan foydalanish o'qituvchiga mavzuning to'liq o'zlashtirilishiga yordam beribgina qolmasdan, o'quv jarayonida

o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etishlarini ham ta'minlaydi. Bu esa matematika fanini o'qitishda ijobiy natijalarga erishish garovi bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich matematika kursidagi masalalar mazmuniga va qanday maqsadda berilganlariga qarab 4 ta turga bo'linadi: arifmetik masala, algebraik masala, mantiqiy masala, geometrik masalalarga klassifikatsiyalanadi. Shundan geometrik material (algebraik material singari) dasturda mustaqil bo'lim sifatida ajratib ko'rsatilmaydi. Geometrik mazmunli masalalarni imkon bo'lgan vaqtda, kursning boshqa masalalari bilan yaqin aloqada doim qarab chiqiladi. Biroq dasturdagi tushuntirish xatida ko'rsatilganidek, geometriya masalalarini bayon qilishda bu materialni kurs materialiga kiritishda mantiqiy bog'lanishga ham rioya qilish kerak. Geometrik mazmunli masalalar, asosan, qog'oz varog'ini bukish, figuralarni chizish, o'lchash va hokazolar bilan bog'liq amaliy ishlar asosida qarab chiqiladi. Chizishdagi elementar ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Dasturda bolalar qachon chizg'ichdan foydalanishni o'rganishlari vaqti, ular qanday sodda mashqlar va o'lchashlar bajarishlari kerakligi ko'rsatilgan. Bular berilgan uzunlikda kesma chizish va o'lchov chizg'ichi yordamida kesmalarni o'lchash, keyin qog'ozga to'g'ri to'rtburchak (kvadrat) yasash, chiziqsiz qog'ozda chizmachilik uchburchagi yordamida to'g'ri burchak va to'g'ri to'rtburchaklar yasashni o'rganishdir. O'lchash bilan bog'liq masalalarni qarab chiqish, albatta, sonlar va arifmetik amallar ustida bajariladigan ish bilan bog'lab olib boriladi. Geometrik figura qaralayotgan arifmetik masalalarning (mazmun, qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish, ularning ba'zi xossalari va boshqalar) yaqqol talqini vositasi bo'lib xizmat qiladi. Egallangan bilim, o'quv va malakalar geometrik materialni o'rganishda faqat amaliy mashqlarni bajarishda yemas, balki tekstli masalalarni yechishda ham qo'llaniladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida geometrik masalalarni yechishdan avval bolalarning fazoviy tasavvurlarini o'stirishdan, ularda turlicha geometrik figura (nuqta, to'g'ri va egri chiziq, to'g'ri chiziq kesmasi, egri chiziq, to'g'ri burchak va to'g'ri bo'lmagan burchak, turlicha ko'pburchaklar, doira, aylana) haqida tasavvur hosil qilishdan iborat. Bolalar bu figuralarning har biri alohida turganda ham, tanish figura boshqa bir figuraning qismini tashkil etganda ham ularni taniy olishlari, farqlay olishlari, ularni tasvirlay olishlari, berilgan bir necha figuradan boshqa bir figura yasashni o'rganishlari kerak [2, 113-b.]. Qalam uchining qog'ozdagi izi, bo'ring doskadagi izi nuqta haqida tasavvur beradi. Birinchi sinf o'quvchilarida to'g'ri chiziq haqida tasavvurlarni tarkib toptirish ularning har xil amaliy ishlarni bajarishlarida sodir bo'ladi. Masalan, bo'r surtilgan ipni tarang tortib turib qo'yib yuborilsa, doskada to'g'ri chiziq bir qismining obrazi hosil bo'ladi. Uni har ikkala tomonga davom ettirish mumkin. Chizg'ich yordamida ham, boshqa usullar bilan ham to'g'ri chiziq yasash mumkin. Masalan, qog'oz varag'ini buklash yo'li bilan to'g'ri chiziq hosil qilish mumkin, buklash chizig'i to'g'ri chiziq bo'ladi. Bunda bolalar diqqatini shu faktga qaratish muhimki, qog'oz varag'ini har xil yo'nalishda bukilganda ham natija bari bir xil bo'lib, to'g'ri chiziq tasviri hosil bo'ladi. Doskada to'g'ri chiziq vaziyatini o'zgartirish, ya'ni uni gorizontal, vertikal va qiya holda chizish ham muhimdir. Mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar to'g'ri va egri chiziqning ba'zi xossalari bilan tanishadilar. Masalan, bolalar nuqtadan chiziq o'tkazish bo'yicha mashq qilib, bir nuqta orqali istalgancha to'g'ri va egri chiziq o'tkazishlari mumkin, ikki nuqta orqali bitta to'g'ri chiziq, istalgancha egri chiziq o'tkazish mumkin, degan xulosaga keladilar. Sonli ifodalar faqatgina arifmetik ifodalarda 4 amalni bajarish emas, geometrik masalalar, arifmetik va algebraik masalalarni yechishda bevosita qo'llaniladi. Masalan, uchburchakning perimetri, kubning hajmi, miqdorlar to'g'risida sonli ifodalar qo'llaniladi. Uchburchakning tomonlari 3 sm, 4 sm, 5 sm bo'lsa, uning perimetri qancha' $3\text{ sm} + 4\text{ sm} + 5\text{ sm} = 12\text{ sm}$.

Yig'indi so'zi bilan tanishtirishda uning ikki xil ma'noda ishlatilishini tushuntirish kerak: 1) ikki son orasiga «+» ishora qo'yib yig'indini topish; 2) bitta son olib uni ikkita son yig'indisi shaklida turli ko'rinishda yozish:

Geometrik materiallarni o'rganish: geometrik figuralar haqidagi tasavvurlar zahirasini to'plashga (kengaytirishga); fazoviy fikrlashni taraqqiy ettirish, tahlil qilish, umumlashtirish, tasavvur etish ko'nikmalarini shakllantirishga; muhim amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga; bolalarni keyinchalik geometriyani o'rganishga tayyorlash uchun xizmat qiladi.

«10 gacha bo'lgan raqamlarni nomerlash» mavzusini o'rganishda bolalar nuqta va kesmalar bilan tanishadilar, ulardagi uchburchak, to'rtburchak, beshburchaklar va boshqa ko'pburchaklar haqidagi tushunchalari kengayadi. «100 raqamigacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirish» mavzusini o'rganishda esa, to'g'riburchak, to'g'riburchakli to'rtburchak, kvadratlar, ko'pburchaklarning bir ko'rinishi sifatida o'rganadilar. II va III sinflarda geometrik figuralar haqida tasavvur kengayadi va chuqurlashadi. Bunday tasavvurlarni shakllantirishda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin: geometrik figuralar va ularning elementlari chiziladi. (Bu holatda zaruriy atamalar o'rganiladi, geometrik figuralarni tanib olish va o'zaro farqlash ko'nikmalari shakllanadi; katak daftarda chizg'ich va uchburchak figuralarni yasash; figuralarni guruhlarga ajratish; figuralarni qismlarga ajratish va bu qismlardan boshqa figuralar yasash; turli predmetlar va ularning qismlarining geometrik shaklini yaratish; III sinfda shartli belgilar yordamida geometrik chizmalarni o'qiy olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida geometrik tasavvurni shakllantirish metodikasida ma'lum shakldagi real predmetdan uning tasviri tomon va aksincha, tasvirdan real predmetlari tomon bormog'i kerak. Geometrik elementlarni o'rganishda quyidagi metodlardan, masalan: geometrik modellashtirishdan foydalanish, qog'oz, cho'plar, plastilin va simlardan figuralarning modellarini yasash, qog'ozda geometrik figuralarni chizish – bolalar ongida geometrik tasavvurni rivojlantirishga omil bo'ladi [3, 52-b.]. Geometriyada masalalar amaliy mashqlar bilan hal qilinadigan masalalar, hisoblashga doir masalalar, isbotlashga doir masalalar va yasashga doir masalalarga bo'linadi. Amaliy mashqlar bilan hal qilinadigan masalalar asosan chizg'ich va transportir kabi o'lchash asboblari bilan hal qilinadigan masalalardir. Bunday masalalar asosan boshlang'ich sinflarda beriladi. Masalan: berilgan ikki kesma uzunliklari yig'indisiga teng bo'lgan bitta kesmani topish. Kesmalarni birini ikkinchisidan uzun yoki qisqa ekanligini aniqlash.


Hisoblashga doir masalalar geometriya kursini har bir bo'limida mavjud bo'lib, bunday masalalar geometriyadan olgan nazariy bilimlarga, o'rganilgan formula va xossalarga asoslanib geometrik figuralarning biron kattaliklarini berilgan elementlari kattaliklariga asosan topishga doir masalalardir. Masalan: uchburchakning balandligi va asosiga ko'ra, yoki to'g'ri burchakli uchburchakning kattaliklariga ko'ra, yoki tomonlari orasidagi munosabatlardan foydalanib uning yuzasini perimetrini boshqa noma'lum elementini topishga doir masalalar. Isbotlashga doir masalalarni yechish. Bunday masalalarni hal qilishda matematika o'qitish metodikasining deduksiya va induksiya metodlaridan foydalaniladi. Bunda masalaning shartidan nima ma'lum, berilgan ekanligi aniqlanadi. So'ngra nimani keltirib chiqarish kerakligi aniqlanadi. Agar masalaning sharti A bo'lsa, u holda V bo'ladi jumlasidan $A \cdot V$ aniqlanadi.

Geometrik masalalar, asosan, berilishi va nimani topishga qaratilganligiga qarab 3 turga bo'linadi: 1) hisoblashga doir masalalar. Bunday masalalar turmushda ko'p uchraydigan, geometrik figuralarga taalluqli bo'lgan, u figuraning biror elementini topishga yoki uning yuzasini, hajmini topishga doir masala kiradi; 2) isbotlashga doir masalalar – bunday masalalarga o'rganilgan geometrik figuralar, ularning xossalari, alomatlari yoki ular orasidagi munosabatlariga ko'ra nazariy jihatdan asoslashga doir masalalar kiradi; 3) geometrik figuralar yoki ularning elementlarini geometrik yasash qurollari yordamida yasashga doir masalalar kiradi. Bunday masalalarni yechishda o'rganilgan geometrik nazariyalarni ketma-ket qo'llab yasashga doir geometrik masalalar hal qilinadi. Yasashga doir geometrik masalalarni «konstruktiv masalalar» deyiladi va geometriyaning bu qismini


o'rganiladigan bo'limini «konstruktiv geometriya» deb ataladi. Konstruktiv geometriyaning asosiy yasash quroli chizg'ich va sirkuldir.

Bu qurollarni ishlatishda asosan quyidagi, ularning imkoniyatlarini e'tiborga olib tuzilgan aksiomalari mavjud: 1) Berilgan ikki nuqta orqali to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin (chizg'ich aksiomasi). 2) Berilgan markazi va radiusiga ko'ra, $U(o, r)$ aylanani yasash mumkin (sirkul aksiomasi). 3) Ikki to'g'ri chiziqning kesishgan nuqtasini topish mumkin, agar ular kesishadigan bo'lsa (chizg'ich aksiomasi). 4) Ikki aylananing kesishgan nuqtalarini topish mumkin, agar ular umumiy nuqtaga ega bo'lsa (sirkul aksiomasi). 5) Berilgan to'g'ri chiziq va aylananing kesishgan nuqtalarini topish mumkin, agar ular kesishsa (chizg'ich va sirkul aksiomasi).

Yasashga doir masalalarni yechishda bu aksiomalardan chekli marta qo'llaniladi. Geometriyaning figuralarni yasashga doir qismi ancha murakkab va keng soha bo'lib, bu ustida chet el geometrlaridan Italiya geometri Maskeroni 1797 yilda, nemis olimi Yakob Shteyner 1833 yilda, Adler 1890 yillarda o'zlarining axborotlarida har bir yasash qurolining ahamiyati haqida mukammal fikr yuritib, ularni har biri va ularni o'rni bosuvchi boshqa asboblarni ta'riflaganlar va tabaqalarga ajratganlar. Fransuz matematigi Adamar elementar geometriya kursida shunday deb yozadi: «Geometrik yasashlar deganda chizg'ich va sirkul yordami bilan bajariladigan yasashlar tushuniladi». Bu olimlar geometrik yasash qurollari safiga ikki tomonli chizg'ich, to'g'ri yoki o'tkir burchak, go'niya kabi asboblarning mohiyati ustida ham fikr yuritadilar. O'rta Osiyolik olimlardan Umar Xayyom (1048-1030), Nasriddin Tusiy (1201-1274), Bag'dod matematigi Abul Hasan Sobit ibn Karra (836-901), Abul-Vafo Muhammed al-Buzdakoni (940-988), Sidjizi (951-1024), al Kuxi (X asr), Muhammad ibn al-Husayn (XII asr) chizmachilikning takomillashtirishi va chizmachilik asboblari haqida, yasashga doir tarixiy masalalarning yechimi haqida risolalar yaratganlar [4, 86-b.]. Yasashga doir geometrik masalalarni yechishdagi asosiy bosqichlar. Yasashga doir geometrik masalalarning berilishiga qarab, uning yechimi mavjudmi, yoki yo'qmi, degan savol tug'iladi. Bu savolga javobni ayrim masalalarda, ayniqsa, shu masalani yechishda qo'llaniladigan usul yoki ketma-ketlik aniq va sodda bo'lsa, oldindan aytish mumkin. Masalan: a tomoni va uning qarshisidagi A burchagi bo'yicha ∇ yasash talab qilinsin. Bunday masalaning sharti yetarli emas, lekin bu berilgan shartlarni qanoatlantiruvchi yechim cheksiz ko'p ekanligini aytish mumkin. Shuning uchun bu masalaning yechimi aniq emas deyiladi.



Yoki, masalan: 3 ta burchagiga ko'ra yasash. Har bir yechim bo'la oldi. Demak, aniq emas.



Bunday masalalarda, albatta, hech bo'lmasa, 1 ta chiziqli element berilishi kerak, bu shart ni to'la aniqlaydi. Bu masaladan ko'rinadiki, yasashga doir masalalarni yechishda o'ziga xos xususiyat mavjud ekan. Bu xususiyat bunday masalalarni yechishdagi asosiy bosqichlardir. Asosiy bosqichlar: analiz bosqichi, yasash bosqichi, isbotlash bosqichi, tekshirish bosqichi.

Analiz bosqichi – bu bosqichda «masala yechildi», deb faraz qilib, so'ralgan figuraning taxminiy chizmasi chiziladi va undagi masalaning shartida berilgan elementlar aniqlanadi, so'ngra ular orqali so'ralgan figuraning asosiy elementlari orasidagi bog'lanish aniqlanadi. Keyin berilgan elementlarga ko'ra, so'ralgan figurani yasash rejasi tuziladi. Bu bosqich ijodiy bosqich deb ataladi, chunki tuzilgan reja asosida so'ralgan figurani bema'lol yasash mumkin.

Yasash bosqichi – bu bosqich ijro etish bosqichi deb atalib, analiz bosqichida tuzilgan reja asosida so'ralgan figura yasaladi (sirkul va chizg'ich yordamida).

Isbotlash bosqichi – bu bosqichda yasalgan figura masalaning shartlarini qanoatlantirishi asoslanadi.

Tekshirish bosqichi – bu bosqichda quyidagi savollarga javob berish kerak bo'ladi: 1. Masala doim yechimga egami yoki yechimga ega bo'lmagan hol ham bormi? 2. Agar masala yechimga ega bo'lsa, qachon nechta yechimga ega ekanligi aniqlanadi. Bu bosqichlar masalaning to'la hal qilinishini ta'minlaydi. Berilgan masalaning sodda va murakkabligiga qarab ayrim bosqichlarni og'zaki ham bajarish yoki bajarmaslik mumkin bo'ladi. Lekin to'rtta bosqichga to'la e'tibor berish kerak bo'ladi. Yasashga doir masalalarni yechishda ko'p qo'llaniladigan bir qancha elementar masalalar mavjud. Masalan: 1) Kesmaga teng kesma yasash. 2) Burchakka teng burchak yasash. 3) 3 tomoniga ko'ra uchburchak yasash. 4) Ikki tomoni va ular orasida burchagiga ko'ra uchburchak yasash. 5) Bir tomon va unga yopishgan ikki burchagiga ko'ra uchburchak yasash. 6) Burchak bissektrisasini yasash. 7) Kesmani teng ikkita bo'lish. 8) Berilgan nuqtadan berilgan to'g'ri chiziqqa perpendikulyar tushirish va hokazo. Yasashga doir masalalarni yechishda bunday elementar masalalar chekli marta takrorlab qo'llanilishi mumkin.

Xulosa. Geometrik masalalarni yechish darslari davomida boshlang'ich sinf o'quvchilar ilgari amalga oshirilgan o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda ko'paytirish va bo'lish amallarini o'rgatish jarayonidagi kamchilik va nuqsonlar hisobga olindi. Ishni tashkil qilishda arifmetik amallar bajarishga yondashishning metodologik va metodik asoslariga tayanildi. Muammoli masalalarni yechish yordamida darslari davomida o'quvchilarga tabaqali yondashish amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishni psixologik va pedagogik jihatdan amaliy tayyorlash, tarbiyaning turli shakl va metodlarini tanlash imkoniyatini kengaytiradi. Geometrik masalalarni yechish o'quvchilarini arifmetik amallar bajarish orqali vatanparvar qilib tarbiyalash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarda ham foydalanish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017.

2. Bikbayeva N.U., Sidilnikova R.I., Adambekova G.A. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. - T.: O'qituvchi, 1996.

3. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo'latova M.I. Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil yetish: Pedagogika oliy ta'lim muassalarining 5141600 - «Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish» bakalavr yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan o'quv-metodik qo'llanma. - T.: OOO Jahon-Print, 2011.

4. Jumayev M.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. - T. Turon-iqbol, 2010.

GENDER ROLLARIDA O'ZIGA XOSLIK MAZMUNI VA TUZILISHIDAGI O'ZGARISHLAR

Rajabov Murodil Djumaboyevich, FarDU katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada xulq-atvor me'yorlari, gender me'yorlari, rollar transformatsiyasi, ijtimoiy me'yorlar, madaniy komponentlar, qadriyatlar va an'analar, zamonaviy ayollar va erkaklarning roli, shaxslararo munosabatlarda «dominant» yoki «samimiy» xulq, «tabiiy dominant» va «shartli dominant» ayollar, shaxslararo muloqotda an'anaviy me'yorlar rollar transformatsiyasi bo'yicha respondentlardan olingan natijalar tahlil va ulardan xulosalar chiqarilib, tavsiyalar berildi.

Tayanch so'zlar: *shaxslararo munosabatlarda xulq-atvor me'yorlari, gender me'yorlari, rollar transformatsiyasi, «dominant» yoki «samimiy» xulq, «tabiiy dominant» va «shartli dominant» ayollar.*

ИЗМЕНЕНИЕ СОДЕРЖАНИЯ И СТРУКТУРЫ ИДЕНТИЧНОСТИ В ГЕНДЕРНЫХ РОЛЯХ

Ражабов Муродил Джумабоевич, старший преподаватель ФерГУ

Аннотация. В статье рассматриваются нормы поведения, гендерные нормы, ролевая трансформация, социальные нормы, культурные компоненты, ценности и традиции, роль современных женщин и мужчин, «доминантное» или «искреннее» поведение в межличностных отношениях, «природно доминантное» и «условно доминирующие» женщины, традиционные нормы в межличностном общении, проанализированы полученные от респондентов результаты, сделаны выводы, даны рекомендации.

Ключевые слова: *нормы поведения в межличностных отношениях, гендерные нормы, ролевая трансформация, «доминантное» или «искреннее» поведение, «природно доминантные» и «условно доминантные» женщины.*

CHANGING THE CONTENT AND STRUCTURE OF IDENTITY IN GENDER ROLES

Rajabov Murodil Dzhumaboevich, senior teacher of FerSU

Abstract. The article deals with the norms of behavior, gender norms, role transformation, social norms, cultural components, values and traditions, the role of modern women and men, «dominant» or «sincere» behavior in interpersonal relationships, «naturally dominant» and «conditionally dominant» women, traditional norms in interpersonal communication, the results obtained from the respondents were analyzed, conclusions were drawn, recommendations were given.

Key words: *norms of behavior in interpersonal relationships, gender norms, role transformation, «dominant» or «sincere» behavior, «naturally dominant» and «conditionally dominant» women.*

Kirish. Oxirgi yigirma yil davomida turli ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillari gender munosabatlari sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni faol o'rganmoqda. Tadqiqotchilarning qiziqishi nafaqat gender munosabatlarining haqiqiy modellarini o'rganishga, balki zamonaviy erkaklar va ayollarning turli xil ijtimoiy rollarning subyektlari sifatida yangi xulq-atvor amaliyotlarini belgilaydigan individual xususiyatlarni tahlil qilishga qaratilgan. Olimlarning ishlarida eng katta qiziqish erkaklar va ayollarning ma'lum darajada ularning ijtimoiy xulq-atvori va munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlari sifatida gender vakilliklari, stereotiplar, munosabatlarni o'rganishda namoyon bo'lmoqda.

Asosiy qism. Biroq, shaxsning xulq-atvor ko'rinishlarini tartibga solishda qadriyat-me'yoriy tizim, xususan, ijtimoiy va madaniy me'yorlar muhim rol o'ynaydi. Xulq-atvorni

tartibga soluvchi me'yorlar va qadriyatlar ijtimoiy voqelikning jamiyatdagi, guruhlardagi, shaxsning xatti-harakatlaridagi darajalarida namoyon bo'ladi. Xulq-atvor me'yorlari erkaklar va ayollarga turli guruhlarning a'zolari sifatida o'zlarining va boshqa odamlarning harakatlarini baholashga, baholangan hodisalarni me'yorlar bilan bog'lashga, o'zlarining muloqotlari va o'zaro ta'sirini shakllantirish hamda boshqarishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, erkak va ayolning xulq-atvori me'yorlari (gender me'yorlari) gender munosabatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular erkaklar hamda ayollarning xatti-harakatlari va o'zaro munosabatlarini belgilaydi. Shu bilan birga, muayyan xulq-atvor amaliyotlari me'yoriy gender me'yorlarini o'zgartirishi mumkin.

Gender me'yorlari – bu erkaklar va ayollarning jamiyat a'zolari va turli ijtimoiy guruhlar vakillari sifatidagi faoliyati qoidalari, xatti-harakatlari, me'yorlaridir [2, 84]. I.S.Kon an'anaviy me'yorlarning erkaklar va ayollarning roli xulq-atvoridagi o'zgarishlarga bog'liqligini tahlil qilib, «Gender rollari va o'ziga xosliklarining mazmuni va tuzilishidagi o'zgarishlar ijtimoiy-madaniy stereotiplarda, erkaklar va ayollarning bir-birlari va o'zlari haqidagi tasavvurlarida aks etadi» deb ta'kidlagan [3, 57]. Rollar transformatsiyasi bizni gender munosabatlari sohasidagi tendentsiyalarni o'rganishga undadi. Birinchidan, gender me'yorlari ijtimoiy me'yorlarning bir qismidir. Ijtimoiy me'yorlar singari, gender me'yorlari ham haqiqiy holatning oddiy aksi emas, ular jamiyat a'zolari va gender munosabatlarining subyektlari sifatida erkaklar va ayollar uchun faoliyatning ba'zi optimal me'yorlari va xulq-atvor shakllarini belgilaydi. Bu esa, shaxsni strategiyalar va xatti-harakatlarni tanlashini osonlashtiradi. Ikkinchidan, madaniy komponent gender me'yorlarida muhim rol o'ynaydi. Buning sababi shundaki, erkak va ayol xulq-atvor me'yorlari, asosan, madaniy urf-odatlar, ramzlar asosida shakllanib, ommaviy axborot vositalari va madaniy qolip sifatida omma ongiga tarqalib, mustahkamlanadi. Shu sababli, gender munosabatlari sohasidagi transformatsion jarayonlar, asosan, ommaviy madaniyatda keng tarqalgan erkak va ayol xatti-harakatlarining namunalari orqali amalga oshiriladi. Uchinchidan, ularni ijtimoiy me'yorlar bilan birlashtiruvchi gender me'yorlarining asosiy vazifasi xulq-atvorni baholash, tartibga solish va nazorat qilish bilan bog'liq. Gender me'yorlari qadriyatlar va an'analar bilan bir qatorda erkaklar va ayollar yashaydigan ijtimoiy-madaniy makonni tashkil qiladi. Ko'rsatmalar va taqiqlarni ommalashtirish orqali me'yorlar erkaklar va ayollarning zarur, majburiy, kerakli, tasdiqlangan, kutilgan va rad etilgan narsalar haqidagi g'oyalarini shakllantiradi. To'rtinchidan, gender me'yorlarini o'rganish zamonaviy ayollar va erkaklarning roli xulq-atvoridagi o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirishga imkon beradi hamda gender munosabatlarini «rol» va «maqom» tushunchasi nuqtai nazaridan tahlil qilishda asosiy hisoblanadi. Gender me'yorlari erkaklar va ayollarning ijtimoiy rollarining mazmuni bo'yicha ma'lum bir davrda jamiyatda hukmronlik qiladigan ideal odamlar va qadriyatlarni aks ettiradi. Gender siyosati ta'siri ostida ijtimoiy guruhlar vakillari bo'lmish erkaklar va ayollarning ijtimoiy hayoti uchun me'yorlar, qoidalar belgilanadi hamda aniqlanadi [2, 106].


Gender munosabatlari sohasida sodir bo'layotgan jarayonlar odamlarning gender me'yorlarining o'zgarishiga munosabatini o'rganish bo'yicha tadqiqot o'tkazishlarini faollashtirdi. Shu nuqtai nazardan tadqiqotimizda gender farqlarini o'rgandik. Tadqiqotda 111 nafar erkak, 116 nafar ayol jinsiga mansub jami 227 nafar respondentlar ishtirok etdi. Tadqiqot metodi sifatida T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar diagnostika»si metodi olindi. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda aks etdi.

1-jadval

T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi»dan olingan natijalari n=227


№	Omillar	D	S
1	n _x	62,6	37,4
2	Jinsi	erkak	31,26
		ayol	31,24

Umumiy olingan natijalarni ko'rishini quyidagi 1-diagrammada taqdim qildik.



1-diagramma. T.Lirining olingan natijalari

«Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi»dan olingan umumiy natijalarning tahliliga ko'ra, respondentlarning 62,48% shaxslararo munosabatlarda «dominant» xulqni namoyon qilar ekan. Dominantlik ijtimoiy guruhda yetakchi mavqega ega bo'lish niyati va qobiliyatini anglatadi. Dominantlik – bu, boshqalarga o'z maqsadini ayta olish va boshqa odamlarning fikrlari va harakatlariga ta'sir qilish qobiliyati. Dominantlar shaxslararo munosabatlarda o'zlarini qadrlaydilar va ularning bu xususiyatlari boshqalarni o'zini hozirgi vaziyatini va maqsadlarini hurmat qilishga majbur qilishda namoyon bo'ladi. Ular mas'uliyatni o'z zimmalariga olishdan, boshqalar bilan raqobatlashishdan va jangda g'alaba qozonishdan qo'rqmaydi. Ular, qoida tariqasida, o'zgargan sharoitlarda tezda harakat qilishni va yagona to'g'ri qaror qabul qilishni biladigan o'ziga xos va irodali shaxslardir. E'tirozlarga toqat qilmaydilar va o'zlarining fikrlarini yagona va to'g'ri deb biladilar. Ushbu metodika bo'yicha «samimiy» xulqni namoyon qiluvchi respondentlarning 14,2%i yumshoqlik, ortiqcha emotsional muomalalik, har qanday holatda atrofdagilarga ko'maklashuvchi, o'z zimmasiga ortiqcha mas'uliyatni olish kabi omillarni ko'rsatar ekan.



2-diagramma. Umumiy olingan natijalarning jinslar bo'yicha taqsimoti tahlili

Olingan natijalarga ko'ra, «Shaxslararo munosabatlar diagnostika» metodidan olingan umumiy natijalarning tahliliga ko'ra erkak respondentlarning 31,26 foizi shaxslararo munosabatlarda «dominant» xulqni namoyon qilar ekan. Erkak dominantni umumiy xatti-harakatlarida, imo-ishoralarida va to'g'ridan-to'g'ri munosabatlarda kuzatiladigan o'ziga xos, sezilarli tashqi xususiyatlari orqali boshqalardan ajratib olish mumkin. O'ziga ishonch, raqobatga moyillikning tashqari ifodalari, fikrini xotirjam va ikkilanmasdan ifoda etish va uni himoya qilish, muloqotda ochiqlik, o'zini himoya qilish qobiliyati bilan ajralib turadilar. Bunday shaxslar so'nggi chora sifatida mushklarini silkitishlari, o'z maqsadlariga erishish uchun oqilona yoki manipulyativ harakat qiladilar.

Metodika natijalariga ko'ra, shaxslararo munosabatlarda erkak respondentlarning 17,6%, «samimiy»lik xulqni namoyon qilar ekanlar. Samimiy erkak har doim o'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi va xatolarini boshqalardan ko'rmaydi. U o'zining so'zlari va harakatlari boshqalarning kayfiyatiga ta'sir qilishi mumkinligini tushunadi va muloqotda halol va ochiq bo'lishga intiladi. Bunday erkaklar bajara olmasalar va da qilmaydilar va va dalarini o'z vaqtida bajaradi. Bundaylar o'z yaqinlarini va atrofida qilami qiyin vaziyatlarda tashlab qo'ymaydilar. Qaror qabul qilishdan oldin ular har doim ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganadilar. U boshqa odamlarga yoki o'ziga zarar etkazishi mumkin bo'lgan qarorlar qabul qilmaydi. O'z fikrlari va his-tuyg'ularini boshqalardan yashirmaydi, o'z tamoyillarini manfaatlar uchun o'zgartirmaydi va unga noqulay bo'lsada har doim haqiqatni aytishga urinadi. Samimiy erkakning eng muhim xususiyatlaridan biri bu murosaga tayyorlik va sherik bilan ziddiyatli vaziyatlarda murosaga yechimini izlashdir. Bunday odam suhbatdoshni tinglashni biladi va uning fikrini hurmat qiladi.

Bir qator tadqiqotlar natijalariga ko'ra (Zdravomyslova O., 2003; Kon, 2011; Ojigova, 2006; Tashcheva, Kireeva, 2011; Xotkina, 2016), ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq xarakter xususiyatlarini o'zgartiradigan rolli xatti-harakatlarning yangi modellarini namoyish etar ekanlar. I.S.Kon «Ishlab chiqarish munosabatlari sohasida gender mehnat taqsimotining an'anaviy tizimining asta-sekin vayron bo'lishi, erkak va ayolning ijtimoiy va ishlab chiqarish funksiyalari, rollari, kasblari va faoliyat sohasalarining dixotomizatsiyasi va qutblanishining zaiflashishi kuzatilmoqda. Bu jarayonning yetakchi, harakatchan kuchi ayollardir, ular erkaklar kasbini tez egallaydilar, ta'lim jihatidan erkaklar bilan solishtiradilar va hokazo» deb ta'kidlagan [3, 210]. O'tkazilgan metodikaning natijalariga ko'ra, 31,24% ayollar shaxslararo munosabatlarda dominant hulqni namoyon qilar ekanlar. Ko'p hollarda, ayollarga nisbatan bu tushuncha ishlatilmaydi. Dominant ayollar faqat erkaklarning boshqaruv xususiyatlarini o'zlarida o'zlashtiradilar, ammo ulardan ijodiy va tashkiliy maqsadlarda foydalanmaydilar. Har bir ayol etakchilikka tabiiy jihatdan moyil emas. Bunga jamiyatimizga xos bo'lgan seksizm (ing. sexism lot. sexus «gender» so'zidan) – odamlarga nisbatan noto'g'ri qarashlar yoki odamlarni jinsi bo'yicha ajratish ham ta'sir qiladi. Qadriyatlarining atipik ierarxiyasiga ega bo'lgan ayol an'anaviy ayol qobiliyatlari g'oyasi chegarasidan tashqariga chiqadi va ayolga xos bo'lmagan ambitsiyalarni va erkaklar dunyosida bo'lgani kabi raqobatlashishga tayyorligini namoyish qila boshlaydi. Bunday ayollar hukmronligi – «tabiiy dominant» va «shartli dominant» darajalarini belgilaydi. «Tabiiy dominant» ayol, ayollarga hos xususiyatlarini asta-sekin erkaklar xatti-harakatlari modeliga o'zgartira boshlaydi. Aynan mana shu ayollarni mansabparast va hokimiyatga chanqoq deb o'ylashadi. Ammo bu xususiyatlar yuqori ijtimoiy statusga mansublikning belgilari emas. Ma'lum bo'lishicha, tabiiy dominatlik (ayollarda) – hayotda muvaffaqiyatga erishmagan dominant erkakning nushasi deb tushuniladi. Ular o'zlarining jinsiga tashqi mosligini juda munosib tarzda saqlab qoladilar, ammo dominantga aylanish ayollarning nozikligini yo'qotadi. Ko'rinmas o'zgarishlar metafizik darajada sodir bo'ladi va

erkaklarga hos energiya muqarrar ravishda ayol printsipini siqib chiqara boshlaydi. Bu qalb uchun o'ziga xos himoya qobig'i bo'ladi.

«Shartli dominant» ayol, bu ko'p qirrali, plastik va har qanday tashqi muhitga muvaffaqiyatli moslasha oladi. U ishda muvaffaqiyatli, qattiqqo'l va hukmron rahbar bo'lishi mumkin, lekin oiladagi barcha eng qimmatli ayollik fazilatlarini haqiqiy lideri, o'zining tabiiyligini yo'qotmagan ayoldir. Ya'ni, bunday odam faqat ma'lum sharoitlarda dominantlik qiladi. Biroq, dominant ayolning yangi turi qaysi turdagi dominant ayolga hos bo'lishidan qat'i nazar, bu evolyutsiya nuqtai nazaridan yangi hodisa ekanligi va voqealarning bunday rivojlanishining oqibatlarini oldindan aytib bo'lmaydi. «Shaxslararo munosabatlar diagnostika» metodidan olingan umumiy natijalarning tahliliga ko'ra, ayol respondentlarning 19,8% shaxslararo munosabatlarda «samimiy» xulqni namoyon qilar ekan. Shaxslararo muloqotda an'anaviy me'yorlar ayoldan samimiylik, kamtarlik, muloyimlik, xulq-atvorda hamdardlik ko'rsatishni talab qiladi, bu erkaklar bilan munosabatlarni o'rnatish uchun, ayniqsa, muhimdir. Ayol mustaqillikka intilmasligi, kuch va qudratini ochiq ko'rsatmasligi kerak; u erkakka undan aqlliroq va qobiliyatliroq ekanligini ko'rsatmasligi kerak. Har bir ayol kuchli erkakning himoyasiga muhtoj, u bilan munosabatlarda uning tajribasi va bilimiga tayanib, sezgir va itoatkor bo'lishi kerak. Aslida ayol erkak bilan raqobatlashmasligi kerak, ammo erkaklardan ayollar 2,2%ga yuqori ekanligini natijalardan ko'rishimiz mumkin. Bu holatni o'zini o'zi ta'minlaydigan, ko'proq pul topadigan, shaxs sifatida yaxshi rivojlangan, etarlicha ijtimoiy doiraga ega ayollarda bo'lishi bilan izohlashimiz mumkin.

Xulosa. Zamonaviy jamiyatda erkak va ayollarning gender me'yorlari, oila va gender rollari haqidagi g'oyalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ayollar oilaviy munosabatlarga nisbatan o'z qarashlarida ancha erkin va erkaklarga nisbatan rol transformatsiyasida ustunliklari aniqlandi. Erkaklar va ayollarning roli xulq-atvoriga oid yoshlar muhitidagi g'oyalar va me'yoriy kutishlarni o'rganish natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, umuman olganda, so'ralgan o'g'il va qizlarning ko'pchiligi uchun gender me'yorlarining aralash varianti, shu jumladan, orientatsiya ham xosdir, xulq-atvorning an'anaviy va tenglik modellariga nisbatan.

Adabiyotlar:

1. Здравомыслова О.М. Семья и общество: гендерное измерение российской трансформации. - М.: Едиториал УРСС, 2003. - 152 с.
2. Клецина И.С., Иоффе Е.В. Гендерные нормы как социально-психологический феномен. - М.: Проспект, 2017. - 144 с.
3. Кон И.С. История и теория «мужских исследований» // Гендерный калейдоскоп: Курс лекций / Под общ. ред. М.М.Малышевой. - М.: Academia, 2002. - С. 188-242.
4. Кон И.С. Три в одном: сексуальная, гендерная и семейная революции // Журнал социологии и социальной антропологии. - М., 2011. - Т. 14. - № 1. - С. 51-65.
5. Ожигова Л.Н. Психология гендерной идентичности. - К.: КГУ, 2006. - 290 с.
6. Тащёва А.И., Киреева Л.Е. Ролевое поведение супругов «двухкарьерного» брака // Российский психологический журнал. - М., 2011. - Т. 8. - № 4. - С. 44-55.
7. Хоткина З.А. Позитивные изменения жизни россиянок в XXI веке // Женщины России, XXI век: гендерные исследования: Сборник материалов. - М.: Экон-Информ, 2016. - С. 21-28.
8. Nuriddinov R.S. Information as a social-psychological problem // Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. - М., 2020. - С. 380-382.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARINI KASBIY SARALASHNING DUNYO UNIVERSITETLARI AMALIYOTIDAN

*Dadayeva Ozoda Yuldashevna, O'zDJTU katta o'qituvchisi,
IL 21091378-loyiha kichik ilmiy xodimi*

Annotasiya. Maqolada rivojlangan dunyo universitetlarida pedagoglarni lavozimlarga tanlash prinsiplari yoritiladi. Jumladan, OTM professor-o'qituvchisi kasbiy mahoratining o'sishi katta ahamiyatga egaligi, chunki mazkur kompetensiya talabalar faoliyati uchun eng muhim rag'batlarni namoyon qilishi va oliy ta'lim muassasasi uchun o'sish potentsiali sifatida ishlashi tahlil qilinadi. OTMlariga professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish hamda ularning tanlovlarda ishtirokini psixologik baholash tizimini yo'lga qo'yish orqali esa, bir qancha masalalarning hal etilishiga erishish mumkin.

Tayanch so'zlar: universitet, ta'limning uzluksizligi, professor, o'qituvchi, kasbiy saralash, yaroqlilik, intellekt, diagnostika, tizim, kompetensiya.

**МИРОВОЙ ОПЫТ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ПОДБОРА
ПРОФЕССОРОВ-ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ**

*Дадаева Озода Юлдашевна, старший преподаватель УзГУМЯ,
младший научный сотрудник проекта IL 21091378*

Аннотация. В статье описаны принципы отбора педагогов на должности в вузы развитых стран мира. В частности, проанализировано, что рост профессионального мастерства профессора-преподавателя вуза имеет большое значение, так как эта компетенция является важнейшим стимулом для активности студентов и работает как потенциал роста для высшего образования. Решить ряд вопросов можно путем создания системы психологической оценки педагогов и их участия в конкурсах.

Ключевые слова: вуз, непрерывность образования, профессор, преподаватель, профессиональный отбор, пригодность, интеллект, диагностика, система, компетентность.

**FROM THE PRACTICE OF WORLD UNIVERSITIES
OF PROFESSOR-TEACHERS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

*Dadayeva Ozoda Yuldashevna, senior teacher of UzDJTU,
junior researcher of the project - IL 21091378*

Abstract. The article describes the principles of selection process of teachers for positions in universities in developed countries of the world. In particular, it is analyzed that the growth of the professional skills of a university professor is of great importance, since this competence is the most important incentive for students' activity and works as a growth potential for higher education. A number of issues can be resolved by creating a system of psychological assessment of teachers and their participation in competitions.

Key words: higher education institution, continuity of education, professor, teacher, professional selection, suitability, intellect, diagnostics, system, competence.

Kirish. Ayni paytda dunyoda ta'lim sohasida chuqur o'zgarishlar ro'y bermoqda, ya'ni ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, jumladan, oliy ta'lim ham yangilanmoqda. Zamon talabidan kelib chiqib, oliy ta'limning maqsad va vazifalari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda, chunki u nafaqat kelajakdagi elitani, balki aqliy ishchilarning ko'plab qatlamlarini ham tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimi doirasida oliy ta'lim professor-o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar, uni tayyorlash va qayta tayyorlash mazmuni,

shakl va usullari tubdan o'zgarib bormoqda. Yangi sharoitda o'qituvchi faoliyatining tabiati ham o'zgarmiqda, ta'lim jarayonida talabning rolini faollashtirish g'oyasi e'tirof etilmogda.

Asosiy qism. Uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan hisoblangan oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisini kasbiy-pedagogik tayyorlash shakllari va usullarini tahlil qilish butun dunyo universitetlarida ilmiy-pedagogik kadrlarni tanlash tizimi tajribasini batafsil ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Mazkur muammo esa, o'qitishning asosiy maqsadi, omillari va samaradorligini belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, OTM pedagogining o'quv faoliyatiga o'ta bog'liq. Butun kompleks chora-tadbirlardan keng va tizimli foydalanish oliy ta'lim nazariyasi va amaliyotining o'ziga xos xususiyati va kasbiy-pedagogik tayyorgarlik samaradorligining shartidir. Hozirgi bosqichda butun dunyo universitetlarida universitet o'qituvchilari lavozimlariga tayinlash institut tarkibiga kiradi. Butun protsedura chiziqli model sifatida ifodalinishi mumkin, u to'liq tsikldagi to'qqiz bosqichni o'z ichiga oladi: bo'sh ish o'rinarini aniqlash va lavozimni to'ldirish mezonlari; vakansiya haqida e'lon; rasmiy tanlash mezonlari; ariza beruvchilar haqida xabarlar olish; nomzodlar to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni olish; shaxsiy suhbat; eng munosib nomzodlarga lavozimlarni berish; sinov muddati; keyingi kasbiy rivojlanish. Agar bosqichlarga alohida to'xtaladigan bo'lsak, vakansiyaning ta'rifi va lavozimni egallash mezonlarini to'g'ri belgilash o'ta muhim. Chunki har bir ta'lim muassasasi tuzilishi jihatidan farq qiladi. Ushbu bois talab doirasida ariza beruvchilarni tanlashning o'z tizimi belgilanadi. Bu jarayon dunyo universitetlarida turlicha amalga oshiriladi. Masalan, Belgiyada universitetning mustaqilligi ichki qaror bilan tartibga solinadi, bu qonuniy hujjatdir. Buyuk Britaniya institutlari esa, sezilarli avtonomiyaga ega, ba'zilar tanlov tartib-qoidalarini boshqaradigan ichki siyosatni ishlab chiqqan. Avstriyada davlat lavozimiga tayinlash jarayoni qonun bilan belgilanadi. Menajer yangi xodimga ehtiyoj borligini taxmin qiladi va xodimlarning vakillari taklifni tasdiqlaydilar. Biroq, lavozimni tasdiqlash Federal Ta'lim vazirligi orqali amalga oshiriladi. Finlyandiya, masalan, Xelsinki universitetida «O'qituvchilar ta'limi to'g'risida»gi qonun ba'zi tayinlash jarayonining tartiblarini belgilaydi. O'qituvchi darajasidan past bo'lgan xodimlar fakultetga birlashtirilgan professor-o'qituvchilar tomonidan tayinlanishi mumkin. Lavozimga tavsiyanoma berish bo'yicha qarorlar fakultet, universitet kengashi, so'ngra bosh kengash, so'ngra universitet rektori darajasida qabul qilinadi. Niderlandiyadagi muassasalar to'rtta shartga rioya qilgan holda parlament akti doirasida katta erkinlikka ega: oliy yoki kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi guvohnoma va ta'lim nazariyasi bo'yicha tegishli tayyorgarlik, ijobiy ma'lumotnoma, tibbiy ma'lumotnoma. Lyuksemburg universitetlarida katta o'qituvchilar va assistentlar Buyuk Gertsog va Ta'lim vazirligi tomonidan tayinlanadi. Kiprda vaqtinchalik lavozimlarga tayinlash Ta'lim komissiyasi (ESC) tomonidan amalga oshiriladi. Arizalar uch a'zodan iborat maslahat qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi. AQSHda oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha mamlakat pedagogik hamjamiyatining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi milliy markazlar Amerika oliy ta'lim assotsiatsiyasi, Amerika kollejlari va universitetlari assotsiatsiyasi (American Association of Higher Education), Oliy maktablar kengashi, boshqa professional tashkilotlarda amalga oshiriladi. Aynan shu muvofiqlashtiruvchi markazlarning sa'y-harakatlari bilan universitet o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlash bo'yicha turli dasturlar yaratilgan va muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bo'sh ish o'rinarini (ustoz, o'qituvchi, professor, direktor) to'ldirish to'g'risidagi qaror xodimlarga bo'lgan ehtiyojga bog'liq va belgilangan tasdiqlashni talab qiladi, masalan, direktor raisligidagi kadrlar siyosati qo'mitasi tomonidan har yili jalb qilingan xodimlar vakillari bilan ustuvorliklarni ko'rib chiqishi mumkin. Bo'sh o'rinni egallash to'g'risidagi qaror kafedra yoki muassasaning rivojlanish rejasiga muvofiq qabul qilinadi va akademik, moliyaviy va resurs ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni o'z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, Kiprda har yili yanvar oyida barcha maktablarda reklama kompaniyasi o'tkaziladi.

Reklama ichki, universitet ichida yoki milliy universitet tizimida kengroq bo'lishi mumkin. Germaniya va Avstriyada ta'lim vazirligi maxsus gazetada reklama qilishni talab qiladi. Finlyandiya tanlovdan 30 kun oldin ma'lumotlarni joylashtirishni ta'minlaydi.

Tanlovning rasmiy mezonlari mavjud. Ular qonuniy yoki zarur bo'lishi mumkin. Masalan, shaxsiy xususiyatlar xodimlarning ishlaydigan jamoasi bilan muvofiqi uchun hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin. Barcha tizimlarda qonuniy talablardan biri aspirantura diplomi va muvaffaqiyatli kasbiy tajribadir. Masalan, Ispaniyada professor bo'lishni istagan kishi falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo'lishi kerak, u maktab tajribasini o'qitishni talab qilmaydi. Avstriyada fanni o'rganish metodikasi fanidan oliy ta'lim o'qituvchisi quyidagilarga ega bo'lishi kerak: ushbu fanni o'qitish huquqini tasdiqlovchi sertifikat; majburiy maktabda kamida to'rt yillik amaliy ish tajribasi va o'qituvchi sifatidagi baholash sertifikati; fan sohasiga oid to'rtta nashr. Lavozimga nomzodlar o'zlarining kasbiy muvofiqi to'g'risida tavsiyalar berishlari kerak. Ba'zi hollarda barcha murojaat etuvchilardan ma'lumotnomalar talab qilinadi, boshqalarda (masalan, Uelsda) – suhbatga taklif qilmoqchi bo'lganlardan. Ma'lumotnomalarni arizachini biladigan xodimlardan olish mumkin. Niderlandiya va Isroilda yozma ma'lumotnomalar talab qilinmaydi.

Nomzodlar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni olish o'ta muhim. Germaniya ta'lim muassasalarida talabgorlar to'g'risidagi ma'lumotlar bosh maktab inspektori tomonidan taqdim etiladi, uning hisoboti tayinlash komissiyasiga yuboriladi. Finlyandiya ta'lim fakulteti nomzodning hisoboti, tadqiqot faoliyati va nashrlarini ko'rib chiqish uchun ikkita ekspertni tayinlaydi. O'qituvchining tegishli bilim darajasining mavjudligi tekshiriladi, uning kasbiy tajribasiga ustunlik beriladi. Bundan tashqari, ochiq ma'ruza va uni uch ballik shkala bo'yicha baholash talab etiladi: A – a'lo, B – juda yaxshi, C – yaxshi. Xabarlar mahalliy qo'mitaga o'tkaziladi. Ariza beruvchining uch yoki to'rt kishidan iborat komissiya tomonidan standart suhbat shaxsiy suhbatning mumkin bo'lgan variantlaridan biridir. Ariza, so'rovnom, yozma xabarlar va boshqa hujjatlar ma'lumotlari asosida suhbatga chaqirish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Suhbat jarayoni bir necha bosqichlarni va turli hsakllarni o'z ichiga olishi mumkin. Shotlandiyada bu jarayon bir bosqichdan iborat, ya'ni besh nafar xodimdan iborat guruhning 40 daqiqalik suhbat: muassasa direktori, direktor o'rinbosari, katta xodim, katta ish tajribasiga ega o'qituvchi, mahalliy maktab direktori. Komissiya a'zolari ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan barcha hujjatlar bilan tanishish huquqiga ega va yig'ilishda ular to'rt yoki beshta talabnoma beruvchi bilan parallel ravishda o'z yo'nalishlari bo'yicha so'rov o'tkazadilar. Angliyada tayinlash jarayoni uch-to'rt bosqichdan iborat bo'lishi mumkin: katta ma'mur tomonidan o'qituvchilar agentligidan ma'lumot so'rashi; uch talaba bilan individual dars; kurs rahbari bilan suhbat; boshqa abituriyentlar va kafedra xodimlari bilan suhbat. Finlyandiya intervyu yo'q, tavsiyalar hisobga olinadi va ish hisoboti va o'qitish natijalari tekshiriladi.

Eng munosib nomzodlarga lavozimlarni taqdim etish. Tayinlash bo'yicha qaror qabul qiluvchilar professional o'qituvchilar, ma'murlar yoki siyosiy guruhlarining vakillari bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda qaror yuqori darajada tasdiqlanishi kerak. Finlyandiya davlat nomzodni ko'rib chiqadi va kanslerga tayinlashni tavsiya qiladi. Shotlandiya, Uels va Angliyada muassasa menejerlari guruhi qaror qabul qiladi. Finlyandiya o'qituvchining tadqiqot faoliyati darajasi eng hal qiluvchi hisoblanadi. Angliyada ilmiy yutuqlar, tadqiqot malakalari va kasbiy tajriba o'rtasidagi muvozanat hisobga olinadi. Shotlandiyada Qo'mita oddiy ovoz berish yo'li bilan qaror qabul qilishi mumkin. Niderlandiya, Islandiya va Germaniyada sinov muddati tayinlanganidan keyin bir yil davom etadi, Isroilda bu uch yil. Gretsiyada u professorlar uchun belgilanmagan. Kiprda Pedagogika instituti direktoridan past bo'lgan barcha lavozimlar uchun shartnomalar bir yilga tuziladi va keyin uzaytiriladi. Buyuk Britaniyada qisqa muddatli shartnomalar tizimi mavjud. Niderlandiyada o'qituvchiga o'qitish bilan bog'liq muammolarning nazariy jihatlarini o'rganish uchun ikki

kunlik kurs taklif etiladi. Ko'pgina tayinlanganlar universitetda ishlashni malaka oshirishning asosiy vositasi deb bilishadi, bu ularning seminar va simpoziumlarda ishtirok etishini rag'batlantiradi. Norvegiyada har bir kollejda malaka oshirish kurslari mavjud. Finlyandiyada «O'qituvchilar ta'limi to'g'risida»gi qonun o'qituvchilarga bir muddat chet elda qo'shimcha ta'lim olish huquqini beradi. Yangi Zelandiyada o'qituvchilarning faqat yarmi birinchi marta tayinlanganidan keyin qo'shimcha akademik yoki kasbiy malaka oladi. O'qituvchining universitet maqomi akademik malakaga ega bo'lish, pedagogik muammolarga qiziqish ko'rsatish muvaffaqiyatiga bog'liq. Biroq, ko'pgina mamlakatlarda o'qituvchi lavozimini egallashning aniq mezonlari mavjud emas va o'qitishning turli darajalari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning tabiati aniq emas. Masalan, Amerika tizimi nihoyatda dinamik bo'lib, uning o'zgarishi va yangilanishi bir qancha omillar bilan bog'liq. Ularning asosiylari: ta'lim sohasidagi davlat siyosati, fanlarning integratsiyasi va tabaqalanishi, uzluksiz bilim tizimini rivojlantirish, mamlakatda ta'lim, jamiyatning yangi tipdagi pedagog kadrlarini tayyorlash ehtiyojlarini qondirish.

Xulosa. XXI asrda universitet o'qituvchilari lavozimiga tayinlashning yuqorida sanab o'tilgan shakllarini joriy qilish orqali nomzodlarda o'quv materialini keng auditoriya oldida taqdim etish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, o'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan pedagogik mahorat shakllanadi. Oliy ta'lim faoliyatining maqsadlari, vazifalari, mazmunida ro'y berayotgan zamonaviy o'zgarishlar universitet o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga, universitetda o'qitish shakllari va usullariga yuqori talablarni qo'yadi va quyidagilarga imkon beradi: rollarning xilma-xilligini amalga oshirish; zamonaviy o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi; mamlakat oliy o'quv yurtlarining turli ko'rinishlari va o'qitishning eng samarali uslub va uslublari bilan tanishish; turli kasbiy qo'mitalar va komissiyalarga a'zo bo'lish; tajribali hamkasblar bilan o'qitishning dolzarb masalalarini muhokama qilish va natijada ishtiyoqli va kasbiy yo'naltirilgan mutaxassislariga aylanish. OTMlarning professor-o'qituvchilari faoliyatini diagnostika qilish amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda individual o'qituvchi va professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish jarayoniga ta'sir qiluvchi pedagogik ahamiyatga ega omillarni aniqlash, shuningdek, pedagogik kadrlarni tayyorlash, moslashtirish va rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun diagnostika tizimi etarlicha rivojlanmagan. Umuman olganda, OTM o'qituvchilari kasbiy kompetentsiyasining pedagogik va psixologik diagnostikasi tizimli va ko'p tarmoqli bo'lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Бонадренко Е.Н. Принципы профессионального отбора научно-педагогических кадров в вузах мира и на современном этапе // Вестник ВолГУ. - Серия 6. - Вып. 11. - В., 2008-2009.
2. Good T.L. Building the knowledge base of teaching // What teachers need to know: the knowledge, skills and values essential to good teaching / ed. D.D.Dill. - San Francisco, 2004.
3. Kendall, S., Allebone B., Griffiths J. Different voices in partnership // Mentoring and tutoring. - L., 1998.
4. Kohonen V. New teacher professionalism and collegial school culture: empirical findings of an action research project / ed. E.Kimonen; Curriculum approaches Qyvaskyla, department of teacher education and institute for educational research. - University of Jyvaskyla, 2003.
5. Gordon, S. How to help Beginning teachers succeed. - Alexandria, 2001. - 243 p.
6. Luukkainen O. Teachers in 2010. Anticipatory project to investigate teachers' initial and continuing training needs (OPEPRO): Report 15, English summary. - Helsinki: National board of education, 2000.

INTERFAOL TA'LIM VOSITASIDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Jabbarova Zuhra Omondullayevna, Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogning maqsadi, pedagogik mahorati, o'z individualligini yorqin namoyon etish, interfaol ta'lim vositasida mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, oldindan o'quvchilarni ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish yo'llari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: *mustaqil ta'lim, mustaqil ish, ijodiy ish, interfaol ta'lim, nazariy mashg'ulot, amaliy mashg'ulot, tajriba mashg'uloti, faollik.*

ОБУЧЕНИЕ УЧЕНИКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ МЫШЛЕНИЮ СРЕДСТВАМИ ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Джаббарова Зухра Омонуллаевна, старший преподаватель Национального центра подготовки учителей по новым методикам Джизакской области

Аннотация. В данной статье раскрываются цель педагога, педагогическое мастерство, яркое проявление своей индивидуальности, формирование культуры самостоятельного мышления средствами интерактивного обучения, пути достижения эффективности обучения и воспитания учащихся.

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, самостоятельная работа, теоретическая работа, интерактивное обучение, теоретическое обучение, практическое обучение, опытное занятие, активность.*

TEACHING STUDENTS INDEPENDENT THINKING BY MEANS OF INTERACTIVE LEARNING AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Jabbarova Zuhra Omondullaevna, senior teacher at the National center for teacher training on new methods of Jizzakh Region

Abstract. This article reveals the goal of the teacher, pedagogical skills, a vivid manifestation of one's individuality, the formation of a culture of independent thinking by means of interactive learning, ways to achieve the effectiveness of teaching and educating students in advance.

Key words: *independent learning, independent work, creative work, interactive learning, theoretical learning, practical learning, experiential learning, activities.*

Kirish. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib kelayotgan jamiyatda mustaqil fikrlaydigan dunyoqarashi keng va fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan jamiyat a'zosining o'rmi muhimdir. Erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash malakalari shakllangan O'quvchi konstruktiv va kreativ faoliyatiga ega bo'lgan shaxs hisoblanadi. Mustaqil fikrlay oladigan shaxs tez o'zgarib borayotgan zamonaviy dunyo xodisalariga, ommaviy axborot vositalari ta'siriga o'z pozitsiyasi nuqtai nazaridan javob berib, yot g'oyalarga ergashib ketavermaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz», – deb ta'kidlab o'tgani bejizga emas [1].

Asosiy qism. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda

ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa, ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa, ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi [2].

Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishda bir qator tadqiqotchilar fikricha o'quv adabiyotlari tanqidiy mulohaza yuritishga imkoniyat yaratuvchi vosita bo'lishi kerak. Har bir fan ma'ruzalari muammoli tarzda bo'lishi bilan tanqidiy asosda o'qitilishi, o'quvchilarda o'rganishga, shuningdek, tanqidiy fikr yuritilgan o'quv adabiyotlarga nisbatan qiziqishini orttiradi, ular qator fikrlar asosida o'z fikrini mustahkamlashga harakat qiladi, ma'ruza o'qigan pedagog bilan muloqot qilish uchun intiladilar, o'z fikr mulohazalarni ifoda qilish yo'llarini topadilar. Demak, o'quvchi o'z bilimini tanqidiy fikrlar asosida oshirib boradi va har qanday holatda ham fikr-mulohaza yuritish qobiliyatini namoyon etadi. Darsliklarda berilgan matn, mashq va masalalarni illyustrativ materiallar, jadvallarni tanlashda o'quv-biluv faoliyatini boshqarish, ya'ni dars jarayoniga rahbarlik qilish, darslik materiallari vositasida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari, egallagan shaxsiy sifatlarini nazorat qilish mexanizmini ishlab chiqish lozim. Xorijiy tadqiqotchilar fikricha, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, individual va guruhviy ishlari, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va kollejdand tashqari ta'lim olish imkoniyatlarini ham yaratish, kasb-hunar ta'limi muassasalarining asosiy vazifasi bo'lishi kerak. Frantsuz olimi K.Allegr ta'kidlaganidek, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, ularning individual va guruhviy ishlarini hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ham kasb-hunar o'quv yurtlarining asosiy vazifasidir [3]. Psixologlarning tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda bilimlarini shakllantirish o'qituvchi rahbarligida, maqsadli tashkil qilingan faoliyat jarayonida samarali rivojlanadi va bu pedagogik jarayonda o'z aksini topadi. Faqatgina samarali tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchida o'quv muammosini mustaqil hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish va o'rganilayotgan bilimlar yuzasidan kelib chiqqan muammolarni ijodiy yechish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun ham biz bugungi kunda zamonaviy ta'limning vazifasi, maqsadi, o'mi va rolini yaqqol tasavvur qila olishimiz kerak. Biz hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan o'quv-tarbiya jarayonida va pedagogik adabiyotlar va tadqiqot ishlarida, «mustaqil ta'lim», «mustaqil ish» tushunchalarining mohiyatini yoritishga harakat qildik. Ba'zan mustaqil holda o'qish va mustaqil ta'lim tushunchalari adashtiriladi. Mustaqil holda o'qish rasmiy o'quv jarayonidan tashqarida kechishi mumkin, ya'ni muayyan ta'lim muassasiga bormay turib, uyda o'zi o'quv materiallari asosida mustaqil, individual holda o'qishi va o'rganishi mumkin. N.Muslimovning fikricha, mustaqil ta'lim – bilimlarni o'zlashtirish tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining

subyektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir.

Mustaqil ta'lim – belgilangan o'quv topshiriqlarini tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy bajarishlari asosida o'tadigan o'quv faoliyatidir. Mustaqil ta'lim negizini mustaqil ishlar tashkil etadi. Biz mustaqil ta'limni pedagogik tamoyillarga asoslanib tashkil etish kerak, deb o'ylaymiz. Masalan, o'quvchilarning ongliligi va faolligi tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin. Masalan: mustaqil bilim olish va o'rganishda o'quvchilar harakati guruhdagi o'quvchilar quyidagi tartibda bo'lishi mumkin: 1. O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi (odatda 3-4 ta) 2. Har bir kichik guruh o'tilgan mavzular bo'yicha bir nechta savol (yoki topshiriqlar) tuzadilar. 3. So'ngra guruhlar o'zaro savollar bilan almashadilar. 4. Guruhlar «raqib» guruh tuzgan savollarga javob beradilar va eng ko'p savolga to'g'ri javob bergan guruh muvaffaqiyat qozongan deb hisoblanadi. Demak, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quv jarayonining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida o'quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, o'quvchida jarayonlar va hodisalar, obyektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o'rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar. Nazariy dars, tajriba va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish davomida o'qitish jarayonining ko'zda tutilgan ketma-ketligini saqlab qolish hamda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlash lozim. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun mashg'ulotlarning dars ishlanmasi hamda texnologik xaritasi ishlab chiqilishi kerak. Har bir mashg'ulot bo'yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o'quv jarayonini to'laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish imkonini beradi. Mustaqil ish o'quvchilarining mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati juda katta. Mustaqil ishlar o'quvchining umumiy rivojlanishiga va kasbiy mahoratini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak. Tarbiyaviylik ahamiyati shundaki, o'quvchi o'z bilimini oshirish va mustahkamlash uchun o'zini-o'zini tarbiyalab boradi. Ta'limiy ahamiyati esa, o'quvchi bo'sh vaqtdan samarali foydalangan holda mustaqil bilim olish jarayonining shakllanishiga olib keladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish va boshqarish o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishlarning turlari, shakllarini tanlashda «oddiydan-murakkabga» hamda «umumiydan-xususiyga», «mavhumdan aniqlikka» tamoyillariga amal qilish lozim. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini ishlab chiqishda har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, tushunuvchanlik, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi inobatga olinishi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy ishlashiga ahamiyat berish kerak. O'qituvchi o'quvchi bajaradigan mustaqil ishlarni hajmini aniqlab, bajarish uchun ularga aqliy mehnat qilish yo'llarini o'rgatadi hamda ishni bajarish jarayonida kelib chiqadigan kamchiliklar va xatoliklar bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

O'quvchilarning mustaqil izlanuvchanlik faoliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar kichik guruhlarda hamda individual shaklda olib borilishi lozim.

Individual shakl, asosan, ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo'naltiriladi. Har bir o'quvchi o'zining individual (jismoniy, psixik va xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o'rganishi va inobatga olishi o'qitish sifatini oshirish hamda har bir o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Pedagog o'quvchilarning darslardagi va tajriba mashg'ulotlari vaqtida dars jarayonidagi ishini, mustaqil ish va topshiriqlarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, nazorat ishlarini tekshiradi, maslahatlarda, darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan ishlaydi. O'quvchining kuchli va o'jiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri hamda irodaviy sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, ularning hayotiy va mehnat tajribalarini, muassasaga kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarini o'rganadi. Kichik guruhlarda ishlash maxsus bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar o'rganilishi kerak bo'lganda, shuningdek, o'quvchilarda mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Bir nechta o'quvchilar birgalikda ishlagan paytda, ularning shaxsiy xususiyatlari va xarakterlari orasida o'zaro hamkorlik vujudga keladi. Guruhli bo'lib ishlashda ikkita holat farqlanadi: bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi; har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi. Bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida bir necha guruhlarga bir xil topshiriqlar beriladi. Topshiriq va mashqlarni yechish sharoitlari ham bir xil bo'ladi. Shunday qilib har xil yechimlar guruh ishi tugaganidan so'ng bir-biri bilan taqqoslanishi mumkin. Ko'pincha bunday hollarda raqobat holati yuzaga keladi. Yechim topilishi vaqtida esa, raqiblikka o'xshash holatlar vujudga keladi. Bu yerda muhim narsa shuki, guruhlardagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari imkon qadar bir xil bo'lishi kerak. Har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida beriladigan ish topshirig'i bir necha qismlarga bo'linadi. Faqat bu qismlar birlashtirilgandagina topshiriqning mazmuni aniq ko'rinadi. Har bir guruh bu holda qisman topshiriq oladi va mustaqil ravishda uning ustida ishlaydi. Bunday yondashuvda bir guruh o'quvchilari faqat o'zlariga berilgan topshiriqlarni bilishadi xolos, ya'ni boshqa guruhlarning ishlari haqida deyarli xabarlar bo'lmaydi. Shuning uchun ham natijalar qisman birlashtirilishi zarur. Kichik guruhlarda ishlashda berilgan topshiriqlar puxtalik bilan o'ylab chiqilgan bo'lishi kerak, chunki ularda o'quvchilar orasida muloqot va hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish kabi maqsadlar bor. 1) «Reja o'yini» shaklidagi guruhiy ish: «Reja o'yinlari» belgilangan vaziyatda turli xil yechimlarni sinab ko'rish imkonini beradi. O'quvchilar bunda muammoga bo'lgan har xil ta'sirlar natijaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Buning uchun sabab va oqibat bir-biri bilan bog'liq ravishda ko'rilishi kerak. O'quvchilar ta'limiy o'yin jarayonida o'zaro raqobat munosabatida bo'ladilar. 2) Loyiha shaklidagi guruhiy ish: loyihaviy ish bir loyihani aniq belgilangan chegara doirasida ishlab chiqishni talab qiladi. Loyiha shaklidagi guruhiy ish juda ham katta ahamiyatga ega, chunki bunda vazifalar topshiriqlar majmuasi bo'yicha aniq taqsimlanishi kerak bo'ladi [4].

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan maksimal foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quv va didaktik materiallarga qo'shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlarni vujudga keltirishni osonlashtiradi. Shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funktsiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi. Predmet vositalari tasvir va matnlarni yozib olish, saqlash imkonini beradi. Ularga doska, flipchart, kodoskop (proektor) kamera va kompyuterlar kiradi. Tajriba ishi sohasiga tegishli kerakli tajriba uskunolari, namunalar, jihozlar va asboblarni nazariy dars yoki amaliy mashg'ulot paytida didaktik funktsiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi

mumkin. Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'quv va ko'rsatmali vositalarni ishlata olishni, ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni mustaqil hal qila olishi kerak. O'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o'qitish va o'rganish uchun ishlatiladi. Agar o'quv va didaktik materiallar yetarli bo'lmasa, u holda o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi hamda nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirib tayyorlanishi kerak.

O'qitish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish – shuni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadi. O'quvchilarning faolligi ularning o'quv materialni egallab olishida o'quv, tajriba xonasi sharoitlarida topshiriqlarni bajarishdagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Faollilik o'quvchilarning o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'langan.

Faol usullarni tanlash, birinchidan, darsdan ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq: 1) darsning maqsadi yangi bilimlarni egallashtirish iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon qiladi yoki o'quvchilarning o'quv adabiyotlari va boshqa materiallar bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi; 2) ta'lim usullarini tanlash o'rganiladigan fanning mazmuni va darsning aniq o'quv materialiga bog'liq bo'ladi. Bir mashg'ulotning o'zida bir nechta faol usullar qo'llanilishi mumkin; 3) o'quvchilarning ilgari tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq. Agar yangi o'quv material o'quvchilarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni o'zi bayon qiladi, buni didaktik vositalar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boradi. Ta'lim oluvchilarning bilim olish, mustaqil ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ongli faolligi, mustaqilligi hamda ijodkorligini, o'quv bilish faoliyati natijasining sifatini xarakterlaydi.

Faollik – ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ish harakat usullarini turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi. O'quvchilarning mustaqil izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar dars ishlanmalari hamda texnologik xaritalari asosida o'qitish jarayoni tashkil etiladi. Mashg'ulotlar asosini mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish tashkil etadi. Har bir mashg'ulot o'quv maqsadiga to'la erishish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar ham o'tkazilishi mumkin. O'quvchilarda mustaqil bilish, fikrlash va ijodiy izlanishga majbur qiladigan, muammoli hayotiy dalillarga asoslanadigan vaziyatli topshiriqlarni berish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi topshiriqlarni ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash orqali bajarishlari lozim. O'qituvchilar mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha o'quvchilarning intilishlarini olqishlashi hamda to'g'ri yo'naltira olishlari: o'quvchi yakka holda samaraliroq ishlaydimi; bir necha kishidan iborat guruh bilan birgalikda ishlashni yoqtiradimi; unga elektron darsliklardan foydalanish qulayroqmi buni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak. O'quvchi topshiriqni o'zi anglashi va uni bajarishga harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borish ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashlari lozim. Savollar yoki topshiriqlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashlarni rivojlantirish, noma'lum yoki noaniq ma'lumotlar mohiyatini tushunish uchun mustaqil izlanishlarini vujudga keltiradi. Biz tomondan olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini

shakllantirish va rivojlantirish, uning mustaqil bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishda mustaqil ish ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Lekin, auditoriyadan tashqari mustaqil ishni tashkil qilish birmuncha murakkab jarayon. Chunki bu jarayonda o'quvchi mustaqil tarzda fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan holda bajarishlari kerak.

Xulosa. Interfaol ta'lim vositalari asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quv jarayonining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida o'quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, o'quvchida jarayonlar va hodisalar, obyektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish, ularni chuqur o'rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi. Bu orqali ta'limda samaradorlik va natijaviylikka erishish imkoniyatlari foizi oshishiga katta yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017.
2. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: Fan va texnologiya, 2008.
3. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. - T.: Noshir, 2009. - 163 b.
4. Qo'ldasheva M. O'quv topshiriqlarini yaratishga innovatsion yondashuv. - Namangan, 2020.
5. www.ziyounet.uz

BOSHLANG'ICH SINIF «ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI» DARSLIGINING MAZMUN-MOHİYATI HAMDA DARSLARNI YANGICHA YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI

Ergasheva Nigora Erkinovna, Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy o'quv dasturi asosida tayyorlangan boshlang'ich sinf «Ona tili va o'qish savodxonligi» darsligining mazmun-mohiyati hamda darslarni yangicha yondashuv asosida tashkil etish usullari haqida fikr yuritilgan. Maqolada aks etgan yangicha yondashuv haqidagi ma'lumotlar maqola mazmunining oshishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ona tili va o'qish savodxonligi, yondashuv, ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya.

СОДЕРЖАНИЕ УЧЕБНИКА «РУССКИЙ ЯЗЫК И ГРАМОТНОСТЬ ЧТЕНИЯ» ДЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА НА ОСНОВЕ НОВОГО ПОДХОДА

Эргашева Нигора Эркиновна, старший преподаватель Джизакского областного национального центра подготовки педагогов по новым методикам

Аннотация. В данной статье рассматривается содержание учебника для начальных классов «Русский язык и грамотность чтения», подготовленного на основе национальной учебной программы, а также методы организации уроков на основе нового подхода. Информация о новом подходе, отраженная в статье, служит увеличению содержания статьи.

Ключевые слова: начальная школа, родной язык и читательская грамотность, подход, система образования, образование.

CONTENT OF THE TEXTBOOK «RUSSIAN LANGUAGE AND READING LITERACY» FOR PRIMARY SCHOOL AND METHODS OF LESSON ORGANIZATION BASED ON A NEW APPROACH

Ergasheva Nigora Erkinovna, senior lecturer of the Jizzakh regional national center for training teachers on new methods

Abstract. This article discusses the content of the textbook for elementary grades «Russian language and reading literacy», prepared on the basis of the national curriculum, as well as methods for organizing lessons based on a new approach. Information about the new approach reflected in the article serves to increase the content of the article.

Key words: primary school, mother tongue and reading literacy, approach, education system, education.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlarning samarasi, yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar zaminida yangilanayotgan O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yosh avlodni Vatanga muhabbat, ota-onaga, ajdodlar merosiga hurmat va g'urur ruhida tarbiyalash, kelajakka bo'lgan ishonchini oshirish, ularga har tomonlama to'g'ri va mukammal

bilim berish shu yurtning har bir insonidan katta mas'uliyat talab etadi. Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo'yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida o'qituvchi va murabbiylarning hissasi beqiyos ekanini ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy qoidalarda mavjud darsliklarning eskirganligi, yangi avlod darsliklarini yaratish lozimligi borasida ko'rsatma beriladi. Darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo'lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta'sir etayotganligi, davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek, darsliklar va boshqa o'quv materiallari, asosan, axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotganligi ta'kidlab o'tiladi [1]. Shuningdek, foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha yoki muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish fursati kelganligi ham ta'kidlab o'tiladi. 2021-yil sentyabrdan umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi va ikkinchi sinflariga qo'llanilishi boshlangan Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi ushbu talabni bajarish uchun tashlangan qadamdan biri bo'ldi.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinflarda shu paytgacha Ona tili va O'qish fanlari alohida o'qitilgan. Endi esa, ushbu ikki fanni birlashtirgan «Ona tili va o'qish savodxonligi» deb nomlangan yagona fan tashkil etildi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. O'qish savodxonligini o'rgatishda kommunikativ yondashuv, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchi hisoblanib, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan, ongillik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e'tiborda bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda tamoyillar belgilangan bo'lib, 4-tamoyilda o'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish, o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish, tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish, har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish nazarda tutilganligi ko'rsatib o'tilgan [2]. Quyida O'qish va Ona tili fani hamda Ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining farqli tomonlariga nazar tashlaymiz. O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa, bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyani rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq

ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa, darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar kiritilgan. Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan. Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun «O'qituvchi kitobi», o'quvchilar uchun esa, «Mashq daftari» ham ishlab chiqilgan.

Amaldagi darslikdan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan. Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilgan edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan. Yangilangan darslikda gapdan to'yxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'ri aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan. Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan. Boshlang'ich ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn tushunish va anglash ko'nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dunyo ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilariga, ularning fanlardan yaxshi o'zlashtirishlariga alohida e'tibor beriladi. Xususan, mamlakatimizda ham bu borada yaxshi o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktab o'quvchilarining bilimini baholash, ta'lim sifatini oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish belgilab qo'yildi. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash, unda munosib ravishda ishtirok etish uchun maktablarda aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn tushunish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish zarurligi o'qituvchilar oldiga ko'ndalang masala sifatida qo'yildi.

«O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. O'quvchilar matnlardan turli shakllarda ma'no olishlari mumkin. Ular maktabda va kundalik hayotda o'quvchilar jamoalarida qatnashish va zavq olish, o'rganish uchun o'qiydilar» [3]. Boshlang'ich ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn tushunish va anglash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda, eng avvalo, o'quvchida matn tuzish ko'nikmasini shakllantirish kerak. Birinchi sinfda, ya'ni savod chiqarish davridanoq dastlab og'zaki, so'ngra yozma tarzda matn tuzishni o'rgatish lozim. Bolalarga matn tuzishni o'rgatish ulardagi quyidagi sifatlarni takomillashtirishga yordam beradi: atrof-muhit haqidagi tushunchalarning qay darajada shakllanganligini; fikr yuritish qobiliyatlarini; axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini; voqelikka nisbatan mushohada yuritishni; munosabat bildirishni; voqea-hodisa haqida xulosa chiqarishga.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish

muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili va o'qish savodxonligi ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Shu bois ham, darsni tashkil qilishda unga integratsion va innovatsion yondashish davr talabi bo'lib qolmoqda. Zero, boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy pedagogik texnologiyaning mazmunini, mohiyatini, ularni darsga qanday tadbiiq etish usullarini puxta bilmog'i darkor.

Xulosa. Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun, avvalo, pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim, tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda. O'qituvchi o'quvchilarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak», – deb ta'kidlagan. O'quvchilarda matnni tushinish hamda anglash ko'nikmalarini shakllantirishda, o'qish savodxonligini oshirishda turli xil o'qitish metodlari hamda didaktik vositalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu jarayonda o'qituvchi va ota-onalarning hamkorlikda faoliyat olib borishlari esa, ta'lim samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini shakllantirishga, mamlakatimiz sha'nini xalqaro tadqiqotlarda munosib himoya qiladigan o'quvchilarni tarbiyalashda ulkan xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimining 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy doidalar.
2. Azimova I. va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. - T.: Respublika ta'lim markazi, 2021.
3. Asaqarova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish: Ped. fanl. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... dis. Avtoref. - Namangan, 2020.
4. www.ziyounet.uz

**IQTISODIY MADANIYATNING YUQOR DARAJASI – IQTISODIY
MUNOSABATLARNING MUKAMMALLIK KAFOLATI****Ibragimova Gulchehra Tohirovna,***University of science and technologies katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muvaffaqiyati, aholi turmush farovonligi ko'p jihatdan talabalar iqtisodiy ongi va iqtisodiy madaniyatining takomillashuviga bog'liq ekanligi dalillar bilan isbotlangan. Talabalar iqtisodiy ong va tafakkurini rivojlantirish ta'limda innovatsion ta'lim metodlarini qo'llanish orqali o'z samaradorligini berishida eng muhim o'rin tutishi ta'kidlangan.

Tayanch so'zlar: *iqtisodiy madaniyat, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur, innovatsion metod.*

**ВЫСОКИЙ УРОВЕНЬ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ – ЗАЛОГ ИДЕАЛЬНЫХ
ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ****Ибрагимова Гулчехра Тохировна,***старший преподаватель University of science and technologies*

Аннотация. В статье доказано, что успех экономического развития общества, благосостояние населения во многом зависят от совершенствования экономического сознания и экономической культуры студентов. Подчеркивается, что развитие экономического сознания и мышления студентов играет важнейшую роль в обеспечении их эффективности за счет применения инновационных методов обучения в образовании.

Ключевые слова: *экономическая культура, экономическое воспитание, экономическое образование, экономическое сознание, экономическое мышление, инновационный метод.*

**A HIGH LEVEL OF ECONOMIC CULTURE IS THE KEY TO IDEAL ECONOMIC
RELATIONS****Ibragimova Gulchehra Tohirovna,***senior teacher at the University of science and technologies*

Abstract. The article proves that the success of the economic development of society, the well-being of the population largely depend on the improvement of economic consciousness and economic culture of students. It is emphasized that the development of economic consciousness and thinking of students plays a crucial role in ensuring their effectiveness through the use of innovative teaching methods in education.

Key words: *economic culture, economic upbringing, economic consciousness, economic thinking, innovative method.*

Kirish. Iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish jamiyat taraqqiyotida va yangi O'zbekistonni qurish uchun amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan dolzarb masalalar va ularning yechimlari, mazmun-mohiyatlarini to'g'ri anglashda nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu borada mamlakatimizda juda keng qamrovli ilmfanga va innovasion ishlanmalarga oid strategik rejalar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Yangi O'zbekiston strategiyasi» nomli kitobida «O'zbekiston 2030 yilga qadar global innovasion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kiritishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini

rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qildi. Bizning maqsadimiz ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ilm-fandagi tegishli xuquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid islohot – o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi» [1; 240-b.] deb strategik yo'l – yo'riq ko'rsatib o'tgan. Demak, ilm-fanni zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirish orqali inson kapitalini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarining eng asosiy vazifasi bo'lib, talabalar iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish uning tarkibiy qismlaridan biridir. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini bilish, iqtisodiy faoliyatning ijtimoiy oqibatlarini hisobga olish salohiyatiga ega bo'lish, iqtisodiyot sohasida inson omilining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tizimida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan iqtisodiy bilim va tajribalarga ega bo'lish iqtisodiy madaniyatning negizi bo'lgan iqtisodiy ong va iqtisodiy tafakkurga ega bo'lishni taqozo qiladi. Shuningdek, iqtisodiy ong ijtimoiy ong turlaridan biri bo'lib, u fuqorolarning xo'jalikdagi va jamiyatdagi o'rini belgilaydi, jamiyat hayotiga ijtimoiy-iqtisodiy faol ta'sir ko'rsatadi, jamiyat a'zolarining iqtisodiy onglari qanchalik yuqori bo'lsa, insonlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar shunchalik mukammal bo'ladi [3; 123-b.]. Shunday ekan, jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muvaffaqiyati, aholi turmush farovonligi ko'p jihatdan talabalar iqtisodiy ongi va iqtisodiy madaniyatining takomillashuviga bog'liq. Chunki yuqori darajadagi iqtisodiy savodxonlikka, iqtisodiy madaniyatga ega bo'lgan shaxsgina iqtisodiy faol va erkin, moddiy va ma'naviy boylikka ega bo'lgan farovon hayotning tayanchi bo'la oladi. Agar tabiiy fanlar sohasidagi ta'lim ijtimoiy hayot dinamikasi tufayli o'zgarishlarga kamroq moyil bo'lsa, iqtisodiy ta'lim ijtimoiy rivojlanishdagi o'zgarishlarga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun, iqtisodiyotni o'qitish metodologiyasini takomillashtirish muammosi dolzarb bo'lib bormoqda. Zamonaviy sharoitda shaxsning iqtisodiy madaniyati avallambor, shaxsga iqtisodiy tarbiya va ta'lim yaxlitligida singdirish natijada shakllanadigan iqtisodiy ong va uning ijtimoiy ahamiyatli shaxs xulq-atvorini iqtisodiy jihatdan tartibga solishdan iborat bo'lgan funksiyasidan boshlanadi. Iqtisodiy madaniyat, avvalambor, ma'lum bir iqtisodiy ta'lim darajasini, ya'ni iqtisodiy ta'lim va tarbiya birligida shakllangan bilimlar, ma'lumotlar, g'oyalarni o'z ichiga oladi, lekin olingan bilimlarni kundalik hayotda qo'llash ko'nikmalari eng muhim o'rin tutadi. Talabalarda ko'nikmalarni shakllantirish, doimiy kasbiy o'sishga tayyorlash, o'z bilim va kuchlariga tayanib mustaqil qaror qabul qilishni o'rgatish, o'zning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari uchun javobgarlik ma'suliyatini tushuntirish dars samaradorligi, iqtisodiy fanlar o'qituvchisining bilim saviyasi va pedagogik mahoratiga bog'liq. Talabalarning darslarda va mustaqil ta'limda va amaliyot jarayonlarida olgan bilimlari ularning turmushida, iqtisodiy xulq-atvorida, jamiyatdagi kishilar bilan bo'lgan iqtisodiy munosabatida namoyon bo'ladi. So'zsiz ma'lumki, talabalarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda pedagoglar eng asosiy rolni o'ynaydi. Iqtisodiy fanlar o'qituvchisi o'zning ma'ruza mashg'ulotlarida iqtisodiy nazariyani tushuntirishida hayotiy va aniq misollar bilan tushuntirishi, talabaning ko'z o'ngiga keladigan darajada iqtisodiy jarayonlarni misol qilib keltirishi va tahlil qilib bera olishi, mavzuga oid video, audio materiallar yoki mutaxassislar, jarayon qatnashchilari hamkorligida darsni tashkil etishi lozim. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligida yanada yuqori ko'rsatkichlarga erishish maqsadida o'qitishning innovasion usullari va shakllari, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlarini amalga oshirishga qaratilgan.

L.A.Sokorobogatova oliy ta'limda samaradorlikni ta'minlash uchun turli innovasion usul va metodlarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali talabalarning fikrlash qobiliyatlarini

faollashtirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ko'nikma hosil etish eng optimal yechim deb tushuntiradi. Demak, ta'lim jarayonida turli innovasion usul va metodlarni, pedagogik texnologiyalarni mos ravishda qo'llash orqali talabalarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda samarali natijaga erishish mumkin. O'qitish metodi katta pedagogik ahamiyatiga ega: u faqat talabaning bilim hajmining kengaytirishga ko'maklashibgina qolmay, talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradi [4, 104-b.]. Ta'lim olish va ta'lim berish bir xil ta'lim jarayonining ikki tomonidir. Ularning farqi ta'lim mahsulotini olishning turli xil usullarida (dars, ekskursiya, treninglar, loyiha tuzish faoliyati, jamoada ishlash, guruh mashg'ulotlari, individual topshiriqlar va boshqalar). O'qitish usuli talabalarga yetkazilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar tavsifidan kelib chiqib tanlanadi. Oliy ta'lim muassasasi talabalarida iqtisodiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida ta'lim berishni nafaqat axborotli balki, yuqorida keltirilgan metodlar bilan bir qatorda, iqtisodiyotning mazmun-mohiyati, insoniyat hayotidagi ahamiyati va zaruriyati borasida talabalarning boshlang'ich tushunchalarini rivojlantirish, ularda ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun tashkil etiladigan iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonlarida ijtimoiy-psixologik va metodologik xususiyatlarga ega bo'lgan turli xil treninglar, faol, interfaol suhbatlar, integrativ ma'ruzalar, vidiotaxlil, audio ma'lumotlar tahlili kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Iqtisodiy fanlarni samarali o'qitish metodikasining asosiy sharti – mavzuga mos ravishdagi metodlarni qo'llay bilishdir. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasining asosiy jihatlari nafaqat iqtisodiy jarayonlar va ularning yuzaga kelishini alohida tomonlarini ochib berish, balki, talabalarga bozor iqtisodiyoti sharoitidagi iqtisodiy xulq qonun-qoidalarini ishlab chiqish va mavzuga oid raqamlar va dalillar, statistik ma'lumotlardan keng foydalana bilishga jalb etishdir. Keltirilgan dalillar tekshilgan, isbotlanadigan bo'lishi kerak, lekin shunga qaramay ular talabalarda shubha uyg'otishi mumkin bo'lgan holat yuzaga keladiki, bunda muammoli ta'lim metodlaridan «aqliy hujum», «dumaloq stol», «debat» va boshqa mavzuga mos bo'lgan usullardan foydalanish mumkin.

Trening – bu bilim olishga qaratilgan faoliyat bo'lib, talabalarda ko'nikma va malakalar, munosabat va qobiliyatlarni tuzatish va shakllantirishdir. Treningda ishbilarmonlik va rolli o'yinlari, amaliy tadqiqotlar, keys-stadilar, guruhli tortishuvlar, aqliy hujum, videotahlil, moderasiya usullari qo'llaniladi. Iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligini taminlashda trening metodi muhim ahamiyatga ega bo'lgan metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metodni qo'llab tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni talabalarda kommunikasion ko'nikmalar shakllanishiga sabab bo'ladi. Trening jarayonida o'qituvchi talabalarga, talabalar o'qituvchiga va talabalar o'zaro ta'sir ko'rsatishlari natijasida ularda muloqotning turli xil uslublaridan foydalanish malakalari rivojlanadi. Agar treninglar va mashqlarning samaradorligi yuqori bo'lsa, ular o'tkazilgandan so'ng ifoda bilan fikrlarni aks ettirish, muammolarni muhokama qilish amalga oshiriladi. Interfaol metodlardan ishchanlik o'yini, rolli o'yini usullarini qo'llab dars jarayonini tashkil etish dars samaradorligini yuqori darajaga olib chiqishga sabab bo'ladi. Chunki ularni qo'llash jarayonida bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy kompetensiyani shakllantirishga ta'sir qiladigan ko'plab funksiyalar amalga oshiriladi. Ushbu usullarni qo'llab amalga oshirilgan dars amalda haqiqiy kundalik hayotdagi iqtisodiy jarayonlarni aniq va unumli aks ettiradi va bu uyunda talabalar bilim, texnika va ko'nikmalarga o'zlarining faol ishtirokida ega bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalar bilan ishlash jarayonida birmuncha mashhur bo'lgan usullardan biri, rolli o'yini talabalarda maqsadlilik, ma'suliyatlilik, mustaqillilik, muloqotga

tez kirishadigan va boshqa fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan o'yindir [3]. Ishchanlik o'yinlar esa, o'z navbatida, kasbiy fazilatlar va tanlagan kasbiga nisbatan motivasiya va qiziqish shakllantirishni, shaxsning ijodkorlik salohiyatini faollashtirish va faoliyatda o'z-o'zini tashkil etishni ta'minlaydi [5, 39-40-b.].

Xulosa. Demak, xulosa qilib aytganda o'qitish metodikasi – bu iqtisodiy fanlar majmuasi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarning sintezi bo'lib, iqtisodiy va pedagogik psixologiya va zamonaviy texnologiyani ma'lum bir bilim sohasiga nisbatan ta'lim texnologiyalari. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi – bu o'qituvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligi va iqtisodiy axborotlar o'rtasidagi o'ziga xos bo'lgan ko'prikdir. Shuning uchun ham iqtisodiy, ham pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lganlarga iqtisodiy fanlarni o'qitishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: О'zbekiston, 2021. - 464 б.
2. 2022-yil 20-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Murojaatnomasi: <https://review.uz>
3. Липницкая В.В., Коренная Н.П. Экономическая социология: Учебно-методическое пособие. - Минск: БГАТУ, 2021. - 260 с.
4. Базарова Г.Ф., Раҳимов Р.К. Иқтисодий тарбия назарияси: Маърузалар курси. - А.: АнМИ, 2016. - 188 б.
5. Евплова Е.В., Тубер И.И. Методика преподавания экономических дисциплин: Учебно-методическое пособие. - Челябинск, 2015. - 108 с.

ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY YONDASHISH JARAYONI

Rejapova Dilafruz Akramovna, Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar sportini rivojlantirishdagi olib borilayotgan islohotlar haqida ma'lumot berilgan.

Tayanch so'zlar: qaror, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar, «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada», sport o'yinlari.

ПРОЦЕСС ПРАВОВОГО ПОДХОДА К РАЗВИТИЮ СПОРТА ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Режапова Дилафруз Акрамовна, старший преподаватель Научно-исследовательского института проблем и перспектив народного образования

Аннотация. В данной статье представлена информация о проводимых реформах в области развития детского спорта в Узбекистане с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: решение, дети с особыми потребностями в образовании, «Умид нихоллари», «Баркамол авлод», «Универсиада», спортивные игры.

THE PROCESS OF LEGAL APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF SPORTS FOR CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS

Rejapova Dilafruz Akramovna, senior lecturer of Research institute of problems and prospects of public education

Abstract. This article provides information on the ongoing reforms in the development of children's sports with special educational needs in Uzbekistan.

Key words: decision, children with special needs, «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiade», sports games.

Kirish. Hozirgi kunda mamlakatimizda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berish, ularni hayotga oson moslashuvi va sog'lom rivojlanishlari uchun bir qator qarorlar qabul qilinmoqda. «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi [1] va 2020-yil 13-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori [2] ijrosini ta'minlash maqsadida, 2021-yil 12-oktyabrdagi Vazirlar Mahkamasining 638-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori qabul qilingan [3]. Bundan tashqari, 2022-yil 18-aprel kuni ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 209-sonli Qarori qabul qilindi [4].

Asosiy qism. «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-sonli Qaromning 5-bobida Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga qaratilgan. Ushbu bobning 31-

bandida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun turli to'garaklar, qiziqishlariga ko'ra klublar, seksiyalar (jumladan, vrachlar tavsiyalariga ko'ra sport seksiyalari) va bolalarning intellektual hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan studiyalar tashkil etilishini belgilanganligi ham alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar sportini rivojlantirishda davlat tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratilishi o'ta muhim masala ekanligini ko'rishimiz mumkin. Qarorning 6-bobi esa, pedagog xodimlar faoliyati va ota-onalar bilan hamkorlikga qaratilgan bo'lib, bunda aynan o'quvchilarning sport sohasiga doir quyidagi vazifalari belgilab qo'yilgan. Maktabdagi jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi: o'quvchilarning jismoniy va psixik xususiyatlaridan kelib chiqib ular bilan yakka va guruhli tarzda mashg'ulotlar olib borish; o'quvchilar bilan birgalikda sport tadbirlari va musobaqalarni tashkil etish; ota-onalarga o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish sohasida maslahatlar berish; tibbiyot xodimlari bilan birgalikda har bir o'quvchining jismoniy yuklamasini tartibga solish. 2022-yil 18-aprel kuni ko'zi o'jiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-209-sonli qarorining qabul qilinishi ham aynan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish bilan bir qatorda, tarbiyalanuvchilarda sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va sport bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish masalalari ko'zda tutilgan. Ushbu qarorda mazkur yo'nalishdagi islohotlarning izchilligi va tizimlilikini ta'minlash, ko'zi o'jiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida bir qator ishlar belgilangan. Shu jumladan, sport sohasida o'quvchilarning jismoniy imkoniyatidan kelib chiqqan holda, ularni sog'lom, ma'nan yetuk inson qilib tarbiyalashga hamda dunyoqarashini shakllantirish, sport turlariga qiziqtirish va jalb etishga ko'maklashishni Ichki Ishlar vazirligi zimmasiga yuklatilganligi ham hozirgi kunda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga nafaqat ta'lim berish, ularning jismonan sog'lom bo'lishlari hamda ularning paralimpiya sport turlarida jahon arenalarida munosib o'rin egallashlarida muhim turtki bo'ladi deb ayta olamiz. Qarorning 10-bandida esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda chet el tajribasi asosida tegishli mahalliy budjetlar hisobidan «Nurli maskan» maktablarining sport zali va sport maydonlarini xalqaro me'yorlar asosida jihozlasin hamda zarur maxsus sport inventarlari bilan ta'minlash; 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ko'zi o'jiz va zaif ko'ruvchi bolalar hamda tayanch harakat a'zolari shikastlangan bolalarning ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda paralimpiya sport turlari (dzyudo, futbol, yengil atletika) bilan mukammal shug'ullanishi uchun sport guruhlarini tashkil qilsin va ushbu maktablarga o'quvchilarning sport turlariga qiziqishidan kelib chiqib, malakali trenerlar jalb qilinishini ta'minlash vazifalari ham belgilangan. Bu ham hozirgi kundagi mamlakatimizda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, xususan, ko'zi o'jiz va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatdagi o'rini mustahkamlash yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar deb ayta olamiz.

Qarorning ilovasida esa, «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining shart-sharoitlarini bosqichma-bosqich yaxshilash bo'yicha «Yo'l xaritasi» [5] belgilangan. Unga ko'ra maktab-internatlarda paralimpiya sport turlari bo'yicha to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish vazifalari belgilab olingan va uni maktab-internatlardagi o'quvchilarning qiziqishini inobatga olgan holda, ularning paralimpiya sport turlari (dzyudo, futbol, yengil atletika) bilan mukammal shug'ullanishi uchun sport guruhlarini tashkil qilish va ushbu maktablarga o'quvchilarning sport turlariga qiziqishidan kelib chiqib, malakali trenerlar jalb qilinishini ta'minlashni 2022-yil sentyabr-dekabr oylari davomida bajarilishi ko'zda tutilgan. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlardan tashqari yurtimizda turli yo'nalishlarga moslashtirilgan sport maktablari mavjud.

Sport maktablari – yuqori malakali sportchilarni tayyorlaydigan ixtisoslashgan o'quv-tarbiya muassasasi hisoblanadi. O'zbekistonda sport maktablarining 3 asosiy turi mavjud: bolalar va o'smirlar sport maktablari, bolalar va o'smirlar ixtisoslashgan olimpiya maktablari hamda oliy sport mahorati maktablari. Toshkentda dastlabki sport maktabi 1934-yil ochilgan. Uzoq yillar davomida Toshkent, Samarqand, Andijon, Chirchiq shaharlarida sport internatlari faoliyat ko'rsatib keldi va respublika terma jamoalari uchun ko'p minglab iqtidorli sportchilarni tayyorlab berdi. Ular orasida yuzlab xalqaro sport musobaqalarining sovrindorlari bor.

«Umid nihollari sport o'yinlari» – O'zbekistonning umumiy o'rta ta'lim va bolalar-o'smirlar sport maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan ommaviy sport musobaqalari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 19-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida»gi qarori asosida tashkil etilgan hamda 2003-yil 3-iyundagi «O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida»gi qaroriga binoan bu o'yinlarning Respublika final bosqichlari 3 yilda bir marta o'tkazilishi belgilangan. Bundan maqsad shu ediki: umumiy o'rta ta'lim va bolalar-o'smirlar sport maktablari o'quvchilarini jismonan yetuk, axloqan barkamol hamda Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, iqtidorli sportchi yoshlarni nufuzli musobaqalarga tayyorlash, yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish. «Umid nihollari sport o'yinlari»da badiiy gimnastika, basketbol, voleybol, gandbol, yengil atletika, sport gimnastikasi, stol tennisi, suzish, tennis, futbol kabi olimpiada o'yinlari dasturiga kirgan va shaxmat, belbog'li kurash, kurash singari ommalashgan sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. Saralash musobaqalari umumiy o'rta ta'lim va bolalar-o'smirdar sport maktablari, tuman, shahar va viloyatlarda, respublika final bosqichi bitta hududda tantanali ravishda tashkil etiladi. Birinchi «Umid nihollari sport o'yinlari»ning Respublika final bosqichi Farg'ona (2002), ikkinchisi Xorazm (2003) viloyatlarida bo'lib o'tgan. Ikkinchi «Umid nihollari sport o'yinlari» saralash musobaqalarida 4 milliondan ziyod, uning final bosqichida 2114 nafar o'quvchi qatnashgan (2003) [6].

Bolalar sportini rivojlantirish va bolalarni sportga tarbiyalash borasida qilinadigan ishlar o'sib kelayotgan farzandlarimizni va kelajak avlodni sog'lom, barkamol bo'lib voyaga yetkazish, yoshlarning salomatligi, ularning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishi – bu millat genofondini asrash, oilada, jamiyatda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini rivojlantirish uchun Prezidentimizning 2002-yil 24-oktyabrdagi 3154-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 31-oktyabrdagi 374-sonli qarori va viloyat hokimining 2002-yil 9-noyabrdagi 102-sonli qarori asosida «Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi» tuzilishi ana shu milliy tizimni yanada takomillashtirish bolalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish yo'lidagi katta tarixiy qadam bo'ldi. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining asosiy vazifalaridan biri 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarning sport bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoit yaratishdan iborat bo'lsa, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi esa, maktabgacha ta'lim yoshidan to'keksa yoshdagi aholi o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha tadbirlar tashkil qilish, shuningdek, sport-sog'lomlashtirish markazlari hamda sport inshootlarini qurish, qayta qurish va kapital ta'mirlash kabi vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Bularning barchasi tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning qoplanishini kafolatlash yo'li bilan moliyalashtiriladi.

Ta'lim tizimida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta maxsus ta'lim muassasalarida bu borada samarali faoliyatlar olib borilmoqda. Bugungi kun mutaxassislarining ilmiy taxlillari natijasida nazariy-tashkiliy bilim va amaliyotni o'zlashtirish bosqichlarini quyidagi texnologik tartibda amalga oshirilishi tavsiya etilmoqda: 1. Har bir

odamning o'z salomatligini mustahkamlashida shaxsan o'zi ma'sul ekanligini jismoniy madaniyat ta'limi orqali anglab olishini ta'minlash. 2. Hozirgi zamonda ekologik buzilishlar, tashqi muhitning ifloslanishi, tabiiy va texnologik halokatlarning o'sishi, inson jismoniy salomatligining oldiga yangicha talablarni qo'yayotgani haqida bilimga ega bo'layotganini ta'minlash. 3. Jismoniy tarbiya va sportni mamlakatda rivojlantirish, inson salomatligini yanada mustahkamlashga qaratilgan davlat rahbariyati tomonidan qabul qilinayotgan Qonun, Farmon, Qarorlardan o'z vaqtida xabardor bo'lish, ularga qo'yilayotgan talablarni mamlakatda istiqomat qilayotgan har bir fuqaro o'zi uchun belgilab berilgan tegishli ko'rsatmalarni bajarishni ta'minlash o'zining burchi ekanligini bilishi. 4. Ma'lumki, har bir inson uch xil oziqlanishga doimo muhtoj. Bu moddiy, ma'naviy va jismoniy oziqlanishlardir. Shulardan jismoniy oziqlanishning har bir kishi o'ziga kerakli darajasini o'zining kundalik hayotiy tajribasidan kelib chiqib amalga oshirishni ta'minlovchi bilimga ega bo'lishi. 5. Har bir inson o'zining jismoniy imkoniyatlarini bilishi, uning sport mashqi va musoboqalari sharoitida yuksak natijani namoyish etishga, tayyorlashga oid ilmiy, nazariy-amaliy bilimlarga ega bo'lishi. 6. Har bir inson o'zining turmush-tarzi sharoitida qaysi jismoniy harakat amallaridan qanday foydalanganda o'zini jismoniy rivoji va tayyorgarligiga qay darajada samara berishi haqidagi bilim va tajribalariga ega bo'lishi. 7. Har bir inson o'zi yashayotgan hududida viloyat, mamlakat, qit'a, jahon miqyosidagi jismoniy tarbiya va sport haqidagi barcha tegishli ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishi jismoniy madaniyat ta'limi texnologiyasini yuqoridagi tartibda amalga oshirish insonlarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar sportini rivojlantirishda ham davrlarimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilinishi nafaqat ularni inson sifatida qadrlash, yanada sog'lom, barkamol bo'lib voyaga yetishishlari uchun xizmat qilishi kerak, lekin bu qarorlarimiz tizimli, samarali ishlashi hamda ularning ijrosini o'z vaqtida ta'minlanishi uchun, avvalo, shu sohada mansabdor shaxlar va barcha ma'sul xodimlar vijdonan yondashishlari talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori.

3. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-apreldagi PQ-209-sonli «Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-apreldagi PQ-209-sonli «Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaror ilovasi.

6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Umid_nihollari_sport_o%CA%BByinlari

**TALABALARNI MA'NAVİY-AXLOQIY TARBİYALASH – PEDAGOGIKANING
DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA**

Ergashev Anvar Ramozanovich, SamDTU

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash pedagogik muammo sifatida tavsiflanib, ma'naviyat tushunchasiga falsafiy, pedagogik, psixologik nuqtai nazardan ta'rif berilgan. Shuningdek, talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning maqsad va vazifalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, falsafiy, pedagogik, psixologik talqin, iqtidor, salohiyat, jamiyat ravnaqi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, talaba.

**ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ – АКТУАЛЬНАЯ
ПРОБЛЕМА ПЕДАГОГИКИ**

Эргашев Анвар Рамазанович, СамГМУ

Аннотация. В данной статье духовно-нравственное воспитание студентов высших учебных заведений описана как педагогическая проблема, дано определение понятия духовность с философской, педагогической, психологической точек зрения. Кроме того, научно-педагогически проанализированы цели и задачи духовно-нравственного воспитания студентов.

Ключевые слова: образование, воспитание, духовность, философское, педагогическое, психологическое толкование, одаренность, потенциал, развитие общества, духовно-просветительская работа, ученик.

**SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS – AS AN URGENT
PROBLEM OF PEDAGOGY**

Ergashev Anvar Ramozanovich, SamSMU

Abstract. This article describes the spiritual and moral education of students of higher educational institutions as a pedagogical problem and describes the concept of spirituality from a philosophical, pedagogical, psychological point of view. In addition, the goals and objectives of spiritual and moral education of students are scientifically-pedagogically analyzed.

Key words: education, upbringing, spirituality, philosophical, pedagogical, psychological interpretation, talent, potential, prosperity of society, spiritual and educational work, student.

Kirish. Mamlakatimizda bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, yoshlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishini ta'minlash, qobiliyat va iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, qalbida ona-yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar zamirida ezgu maqsadlar mujassamlangan. Bu ezgu maqsadlarni amalga oshirishda ta'lim muassasalarining o'zmi beqiyosdir. Demak, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash zarur hodisa sanaladi. Chunki talaba-yoshlar chuqur nazariy va amaliy bilimlar hamda kasbiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi bilan birga ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar va muammolarni, vaziyatlarni baholashi, umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lishi, o'z millati va Vatani sevishi, u bilan faxrlanishi, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni hurmat qilishi, ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan sog'lom va barkamol, ma'naviy, axloqiy, siyosiy, ekologik madaniyati, fuqarolik burch va mas'uliyatini shakllantirish ma'naviy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Asosiy qism. Talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy ko'ngilochar obyektlar, oliy ta'limdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi yoshlarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, yosh avlod ongida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishni talab etmoqda. Ma'naviyatning mohiyati shu qadar chuqur, shu qadar cheksizki, uni o'lchab ham, poyoniga yetib ham bo'lmaydi. Ma'naviy kamolot va jamiyat ehtiyojining o'zaro bog'liqligini ta'minlashga ham ma'naviyat katta ta'sir qiladi. Agar jamiyatda ma'naviyatga ehtiyoj bo'lmasa, u hech qachon paydo ham bo'lmaydi. Ehtiyojning o'zi ham ma'naviyat darajasi bilan belgilanadi. Ma'naviy kamolotga intilish insonning mohiyati bilan belgilangan fazilatdir.

Ma'naviyatning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy ma'naviyat bilan umuminsoniy ma'naviyat bir-biridan ajralmasdir. Har ikkalasi ham insonni, millatni kamolotga yetkazadi, jamiyatni taraqqiy ettiradi. Inson ma'naviyati jamiyat, davlat va millat ma'naviyati bilan uzviy aloqadordir. Inson va jamiyat ma'naviyati mohiyati jihatdan yaqin bo'lib, bir-birini o'zaro boyitadi va to'ldiradi. Inson ma'naviyati millat, davlat va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismidir. Insonning ma'naviyati, shaxsning ma'naviy kamoloti jamiyatda mavjud bo'lgan ko'p qirrali munosabatlar, shart-sharoit va imkoniyatlar asosida shakllanadi va amalga oshadi. Millat, davlat va jamiyat madaniy-ma'naviy taraqqiyoti esa, inson ma'naviy kamolotiga asos bo'ladi.

A.Ibrohimov va N.Jo'rayevlarning ta'kidlashicha, «Ma'naviyat – jamiyatning, millatning va ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. Ma'naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma'lum yo'nalishining bosh omilidir. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi» [3].

Faylasuf olim E.Yusupov «Ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimi, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan musharak tizimdir», – deb ta'rif beradi va ma'naviyat mohiyatini belgilovchi to'rt tarkibiy qismni: axloq-odob; bilim, ilm va amaliy malakalar, iste'dod, qobiliyat; axloqiy, ilmiy yetuklikning natijasi bo'lgan iymon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos; inson bilimlari, amaliy tajribasini umumlashtirishga, faoliyatiga yo'nalish berishga qaratilgan dunyoqarash va mafkuradir deb ko'rsatadi [6]. Shuningdek, J.Tulenov va Z.G'afurovlar ham mustaqillik yaratib bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy shart-sharoitlar hamda umumbashariy qadriyatlar negizida ma'naviyatning yuksalib borishiga yaratilgan imkoniyatlar xususida fikr yuritadilar [5].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ma'naviyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: ma'naviyat - bu insonning bilimliligi, vatanparvarlik tuyg'usiga egaligi, xulq-odob me'yorlari, mehnatsevarlik xislatlari mujassamlashgan hamda ezgulikni namoyon etuvchi botiniy tuyg'ular majmuidir, – degan xulosaga kelish mumkin. Chunki ma'naviyat insonni kamolotga yetkazuvchi eng noyob sifatlar va fazilatlar bo'lib, ana shu fazilatlar shakllangan barkamol inson jamiyat taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy va axloqiy tarbiyaning eng muhim tarkibiy qismi bu boshqa odamga va shunga mos ravishda o'ziga bo'lgan qadriyat munosabatidir. Bu masalada S.L.Rubinshteynning fikri qiziq: «...inson hayotining birinchi shartlaridan birinchisi – bu boshqa odam. Boshqa odamga, odamlarga bo'lgan munosabat inson hayotining asosiy to'qimasini, uning yadrosini tashkil qiladi. Insonning «yuragi» hamma narsa uning boshqa odamlarga bo'lgan insoniy munosabatlaridan to'qilgan; u nimaga arziydi, bu inson qanday insoniy munosabatlarga intilishi, odamlarga, boshqa odamga qanday munosabatda bo'lishi bilan belgilanadi» [4].

Talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va

ta'sirchanligini oshirish ko'lamini va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha yagona tizim yaratish, yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishni talab etadi. Bu borada nafaqat respublikamiz, balki jahon ta'lim tizimida yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmi, yoshlarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o'qitish modellari texnologik taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'unlashtirilgan interfaol dasturlar ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining «XXI asrning Oliy ta'limi» Butunjahon deklaratsiyasi, UNESCOning «Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish» dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, modulli ta'limni tashkil etishga, o'qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berilgan.

Jahon oliy ta'lim tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSh, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talaba-yoshlarning tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarini erta aniqlash, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o'qitish, «blended learning» (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinarlar tashkil etilib kelinmoqda.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi nafaqat ta'lim vositalari va usullari, balki inson hayotda qabul qilgan va boshqaradigan qadriyatlar, me'yorlar va qoidalar masalasidir. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda ko'plab obyektiv va subyektiv omillar namoyon bo'ladi, bu ularning birgalikdagi harakati bilan ushbu jarayonning tasavvur qilib bo'lmaydigan murakkabligini belgilaydi, bundan tashqari, murakkablik, avvalambor, uning juda dinamik, harakatchan va o'zgaruvchan ekanligi bilan belgilanadi.

Ma'naviy tajriba, axloqiy me'yorlarni yetkazishda ta'lim tizimida katta rol o'ynaydi. Unda hayotga kirgan yoshlar nafaqat bilim oladi, balki xulq-atvor, idrok, tushunish va atrofdagi voqeelikka munosabat normalarini, tamoyillarini o'rganadi va o'zi madaniyat mavzusiga, uning tarixiy va ijodiy tashuvchisiga aylanadi. Axloqiy me'yorlar jamiyat tomonidan belgilanadi va umuminsoniy qadriyatlar o'zgarmasdir va tarbiyaning mazmuni insonning hayotining turli sohalariga bo'lgan munosabatidir.

Xulosa. Shunday qilib, ma'naviy-axloqiy tarbiya maqsadlariga erishish yosh inson ruhiyatining oqilona va hissiy-affektiv sohalariga uyg'un murojaat qilish, shuningdek, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimiga tayanish orqali amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-4307-son Qarori.

3. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 396 б.

4. Олимов Ш.Ш. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари: Монография. - Т.: Фан ва технология, 2015. - 228 б.

5. Туленов Ж., Қодиров Б., Фафуров З. Маънавий юксалиш сари. - Т.: Меҳнат, 2000. - 192 б.

АКТУАЛИЗАЦИЯ ВОПРОСА ВОСПИТАНИЯ В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Батыралиева Шахноза Пулатовна, преподаватель ТГПУ

Аннотация. В статье освещены вопросы актуализации вопроса духовно-нравственного воспитания в непрерывном образовании. Кроме того, в статье раскрывается вопрос совершенствования механизмов воспитательной работы среди студенческой молодёжи.

Ключевые слова: *духовно-нравственное воспитание, непрерывное образование, методы воспитательной работы, инновационная деятельность, педагогическое образование, качество образования, инновации, подготовка специалистов, деятельность, развитие.*

UZLUKSIZ TA'LIMDA TARBIIYA MASSALANING DOLZARBLIGI

Batiraliyeva Shaxnoza Po'latovna, TDPU o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada uzluksiz ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasini dolzarblashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada talaba yoshlar o'rtasida tarbiyaviy ish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi ham ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: *ma'naviy-axloqiy tarbiya, uzluksiz ta'lim, tarbiyaviy ish uslublari, innovatsion faoliyat, pedagogik ta'lim, ta'lim sifati, innovatsiyalar, mutaxassislar tayyorlash, faoliyat, rivojlanish.*

UPDATING THE ISSUE OF EDUCATION IN LIFELONG EDUCATION

Batiraliyeva Shakhnoza Pulatovna, lecturer at TSPU

Abstract. The article highlights the issues of actualization of the issue of spiritual and moral education in lifelong education. The article also reveals the issue of improving the mechanisms of educational work among student youth.

Key words: *spiritual and moral education, lifelong education, methods of educational work, innovative activities, teacher education, quality of education, innovations, training of specialists, activities, development.*

Введение. В современном мире в эпоху иноваций и технологий мир XXI века ставит перед системой образования новые задачи. Неуклонно изменяется общество, и вместе с ним иными становятся требования к образованию, а, следовательно, и к подготовке педагогических кадров. Для инновационного прорыва страна должна иметь качественную систему образования на всех уровнях. Задачи по реформированию этой важнейшей сферы, в которой сосредоточено будущее государства, решаются поэтапно. Одним из семи приоритетных направлений Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы является развитие человеческого капитала.

Основная часть. Научные изыскания в сфере переосмысления функционирования учебных дисциплин и учебных модулей, в том числе, и методов воспитательной работы, в качестве важных вопросов всестороннего развития интеллектуального потенциала личности, поднятой на уровень государственной политики, является актуальной проблемой, остающейся в центре внимания мировой акаде-

мической общественности. В вузах республики ведутся масштабные реформы по всестороннему развитию человеческого капитала во взаимосвязи с трансфером знаний для реализации нового содержания в обновляющемся Узбекистане. Доминирующей становится генерация новых научных знаний и образовательная деятельность являются основными столпами функционирования вузов, основывающихся на концепции, связанных с производственными инновациями. Осуществление инновационной деятельности требует имплементации воспитательной системы, двигателем которой является процесс создания новых знаний, их передачи в академический сектор. В этой связи, актуальным является вопрос совершенствования механизмов воспитательной работы среди студенческой молодёжи, обеспечение духовного развития и поднятие данной сферы на новый уровень; формирование в обществе здорового мировоззрения, созидания и превращение его в общенациональное движение посредством широкой популяризации идеи «от национального возрождения – к национальному прогрессу», основанной на принципах доброты и гуманизма даёт университетскому сообществу дополнительные возможности для реализации его интеллектуального потенциала. А также, способствует развитию рефлексивного мышления (способности к осмыслению исторического опыта), что отражается в современных тенденциях развития духовно-нравственной и просвещенческой работы в вузах.

В Указе Президента Республики Узбекистан «О государственной программе по реализации стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы в «Год заботы о человеке и качественного образования», в целях выведения на новый этап проводимых реформ по дальнейшему повышению уровня жизни населения, приведению качества образования в соответствии с передовыми международными стандартами, достижению устойчивого экономического роста и сокращению бедности в соответствии с задачами, определенными Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы и Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису и народу Узбекистана определены ряд задач для их решения. В 8 части пункта данного Указа в целях повышения качества образования, реформирования сферы на основе передового зарубежного опыта начиная с 2023/2024 учебного года в учреждениях общего среднего образования поэтапно нужно ввести в практику образовательные программы, направленные на воспитание учащихся в духе общечеловеческих и национальных ценностей, патриотизма, а также формирования у них коммуникативных навыков, критического и креативного мышления, умения работать в команде, исследовательских навыков. В Узбекистане созданы все условия для развития духовно-нравственных качеств личности, созданию благоприятной среды для обучающихся, функционированию общественных институтов, способствующих продуктивному интерактивному общению, установлению полезных контактов, консалтинговых услуг, профессиональной поддержке после обучения. Вместе с тем, какие бы новации не вводились, духовно-нравственное начало в развитии человека остаётся главной проблемой в вузе, несмотря на то, что вся воспитательная работа в вузе до недавнего времени провоцировала простым сообщением определённой суммой знания, которые студенты должны были запоминать и воспроизводить. Необходимость развития духовно-нравственной сферы в стране в целом определила потребность актуализировать вопрос воспитания в непрерывном образовании, а в особенности в педагогических вузах, так как, конеч-

ным продуктом воспитательного процесса является развивающаяся личность. Ключевая роль отводится воспитательным двигателям в процессах осуществления инновационной деятельности, где требуется наличие системы организации трансфера тьюторской, супервайзерской деятельности, ориентированных на создание новых знаний, их передачи в неакадемический сектор. Совершенствование механизмов воспитательной работы в вузах с приоритетом на менторские, тьюторские, коучинговые услуги в условиях глобализации телекоммуникационных, идейно-пропагандических систем является своевременным вопросом времени. Введение тьюторских штатов с 2021 года в вузах страны, а также замдеканов по работе с молодёжью позволяет расширять самореализацию студентов, уделять внимание современным формам воспитания в вузе, внедрять инновационные технологии.

Тьютор – это наставник, обладающий высокими моральными качествами, ведущий свою деятельность в высшем учебном заведении, отвечающий соответствующим квалификационным требованиям, помогающий студентам закрепленной за ним группы в их обучении, а также в содержательной организации их свободного времени от занятий, в духе гуманизма, справедливости, трудолюбия и любви к Родине, воспитание, участие в клубах и кружках, организованных в рамках пяти важных инициатив, проводит мероприятия, направленные на устранение всех вопросов и проблем, возникающих в процессе образования в установленном порядке. Совершенствование механизмов воспитательной работы в учебных заведениях в нашей стране должна соответствовать процессам, изложенным в Государственной программе «Год заботы о человеке и качественного образования». В такой новой исторической ситуации нам нужны научные ответы на вопрос: «Какие воспитывающие качества мы должны сформировать и укрепить у молодежи, чтобы развивать новый Узбекистан?», «Какие воспитывающие качества мы должны сформировать и укрепить у молодежи, чтобы заложить основы Третьего Ренессанса?» Только духовно-просветительская работа среди молодежи сможет ответить на этот вопрос и побудить студенческую молодёжь к творческой работе.

Воспитание – процесс целенаправленного и систематического воздействия на развитие личности. Наряду с обучением категория воспитания является одной из основных в педагогике. Следовательно, при этом, можно выделить: воспитание в широком социальном смысле, включая в него воздействия на личность со стороны общества в целом, т.е. отождествляя воспитание с социализацией; воспитание в педагогическом смысле как существующая наряду с обучением разновидность педагогической деятельности, специально направленная на формирование качеств личности: убеждений, умений, навыков и т.п.; воспитание, трактуемое еще более локально, как решение какой-либо конкретной воспитательной задачи, например, умственное воспитание, нравственное, эстетическое и т.п.

Вывод. Таким образом, анализ научно-концептуальных основ совершенствования механизмов воспитательного процесса, позволяет сделать следующие выводы: специфика воспитательной работы носит общественно значимый характер. Проблемы нахождения общей стратегии развития воспитательного процесса и разработки точного плана действий мотивирует образовательные учреждения к созданию, формированию достойного в воспитательном плане выпускника образовательного учреждения; в нашей стране задачи воспитания молодежи рассматриваются в качестве важных вопросов всестороннего развития, интеллектуального по-

тенциала личности, поднятой на уровень государственной политики. В связи с этим важное значение имеют факторы воспитания – представления, утвердившееся в современной педагогике, согласно которым процесс воспитания представляет собой не только прямое воздействие педагога на студента, но и взаимодействие различных факторов: индивидов, конкретных людей, воспитанников; микрогрупп, трудовых и учебных коллективов; опосредованно различных социальных институтов. Названные трактовки ключевого понятия позволяют обобщить воззрения о том, что воспитание как система отношений подразумевает целенаправленное и систематическое воздействие на сознание, чувства и поведение участников образовательного процесса с целью формирования у них нравственных качеств, соответствующих требованиям общественной морали.

Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»: <https://lex.uz/docs/5841077>
2. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-27 «О государственной программе по реализации стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы в «Год заботы о человеке и качественного образования» от 28 февраля 2023 года: <https://lex.uz/docs/6396150>
3. Абдуллаева Ш.А. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. - СПб., 2021. - С. 4-10
4. Ортыков Н. Воспитание духовно-нравственных качеств учащихся общеобразовательной школы // Замонавий таълим. - Т., 2021. - № 3. - С. 14-17.
5. Меренков В. Воспитание патриотических чувств студентов. - М.: Радуга, 2019. - 180 с.
6. Батиралиева Ш.П. Основные направления воспитательной деятельности в системе современного высшего образования // European science. - 2020. - № 3(52). - С. 87-89.

TEXNIK MUTAXASSISLIK MAGISTRLARINING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Abelkosimova Muxarram Xamidovna, NamMQI o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada texnik mutaxassislik magistrleri ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish sifatlariga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, psixologik-pedagogik, metodik-texnologik, didaktik-metodologik va ma'naviy-ma'rifiy omillar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: magistratura, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, psixologik-pedagogik, metodik-texnologik, didaktik-metodologik, ma'naviy-ma'rifiy.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАГИСТРОВ ТЕХНИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛИЗАЦИЙ

Абелкосимова Мухаррам Хамидовна, преподаватель НамИСИ

Аннотация. В статье приведены социально-экономические, организационно-управленческие, психолого-педагогические, методически-технологические, дидактико-методические и духовно-воспитательные факторы, влияющие на качество развития научно-исследовательской деятельности технических специальностей.

Ключевые слова: магистратура, социально-экономический, организационно-управленческий, психолого-педагогический, методолого-технологический, дидактико-методический, духовно-воспитательный.

FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF THE SCIENTIFIC RESEARCH ACTIVITY OF MASTERS OF TECHNICAL SPECIALIZATION

Abelkosimova Muharram Hamidovna, teacher of NamCEI

Abstract. The article presents the socio-economic, organizational and managerial, psychological and pedagogical, methodological and technological, didactic and methodological and spiritual and educational factors that affect the quality of development of research activities of technical specialties.

Key words: master's degree, socio-economic, organizational-management, psychological-pedagogical, methodological-technological, didactic-methodological, spiritual-educational.

Kirish. Davlat ta'lim standartlarida «magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va fanlar dasturi mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko'zda tutgan holda shakllantirilishi» belgilab qo'yilgan.

Asosiy qism. Ushbu hujjatga, asosan, magistrlarining ilmiy-tadqiqot ishlari: mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi; axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishi; talabalarga fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan umumiy malaka talablari belgilab qo'yilgan: tanlangan mutaxassislik bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni bajarishga, shuningdek,

fan, texnika va texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat va san'atning zamonaviy yutuqlarini amaliyotga joriy etishga yo'naltirilgan kasb tayyorgarligiga ega bo'lishi; mutaxassislikka oid ilmiy muammolar bilan bog'liq vazifalarni ifodalash va hal etishi, qarorlar qabul qilishi, zarur bilimlar bazasini yaratish va undan o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi; ilmiy tadqiqotlar va mehnatni tashkil qilish metodologiyasini bilishi, tadqiqot natijalarini tahlil qilish va qayta ishlash metodikasini ishlab chiqishi va amalga oshirishi, ilmiy tadqiqot natijalaridan faoliyatning tegishli sohalarida foydalanishga doir amaliy tavsiyalarni ifodalay olishi va taqdim qilishi; xorijiy tillardan birida ilmiy-tadqiqot ishlari mohiyatini tushunish.

Kasb vazifalarini avtomatlashtirish va kompyuterda modellashtirish metodlarini, eng maqbul yechimlar topishning oqilona usullarini egallagan bo'lishi; bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va ilmiy jamoalarni boshqarishni ilmiy asosda tashkil qila olishi; zamonaviy axborot tizimlaridan foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar va interaktiv ta'lim usullarini egallagan bo'lishi lozim; tanlangan mutaxassislik bo'yicha mustaqil ilmiy tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati; magistr tayyorgarligiga muvofiq mutaxassislik bo'yicha katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar institutida oliy ta'limdan keyin tahsil olish. Davlat ta'lim standartlaridan hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarning tahlili texnik mutaxassislik magistrleri quyidagi asosiy faoliyatiga tayyor bo'lishlari kerakligi ma'lum bo'ladi: ishlab chikarish; tashkiliy-boshqaruv; ilmiy-pedagogik; ilmiy tadqiqot.

Olib borilgan tadqiqot natijasida texnik mutaxassis magistrlarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish sifatlariga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi bir nechta guruhlariga bo'lishni lozim topdik: ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, psixologik-pedagogik, metodik-texnologik, didaktik-metodologik va ma'naviy-ma'rifiy.

Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy-boshqaruv guruhlariga nisbatan quyidagilarni ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Respublikada magistraturalarni shakllanishini ijtimoiy va xronologik tahlili O'zbekiston MDX davlatlari ichida birinchilardan bo'lib oliy ta'limni o'zagi sifatida ikki bosqichli bakalavriat va magistratura tizimga o'tganligini bildiradi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida oliy ta'limning asosiy prinsiplari va yo'nalishlari hamda uni takomillashtirishning maqsad va vazifalari belgilangan. Respublikada 1999 yildan oliy ta'lim muassasalarida magistrlik dasturlari bo'yicha texnik yo'nalishdagi mutaxassislarni tayyorlash boshlangan. Texnik yo'nalishdagi magistrlarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish maqsadida «Oliy o'quv yurtlarida magistraturalar mutaxassisliklari bo'yicha talabalarni stajirovkadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom» kiritilgan. Hujjatlarda mustaqil ilmiy tadqiqotlar va tajribalar o'tkazish maqsadida stajirovka o'tkazilishi aniqlangan. Texnik yo'nalishdagi magistrlarini tayyorlash ikkita jihatidan taxminan teng bo'lgan ta'lim va ilmiy tadqiqot dasturlarini tashkil qiladi. Dasturning ta'lim qismi kasbiy ta'limni chuqurlashtirishga mo'ljallagan gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiyot, matematik, tabiiy-ilmiy va maxsus sohalar boblarini o'z ichiga oladi. Dastur mazmunining ilmiy tadqiqot qismi magistrlik dasturlarini aniq amalga oshirish orqali magistrni kasbiy ixtisoslashtirish, magistrning shaxsiy ish rejasida har bir semestrda ilmiy tadqiqot ishlari mavzularini yoritishni aks ettirish talablar bilan aniqlanadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining aksariyatida texnik mutaxassislar bo'yicha magistrlarini tayyorlash yo'lga qo'yilgan, jumladan, injiniring, axborot texnologiyalari, aloqa vositalari, qurilish va ishlab chiqarish sohalar bo'yicha. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha qabullarning o'sishi va kengayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Texnik mutaxassislikdagi magistrlarini tayyorlashda sanoati rivojlanganligiga e'tibor qaratilgan – respublikaning rivojlangan hududlari: Toshkent va Toshkent viloyati,

Samarqand, Navoiy, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo va boshq. Oliy ta'lim muassasalarida ixtisosliklarning tahlili, texnik mutaxassislik bo'yicha boshqaruv magistrlarini xalq xo'jaligining quyidagi: axborot texnologiyalari, mashinasozlik va avtomobilsozlik, transport va aloqa, kimyo va tekstil sanoati, arxitektura va qurilish, qishloq xo'jaligi va irrigatsiya va boshqa sohalar uchun mutaxassislarni tayyorlash olib borilayotganligini ko'rsatmoqda. Yaqin yillarda hududlardagi oliy ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich qabul sonini oshirish rejalashtirilmoqda, bu potensial ish beruvchilar bilan magistrlar tayyorlash o'rtasida hamkorlik qilishga yaqindan yordam beradi.

Respublikada magistraturalarning tashkil topishi va rivojlanishi o'tgan davr ichida tayyorgarlikni tashkil etishga tegishli bo'lgan barcha jihatlarida quyidagi muayyan yutuqlarga erishganligini ko'rsatmoqda, jumladan: magistraturalarning normativ-huquqiy, ilmiy-metodik va moddiy-texnika ta'minoti; kompetentlikka yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari yaratilganligi; zamonaviy ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalari joriy qilingan va kompetentlik darajasida ilmiy-pedagogik kadrlar shakllantirilmoqda. Texnik mutaxassis magistrlarining ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga bevosita ta'sir etuvchi didaktik-metodologik, psixologik-pedagogik va metodik-texnologik guruhdagi omillarni ko'rib chiqamiz. Ushbu guruh omillarining tahlili ularning quyidagi komponentalarga ajratishga imkon yaratadi: ta'limning maqsadi va mazmunini; ta'limning texnologiyasi va usuli; ta'limni baholashning natijadorligining vosita va usullari. Ushbu kompetentlarni baholash darajasining asoslanganligi o'quv-tarbiya jarayonining quyidagi kompetentlarini tayyorgarlik sifati bilan aniqlanadi: magistrlarini tayyorlash o'quv rejalari; fanlar bo'yicha o'quv-metodik majmuallari; o'quv jarayonining metodik ta'minoti; ta'lim metodlari va pedagogik texnologiya; auditoriya va mustaqil mashg'ulotlar o'tkazish; ta'lim natijalarini baholashning vosita va metodlari. Ta'limning maqsad va mazmuni oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari (DTS) va magistrlar tayyorlashning o'quv rejalarda aks ettiriladi. O'quv rejalarda quyidagi normativ ko'rsatkichlar quyidagilarda o'z aksini topgan: o'quv faoliyat turlari, o'quv kurslar va fanlari tarkibi, magistraturalar mutaxassisligi aniq yo'nalishlari bo'yicha soatlar hajmi va ularni o'qitish ketma-ketligi. Magistrlar tayyorlashning mavjud o'quv rejalari mazmun va tuzilmasini sifat va son jihatdan tahlili, oliy ta'lim muassasalarining texnik yo'nalishdagi magistrleri va professor-o'qituvchilar tarkibi o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovnomalari asosda olib borildi.

Olingan natijalar o'quv rejalari «bilimli» konsepsiyasiga asosan shakllanganligini bildirdi: o'quv dasturlarni ishlab chiqish uchun asosan bitiruvchining kompetentligini hisobga olmaydigan kvalifikatsion talablar xizmat qilishi; o'quv dasturlar tuzilmasi bilimlarning bog'liqligini amalga oshirishga mos bo'lmagan ikkita o'quv fanlari bloklariga bo'lingan (gumanitar, kasbiy, maxsus attestatsiya va boshq.); ko'ppredmetlilik o'quv dasturini ta'limda individuallashtirish tamoyili samaradorligini amalga oshirishga imkon bermaydi; o'quv rejalarda kompetentlik shakllanishini diagnostika qilish uchun vaqt resurslari ko'rsatilmagan; o'quv rejadagi fanli tuzilma magistraturalar talabalarini kasbiy faoliyatining ilmiy-amaliy asoslarini to'liqligicha shakllantirish uchun pedagogik-psixologik sharoit yaratmaydi. Buning natijasida, «bilim» yo'nalishdagi o'quv rejalarni ishlab chiqish bosqichida, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik tendensiyalarni (shaxsning sifatlarini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyatga mo'ljallanganligi, intergativ (fanlararo) bilimlar, ta'limga individuallashtirilgan yondashuv, guruhlarda kompetentlikni shakllantirish darajasini diagnostika qilishning uzluksizligi, tizimli va ijodiy fikrlashni takomillashtirish va boshq.) rivojlantirishning zamonaviy talablari yetarli darajada hisobga olinmagan. O'quv-metodik majmualarni tahlili

texnik yo'nalishdagi magistrlerini bajargan amaliy topshiriqlar va mustaqil ishlar ko'p hollarda, tadqiqot va amaliy yo'nalishlarda o'zida mujassam etmasligini ko'rsatmoqda, shuningdek, o'quv-metodik majmualar talabalardan ijodiy qobiliyatni namoyish etishni va yangi muammolarni yechimini izlab topishni talab qilmayati. Bu, o'z navbatida, magistrantlarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirmayapti. O'quv-metodik majmuaning mazmuni, asosan, magistrlerini reproduktiv fikrlashga mo'ljallangan, shuning uchun talabalar yuqori nazariy bilimlar olgan bilan kasbiy masalalarni yechishda nazariy bilimlarini qo'llash bo'yicha zaruriy tajribaga ega emas. Bu jihat texnik mutaxassislikdagi magistratura talabalarini ijodiy sifatlarini namoyon qiladigan o'quv-metodik majmualarni modernizatsiya qilishni talab qiladi. O'quv jarayonida qo'llanilayotgan kognitiv pedagogik texnologiyalar natijadorligini tahlili, uning mazmuni amaliyot va kasbiy ko'nikma va malakalarni emas, asosan magistratura talabalarini aniq jamlangan tayyor bilimlarni olishga yo'naltirilganligini ko'rsatmoqda. Aksariyat, oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchidan talabaga tayyor «bilim» uzatish texnologiyasi ustunlik qilmoqda. Ko'p holatlarda auditoriyada o'qiladigan ma'ruzalar axborot-illyustrativ harakterga ega bo'lib, talabalardan ijodiy fikrlash faoliyatini talab qilmaydi va uni mustaqil bilimlarni egallashga chorlamaydi. Bu passiv ta'lim turidir. Maxsus tadqiqotlar bo'yicha ma'lumki, axborotli ma'ruzadan keyin talabalar o'quv materialining 20%dan kamrog'ini yodda saqlaydilar va bir haftadan keyin materialning katta qismi yoddan chiqadi, shuning uchun axborotli ma'ruzalarning samaradorligi juda past hisoblanadi. Kognitiv pedagogik texnologiyalar maksimal hajmdagi kasbiy axborotlarni uzatishga qaratilgan.

Xulosa. Hozirgi vaqtda axborotlar tezda eskirib qolganligi natijasida sezilarli darajada o'zining muhimligi va kasbiy qiymatini yo'qotadi. Auditoriya mashg'ulotlarini kognitiv pedagogik texnologiyalar asosida olib borilishi talabalarni mustaqil ravishda fikr yuritishiga va kasbiy yechimlarini izlashni ma'lum darajada chegaralaydi. Kognitiv pedagogik texnologiyalarning jihatlarini belgilari quyidagilarda o'z aksini topadi: ta'lim oluvchilarning bilishga oid qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadning qo'yilishi; kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga yo'naltirilgan mazmun, metod va vositalarni reproduktiv faoliyatiga yo'naltirish. Magistrantlarda ilmiy tadqiqot malakalarini sifatli shakllantirish uchun ta'limning individuallashtirish va faollashtirishga mos keluvchi kreativ pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Джураев Р.Х., Махмудов А.Х. Готовы ли выпускники магистратуры успешно проводит научные исследования в рамках докторских работ? Анализ, проблемы, решения // *Uzluksiz ta'lim*. - T., 2015. - 4-son. - B. 42-45.
2. Махмудов А.Х. Совершенствование дидактического обеспечения компетентностной подготовки будущих магистров: Дис. ... д-ра пед. наук. - T., 2017. - 226 с.
3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. - М.: Просвещение, 1977. - 342 с.
4. Махмудов А.Х., Абелкосимова М. К вопросу формирования готовности магистрантов к научно-исследовательской деятельности // *Современное образование*. - T., 2020. - № 1(86).

TALABALARGA BILIM BERISH JARAYONIDA MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI

Ermeqbaeva Xalima, Nukus DPI assistent o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasi talabalariga mustaqil ta'lim berishning ahamiyati, bu jarayonni tashkil etishni takomillashtirishning ayrim muammolari va ularning yechimlari haqidagi ilmiy ma'lumotlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, o'qituvchi, talaba, o'qitish, mustaqil ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, adabiyot, modul.

ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Ermeqbaeva Xalima, ассистент преподаватель Нукусский ГПИ

Аннотация. В статье описывается значение самостоятельного обучения студентов высших учебных заведений, раскрыты некоторые проблемы совершенствования организации этого процесса и дана научная информация об их решении.

Ключевые слова: образование, преподаватель, студент, обучение, самостоятельное образование, знание, умение, навык, литература, модуль.

THE SIGNIFICANCE OF INDEPENDENT LEARNING IN THE PROCESS OF STUDENT EDUCATION

Ermeqbayeva Halima, assistant teacher of Nukus SPI

Abstract. The article describes the importance of self-study of students of higher educational institutions, some problems of improving the organization of this process and scientific information about their solution.

Key words: education, teacher, student, learning, self-education, knowledge, ability, skills, literature, module.

Kirish. Mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalarni mahalliy lashtirib samarali foydalanish, kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Talabalar mustaqil ta'limini takomillashtirishda «Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va amaliyotda qo'llash malakalarini o'zlashtirishi, mashg'ulotlarga faol qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko'rish»ga [1] yo'naltirilgan munosabatni tarkib toptirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etishning innovatsion-uslubiy texnologiyalarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism. Innovatsion ta'lim muhitida pedagogikaga oid fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishda o'qitishning samarali kechishiga yordam beradigan innovatsion shakl, metod, vosita va texnologiyalarni tanlash, ularni boyitish maqsadi ko'zlanadi. Ushbu maqsadga ko'ra, pedagogikaga oid fanlarni mashg'ulotlarini qiziqarli, jonli, samarali o'qitishni ta'minlovchi quyidagi vazifalar belgilanadi: ta'lim shakllari, metodlari, vositalari va texnologiyalarini tanlash; ular yordamida didaktik ishlanmalarni tayyorlash

asosida metodik ta'minotni shakllantirish; shakllantirilgan metodik ta'minotni o'quv amaliyotiga joriy qilish; amaliyotga tatbiq qilingan metodik ta'minot yordamida talabalarning nazariy bilimlarni o'zlashtirganlik darajasini tashxislash va baholash.

Mustaqil ta'lim – talabalarning o'qituvchi yordamida yoki uning yordamisiz biror vazifa (muammoli masala, seminar, laboratoriya)ni mustaqil o'rganish asosida amalga oshiriladigan, tizimlashtirilgan, rejalashtirilgan, muayyan metodlar va texnologiyalar qo'llaniladigan ta'lim shakli.

Mustaqil ish – o'qituvchi rahbarligida talabani fanning mazmunini chuqur o'rganishga, unga mos ravishda ishlab chiqilgan muammoli topshiriqlarni bajarishga, fandan olgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va amaliyotda qo'llash malakalarini yanada kengaytirishga va takomillashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyat turi hisoblanadi [6; 278-b.].

Talabalar mustaqil ta'lim olishini samarali tashkil etish uchun mustaqil ta'limning tashkiliy-uslubiy ta'minoti va metodikasining o'rni beqiyos. Oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassislarining raqobatbardoshligi, mustaqil qaror qabul qilishga layoqatligi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirish kabi xususiyatlarini mustaqil ta'limning tashkiliy-uslubiy ta'minoti va zamonaviy pedagogik hamda axborot-ta'lim resurslardan mustaqil ravishda foydalana olish orqaligina ta'minlash mumkin.

Mustaqil ta'lim quyidagilarga yo'naltirilgan: mustaqil ta'limning rivojlanishi nazariy bilim, amaliy ko'nikma va amaliyotda qo'llash malakalarga ega bo'lishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaraluvchi innovatsion o'quv texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish zaruriyatini taqozo etadi [2; 135-b.]. Bu tizim, birinchidan, talabalarning har doim auditoriya mashg'ulotlariga tayyor bo'lishini da'vat qiladi. Ikkinchidan, talabani e'tiborini kengroq nazariy materialga qaratish, olgan bilimi ma'nosini chuqurroq anglatish bo'lsa, uchinchi, nazariy bilimlarni ilmiy-amaliy talqin qilish qobiliyatini o'stirish va ularni amaliyotda samarali qo'llashdan iborat.

Mustaqil ta'lim, o'quv faoliyatini tashkiliy shakli sifatida quyidagi xususiyatlarga ega: 1) mustaqil ta'lim maqsadining aniq belgilanishi; 2) aniq vazifalarning belgilanishi; 3) mustaqil ta'lim bo'yicha olingan natijalarini ilmiy ifodalash shakllarining aniqligi; 4) mustaqil ta'lim turlarini tekshirish usullarining aniqligi; 5) har bir talabani berilgan muammoli topshiriqni bajarish majburiyiligi bilan ahamiyatli hisoblanadi [3; 48-b.].

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda mustaqil bajarish uchun tuziladigan muammoli topshiriqlarni quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim: talabalarning aqliy, kreativ, irodaviy va jismoniy kuchlarni talab etuvchi topshiriqlar; turli xil obekt va hodisalarga oid tushuncha, qonun, qonuniyat, nazariyalarni bilishi yoki amaliy vazifalar xarakteridagi topshiriqlar; turli xil obekt va hodisalarga oid muammoli vaziyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi topshiriqlar; pedagogikaga oid fanlardan olgan nazariy bilimlar va amaliy xarakterdagi vazifalar yechimini topishda ijodiy hamda kompetentsiyaviy yondashuvni talab etuvchi muammoli mustaqil ta'lim topshiriqlari; talabalar o'z faoliyatini rejalashtirish, uni ilmiy tashkil etish, o'qituvchilarning yordamisiz vazifalarni bajarish, olingan natijalarini maqsadga qiyoslab baholashni ko'zda tutuvchi ishlar; talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida muntazam ravishda ishning borishi, natijalarni nazorat qilish, kerakli hollarda o'zgartirishlar kiritish va amalga oshirishni takomillashtirib borishni ko'zda tutuvchi topshiriqlar; mustaqil ta'lim topshiriqlarida qo'yilgan vazifalarni talabalar tomonidan to'laqonli bajarilishiga erishish [5; 22-b.].

Pedagogikaga oid fanlar bo'yicha talabalar mustaqil ta'limini rejalashtirish va tashkil etish uchun mustaqil ishning quyidagi shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Darslik, ilmiy-ommabob va o'quv-uslubiy qo'llanmalar bo'yicha konspekt tayyorlash. Modul texnologiyasining talablariga ko'ra talaba yangi mavzuga oldindan tayyorgarlik ko'rib keladi. Bunday usul nazariy yangi materialni chuqur o'zlashtirishga yordam beruvchi o'quv materialiga diqqatni kuchaytirishga yordam beradi. Talabaniq mustaqil tayyorlagan konspekti turli nazorat ishlari (oraliq, joriy, yakuniy, kollokvum)ga tayyorgarlikni osonlashtiradi va vaqtni tejaydi.

2. Ma'ruzalar matni bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtirish. Odatda professor-o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan ma'ruzalar matni mavzuning bir nechta adabiyotlar va o'z tajribasidan foydalangan holda qisqa, lo'nda, tartibli, sxemali bayonidan va tarqatma materiallardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari, bunday tarqatma materiallar talabalar mustaqil o'zlashtirishlari uchun berilgan nazariy materialni o'rganish tartibini belgilab beradi.

3. O'qitish, nazorat va baholashning kompyuter dasturiy mahsulotlari tizimlari bilan samarali ishlash. Talabalar ma'ruza darsi, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari davomida egallangan nazariy hamda amaliy bilimlarini o'zlashtirishlari, turli nazorat va baholash ishlariga tayyorgarlik ko'rishlari uchun tayyorlangan elektron ma'ruzalar matni, hal etish namunasi keltirilgan muammoli topshiriqlar, o'zini o'zi nazorat va baholash uchun standart va nstandart test topshiriqlari, yakuniy nazorat topshiriqlari.

4. Modulni yakunlash. Talaba modul bo'yicha ma'ruza darsi, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari tugagach, bir hafta mobaynida nazariy bilimlarini fandan berilgan savolnoma bo'yicha tartiblab, egallangan amaliy ko'nikmalarini namoyish etish uchun variantdagi topshiriqlarni bajaradi. Tayyorlangan referat asosida o'qituvchi individual suhbat o'tkazadi. Oraliq nazorat ishi sifatida baholanadi [4; 116-b.].

5. Fan bo'yicha mustaqil o'qish uchun qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash. Mustaqil o'qib o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzular bo'yicha talabalar asosiy adabiyotlar bilan birga qo'shimcha ommabob ilmiy-uslubiy adabiyotlardan foydalanishlari lozim. Bunda o'zbek olimlarining yangi tahrirdagi adabiyotlari, shuning bilan rus va xorijiy tillarda nashr etilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlardan foydalangan talabalar rag'batlantiriladi. Bunday mustaqil ishlarda talabaniq kommunikativ kompetentsiyasi rivojlanadi.

6. Internet elektron resurslaridan samarali foydalanish. Fan mavzulari, boblari va bo'limlarini o'zlashtirish, referat ishlarini yozishda hamda mustaqil ish hisobatlarini tayyorlashda mavzu bo'yicha internet elektron resurs manbalarini izlab topish, elektron resursdan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, ular bilan ishlash nazorat (oraliq, joriy, yakuniy nazorat, kollokvum) turlarining barchasida qo'shimcha baholar bilan rag'batlantiriladi. Bunday mustaqil ishlarni tashkil etishda talabalarning axborot bilan ishlash kompetentsiyalari rivojlanadi.

Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini DTSga mos ravishda, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish – OTM o'qituvchilaridan yuqori malakani talab qiladi. Jumladan, biz talabalarga quyidagi mustaqil ta'lim shakl va metodlarini singdirish uchun, ularniq o'quv-bilish hamda kichik tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalandik: og'zaki metod (ma'ruza, suhbat, dialog, bahs-munozara, hikoya va boshqalar); amaliy (masalalar echish) va laboratoriya (eksperimentlarni bajarish) mashg'ulotlari; mustaqil ta'lim (dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar, sayohatlar, to'garak ishlari) shakllari; o'qitishning mantiqiy ketma-ket metodi; muammoli tadqiqotli izlanish metodi; ko'rgazmali (namoyishli) metod; induktiv va deduktiv metodlar; zamonaviy ta'lim metodlari (pedagogik va AKTlari); o'qitishning nazorat, o'zini o'zi nazorat qilish va baholash metodlari.

Xulosa. Mustaqil ta'lim oliy ta'lim muassasi talabalarining nazariy va amaliy o'quv-bilish faoliyati xarakterini o'zgartiradi, talabalarning motivatsion-ehtiyojli qarashlari yangilik bilan o'zaro birlashishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tayyorgarlikka qarab rivojlanadi, takomillashadi va innovatsion pedagogik faoliyat motivatsiyasi bunday faoliyat olib borishga bo'lgan intilishiga barqarorlik xususiyatlarini beradi. Shuningdek, mustaqil ta'lim talabani innovatsion bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan intilishining barqarorligi, uning muntazam o'zgaruvchi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda kasbiy layoqati o'sishining ko'rsatkichi bo'ladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. 2020 yil 23 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - T., 2020. - 03/20/637/1313-son.

2. Атажанова Г.Ю. Самостоятельная работа – как средство познавательной деятельности студентов в процессе обучения русскому языку // Мир науки и духовной культуры в современных условиях: Сборник научных статей. - Нукус, 2017. - С. 134-137.

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste'dod, 2008. - 180 b.

4. Karlibaeva G.E. Ta'limga innovatsion texnologiyalarni joriy etish tamoyillari // Mug'allim va uzliksiz ta'lim. - Nukus, 2018. - № 4. - B. 115-117.

5. Karlibaeva G.E., Matjanov N.S. Muammoli ta'lim texnologiyasi // Umumta'lim fanlari metodikasi. - T., 2014. - № 8(44). - B. 21-22.

6. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Под ред. В.А.Слостенина. В 2 ч. - М.: ВЛАДОС, 2002. - 544 с.

TA'LIM MUASSASALARIDA DIDAKTIK TIZIMLAR INTEGRATSIYASIDAN FOYDALANISHNING INDEKSLANGAN MODEL

Buronova Sevara Abdurasulovna, TAQU o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida didaktik tizimlar integratsiyasidan foydalanishning indekslangan modeli mazmun mohiyati ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: didaktik, indekslangan, tizimlar, integratsiyasi, modeli.

ИНДЕКСИРОВАННАЯ МОДЕЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕГРАЦИИ ДИДАКТИЧЕСКИХ СИСТЕМ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Буронова Севара Абдурасуловна, преподаватель ТАСУ

Аннотация. В данной статье раскрывается содержательная сущность индексированной модели использования дидактической системной интеграции в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: дидактический, индексированный, системы, интеграция, модель.

INDEXED MODEL FOR THE USE OF INTEGRATION OF DIDACTIC SYSTEMS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Buronova Sevara Abdurasulovna, teacher of TASU

Abstract. This article reveals the content essence of the indexed model for the use of didactic system integration in educational institutions.

Key words: didactic, indexed, systems, integration, model.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli Farmonida, O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq; O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish va ta'lim jarayoniga oid bir nechta dolzarb vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan.

Asosiy qism. Pedagogik jarayonning sifati va samaradorligi subyektlarning faoliyatiga qay darajada bog'liq bo'lsa, ta'lim muassasasi faoliyatida belgilangan maqsadlarga ko'ra yuqori natijalarga erishish ularning innovatsion faoliyati hamda innovatsion jarayonlarni tashkil etish qobiliyatlariga shu darajada bog'liq bo'ladi. Ta'lim muassasalarida bugungi kunda professor-o'qituvchilar uzluksiz innovatsion izlanishda bo'lishi, fikrlashi, o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirishi, shuningdek, talabalarda ham innovatik g'oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko'rsatishi zarur. Shuning uchun pedagogik jarayon tashkilotchilari yangilik yaratish va ularni tatbiq etish, ixtirochilar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning ilg'or pedagogik tajribalarini targ'ib qilish, ommalashtirish, innovatsion faoliyatlarining natijalarini baholash bo'yicha, ayniqsa, ta'lim muassasasi va pedagogik jamoa darajasida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish zarur.

Innovatsiyalarning xususiyatlariga ko'ra, ularni turli xil asoslar bilan turlicha tasniflash mumkin, ya'ni bugungi kunda yangilik kiritishning tugallangan tasnifi mavjud emas. Shu bilan birgalikda pedagogik jarayonlarni tashkil etishda va samaradorligini ta'minlashda, eng avvalo, yangiliklarni pedagogik jarayonlarning qaysi bo'g'iniga tegishli ekanligini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, leksion-seminarli va auditoriyadan tashqari. Ular talabalar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra, quyidagi uch asosiy turga ajratiladi: individual; jamoaviy; leksion-seminarli.

Ta'lim muassasalarida didaktik jarayonlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etishga obyektiv va subyektiv omillar sabab bo'ladi. Obyektiv omillarga davlatning yangi ta'lim siyosati, ta'lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyat yo'nalishidagi tajribalarini kiritishimiz mumkin. Subyektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj hamda ta'lim muassasalar faoliyatining rivojlanish jarayoni, ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hamda ta'lim muassasasi ilmiy salohiyatini rivojlanishidir, fikrlashning moslashuvchanligi; didaktik ta'sir strategiyasini o'zgartira olishi; o'quv faoliyatini boshqarishning eng maqbul usullarini tanlay hamda qo'llay olishi; mustaqil ishlarni tashkil etishi; stressli vaziyatlarda chidamliligi va o'zini tuta bilishi, salbiy hissiy vaziyatlarda o'zini tuta olishi; xayrixohligi, sezgirliги, xushmuomalaligi, o'z fikri bilan hisoblashish qobiliyatiga egaligi; turli ziddiyatlar sharoitida jamiyatdagi murakkab vaziyatlarga nisbatan toqatli bo'la olishi; o'z-o'zini baholash darajasi; tolerantlik; intuitsiyaning rivojlanganlik darajasi o'rganildi va indekslangan model ishlab chiqildi. Ma'lumki, model – (fr. modele so'zidan, lot. modulus «o'lchov, analog, namuna») – boshqa tizim haqida ma'lumot olish vositasi bo'lib xizmat qiladigan o'rganish tizimidir [1]. U qandaydir real jarayon, qurilma yoki konsepsiyani ifodalaydi [2]. U qandaydir shakldagi (masalan, matematik, fizik, ramziy, grafik yoki tavsifiy) voqelikning abstrakt tasviri.

Indekslangan model – bo'lajak mutaxassisning kelgusi ish faoliyati uchun zarur bo'lgan yo'l xaritasini tuzishga xizmat qiladi. Ushbu andozada texnika oliy ta'lim tashkilotlarida didaktik jarayonlar integratsiyasini ko'rib chiqish va o'rganilayotgan savollarga javob berish uchun mo'ljallangan indekslar (ko'rsatkichlar) mo'jassamlashgan. Ta'lim muassasalarida didaktik tizimlar integratsiyasidan foydalanishning indekslangan modeli o'zida «yangilik», «yangilanish», «yangilik kiritish» tushunchalariga ustuvorlik berishga qaratilgan, lekin ularning o'rtasida ba'zi bir farqlar mavjud. Yangilik – yangi tartib, yangi uslub, yangi metod, yangi ixtirolar bo'lishi mumkin. Yangilik kiritish – bu

yangilikning qo'llanishini bildiradi. Yangiliklarni amaliyotda qo'llash va ommalashtirishga kirishilgan vaqtda u yangi sifatga ega bo'ladi va innovatsiyalar vujudga keladi. Yangilik kiritishni ommalashtirish va ularni tashkil etish innovatsion jarayonning tashkil etuvchi qismlari hisoblanadi. Mazkur mezonlarga asoslangan holda ularni shartli ravishda to'rt: motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kreativ, reflektiv-baholash guruhlariga tasniflash asosida bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligi shakllanganligining quyi (reproduktiv), o'rta (produktiv) va yuqori (ijodiy) daraja ko'rsatkichlari aniqlashtirildi. Modelda aks ettirilgan kasbiy shakllanish – mehnat faoliyati yoki kasb sohasining aniq turini tanlash bilan aloqador, aniq va ongli ravishda qabul qilinadigan qaromning ifodalanishi bo'lib, talabalar bilan amalga oshiradigan maqsadga yo'naltirilgan ishlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Didaktik jarayonlar integratsiyasida «kasbiy shakllanish» tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi, ikki o'zaro prinsipial farqlanuvchi-dinamik hamda statik-tayanch modelini keltirib chiqaradi. «Shakllanish» so'zi quyidagi sinonim: yuzaga kelish, rivojlanish, shakllanish hamda nimanidir yaratish so'zlar qatorida qaralsa, uning mohiyati yanada aniqroq namoyon bo'ladi.

Xulosa. «Shakllanish»ni «yuzaga kelish», «shakllantirish» kabi sinonimlar qatorida o'rganilsa, uning jarayon sifatidagi xususiyati va ushbu tushunchaning dinamik modeli to'la namoyon bo'ladi. Ta'lim muassasalarida didaktik tizimlar integratsiyasidan foydalanishning indekslangan modeli bo'lib o'quv jarayonida o'z vazifasini to'liq namoyon etishiga ishonamiz.

Adabiyotlar:

1. Букатов В.М. Педагогические таинства дидактических игр. - М., 2003.
2. Мавлонова Р., Тўраева О., Ҳолиқбердиев К. Педагогика. - Т.: Ўқитувчи, 2001.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIM OLISH IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI

Nazarqulova Gulnora Ablakulovna, GulDU o'qituvchisi

Annotatsiya. Talabalarning mustaqil ta'limining maqsadi kasbiy, tadqiqot tajribasi, ijodiy izlanish bo'yicha fundamental bilimlar, kasbiy ko'nikmalar va malakalarni egallashdir. Talabalarning mustaqil ta'limi ularning mustaqillik darajasini oshirishga yordam beradi, mas'uliyatli munosabat va tashkilotchilikni, ta'lim va kasbiy darajadagi muammolarni hal qilishga ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Ushbu maqolada o'qitishning kredit-modulli tizimida talabalarning o'z ustida ishlashga, ularni mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishga xizmat qilishi haqida ma'lumot berilgan.

Таянч so'zlar: *amaliy mashg'ulot, referat, o'quv jarayoni, shaffof, matematik tahlil, muammoli vaziyat, kasbiy faoliyat, kognitiv faoliyat.*

ПРАКТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ РАЗВИТИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Назаркулова Гульнара Аблакуловна, преподаватель ГулГУ

Аннотация. Целью самостоятельного образования студентов является профессиональный, исследовательский опыт, приобретение фундаментальных знаний, профессиональных навыков и компетенций в области творческих исследований. Самостоятельное обучение студентов способствует повышению уровня их самостоятельности, развивает ответственное отношение и организованность, творческий подход к решению учебных и профессиональных задач. В данной статье представлена информация о том, как кредитно-модульная система обучения помогает студентам работать над собой и использовать самостоятельные образовательные возможности.

Ключевые слова: *практические занятия, реферат, учебный процесс, прозрачный, математический анализ, проблемная ситуация, профессиональная деятельность, познавательная деятельность.*

THE PRACTICAL SITUATION OF DEVELOPING OPPORTUNITIES FOR INDEPENDENT EDUCATION OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS

Nazarkulova Gulnara Ablakulovna, teacher of GulSU

Abstract. The goal of independent education of students is professional, research experience, acquisition of fundamental knowledge, professional skills and competences in creative research. Independent education of students helps to increase their level of independence, develops responsible attitude and organization, creative approach to solving educational and professional problems. This article provides information on how the credit-module system of teaching serves students to work on themselves, to use independent educational opportunities.

Key words: *practical training, abstract, educational process, transparent, mathematical analysis, problem situation, professional activity, cognitive activity.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi»da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korruptsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha

aniq vazifalar belgilab berilgan. Kontseptsiyaga ko'ra, mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi. Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism. Ta'limning kredit-modul tizimi sharoitida o'quv jarayonini tashkil yetishga umumiy yondashuvlar mamlakatimiz olimlaridan: V.O'rinov, M.Sultonov, A.Umarov, B.Sh.Usmonov, R.A.Habibullaevlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. MDH davlatlari olimlaridan: B.A.Abdikarimov, G.K.Axmetova, N.A.Asanov, Ye.I.Artamonova, O.V.Boev, G.N.Gamarnik, G.G.Pivnya, A.A.Kusainov, S.R. Ibatulin, B.A.Mirzamiev, S.M.Omirbaev, O.A.Sevostyanova, A.I.Chuchalina va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi O'RB-637-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr «2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5544-sonli Farmoni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar tadqiqot metodologik asos bo'ladi. O'qitishning kredit-modulli tizimi talabalarni o'z ustida ishlashga, ularni mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishga xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim - professor-o'qituvchilar tomonidan auditoriyada talabalarga yetkaziladigan mavzulardan tashqari o'quv fanining mazmuniga kiruvchi va aloqador mavzular, masalalar, axborotini mustaqil o'rganish hamda o'zlashtirishga qaratilgan muhim ta'lim jarayonidir. Talabalar mustaqil ta'limning asosiy maqsadi - auditoriyadan tashqari vaqtda professor-o'qituvchilarning bevosita va bilvosita rahbarligi hamda nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iboratdir. Mustaqil ta'limning shakli va mazmuni, mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlarda keltiriladi. Mustaqil mashg'ulotlar jarayonida talabalar tomonidan tayorlanishi zarur bo'lgan yakuniy ishlar shakli, referat, esse, mustaqil, ijodiy ish, muammoli ma'ruza va boshqalar ko'rsatiladi. Mustaqil ishni bajarishdan asosiy maqsad, professor-o'qituvchilarning bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanlarni uzluksiz o'rganishini tashkil etishi, olingan bilim, ko'nikmalarini chuqur o'rganib mustahkamlash, kelgusida aqliy mehnat madaniyati, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilish, ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga asos bo'ladi. Shuning uchun zamonaviy pedagogikada o'qituvchi va talabalar o'quv faoliyatining barcha subyektlari hamkorligi bilan o'zaro munosabatlarni optimallashtirishga imkon beradigan o'quv jarayonining faol shakllariga e'tibor qaratish dolzarb bo'lib qoladi. Ta'lim jarayonini bunday tushunish o'z-o'zidan maqsad bo'lishni to'xtatadigan, ammo faqat ta'limni rivojlantirish vositasiga aylanadigan o'quv faoliyati shakllariga nisbatan talabalarining progressiv rivojlanishini belgilash ustuvorligini nazarda tutadi [1]. O'quv jarayoni nafaqat rivojlanayotgan imkoniyatlarga, balki uning individual tarkibiy qismlariga ham ega. Ulardan biri - o'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ta'limi bu borada yetarlicha o'rganilmagan. Shu bilan birga, talabalarning bunday mustaqil ta'limi ikkita yetakchi rivojlanayotgan imkoniyatlarni - talabani maqsadli intellektual shakllanishini va o'zlarining ta'lim yutuqlarini ijodiy, shaxsga yo'naltirilgan loyihalash istiqbollarini sintez qiladi. Shuning uchun o'quv faoliyatini tashkil etish talabalarning rivojlanish qobiliyatlarini uchun joy

yaratadigan kognitiv faoliyatning yangi aloqalari va munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan innovatsion elementlarni kiritish muvaffaqiyati kontekstida ko'rib chiqilishi kerak.

Talabalarning mustaqil ta'limini tartibga solishini ta'minlash, ularning akademik yutuqlarga bo'lgan mazmunli istagi va matematik ta'lim jarayonida bilimlarni o'zini o'zi boshqarish, bitiruvchilarning turli manbalardan mustaqil ravishda bilim olish, ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyatini ta'minlash maqsadida o'quv jarayonini boshqarish istiqbollari va imkoniyatlari to'g'risida savol tug'iladi. Shu sababli, zamonaviy pedagogikada o'qituvchi va talabalarning o'quv faoliyatining barcha subyektlari hamkorligi bilan o'zaro munosabatlarini optimallashtirishga imkon beradigan o'quv jarayonining faol shakllariga e'tibor qaratish dolzarb bo'lib qoladi. Ta'lim jarayonini bunday tushunish o'z-o'zidan maqsad bo'lishni to'xtatadigan, ammo faqat ta'limni rivojlantirish vositasiga aylanadigan o'quv faoliyati shakllariga nisbatan talabalarning progressiv rivojlanishini belgilash ustuvorligini nazarda tutadi [2]. O'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi va talabalar, shuningdek, talabalarning o'zlari bir-biri bilan o'zaro ta'siri, hamkorligi mavjud. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi o'z-o'zidan rivojlanishni anglatmaydi. Bilimlarni egallashni shunday tashkil etish kerakki, faoliyatga kiritilgan yangi elementlar rivojlanishga imkon beradigan yangi munosabatlarini shakllantirishga yordam bersin. Asosiy vazifa o'quv jarayonini shunday boshqarishki, bilimlarni nazorat qilishda bilimga mazmunli istak paydo bo'ladi va o'zini o'zi boshqarish ta'minlanadi [3].

Mustaqil ta'lim – bu bitiruvchi talabalarning kasbiy mustaqilligi va harakatchanligini shakllantiradigan kasbiy martaba yo'lidir va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi uni to'g'ri tashkil etishdir. Talabalarning mustaqil ta'limining maqsadi kasbiy, tadqiqot tajribasi, ijodiy izlanish bo'yicha fundamental bilimlar, kasbiy ko'nikmalar va malakalarni egallashdir. Talabalarning mustaqil ta'limi ularning mustaqillik darajasini oshirishga yordam beradi, mas'uliyatli munosabat va tashkilotchilikni, ta'lim va kasbiy darajadagi muammolarni hal qilishga ijodiy yondashuvni rivojlantiradi [4]. Boshlang'ich ta'limning asosi sifatida an'anaviy matematika fanini o'qitish tizimining asosiy kamchiligi shundaki, o'qituvchi ko'pincha faqat bitta o'quv funktsiyasidan foydalanadi - axborot, ikkinchisi esa, rivojlanayotgan funktsiya chetda qoladi. O'qitishning rivojlanayotgan funktsiyasini amalga oshirish uchun o'qituvchi nafaqat ma'lum bir tizimda bilimlarni taqdim etishi kerak, balki ularni olish jarayonini qayta qurish kerak, bu davrda faqat talabalarni o'ylashga majbur qilish va natijada berilgan savollarga to'g'ri javob berish mumkin. Boshlang'ich ta'lim kursini o'rganayotgan talabalar nafaqat ma'lum miqdordagi bilimlarni, reproduktiv va ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtirishlari, balki mustaqil ravishda bilim olishni, axborot bilan ishlashni, oliy ta'limning asosiy natijasi bo'lgan matematik fikrlash asoslarini o'zlashtirishlari kerak.

Oliy ta'limda o'qituvchi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi talabaga o'quv faoliyatini eng samarali tashkil etishga yordam berish uchun fanning xususiyatlaridan maksimal darajada foydalanish masalasini hal qilishi kerak. Uni darsdan tashqari vaqtda mustaqil ta'limni oqilona rejalashtirish va bajarishga o'rgatish kerak, bu esa, mustaqil faoliyat tajribasini shakllantirishni ta'minlashga yordam beradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalar dars beradigan o'qituvchilar qanchalik yuqori malakaga ega bo'lmasin, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan asosiy ishni o'zi bajarishi kerak. Talabalarning o'zini o'zi tashkil etish darajasining ularning akademik ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi o'qishning boshida ahamiyatli emas, lekin ikkinchi semestrda boshlab keyingi semestrlarda sezilarli darajada oshadi. Bu o'qishning dastlabki oylarida talabalar faqat universitetda o'qishning o'ziga xos xususiyatlariga moslashishlari va maktabda rivojlangan o'quv amaliyotini takrorlab, inertsia bilan o'qishlari bilan izohlanadi. Keyinchalik o'quv faoliyatini mustaqil tashkil etish tajribasi ko'p jihatdan talabaning akademik ko'rsatkichlarini belgilaydi [5]. Nazariya va amaliyotni tahlil qilish, ta'limni rivojlantirishda talabalarning mustaqil ta'limi ikki darajada tashkil etilishi kerak degan xulosaga kelishimizga imkon beradi: a) o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan; b) talaba tomonidan mustaqil ravishda tashkil etilgan.

Talabalarning mustaqil ta'limining ikkinchi darajasini ilg'or deb atash mumkin, chunki u birinchi darajani o'zlashtirgandan so'ng mumkin bo'ladi. O'qituvchi tomonidan tashkil etilgan talabalarning mustaqil ta'limini batafsil ko'rib chiqamiz. Bunday mustaqil ta'lim individual topshiriqlarni bajarish va ularni talabalar tomonidan o'qituvchi rahbarligida, uslubiy va tashkiliy jihatdan mustaqil bajarishdan iborat bo'lib, u davlat standartlari talabalariga muvofiq talabalar uchun belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Mustaqil ta'limning ushbu asosiy turlariga quyidagilar kiradi: semestr topshirig'i, referat tayyorlash, uslubiy ko'rsatmalar va darsliklar bilan ishlash [6].

Semestr topshirig'i – bu umumiy mavzu bilan birlashtirilgan yoki o'quv harakatlarining ketma-ketligini o'z ichiga olgan bitta murakkab ishini tashkil etadigan nazariy va grafik vazifalar to'plami. Semestr topshirig'i talabalarga semestr boshida va har bir chegara nazorati uchun beriladi va ularning bajarilishini majburiy tekshirish amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu vazifalar mustaqil o'rganish uchun taqdim etilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni o'z ichiga oladi, ularning namunasi har doim ham sodir bo'lmasa ham, darslik yoki uslubiy ko'rsatmalarda taqdim etilishi kerak. O'qituvchi semestr davomida talabalar tomonidan semestr topshirig'ini muvaffaqiyatli bajarish uchun maslahatlar tashkil qiladi. Semestr oxirida semestr topshirig'ini himoya qilish bo'yicha yakuniy nazorat darsi o'tkaziladi. Semestr topshirig'ining maqsadi: talabalar tomonidan individual vazifalarning turlarini hal qilish uchun mustaqil shaxsiy faoliyat tajribasini o'zlashtirish; o'rganilgan mavzular bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash. Shu bilan birga, faoliyat natijalarini loyihalashda tajriba to'planishi mumkin [7]. Matematik bilimlarning yuqori normativligini hisobga olgan holda, semestr topshiriqlarini bajarishda talabalarga matematik ma'lumotlarni idrok etish va ko'paytirish uchun indikativ asos shaklida tavsiyalar berish tavsiya etiladi [8].

Referat (lat. referre – hisobot berish, ma'ruza yozish). Talabalar referatlari ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda o'rganilgan asosiy masalalarni to'ldirish va ishlab chiqish uchun ishlatiladi. Talabalar uchun kasbiy qiziqish uyg'otadigan, shuningdek, yangilik elementiga ega bo'lgan, eng muhimi, aniq izohga ega bo'lmagan va vazifani hal qilishda o'zgaruvchanlikka imkon beradigan mavzularga ustuvor ahamiyat berilishi kerak. Shunday qilib, talabalarning o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan vazifani mustaqil ravishda bajarishga motivatsion tayyorligi mavjud. Referatlar mavzusi o'qituvchi tomonidan taklif etiladi, ammo talabalar ham o'z mavzularini ilgari surish huquqiga ega. Pedagogika fani bo'yicha referat bajarishda hal qilinadigan vazifalarga quyidagilar kiradi: talabalarning adabiy manbalar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish; berilgan mavzu bo'yicha asosiy elementlarni barcha adabiy ma'lumotlardan mustaqil ravishda ajratish tajribasini egallash, o'rganilayotgan materialni to'liq tarkibda, ammo qisqa shaklda taqdim etish [9]. Talaba referat yozishi va kerakli ma'lumotlarni topishga qiziqishi uchun o'qituvchi talabalarni qidiruv faoliyatiga yo'naltiradigan bir qator savollarni tayyorlashi kerak. Savollar qiziqishni, talabalarning o'rganilayotgan muammoni turli jihatlarida tushunish istagini uyg'otishi kerak. Talabalarni o'rganilayotgan matematik hodisani bilish jarayonini ochib berishdan iborat bo'lgan abstraktni tayyorlash ma'nosiga yo'naltirish kerak. Shuning uchun abstraktda muammoni ilmiy bilimlarda ko'rib chiqish tarixi, uni hal qilish bosqichlari, bunday qarorning uslubiy va nazariy asoslari va oqibatlarini bo'lishi kerak. Talabaga axborot qidirish manbalarini ko'rsatish kerak (internet, kutubxona, o'qituvchining maslahati, muammoni do'stlar bilan muhokama qilish). O'quv jarayonida o'qituvchi va talabaning birgalikda yaratilishi, ularning o'zaro aloqasi ta'limni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida talabalarning individual mustaqil faoliyati tajribasini egallashga yordam beradi.

O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ta'limining murakkab turi zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalarni o'rganishdir. O'quv va uslubiy qo'llanmalar nafaqat axborot, balki boshqarish va tashkiliy-nazorat kabi funktsiyalarni ham amalga oshiradi. Darslikning nazorat funktsiyasi o'rganilayotgan materialning asosiy bo'limlarini matnli taqsimlash, shaffof strukturologik sxemalar yordamida o'quv materiallarining o'zaro bog'liqligini aniqlash, xulosalarni umumlashtirishdir. Biroq talabalar har doim ham ta'limni rivojlantirish

uchun ushbu imkoniyatlardan xabardor emaslar, shuning uchun o'qituvchi har doim ham aniq taqdim etilmagan ta'lim ma'lumotlariga e'tiborini qaratishi kerak [10]. Darsliklarni to'ldiradigan va o'qitishning rahbarlik va boshqaruvchilik funksiyalarini amalga oshiradigan uslubiy qo'llanmalar talabalarning mustaqil ta'limi samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu qo'llanmalar o'z mazmunida matematik tahlilni qanday ketma-ketlikda o'rganish kerakligini ko'rsatadi, shu bilan birga ba'zi mavzular va bo'limga, ayniqsa, mustaqil o'rganish uchun taqdim etilgan mavzularni o'rganishda yuzaga keladigan asosiy xususiyatlar va qiyinchiliklarga e'tibor qaratiladi, darslikda mavjud bo'lgan eng muhim va zarur materiallarni ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Shuningdek, ular odatda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan va talabalarni xatolarga olib keladigan matematik tahlil savollariga tushuntirishlar berishadi. Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan darslikning tashkiliy va nazorat funksiyalari talabalarning individual mustaqil faoliyat tajribasini rivojlantirishga hissa qo'shadigan faol ta'lim shakllariga o'tishga imkon beradi [11]. Shunday qilib, o'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ta'limining rivojlanayotgan imkoniyatlari ularga ta'lim subyekti bo'lish imkonini beradi. Talabani faol kognitiv jarayonga qo'shilishi uning mustaqil aqliy faoliyat usullarini shakllantirish bilan birga keladi. Talabalarning tashabbuskorligi va faolligi rivojlanadi, tarixiy retrospektida ilmiy bilimlarni rivojlantirish jarayoni haqida tushunchahosil bo'ladi. Talabalarning mustaqil ishlash tajribasini egallash jarayonida malaka, mas'uliyat, kasbiy o'sishga tayyorlik va mehnat bozorida raqobatbardoshlik rivojlanadi.

Xulosa. Mustaqil ta'lim – bu talaba zarur bilim, ko'nikma va malakalarni oladigan, tizimli ishlashni o'rganadigan, o'ziga xos aqliy faoliyat uslubini shakllantiradigan ta'lim shakli. Mustaqil ta'lim ta'limning boshqa shakllaridan farq qiladi, chunki talaba o'zining o'quv faoliyatini tashkil qiladi. Mustaqil ta'lim faoliyati ularning xususiyatlari va kognitiv imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak, deb hisoblaymiz. Talabalarning mustaqilligini rivojlantirish uchun ularning mustaqil ta'lim faoliyatiga tayyorlik darajasini aniqlash kerak; iloji bo'lsa, ushbu darajani oshirish va shunga mos ravishda talabalarning shaxsiy xususiyatlarini, tayyorgarlik darajasini va zarur motivatsiyani hisobga olgan holda mustaqil ta'limni tashkil etish kerak.

Adabiyotlar:

1. Муслимова А.Ф. Самостоятельная работа как условие творческого развития студентов // СПО. - 2001. - № 4. - С. 433.
2. Qo'ysinov O.A. Mustaqil ta'lim olish jarayonida talabalarning ijodiy tafakkurlarini shakllantirish // Ta'lim jarayonida mustaqil tafakkur rivojlanishi: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - T.: TDPU, 2005. - B. 98-99.
3. Kredit-modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. - T., 2020.
4. Keldiyorova M. Mustaqil ta'limni samarali tashkil qilish talabalar mustaqil fikrlashini rivojlantirish omili sifatida // Zamonaviy ta'lim. - T., 2022. - 4 (113)-son.

O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMMADANIY TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Ergasheva Saida Avazovna, O'zDSMI katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Milliy va umummadaniy tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon, o'quv materiallarini tanlash haqida tavsiyalar keltirilgan. Bugungi kunda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy tarbiya sohasidagi faoliyati o'ta mas'uliyatli xarakterga ega va, birinchi navbatda, o'quvchilar o'rtasida ommaviy madaniyatga nisbatan obyektiv munosabatni shakllantirishni talab qiladi.

Tayanch so'zlar: o'quvchi, milliy va umummadaniy tayanch kompetensiya, pedagogik jarayon, o'quv materiali, milliy qadriyatlar, axloqiy munosabatlar, ijtimoiy muhit, madaniy dunyoqarash, san'at.

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕКУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ

Эргашева Саида Авазовна, старший преподаватель ГИИКУз, PhD

Аннотация. Представлен педагогический процесс, направленный на формирование национальных и общекультурных базовых компетенций, даны рекомендации по подбору учебных материалов. Сегодня деятельность педагога в сфере духовно-нравственного воспитания чрезвычайно ответственна и, в первую очередь, требует формирования у учащихся объективного отношения к массовой культуре.

Ключевые слова: ученик, национальная и межкультурная базовая компетенция, педагогический процесс, учебный материал, национальные ценности, моральные отношения, социальная среда, культурное мировоззрение, искусство.

WAYS OF FORMING PUPILS' NATIONAL AND GENERAL BASED COMPETENCES

Ergasheva Saida Avazovna, senior teacher of SIACUz, PhD

Abstract. Pedagogical process aimed at the formation of national and general cultural basic competences, recommendations on the selection of educational materials are presented. Today, the activity of a teacher in the field of spiritual and moral education is extremely responsible and, first of all, requires the formation of an objective attitude towards popular culture among pupils.

Key words: pupil, national and intercultural basic competence, membership, pedagogical process, teaching material, national values, moral relations, social environment, cultural worldview, art.

Kirish. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatning asosini milliy tarbiyaviy idealni shakllantirish tashkil etadi. Bu ta'limning asosiy maqsadini ifodalaydi. Inson haqidagi yuksak ahloqiy tasavvurlar milliy hayotning asosiy subyekti sifatida o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi va rivojlantirish yo'nalishlarini belgilaydi. O'zbek xalqi turmush tarzining asosini oilaviy munosabatlar, ta'lim-tarbiya va davlatning fuqarolari ko'rsatadigan g'amxo'rliqi tashkil etadi.

Asosiy qism. Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish g'oyasidan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi belgilanadi. Davlat va jamiyat oldida turgan muhim

vazifalardan biri kompetentlilik, yuksak ma'naviyatlilik, o'z xalqining tarixi va madaniyatini yaxshi biladigan, uni o'z faoliyatiga singdirgan ijodkor, tashabbuskor shaxsni shakllantirishdan iborat. Bunday vazifani xal qilish o'ta murakkab, zamonaviy talablar asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayonni taqozo qiladi. O'quvchilarda sog'lom ma'naviy, madaniy dunyoqarashning shakllanishida ajdodlarning ko'p asrlik tajribasi, pedagoglarning faoliyati, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, oilaviy an'analar, ta'lim mazmuni, shaxslararo ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy muhit, global axborot oqimlari, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'at ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'quvchilar bilan ishlaydigan pedagoglar ularda sog'lom ma'naviy madaniy dunyoqarashning shakllanishiga asos yaratadilar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli Qarorida yoshlarning ijtimoiylashuvi uchun zarur bo'lgan asosiy kompetentsiyalar belgilab berilgan. Mazkur tayanch kompetentsiyalar: kommunikativ kompetentsiya, axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetentsiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi, milliy va umummadaniy kompetentsiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasidan iborat bo'lib, ulardan ayniqsa: o'zini o'zi rivojlantirish tayanch kompetentsiyasi, milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiya o'quvchilardan ham o'qituvchilardan ham umummadaniyat ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi. Axborotlashgan jamiyat davrida har bir o'quvchi o'zining ongli hayotining ilk davrlaridan boshlab kerakli axborotlarni mustaqil ravishda izlash, san'at va madaniyat kanallari orqali ko'rgan, o'qigan va eshitganlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishni o'rganishi kerak, san'at va madaniyatga oid matnlarni tanqidiy tahlil qilish va baholay olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozimdir.

Hozirgi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda internet iste'molchilari soni tobora ortib bormoqda. So'nggi yillar mobaynida internet global tamoqqa aylanib ulgurdi. Buning natijasida dunyoda nafaqat axborotlashgan jamiyat yuzaga keldi, balki jahon hamjamiyatida globallashuv jarayonlari tezlashib ketdi. Agar axborotlashgan dunyo tarixiga murojaat qilsak, u bugungi darajaga yetgunga qadar katta evolyutsion davmi bosib o'tganligining guvohi bo'lamiz. Bugungi kundagi o'qituvchining pedagogik mahorati kundalik hayotda yuqori darajada axborotlashgan va texnokratlashgan jamiyatda voyaga yetayotgan o'smirlar bilan mashaqqatli muloqotlar sinoviga duch kelmoqda. Hozirgi vaqtda milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiyani egallaganlik shaxsning muhim sifatlaridan biridir, uni shakllantirish esa, umumiy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayrim tadqiqotlarda milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiyalarni egallaganlikni san'at va madaniyat savodxonligining sinonimi (ma'nodoshi) sifatida qaraladi.

Pedagogika entsiklopediyasida «Milliylik – muayyan xalqqa, millatga xos bo'lgan, uni boshqalardan farqini ko'rsatuvchi xususiyatlar majmui" tarzida talqin qilingan bo'lib, milliylikda millatning tarixi, qadriyatlari, an'analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo'ladi. Milliylikni bilish va anglash uchun millatlar o'rtasidagi farq va tafovutlarni o'rganish bilan birgalikda, ularni yaqinlashtiruvchi jihatlarga jiddiy e'tibor berish zarur. Chunki boshqa millatlarning yutuq va ijobiy tajribasini o'rganish, ularni o'zlashtirish milliylikni boyitadi va rivojlantiradi. Milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiyalarni egallash har bir o'quvchidan san'at va madaniyatga oid maxsulotlar, axborotlar bilan ishlashda ijodiy yondashuvni, muloqot qilish ko'nikmasi, tanqidiy fikrlash, axborotlar orqali uzatilayotgan asosiy maqsadlar va yashirin g'oyalarni aniqlash, san'at va madaniyat mahsulotlarni tanqidiy tahlil qilish va baholash, axborotlarni filtrlash kabi ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni talab qilmoqda. Bugungi kunda

o'qituvchining ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid faoliyati o'ta mas'uliyatli bo'lib, birinchi navbatda, o'quvchilarda ommaviy madaniyatga qarshi obyektiv nuqtai nazarni shakllantirishni talab qiladi. Shu ma'noda o'qituvchi san'at va madaniyat axli bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi, bu sohadagi yangiliklarni o'zlashtirgan bo'lishi, vujudga kelgan vaziyatlarni har tomonlama chuqur tahlil qila olishi lozim. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi oldiga qo'yiladigan vazifalar nihoyatda murakkab. O'qituvchi ma'lum ma'noda aktyor bo'lishi kerak, lekin pedagog tomonidan amalga oshirilayotgan improvizatsiya jarayonida xatolarga yo'l qo'yish mumkin emas. Hozirgi vaqtga kelib, san'at, madaniyat, fan-texnika, iqtisodiyot kabi turli sohalarida jadal o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun xam o'quvchi-yoshlarni yangi xaqiqatlarni qabul qilishga o'rgatish pedagogning muhim vazifasi hiyaoblanadi. Buning uchun o'quvchilarda yangi voqe'lklarga oid bilimlar va ulardan foydalanish kompetentsiyasini shakllantirish lozim. Ta'lim oldiga qo'yilayotgan yangi talablar sirasiga: o'quvchini bilim olishga o'rgatish, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish va ulardan xayotiy vaziyatlarda foydalanish kompetentsiyasini hosil qilish. Ma'lumki, hayotning barcha sohalarida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun har bir shaxs o'z-o'zini takomillashtirishi kerak. Shundagina bunday shaxslar oldinga intilib, ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar va ma'naviy jihatdan yuksaladilar. Buning uchun esa, har bir shaxs muntazam tarzda yangi bilimlarni o'zlashtirishi zarur. Bu o'rinda o'qituvchining tutgan o'rni beqiyos. Chunki u o'z layoqatlarini namoyon qilgan holda ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondasha olishi lozim. Buning uchun o'qituvchi ta'lim muassasasida o'zaro muvofiq keladigan muhitni yarata olishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni yuksak darajada ma'naviy-axloqiy printsiplarga tayangan holda tarbiyalash ikki yoqlama xarakterga ega bo'lgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Bir tomondan, o'qituvchi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish, ularda milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish uchun o'zining barcha imkoniyatlarini safarbar qilishi, ikkinchi tomondan, o'z kasbiga sodiq mutaxassis sifatida mustaqil bilim olishga intilishi, o'quvchilari, hamkasblarini ham shunga undashi kerak. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarni mujassamlashtirgan ijtimoiy muhit ta'limni unga muvofiq keladigan hodisa sifatida qabul qila olishi lozim. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilar jamoasi ta'limni qadriyat sifatida qabul qilishi, yuksak darajada rivojlangan jamoa esa ta'lim jarayonining maxsuli ekanligini tushunib yetishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga nisbatan obyektiv nuqtai nazarni shakllantirish uchun yuksak axloq me'yorlarini ajdodlarimiz merosi vositasida singdira olishi davlat va jamiyatning ta'lim oldiga qo'yayotgan asosiy vazifasi hisoblanadi. Milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiyasi o'quvchilarda san'at va madaniyatga oid savodxonlikni shakllantirib, milliy, ma'naviy estetik va intellektual jihatdan ularning nutqini, muloqot qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmog'i yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan olinayotgan turli xil ko'rinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli suyetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq bo'lganligi sababli, o'quvchilarda milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiyalarni tarkib toptirish, uning kelajakda ta'lim sohasida rivojlanishi imkoniyatlarini yanada orttirib yuboradi. Albatta, ta'lim jarayonida o'quvchilarda milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiyalarni tarkib toptirishning zaruriyati bekorga kun tartibiga qo'yilayotgani yo'q. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustda qabul qilingan «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida ta'kidlanishicha, ta'lim jarayonida ma'naviy-mafkuraviy sohalarida qator kamchiliklar

kuzatilmogda: birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissasini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti; ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murossasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas; uchinchidan, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport sektsiyalarining yetishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'quvchilarda milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiyalarni uzviylik asosida shakllantirishda o'quv materialida muayyan xususiyatlar mavjudligiga e'tibor qaratiladi. Jumladan, o'quvchilarda milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiyalarni shakllantirishda o'quv materialining o'quvchi shaxsini milliy an'analar asosida ijodiy ishlashga unday olishi kerak. O'quvchini fikrlashga undamaydigan, faqat oldi-qochdi voqealar majmuidan iborat roman, hikoya, qissa yoki kinofilm va teleseriallar bunga misol bo'la oladi, ayni fikr yengil-elpi qo'shiq va musiqalarga ham tegishli. Ular o'quvchida yuksak hissiyotlar (Vatan tuyg'usi, hamdardlik, mehr-muruvvat, sahovat va insof tuyg'usini) uyg'otmaydi, aksincha yengil-elpi hayot tarziga mayl uyg'otadi. O'quvchilarda milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv materiallarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvor o'rin tutishi kerak. Unda yurtparvarlik, xalqparvarlik, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, oqillik kabi fazilatlarning targ'ib etilishi, aksincha, dangasalik, do'stga, ota-onaga, Vatanga xiyonat, kamtarinlik, fikrsizlik kabilar qoralanishi zarur.

Xulosa. O'quvchilarda milliy va umummadaniy tayanch kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv materiallari insonparvarlik, mehr-muruvvat, hayo, imon, vijdon, ozodalik, poklik, oqillik, sabr-chidam, matonat, mehribonlik, oriyat, lafz, saxiylik, muloyimlik kabilarni tarbiyalashga qaratilishi; ibrat olsa arzigulik kishilar, mutafakkirlar, ularning go'zal fazilatlari Vatan ozodligi va taraqqiyoti yo'lida kurashgan mard va jasur insonlar, yuksak aql sohiblari siymosining ulug'lanishi; allomalarning ta'lim-tarbiya, Vatan va xalqqa xizmat qilish, go'zal insoniy xislat va fazilatlarga oid fikrlarining aks etishi talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - T., 2017. - 14-son. - 230-modda.
2. Pedagogika. Entsiklopediya. II jild / Tuzuvchilar: Jamoa. - T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. - 368 b.
3. Safarova R.G., Djuraev R.X. va boshq. Pedagoglarning o'quvchi-yoshlarda «ommaviy madaniyat»ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirish sohasidagi kompetentsiyalarini rivojlantirish vositalari: Metodik qo'llanma. - T.: Tafakkur qanoti, 2020. - 160 b.
4. 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: <http://uza.uz>

TA'LIM TEXNOLOGIYASINI YANGILASH – ZAMON TALABI

Abdullaeva Saodat Mengbayevna, TerMTI assistenti

Annotatsiya. Ushbu mavzuda quyidagi muammolar va ularning hal etish metodikasi va amaliyotga joriy etish va uning samaradorligi to'la yoritib berilgan. Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida fanlarni o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish metodikasini joriy etish, iqtidorli o'quvchilarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Shu bois ushbu maqolada o'quvchilarni o'quv va hayotiy faoliyatida axborotlardan foydalanish hamda axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini shakllantirishdan iborat. Axborotlashgan jamiyatda olgan bilimlarini hayotiy faoliyatlari davomida qo'llay olish darajasi jamiyat rivojini belgilaydi.

Tayanch so'zlar: *axborot, axborot texnologiyalari, imitatsiya, integratsiya, kompetentsiya, kompetentlik, elektron jurnal, modellashtrish, ma'lumotlar bazasi, intellektual.*

ОБНОВЛЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ – ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Абдуллаева Саодат Менгбаевна, ассистент ТерИТИ

Аннотация. В данной теме полностью освещены следующие проблемы и методы их решения, реализация и ее эффективность. Сегодня повышению качества преподавания предметов в системе народного образования, внедрению современных методов обучения в учебный процесс, широкому использованию информационных технологий в процессе обучения одаренных учащихся уделяется особое внимание. Поэтому в данной статье основное внимание уделяется использованию информации в учебной и жизненной деятельности учащихся и формированию компетентности по работе с информацией. Уровень применения знаний, полученных в информированном обществе, в процессе их жизнедеятельности определяет развитие общества.

Ключевые слова: *информация, информационные технологии, имитация, интеграция, компетенция, компетентность, электронный журнал, моделирование, база данных, интеллектуальное.*

UPDATE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGY IS A REQUIREMENT OF THE TIME

Abdullaeva Saodat Mengbaevna, assistant of TerIET

Abstract. In this topic, the following problems and their solution methods and implementation and its effectiveness are fully covered. Today, improving the quality of teaching subjects in the public education system, the introduction of modern teaching methods in the educational process, the widespread use of information technology in the process of teaching gifted students. Therefore, this article focuses on the use of information in the educational and life activities of students and the formation of competence to work with information. The level of application of the knowledge acquired in an informed society during their life activities determines the development of the society.

Key words: *information, information technology, imitation, integration, competence, competence, electronic journal, modeling, database, intellectual.*

Kirish. Mamlakatimizda fan, ta'lim, ishlab chiqarish sohalarida olib borilayotgan islohotlar natijasida ta'lim tizimida barcha fanlarning o'quv-me'yoriy hujjatlari, moddiy-texnik bazasi yangilanmoqda, o'quvchilarda yangi innovatsion intilish paydo bo'lmoqda.

Asosiy qism. O'qitishning tayanch kompetentsiyaviy texnologiyalariga asoslangan metodlarini tatbiq etish natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari ortib, iqtisodiyotning real sektoriga malakali, raqobatbardosh kadrlar etib tarbiyalashga erishilmoqda. Bizning maqsadimiz – ta'lim tizimida axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish asosida

o'quvchilarning axborot texnologiyasidan foydalanish va amalda qo'llay olishining metodik asoslarini rivojlantirish [1]. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan. Jahonda masofaviy o'qitish ochiq ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida keng quloqch bo'ymoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhiti, o'zida axborot obyektlarini, ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek, axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtirgan bo'ladi. Hozirgi kunda ta'lim tizimi insoniyatning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. Ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyati va sifatiga e'tibor qilgan holda differensiyalangan bo'lishi kerak. Yaqin o'tmishda jahonning ko'p mamlakatlarida hukmron bo'lgan o'rtacha o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim tizimi bugungi kunda nafaqat o'quvchini, balki jamiyatni ham qoniqtirmayapti. Har qanday ta'lim tizimi ma'lum bir ijtimoiy, ilmiy-texnik, iqtisodiy, madaniy va nihoyat, siyosiy muhitda shakllanadi hamda rivojlanadi. Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi, chunki maktab, oliy ta'lim muassasi insonni iqtisodiyot, madaniyat, siyosiy hayotda faol faoliyat ko'rsatish uchun tayyorlaydi. Shuning uchun ham maktab va oliy ta'lim muassasasi ta'limning tayanch bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [5].


O'qituvchi va o'quvchilarning fikrlashi, qabul qilish faoliyatida yangi g'oyalar, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish ma'lum bir davrni talab etadi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, birinchi navbatda, ta'limning paradigmasini o'zgartiradi. Agar avvallari ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, hozirda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o'qishga, o'rgatishga yo'naltirilgan. Shu sababdan ta'limning o'qituvchi-darslik-o'quvchi birlashuvi zarurdir. Pedagog yangi statusga ega bo'ladi, endi uning vazifasi o'quvchilarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etish, bilimlarni mustaqil egallash va ularni amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iborat bo'ladi. O'qituvchi bunday maqsadlarda o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, u o'quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, mustaqil egallash, o'zlarida shaxsiy nuqtai nazarining shakllanishi, uni asoslashi va avvalgi egallangan bilimlardan yangilarini olishda foydalanish imkoniyatini yaratish kerak. Bunday o'qitishni rivojlantiruvchi ham deyish mumkin [2].

Bilimlarni o'zlashtirish fikrlashni rivojlantiruvchi muhim omil hisoblansa-da, bilimlarni har qanday o'zlashtirish yoki egallash o'quvchining fikrlashiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Buning uchun bilimlarni, faoliyat shakllarini faollashtirish lozim. Egallangan bilimlarni oddiy qaytarish o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishda yetarli bo'lmaydi. Faol bilish, mustaqil fikrlash faoliyati juda zarurdir. Bilimlarni mustaqil egallash faoliyati va olingan bilimlarni qo'llash jarayoni yangi bilimlarni shakllanishiga, o'quvchining samarali fikrlash manbaiga aylanadi. Shu sababdan mamlakatimizda va jahonning rivojlangan davlatlarida ta'lim sohasini isloh qilish jarayonida pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi zarur axborotlarni mustaqil izlab topish, muammoni qo'ya bilish, uning yechimini hal etish, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil eta olish va bu bilimlarni yangi masalalarni yechishda qo'llash uchun yo'naltirilgan. Endilikda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zaruriyligi barchaga ayon bo'lmoqda. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatini inobatga oluvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o'quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o'qitishdir. O'quv mashg'ulotlarining o'quvchilarni kundalik fanlar majmuasi va ular bo'yicha berilgan

topshiriqlar majmuasi bilan hisoblashishga to'g'ri keladigan qilib tashkil etilishi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, o'quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi ortishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashuvini, fanlararo aloqalarning chuqurlashuvini kuzatish mumkin.

Didaktika nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadigan, axborot texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikka erishiladigan metodik maqsadlarga: o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash; teskari aloqa bilan o'quv faoliyati nazoratini olib borish; o'z-o'zini nazorat qilish; o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish; o'quv vaqtini tejash; o'quv axborotlarni kompyuter orqali vizuallashtirish; o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish; kompyuterda laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish; axborot ma'lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish; o'qishga qiziqishni orttirish; o'quvchini o'quv materialini o'zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish; fikrlashni rivojlantirish; optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish; o'quvchida axborot madaniyatini shakllantirish kabilarni kiritish mumkin [4].

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari muhitining shakllanishi fan sohasidagi axborotlashtirishga, o'quv faoliyatini intellektuallashtirishga, ta'lim tizimi infrastrukturasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi. Axborotlarning o'zlashtirilishi uni tegishli fan sohasidagi qo'llay olishi, muammolarni hal qilishi, vaziyatlarni baholay olishi, kerakli farazlarni ilgari surishlarida ta'lim oluvchilardan ijodkorlikni talab qiladi [3]. Ijodkorlik muhiti: ijodiy yondashuvga sharoit yaratuvchi doimiy muhit va bu muhitni yaratishga xizmat qiluvchi turli omillar; «portlash» effektini hosil qiladigan vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi ta'sirlar (stimul). Bunday muhit o'quvchilarga uzatilayotgan axborotlarni tahlil qilish va ularga ijodiy yondashishga sharoit yaratadi. Ushbu bosqichda amalga oshiriladigan ishlar mazmunidan kelib chiqib quyidagicha mashq va topshiriqlardan foydalanildi: 1. Ilmiy maqola uncha katta bo'lmagan 16 sahifali kitobchada chop etildi. Agar kitobchaning har bir sahifasida 512 ta belgi joylashgan bo'lsa, ilmiy maqolaning axborot hajmini hisoblang. 2. Rasmi diagrammadan foydalanib dunyodagi osmono'par binolar balandligini toping: a) Dubaydagi «Burj Xalifa» binosi Chikagodagi binodan necha m baland? b) Jiddada qurilgan bino Kuala-Lumpurdagi «Egizak minoralar»dan taxminan necha marta baland?



Xulosa. Zamonaviy axborot texnologiyalari mikro va makro dunyodagi, murakkab qurilmalar va biologik tizimlardagi hodisa va jarayonlarni kompyuter grafikasi va modellashtirishidan foydalanish asosida o'rgatish juda katta yoki juda kichik tezlikda sodir bo'ladigan fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni qulay vaqt o'lchamida taqdim etish kabi yangi didaktik masalalarni yechishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Ruziqulova N.Sh. Uzluksiz ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini shakllantirish jarayonini uzviy tashkil etish // Uzluksiz ta'lim. - T., 2018. - 4-son. - B. 56-60.
2. Sultonova O'.N. O'quvchilarning izlanish va tadqiqotchilikka yo'llash metodi // Innovatsiya-2016: Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya ilmiy maqolalar to'plami. - T.: TDTU, 2016. - B. 108-109.
3. Sultonova O'.N. O'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish yuqori samaradorlik garovidir. - T.: O'zPFITI, 2016. - B. 139-142.
4. Siddiqov Z.X. Matematik modellashtirishning nazariyasi va amaliyoti: Monografiya. - T.: Navro'z, 2017.
5. Hamdamov R., Begimqulov U., Tayloqov N. Ta'limda axborot texnologiyalari: Oliy ta'lim muassasalari uchun. - T.: O'zME, 2010. - 120 b.
6. Informatika va axborot texnologiyalari: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. - T.: Nashriyot uyi tasvir, 2020.

MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARIDA MENEJERLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI METODOLOGIK MASALALARI

Axmadjonova Malika Farxodovna, TDPU magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab amaliyotchi psixologlarining menejerlik kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy tushunchalari mazmun-mohiyati, menejerlik kompetensiyasining o'ziga xosliklari ochib berilgan. Ta'lim muassasasi sharoitida amaliyotchi psixologlar faoliyatining ahamiyati e'tirof etilgan. Shuningdek, maqolada maktab amaliyotchi psixologlarining menejerlik kompetensiyasining mualliflik ta'rifi keltirilgan.

Tayanch so'zlar: *amaliyotchi psixolog, menejment, kompetensiya, kompetentlik, menejerlik kompetensiyasi.*

НЕКОТОРЫЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖЕРСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У ПРАКТИКУЮЩИХ ШКОЛЬНЫХ ПСИХОЛОГОВ

Ахмаджанова Малика Фарходовна, магистрант ТГПУ

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность основных концепций развития менеджерской компетенции практикующих школьных психологов, особенности менеджерской компетенции. Признана важность деятельности практикующих психологов в условиях образовательного учреждения. Кроме того, в статье представлено авторское определение менеджерской компетенции практикующих школьных психологов.

Ключевые слова: *практикующий психолог, менеджмент, компетентность, компетенция, менеджерской компетенции.*

SOME METHODOLOGICAL ISSUE OF THE DEVELOPMENT OF MANAGERIAL COMPETENCE AMONG PRACTICING SCHOOL PSYCHOLOGIST

Akhmadjonova Malika Farxodovna, master degree of TDPU

Annotation. This article reveals the essence of the main concepts of the development of managerial competence of practicing school psychologists, the features of managerial competence. The importance of the activity of practicing psychologists in the conditions of an educational institution is recognized. The article also presents the author's definition of the managerial competence of practicing school psychologists.

Key words: *practicing psychologist, management, competence, competence, managerial competence.*

Kirish. Jahonda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini izchil rivojlantirish orqali ijtimoiy iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga erishish maqsadi ko'zlanmoqda, bunga ko'ra ta'lim tizimida kasbiy kompetentlikka ega, yuqori salohiyatli kadrlarni tayyorlashga juda katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, strategik yo'nalishda malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarni kreativ fikrlashga, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini shakllantirish hamda ularning ehtiyojlari asosida individuallashtirishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda 2020-yil 23-sentyabrdagi

qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu Qonunning maqsadi – ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, bunda ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakaga ega bo'lishi, shuningdek, ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli rejalarni ishlab chiqish talab etilmoqda. Respublikamizda psixolog kadrlarning malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ularning kasbiy malakasini oshirishning zamonaviy shakllarini hamda ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat natijalarini inobatga oladigan tabaqalashtirilgan va muqobil uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga keng joriy etish masalalari ilgari surilmoqda. Psixolog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarining o'quv jarayoniga o'qitishning zamonaviy shakl, metod, vosita va texnologiyalari (jumladan, masofaviy ta'lim, vebinar texnologiyalari, avtomatlashgan monitoring, elektron portfolio kabi axborot tizimlari) joriy etildi. Shu bilan birga, malaka oshirish tizimiga zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda, psixolog kadrlarning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirib, uzluksiz elektron tashxislash tizimni joriy etish talab etmoqda. Shu sababdan hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchilarning menejerlik kompetensiyasini shakllantirishda pedagogik-psixologik metodlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Ta'limda amaliy psixologiya amaliyotga yo'naltirilgan psixologiyaning eng rivojlangan shakllaridan biridir. Shu bilan birga, ta'limda amaliy psixologiya tufayli ta'lim nazariyasi va amaliyoti o'rtasidagi munosabatlarda tub o'zgarishlar yuz berdi – ta'limni rivojlantirish amaliyoti shaxsiyatni rivojlantirishning psixologik asoslangan dasturlarini ishlab chiqish uchun boshlang'ich nuqtaga aylandi [6; 18-b.]. Shu bilan birga, ta'limda amaliy psixologiya ishonchli nazariy va psixologik poydevorga qurilishi kerak. Rivojlanayotgan ta'limda psixologiya ta'lim jarayonlarida insonning asosiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asosi sifatida uning shunday asosiga aylanishi mumkin. Ta'lim sohasi uchun amaliy psixologlarni tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish muammosi dolzarbdir. Bu borada bir qator olimlar tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Psixologning kasbiy malakasi zamonaviy psixologiya kasbining voqeiliklarini tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Bizning vazifalarimiz psixologning kasbiy faoliyatining turli xil vazifalari va funktsiyalarini o'rganishni va tegishli kasbiy vakolatlarni taqsimlashni o'z ichiga olmaydi. «Amaliyotchi psixologning menejerlik kompetensiyasi» fenomenini tushunishga yondashuvlarni aniqlash muhimdir.

Ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni va mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini o'rganish muammosi A.G.Bermusa, O.K.Bityutskix, V.A.Bolotova, A.A.Verbitskiy, E.F.Zeera, I.A.Zimney, N.V.Kuzmina, B.C.Ledneva, A.K.Markova, S.A.Marueva, L.M.Mitina, M.V.Rijakova, T.M.Sorokina, A.I.Subetto, Yu.V.Frolova, A.V.Xutorskiy, V.D.Shadrikova va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan. Ushbu tadqiqotlar kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayoni va uning alohida tarkibiy qismlari haqidagi tushunchalarni sezilarli darajada boyitdi. Ko'pgina tadqiqotchilarning ishlari shu masalani o'rganishga qaratilgan, jumladan, ta'lim muassasasi xodimlari kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari O'zbekistonlik olimlardan B.S.Abdullaeva, A.A.Abdudodirov, G.Abduraimova, Sh.Abduraimov, B.R.Adizov, N.N.Azixodjaeva, S.Bazarova, U.Sh.Begimqulov, R.H.Djuraev, R.G.Isyanov, Sh.Q.Mardonov, A.Maxmudov, D.Mamatov, N.A.Muslimov, O.Musurmonova, U.N.Nishonaliev, S.Nishonova, N.Ortiqov, M.Ochilov, B.X.Rahimov, O'.Q.Tolipov, O.To'raqulov, U.To'raqulov, D.Sharipova, Sh.S.Sharipov, A.A.Xalikov, N.G'.Egamberdieva, M.Qodirovlarning tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Psixolog talabalarni kasbiy tayyorlash muammolari ko'plab psixologik-pedagogik tadqiqotlarda muhokama qilinadi. Shaxsiy o'zini o'zi belgilash, kasbiy o'zini o'zi anglash, kasb tanlash motivlari, psixolog talabalarning rivojlanish dinamikasi rivojlanishi masalalari T.M.Belokrilova, DYu.Grishchenko, A.I.Dontsov, L.D.Kolesnikova, E.P.Korablina, E.A.Leneva, V.A.Fokin, T.I.Chirkova va boshqalarning ishlarida o'rganilgan. Kompetentlikka yo'nalgan ta'limning turli aspektlari V.I.Baydenko, V.V.Basheva, G.E.Belitskaya, G.B.Golub, P.S.Gurevich, L.M.Dolgova, V.A.Kalney, Y.Ya.Kogan, K.V.Kuzmina, B.F.Lomov, T.Ordji, L.A.Petrovskaya, A.A.Pinskiy, J.Stark, J.Stretch, I.D.Frumin, C.Xiton, E.S.Shishkova, B.D.Elkonin va boshqalarning ishlarida o'rganilgan.

Nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Dastlab ko'pgina holatda sinonim so'zlar sifatida qo'llaniladigan «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir [9; 41-b.]. N.M.Muslimovning fikricha, inglizcha «competence» tushunchasining lug'aviy ma'nosi «qobiliyat» demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi [5; 130-b.]. N.V.Tarasova «kompetensiya» tushunchasini «muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o'rtasida aloqadorlikni ta'minlash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat» sifatida talqin etadi [7; 36-b.]. Pedagogik adabiyotlarda hozirgi kungacha kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini talqin qilishda ba'zi bir nomuvofiqliklarni uchratish mumkin. Asosiy tushunchalarni konkretlashtirish uchun ma'lumotnoma va pedagogik adabiyotlarga murojaat qilaylik. D.I.Ushakov tomonidan tahrir qilingan «Izohli lug'at»da bu tushunchalar bir-biridan farq qiladi. «Kompetentlik» – bu xabardorlik bo'lsa, «kompetensiya» esa, ma'lum bir shaxs bilim, tajribaga ega bo'lgan qator masalalar doirasi tushuniladi [8]. Chet el so'zlari lug'atida «kompetentli» tushunchasi ma'lum bir sohada malakaga ega bo'lish, bilish kabi talqin etiladi. Katta entsiklopedik lug'atga ko'ra, kompetensiyalar kompetentlikning tarkibiga kiradi [1].

Demak, entsiklopedik lug'atlarga ko'ra, kompetentlik insonga, kompetensiya esa, funktsiya, harakatga xos xususiyatdir. Shu nuqtai nazardan xulosa qilishimiz mumkinki, kompetentlik, shu jumladan, kasbiy kompetentlik ma'lum kompetensiyalar jamlanmasining shakllanganligiga bog'liq shaxsiy xususiyat sifatida rivojlanadi va shakllanadi. Menejerlik kompetensiyasi tushunchasini aniqlashtirish uchun, dastlab «menejment» tushunchasiga aniqlik kiritishimiz lozim. Ushbu atama O'zbekistonda faol qo'llanila boshlangani unchalik ko'p muddat bo'lmadi. Hozirgi vaqtda «menejment» va «boshqaruv» tushunchalarini qo'llash bo'yicha aniq fikr mavjud emas (bular sinonimlar va turli tushunchalar). Shu bilan birga, «boshqaruv» har qanday faoliyat sohasiga (avtomobilni boshqarish, kompaniya, ishlab chiqarish jarayoni va hokazo) nisbatan qo'llanilishi va menejment faqat ijtimoiy sohada amalga oshirilishi mumkinligi ta'kidlanadi. Taqdim etilgan misollar doirasida menejment deganda menejering shaxsiy fazilatlarini (aql-idrok, mehnat, xulq-atvor motivlari, uning malakasi) va qobiliyatlaridan foydalanish orqali rejalashtirish, nazorat qilish, motivatsiya, muvofiqlashtirish vositasida maqsadlarga erishish yo'lida samarali faoliyatni tashkil etish jarayoni deb tushunamiz.

Xulosa. Shunday qilib, menejer – bu tajribaga ega, boshqarish, tashkil etish, o'ziga xos xususiyatlarga, innovatsiya usullarini izlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsdir va B.Liverhood so'zlariga ishora qilib [3; 114-b.], biz menejerni «tashkilot odami» deb aytishimiz mumkin, uning muvaffaqiyati bevosita menejering tashkilotning muvaffaqiyatiga qo'shgan hissasiga bog'liq. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, maktab amaliyotchi psixologining menejerlik kompetensiyasi deganda, biz mutaxassisning olgan bilimlari va o'zlashtirilgan kasbiy faoliyat usullari asosida kasbiy muammolarni yuqori samarali hal qilish qobiliyati va tayyorligini belgilaydigan shaxsning integratsion, dinamik sifatini tushunamiz.

Adabiyotlar:

1. Большой энциклопедический словарь: энциклопедия / Ред. А.М.Прохоров. - 2-изд., перераб. и доп. - М.: Большая Российская Энциклопедия; СПб.: Норинт, 1997. - 1456 с.
2. Каргин Н.Н. Системная методология: механизм формирования образа специалиста в системе образования (на примере индустрии туризма) // Журнал прикладной психологии. - М., 2007. - № 7.
3. Ливерхуд Б. Человек в сообществе. - Калуга, 1992. - 126 с.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалликда барпо этамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фанл. д-ри ... Дис. - Т.: ЎМКХТ-ТКМОҚТИ, 2007.
6. Слободчиков В.И. Антропологическая перспектива отечественного образования. - Екатеринбург, 2009.
7. Тарасова Н.В. Мировой опыт реализации компетентностного подхода в профессиональном образовании // Среднее профессиональное образование. - М., 2007. - № 2. - С. 36-61.
8. Толковый словарь русского языка / Под ред. Д.Н. Ушакова. - М., 1935-1940.
9. Загвязинский В.И., Закирова А.Ф. Педагогический словарь. - М.: Академия, 2008.

ДВИЖЕНИЕ ХУДЖУМ В СРЕДНЕЙ АЗИИ

Саидова Сабина Айбековна, студентка ТГПУ

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность проводимой советским правительством политики освобождения узбекских женщин, т.е. мер применяемых для широкого распространения идей большевизма. Политика освобождения женщин, которая известна нам под названием «Движение Худжум», нанесла сильный удар по национальным и религиозным традициям и духовным ценностям.

Ключевые слова: советская власть, движение Худжум, узбекские женщины, эмансипация, социализм, паранджи, компания Худжум.

O'RTA OSIYODA XUJUM HARAKATI

Saidova Sabina Aibekovna, TDPU talabasi

Annotatsiya. Bu maqolada sovet hukumatining o'zbek ayollari ozodligi yo'lida olib borayotgan siyosatining mazmun-mohiyati, ya'ni bolshevizm g'oyalarini keng yoyish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar. Biz «Xujum harakati» deb bilgan xotin-qizlarning ozodlik siyosati milliy-diniy an'analarga, ma'naviy qadriyatlarga kuchli zarba berdi.

Tayanch so'zlar: sovet hokimiyati, Xujum harakati, o'zbek ayollari, ozodlik, sotsializm, parda, Xujum kompaniyasi.

KHUJUM MOVEMENT IN CENTRAL ASIA

Saidova Sabina Aibekovna, student of TSPU

Abstract. This article reveals the essence of the Soviet government's policy of liberating Uzbek women, i.e. measures used to widely disseminate the ideas of Bolshevism. The policy of women's liberation, which is known to us as the Hujum Movement, has dealt a strong blow to national and religious traditions and spiritual values.

Key words: Soviet power, Khudjum movement, Uzbek women, emancipation, socialism, burqa, Khudjum company.

Введение. Революции во все времена приводили народы и государства к переломным моментам для их истории и культуры. Так, в результате Октябрьской Революции 1917 года положение дел в странах Средней Азии начало меняться. Эти изменения кардинально поменяли положение женщин.

Основная часть. Октябрьская революция 1917 года привела к смене не просто политического строя, но социального порядка, практик повседневности людей. Советский период ознаменовался «радикальным» переосмыслением детства, что было во многом связано с проектом освобождения женщин. В начальный период становления советской власти произошли значительные изменения в системе образования, охране материнства и детства, развитии детских учреждений и организаций. Был осуществлен своего рода политический и социальный эксперимент по созданию так называемого нового образца женщины в Центральной Азии. С середины 20-х годов прошлого века в партийных документах появляется кампания по изменению положения женщин Востока – «Худжум», что с арабского переводится как «наступление». С началом кампании началась политика, которая требовала переосмысление роли женщин в обществе. При «Худжум» создавались спе-

циальные женотделы, которые обучали женщин уходу за детьми и основам гигиены, консультировали их по правовым вопросам, проводились женские и детские медицинские консультации. Кампания поощряла женщин к полному раскрепощению, к 1929 году движение «Худжум» стало массовым, движение сметало многие заградительные укрепления и валы на своем пути.

Кампания Худжум преследовала следующие цели: выведение женщины в публичное пространство; привлечение к общественно-политической работе; привлечение к производственному труду; освобождение от части обязанностей по уходу и заботе о доме, семье и детях. Что касается «Женщин Востока» они определялись как наиболее угнетенная категория в сравнении с европейской частью СССР. Основой этого гнета определялась специфика локального контекста: «В этом отношении женщины Средней Азии и Казахстана были угнетены в большей степени, чем женщины Центральной России, ибо к классовому и семейно-бытовому гнету здесь присовокуплялся национальный гнет. Женщина была на положении домашнего обихода, вещи, частной собственности мужчины. Как вещь, ее покупали и продавали за калым (выкуп)». Все имущественные и наследственные права в семье находились в руках мужа. Имущество умершего главы семейства, не имевшего наследников мужского пола, поступало в пользу ближайших родственников.

Глобализационные процессы повсеместно актуализируют вопросы равных прав и возможностей мужчин и женщин. Вопрос о положении женщин на сегодняшний день является сложным. Подобные тенденции приобрели особую значимость и в нашей республике. В свою очередь, до сих пор в сознании многих людей существует слишком стереотипное представление о положении женщины в исламском обществе. В основном, положение женщины в исламе оценивается как приниженное, ущемляющее естественные права человека. В некоторых странах Центральной Азии и по сей день прослеживаются традиции патриархата, следуя которым, женщина должна сохранять покорность. Во многом восточные традиции берут начало из религиозных источников. Без сомнений, ислам оказывает значительное влияние на общественную и личную жизнь женщины, проявляясь в ее различных сферах, определяя моральные и духовные ценности и устанавливая строгие нормы. Несмотря на то, что религия занимает важное место в регулировании общественных отношений стран Центральной Азии, принципы равноправия закреплены в Конституции и законах Республики Узбекистан. Важно и учесть и то, что международное сообщество фиксирует систематическое нарушение и непризнание проблемы гендерного неравенства властями стран. Такое неравенство выражено не только в правовой защите, но и в доступности образования, и в осуществлении профессиональной деятельности. Женская проблема выдвинута на одно из центральных мест и в системе общественных, в том числе исторических наук. В частности, настойчивой потребностью времени выступает необходимость современного концептуального переосмысления опыта решения культурных аспектов женского вопроса в Узбекистане предшествующих десятилетий, особенно, периода 20-30-х годов. Сегодня в Республике Узбекистан существует широкая сеть женских организаций, комитетов, фондов и ассоциаций. От их активности во многом зависит совершенствование государственной концепции улучшения положения женщины в нашем демократическом обществе

Вывод. Многие меры, принятые в советский период, оказали радикальное влияние на положение женщины в обществе в Республике Узбекистан. Именно в

ранний период советской власти женщины получили такие права, как право на образование, труд, владение имуществом и т.п., были сформированы основы систем охраны материнства и детства. Кроме того, советский гендерный порядок в свете особенностей положения женщины в нем характеризовался, с одной стороны, декларированным равенством, при котором каждый человек, независимо от пола, становился гражданином, а, с другой стороны, гендерная идеология воспроизводила биологический детерминизм, который наделял женственность «специфическими» естественными, физическими и психологическими свойствами, а женщин – статусом особых граждан. Подобный гендерный порядок может быть обозначен как конвенциональный в связи с тем, что наблюдались сохранение одних традиций (ценности материнства, разделения обязанностей внутри семьи) и разрушение других (экономической зависимости женщины от мужа). Соответственно, концепция решения женского вопроса в условиях советского социализма исходит из того, что женщина выполняет в обществе три основные социальные функции: гражданки, труженицы, матери. В свою очередь, необходимо отметить, что мы являемся свидетелями того, что проведение движения Худжум, эмансипация узбекских женщин, упадок мужского господства на протяжении веков, резкое изменение в религиозном и традиционном обычае вызвали отрицательные стороны. В качестве примера в этом случае можем увидеть резкие противоречия в семейных отношениях и жестокие убийства девушек-женщин. Однако, с другой стороны, в результате движения Худжум женщины были освобождены от чадры, обеспечены правами, открылась возможность для получения образования и профессии. Девушки-женщины получили особое место в своей семье и обществе. Такое положение хотя и привело к расширению мировоззрения и модернизации женщин, но в то же время стало толчком становлению женщин основной рабочей силой общества.

Литература:

1. Щурко Т. Худжум: женская эмансипация в период ранних советских «экспериментов» в Советской Киргизии (1918-1930 годы): цивилизаторская политика СССР: Работа с «угнетёнными» // Гефтер. - М., 2015. - 29 мая.
2. Хан О.В. Раскрепощение женщины Востока в 1920 годы: идеология, практика и кинематограф // Вестник антропологии. - М., 2021. - № 4. - С. 215-229.
3. Татыбекова Ж.С. Великий Октябрь и женщины Киргизстана. - Фрунзе: Кыргызстан, 1975. - С. 12-13.
4. Татыбекова Ж.С. Великий Октябрь и женщины Киргизстана. - 172 с.; Каракеева С. Становление социалистических отношений в семье и быте киргизов // Утверждение социалистических отношений в Киргизии и коммунистическое воспитание молодежи. - Фрунзе: Илим, 1978. - С. 148-156; Любимова С. Как живут и работают женщины Средней Азии // Библиотечка работницы и крестьянки. - М.-Л.: Государственное издательство, 1925. - № 1. - 30 с.; Нухарт А. Октябрь и женщина Востока // Библиотечка работницы и крестьянки. - М.-Л.: Государственное издательство, 1927. - 92 с.
5. Роткирх А., Темкина А. Советские гендерные контракты и их трансформации в современной России // Российский гендерный порядок: социологический подход: Коллективная монография / Под ред. Е.Здравомысловой, А.Темкиной. - СПб.: Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2007. - С. 169-201.

GUMANITAR VA IJTIMOY FANLAR TA'LIMI

NAVOIYNING IJODIYOTIDA FARXOD VA SHIRIN OBRAZLARINING
GENDER TALQINI*Saribayeva Umida Sattarovna, TDPU dotsenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning «Farxod va Shirin» dostonidagi obrazlarni adolat va tenglik tamoyillariga tayangan holda yaratilganligining gender talqini, qahramonlar xatti-harakatlari va tuyg'ularini namoyon bo'lishida erkaklik va ayollik sifatlari, gender tenglik muammolari, o'sha davr ijtimoiy hayotida gender farqlarning shakllanishi haqida ma'lumotlar berildi.

Tayanch so'zlar: «Farxod va Shirin» Nizomiy va Amir Xisrav Dehlaviy, podshoh Xisrav obrazi, adolat va tenglik tamoyillari, gender tenglik, muammo, ishq, muhabbat, yaxshilik, yovuzlik, xo'rlik, zo'ravonlik, taxqirlash, gender tafovutlar.

ГЕНДЕРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗОВ ФАРХОДА И ШИРИН
В ТВОРЧЕСТВЕ НАВОИ*Сарибаева Умида Саттаровна, доцент ТГПУ*

Аннотация. В данной статье представлена информация о гендерной интерпретации эпоса Алишера Навои «Фарход и Ширин», основанной на принципах справедливости и равенства, качеств мужественности и женственности в поступках и чувствах персонажей, проблемах гендерного равенства, формирования гендерных различий в общественной жизни того времени.

Ключевые слова: «Фарход и Ширин» Низами и Амир Хисрав Дехлеви, персонаж король Хисрав, принципы справедливости и равенства, гендерное равенство, проблема, ревность, любовь, добро, зло, унижение, насилие, унижение, гендерные различия.

GENDER INTERPRETATION OF THE IMAGES OF FARKHOD AND WIDTH
IN NAVOI'S WORK*Saribaeva Umida Sattarovna, associate professor of TSPU*

Abstract. This article provides information on the gender interpretation of Alisher Navoi's epic «Farkhod and Shirin», based on the principles of justice and equality, the qualities of masculinity and femininity in the actions and feelings of the characters, the problems of gender equality, the formation of gender differences in the public life of that time.

Key words: «Farkhod and Shirin» Nizami and Amir Khisrav Dehlavi, character king Khisrav, principles of justice and equality, gender equality, problem, love, love, good, evil, humiliation, violence, humiliation, gender differences.

Kirish. Navoiy yaratgan «Farxod va Shirin» dostoni durdona va o'lmas asarlardan biri sanaladi. Nizomiy va Dehlaviylarning yozgan asarlariga tanqidiy yondoshgan holda, adolat va tenglik tamoyillariga tayangan holda yangidan baholay oldi va Navoiy o'z xalqining Nizomiy darajasidagi zo'r urush arsloni bo'lib tanildi, Nizomiy va Dehlaviyda bosh qahramon bo'lgan podsho Xisrav o'rniga faqir Farxodning timsolida adolatpesha, tenglikni tarannum etuvchi, erkparvar, vafodorlik obrazini gavdalantirdi. Xisrav, Nizomiy

va Dehlaviyda ijobiy obraz sifatida yaratilgan, Navoiy uni manfiy obraz sifatida asosli tarzda tasvirlay oldi. Navoiy, zulmkor, tahqirlash, azoblash orqali maqsadiga erishishga intiluvchi, beqaror, vafosiz, ishq yo'lida vafo va sadoqat o'rniga hukmdorlik, hiylanayrang, yolg'onchilik, zo'rvonlikdan foydalanadigan, adolatni yerga uradigan, chinakam odamgarchilikdan mahrum bo'lgan insonlarning hulq-atvorini Xisrav obrazi orqali ochib bergan.

Asosiy qism. Alisher Navoiy ikki buyuk shoir Nizomiy va Dehlaviyning «Xisrav va Shirin» dostonining she'riy san'atini yaratilishidagi xizmatlarining ko'p bo'lishiga qaramasdan, bu asarni ma'nan jiddiy ravishda qaytadan ishlab chiqdi. U o'z asarining nomini «Xisrav va Shirin» emas, balki «Farhod va Shirin» deb qo'yadi. Zolim, inson erkini toptovchi hukmdor Xisrav obrazi butun mohiyati bilan adolat, tenglik va erkparvarlikka qarshi qo'yiladi.

Nizomiy va Amir Xisrav Dehlaviyning asarlarida Xisrav obrazi podishox sifatida tarannum etiladi. Buyuk shoir o'zigacha bo'lgan badiiy merosni chuqur va har taraflama o'rgangan, zarur bo'lgan o'zgarishlarni kirgizish bilan uni tamom yangi fikriy va badiiy yuksaklikka ko'tara olgan. Alisher Navoiy o'zining o'lmas dostonida ikki dunyo – yomonlik va yaxshilik dunyosi, zulm va adolat dunyosi, jaf va vafo dunyosini yoritgan. Bu ikki dunyo bir jihatdan Farhod, Shirin, Shopur va Mahin Bonu obrazida, ikkinchi jihatdan Xisrav, uning o'g'li Shiruya va makkor va hiylakor sheriklari obrazida berilgan. Navoiyning dostonida Farhod obrazi o'quvchining ko'z o'ngida adolatli, tenglik munosabatlarini yoqlovchi, qahramon, eng avvalo, ulug' bir inson va ulug' bir ijodkor mehnatkash sifatida gaudalanadi:

Ko'ngul aylab sen ul shohlik bila keng,

Mening oldimda ul tuproq bilan teng.

Farhod kishilikning eng oddiy a'zolari qatorida turadi va o'zi bilan teng bo'lgan odamga, hur va erkin fikrli, to'g'ri insofli va vafodor odamga, u qaysi eldan, qaysi urug' va qaysi millatdan bo'lmasin, bir umrlik muhabbat bog'lashini, erkak va ayol o'rtasidagi do'stlik, uning taqdiriga o'z taqdirini yo'ldosh qilishni istagan, bir-birlari uchun o'lish va tirilishga tayyor insoniy tuyg'ularni tasvirlaydi. Yorning qayg'usini o'z shaxsiy qayg'usi deb qaray olgan, bir-birlarining boshiga kelgan ofatni o'z boshlariga yog'ilgan balo tariqasida qabul qila oladigan yuksak ma'naviyatli shaxsni obrazini ochib beradi. Shaxsning mukammal obrazi bo'lgan Farhod mana shu tenglik, adolat va odamlar erkini yoqlagani sababli doimo har qanday kulfat va g'urbat ichida ham, harqanday balo va ofat ichida ham o'ziga yo'ldosh topa olganligi ko'rsatiladi. Odam o'ziga mos bo'lgan odamni topishi, haqiqiy insoniy o'zaro tenglik munosabatida bo'lgan kishilar, o'z safdoshlari uchun jon berishdan bosh tortmasligi tarannum etilgan. Bunday holatda odamlar o'rtasida zo'r bir ma'naviy birlik yuzaga keladi, vafo va sadoqat yuzaga keladi. Fikrlardagi do'stlik, hamkorlik va taqdiridagi yo'ldoshlik yuzaga keladi. Odamga bo'lgan muhabbat va hurmat, odam hurriyatiga bo'lgan tuganmas sevgi, odamning erki va osoyishtaligiga bo'lgan g'amxo'rlik Farhod uchun bir umr ajralmas do'stlarni yuzaga keltiradilar. O'zbek Farhodga eronli Shopur, arman Shirinni va Mahin Bonuni doimiy do'st va yo'ldosh qilgan asos mana shu ma'naviy birlik, tenglik munosabatlaridir! Shuningdek, «Farhod va Shirin» dostonida yoritilishicha, Mahin Bonu bilan Shirin Farhodning mehnatini ko'rgani keladilar va shunda birinchi martaba Farhod quyoshining o'ti Shirinning tutashguchi yuragiga tushib uni yondiradi, deyilgan. Ikki yurakda teng barovar otashin sevgi paydo bo'ladi tarannum etilgan:

*Ko'rib Shirinni hayrat lol qildi,
Taajjub bir yo'li behol kildi.
Ko'rungach ko'zga mundoq chehri oning,
Ichiga soldi sho'rish mehri oning.*

Mo'jizalar yaratuvchi Farhodni ko'rgan Mahin Bonu va Shirin uning ishiga ofarinlar o'qib, boshidan javohirlar sochadilar. Bu o'rinda erkak kishining xalqining tinchligi, farovonligi yo'lidagi mardonavorligi, mehnatkashligi, fidoiyligini, sevgilisi oldidagi sadoqati, unga bo'lgan hurmat-ehtiromi ayollar tomonidan madh etilishi, qadrlanishi ochib berilgan. Shuningdek, Farhod va Shirin o'rtasidagi alangali ishq juda real insoniy munosabatlar asosida yuzaga kelaishi, bu ishq, Farhod va Shirindagi eng oliy xislatlar, kishilikka, inson hurriyatiga muhabbat bilan mahkam bog'langan. Farhod bilan Shirin o'rtasidagi bu ishq odamning kamol topishiga, uning ma'naviy jihatdan pokiza bo'lib ko'tarilishiga xizmat qiladi. Shirinni sevgan Farhod uning jannatdan ham go'zal Vatani, xalqini, uning tuprog'ini ham sevadi. Uning xalqining tinch va osoyishta tirikchiligi uchun kurashadi. Uning yurtini bosib kelayotgan dushmanga qarshi chiqadi va ko'krak kerib, o'z o'limini bo'yniga olib, uni qo'riqlaydi. Shirin Vatani va uning xalqining qiynalgan kunlari, Farhod uchun eng azobli daqiqalar bo'lib seziladi. Shuning uchun xalq boshiga kelayotgan baloga qarshi eng avval uning o'zi ko'krak tutadi va uni qaytarishta harakat qiladi.

Navoiy tasvirida Farhodning shaxsiy taqdiri butun Vatan va xalq taqdiri bilan ajralmas bog'langan, shu xalq osoyishta turmush kechirgan va Vatanda tinchlik hukm surgan bir vaqtdagina Farhodning sevgisi va uning xususiy taqdiri omon topar edi. Farhod obrazining eng muhim mohiyatlaridan biri shudir. Farhod bilan Shirin o'rtasidagi yuzaga kelgan abadiy do'stlikning asosi, bu ikki do'stning taxminan bir fikr va bir ma'naviy saviyada bo'lishida, insoniy xususiyatlarga teng ega bo'lishlarida, vafo va sadoqatda teng bo'lishlarida, jasorat va mardlikda babbarovar bo'lishlarida, teng otashin qalbga ega bo'lishlarida, o'z Vatani va xalqini bab-barovar yaxshi ko'rishlaridadir. Agar Shirin Farhoddan ma'nan zarracha kam bo'lsa edi, ikki o'rtada hechqanday tenglik, mutanosiblik yuzaga kelmas va bunday bir umrlik, umrboqiy do'stlik dostoni ham to'qilmagan bo'lar edi.

Farhodagi eng muhim erkaklik xislatlarini Shiringa ham tamoman xosligi, Shirin o'zini to'la ma'nodagi inson deb anglay olishidadir. Eng og'ir daqiqalarda Shirin androgen sifatleri, jasurligi, jongovarligi, qo'rqqasligi, dadilligi bilan Farhodning dardiga malham bo'lib, qayg'usini yengillata olganligidadir. Agarda Shirindagi mardlik va sadoqat Farhod bilan teng bo'lmaganda edi, Farhod ham o'z sevgisida bunchalik baland ko'tarilmagan bo'lar edi. Farhod hayotini ma'nan to'ldirgan jihatlar bu har ikkisining androgen sifatlarini shakllanganligi va bu o'rinda uni namoyon eta olganligidadir. Bu hol Shirinning Farhodga yozgan xatida juda ochiq ko'rinadi. Navoiy dostonining eng go'zal o'rinlaridan biri bo'lgan bu maktub Shirinni haqiqiy va pok inson sifatida gavdalandiradi. Shirinning qalbi eng avval Farhodga nisbatan eng nafis va eng nozik bir mehribonlik, jonkuyarlik bilan to'ladir:

*Ne bo'lgay erdi charxi zulm pesha,
Meni sendin judo qilmay hamisha,
Xiroming chog'i yo'ldosh bo'lsam erdi.
Sukuning vaqti qo'ldosh bo'lsam erdi.
Quyosh yanglig' bo'lib kunduz qarinning,
Bo'lib tun soya yanglig' xamnishining,
Tikon kirska kafinga qiynasidin,
Chiqarsam erdi kirpik iqiasidin.*

*... Ko'rub xoru xas o'ringda nihoni,
Sochim birla supursam erdi oni.*

Bu satrlar bilan Shirin Farhodga katta tasalli beradi, uning yuragiga quvvat kirgizadi. Farhod to'g'risida sevgisining madhiyasidan iborat bo'lgan bu maktubda Shirin uni sabrga, toqatga, chidamli bo'lishga chaqirardi.

*Vale bo'lmish jahon ahliga ma'lum,
Ki il'kingda qotiq xoro erug' mum.
Chekarga dardu anduh jur'ating bor,
Balo tortarg'a sabru toqating bor.
Agarcha firqatimdin notavonsen,
Vale ham ersenu ham pahlavonsen.*

O'z xalqining va Vatanining ahvoli to'g'risida va uning zolim Xisrav qo'lida talon-toroj bo'lib yotganidan so'zlovchi bu maktubda Shirindagi feminlik sifatleri – qizlik nomusi, undagi iffat, bokiralik, hayo va odob ham yorqin ifoda qilingan. Ulug' inson bo'lgan Farhodning javob xatida esa, eng mukammal inson timsolini topgan. Shirin Farhodni mukammal bir odam sifatida sevadi, bu odam qarshisida o'z burchini to'la anglaydi va ado qiladi. U, Xisravdan kelgan elchiga bergan javobida shunday deydi:

*Menga ne yoru ne oshiq havasdur,
Agar men odam o'lsam ushbu basdur.*

Shirinning bu so'zidan biz uning butun o'zbek ayollarining ma'naviy hayotini anglaymiz, u shu so'zlar bilan o'ziga zo'r bir salobat tug'diradi va uni jahon adabiyotidagi eng go'zal va eng mukammal ishlangan obrazlar qatoriga qo'yadi. Shirin va Farhod kishilik jamiyatida insonlar o'rtasidagi erk, tenglik, adolatlilik kabi eng yaxshi xislatlarni tarannum etgan va meros sifatida qoldirgan betakror obrazlarni eslatib turadi. Navoiy asarida Farhod Xisrav tomonidan makrli yo'llar bilan o'ldiriladi, so'ng Mahin Bonu noiloj Xisravga taslim bo'ladi. Shiruya o'z otasi Xisravni o'ldiradi va Shirinni o'zi olmoqqa urinadi, lekin vafodor Shirin sahroda o'lgan Farhodning suyaklarini topdirib ko'mdiradi va o'zi ham uning jasadi yonida jon beradi. Bu qayg'udan Mahin Bonu ham o'lishi tasvirlangan. Farhod, Shirin kabi mazmundor odamlar qarshisida Navoiy Xisravlarning ma'nau puch va o'lik hayotini tasvirlagan. Farhod obrazida ishq kishi yuksakligining muhim bir xislati tariqasida yoritiladi. Zohirda Shiringa oshiq bo'lib ko'ringan Xisrav esa, zulmkor, zo'ravonlik bilan maqsadga intiluvchi haqiqatda, ikki oyoqli bir mahluq tariqasida gavdalanadi. Farhod va Xisrav ikkovi o'rtasida o'tgan mashhur tortishuvda Farhodni Shiringa bo'lgan muhabbatida ayol kishini ardoqlashi, qadrlashi, uni nozik xilqat sifatida asrab-avaylashi tarannum etiladi, ikki jins o'rtasidagi adolatlilik, tenglik tushunchalari qadrlanadi, tarannum etiladi. Xisrav Shiringa yetishish uchun ayolni taxqirlashi, istaklarini inobatga olinmasligi, tuyg'ulariga bepisand qarashini tubanlik ma'nosida baholaydi va uning ma'naviy dunyosi tor, yalang'och, insonni ko'z o'ngida shoh kiyimini kiyib taxtga chiqqan ikki oyoqli maxluq sifatida ta'riflanadi. Farhod shohlar ahlining chin sevgi hislaridan mahrum ekanliklarini, odamgarchilikda, sevgida shoh bilan faqir, xo'ja bilan gadoning teng ekanini aytadi. Bu olijanob fikrlar yashin chaqqan kabi Xisravning ichki dunyosini titratishi, Xisrav, odamzod gulistoniga tushgan bir hasharot sifatida tasvirlanadi. Xisrav shuncha zolimki, uning dastidan Farhod o'ladi, Mahin Bonu o'ladi, Arman o'lkasi xarob bo'ladi. Navoiy tomonidan yaratilgan Xisrav obrazi kishilikning eng ashaddiy dushmanlarini, odamzodning eng yaxshi farzandlarini yo'qotish, ijodiy fikrlarining eng ulkan namunalarni o'tga yoqish, tinch va osoyishta turmush kechiruvchi xalqlarning Vatanini to'pga tutish, bombardimonlar qilish bilan o'z hokimiyatini

mustahkamlashni istovchi qonxo'rlar timsolini yaratadi. Navoiy Farhod obrazida teng va ikki tomonning barobar ishqini yoqlovchi tenglik munosabatlar tarafdori sifatida gavdalaniradi. Uning tushunchasicha bunday sevgi xalqqagina xos. Xisrav buni anglashdan butunlay o'jiz. U bunday haqiqiy ishqning borligini yolg'iz xalqdan eshitibgina bilgan. Ishq so'zini xalqdan eshitib bilgan Xisrav chin sevguchi yurakka ega bo'lgan Farhodga raqib bo'lib, Shiringa, uni hatto ko'rmasdan turib oshiq bo'ladi:

*Eshitib xalqdin ishqini so'zini,
Anga shohi raqib etgay o'zini.
Birovga ko'rmay o'zin oshiq etkay,
Bu oshiqlikda o'zin sodiq etkay.*

Shirinning sevgisiga, ya'ni teng sevgiga loyiq bo'lmagan shoh Xisrav uning Vatanga qo'shin tortib keladi. Odamlarini o'ldirib, o'lkasini vayron etadi. Shirin ham butun vujudi bilan Xisravni yomon ko'radi, uni zolim, qonxo'r deb ataydi. Navoiy Shirinning Farhodga yozgan xatini keltirib yozadi:

*Bo'lub ko'b zikr maktub ichra Parvez,
Ani deb gohi zolim, gohi xunrez,
Yetib Armanni vayron qilg'anini,
Ulusqa g'orati jon qilg'anini...
...Agar oshiq budur ma'dum xushroq,
Visol iqbolidin mahrum xushroq.
Haq andii asrasunkim bo'yla oshiq,
O'zin ko'rgay murod avjida foiq.*

Shirin Xisravga xotin bo'lishni, uning shoh degan zo'r ovozasiga qaramasdan, o'ziga chidab bo'lmay katta bir xo'rlik deb tushunadi. Uning bilan tiz cho'kib ko'rishmoqdan ko'ra o'lmakni o'ziga sharaf deb biladi. Shirinning qahramon obrazini Navoiy bizga uni qo'rg'onda Xisrav qamalidan o'zini kurashib asrash to'g'risidagi onti bilan yana mukammallab beradi:

*Mening jismimda to jondin ramaqdur,
Ishim qo'rg'onda o'zni asramoqdur.*

Farhod va Shirin kurashchan kishilarning obrazi sifatida o'zlaridagi eng muqaddas va olijanob xislatlarni avloddan-avlodga tashiydilar. Farhod bilan Shirin yashagan jamiyatda Xisravlar hokimlik qiladilar. Shuning uchun umr bo'yi baxt axtargan Farhod va erk, xurlik izlagan Shirinlarning taqdiri o'lim bilan yakun topadi.

Xulosa. Asarda Farhod bilan Shirin hali inson erkin bo'lmagan jamiyatda kishi boshiga tushishi mumkin bo'lgan musibatlarining hammasini ko'rganligi, zolimlik, zulmkorlik, xo'rlik, adolatsizlik natijasida xalok bo'lganliklari tasvirlangan. Ulug' shoir o'zining o'lmay obrazlari bilan kishilarga adolat, xurlik, erk va shodlik, vafo, sadoqat, qahramonlik kabi androgen xususiyatlar, shaxsning ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi sifatlar ekanligini tarannum etgan. Farhod bilan Shirin o'rtasidagi tenglikka asoslangan otashin ishq kishini yuksaltiradi va kamolga yetkazadi. Farhod bilan Shirin obrazida sevgi hurligi, inson shaxsining hurligi, jamiyatda insoniyat o'rtasidagi tenglik munosabatlari va xalqlar birodarligi, vatanparvarlik va Vatanni asrash, sadoqat va adolat, vafo va birdamlik, mehnat va ijodkorlikka muhabbat tarannum etilgan bo'lib, o'quvchini o'sha davr ruxini his etishiga va bugungi farovon kunni qadrlashga undaydi.

Adabiyotlar:

1. Алишер навоий: Хамса (1483-85, 496-б.). - Т.: Янги аср авлоди, 2021.

NEMIS TILIDAGI SO‘ZLARDA MA‘NO KO‘CHISHNING STRUKTURAL TAHLILI

Zulxonov Mustafo Jo‘rayevich, TDPU dotsent v.b., f.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tilidagi so‘zlarda ma‘no ko‘chishning struktural tahlili va ma‘no ko‘chishining dolzarb muammolari, ularni hal etish yo‘llari yoritilgan. Tahlil davomida bevosita ishtirokchilarga ajratish metodidan foydalaniladi. Nemis tilidagi so‘zlarda ma‘no ko‘chishning struktural tahlili metafora, metonimiya hamda sinekdoxa hodisalari asosida olib boriladi.

Tayanch so‘zlar: *struktural tahlil, ma‘no ko‘chishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa, ixcham metafora, kenggaytirilgan metafora, yasama metafora, yopiq metafora, o‘tli metaforalar, fe‘lli metaforalar, sifat metaforalar, ravishli metaforalar.*

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕДАЧИ ЗНАЧЕНИЙ В НЕМЕЦКИХ СЛОВАХ

Зулхонов Mustafo Жураевич, к.ф.н., и.о. доцент ТГПУ

Аннотация. В данной статье проводится структурный анализ передачи значения в немецких словах и освещаются современные проблемы передачи значения и пути их решения. При анализе используется метод прямого распределения по участникам. Структурный анализ передачи значения в немецких словах проводится на основе явлений метафоры, метонимии и синекдохи.

Ключевые слова: *структурный анализ, перенос смысла, метафора, метонимия, синекдоха, компактная метафора, расширенная метафора, искусственная метафора/закрытая метафора, метафоры с существительными, метафоры с глаголами, метафоры с прилагательными, метафоры с наречиями.*

STRUCTURAL ANALYSIS OF THE TRANSFER OF MEANING IN GERMAN WORDS

Zulxonov Mustafo Jurayevich, PhD., associate professor of TSPU

Abstract. This article provides a structural analysis of the meaning transfer in German words and highlights modern problems of meaning transfer and ways to solve them. The analysis uses the method of direct distribution by participants. Structural analysis of the transfer of meaning in German words is carried out on the basis of the phenomena of metaphor, metonymy and synecdoche.

Key words: *structural analysis, meaning transfer, metaphor, metonymy, synecdoche, compact metaphor, extended metaphor, artificial metaphor/closed metaphor, metaphors with nouns, metaphors with verbs, metaphors with adjectives, metaphors with adverbs.*

Kirish. Struktural tilshunoslik – tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri; tilga nisbatan ilmiy qarashlar va uni tadqiq etish usullari majmui.

Asosiy qism. Tilni aniq, ajralib turadigan struktur (tarkibiy) elementlar (lisoniy birliklar, ularning turkumlari va boshqalar)ga ega bo‘lgan belgilar tizimi tarzida tushunish va tilni qat‘iy (aniq fanlarga o‘xshatib) formal tavsiflashga intilish mazkur qarashlar va usullar asosini tashkil etadi. Struktura o‘z nomini til strukturasi bo‘lgan alohida e‘tibori tufayli olgan. Til strukturasi (tuzilishi) esa, odatda, lisoniy tizimning muayyan sathlar doirasida iyerarxik (pog‘onali) bog‘lanishda joylashgan va tartibga solingan elementlari o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi [1]. Tilni struktur jihatdan tavsiflash aniq bir matndan umumlashgan invariant (o‘zgarmas)

birliklar (gap qoliplari, morfemalar, fonemalar)ni ajratish va ularni aniq, nutqiy bo'laklar bilan munosabatini qat'iy qo'llanish qoidalari asosida aniqlashga imkon beruvchi tahlilni talab qiladi. Strukturalizm (ingl. structural so'zidan olingan) bo'lib, tilni o'zaro bog'langan va nisbatlangan til birliklaridan iborat butun bir tahlil metodi hisoblanadi. Ushbu metod til va nutq birliklari, ushbu birliklarning o'xshash va noo'xshash jihatlari, joylashish tartibi va boshqa nisbiy aloqalarni aniqlash bilan shug'ullanadi [2]. Struktural tilshunoslik uchun tilning ichki qurilishi, til tarkibini tashkil etuvchi tarkibiy qismlar orasidagi munosabatlar, qarama-qarshiliklar, ya'ni tilning struktural tomonlari tilning asosiy aspekti hisoblanadi. XX asning 30-yillarida Amerika tilshunosligida yuzaga kelgan struktural yo'nalish juda ko'p yangi metodlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Distributiv tahlil, bevosita ishtirokchilarga ajratish va transformatsion tahlil metodlari hozirgi kunda butun jahon tilshunosligida ham keng qo'llanib kelayotgan metodlar hisoblanadi. Yuqorida bayon qilingan fikrlardan kelib chiqib nemis tilidagi so'zlarda ma'no ko'chishning struktural tahliliga o'tamiz. Tahlil davomida bevosita ishtirokchilarga ajratish metodidan foydalaniladi. Nemis tilidagi so'zlarda ma'no ko'chishning struktural tahlili metafora, metonimiya hamda senekdoxa hodisalari asosida olib boriladi. Struktural bo'yicha metaforalar bir-biridan quyidagicha farqlanadi: a) ixcham metafora: qisqacha metafora kontekstda ko'chirilgan ma'noda tushuniladigan so'z bilan ifodalanadi: der Herbst der Mittelalters – O'rta asrlarning kuzi, Franziska – ist Schwarzherin – Franziska – quloq (B.Reyman. Franziska Linkerxand. Bu yerda u taqiqlangan BBC dasturlarini tinglaydi degani). So'zning denotativ ma'nosi g'ayrioddiy kontekstda qayta talqin qilinadi va bu ko'rinish «qarshi qaror» yoki «noto'g'ri kutish» deb nomlanadi. Biroq, bu jarayon muloqotga xalaqit bermaydi, aksincha, vizual va hissiy vakolat uchun xizmat qiladi; Angst flatterte in seinem Gesicht; Uning yuziga qo'rquv qo'ndi; b) kengaytirilgan metafora: kengaytirilgan metafora ko'pincha bir ma'no sohasiga tegishli bo'lgan bir nechta assotsiativ yoki mazmunan bog'langan so'zlar bilan ifodalanadi; c) yasama metafora/ yopiq metafora: kengaytirilgan metafora bu matn kontekstida ishlab chiqilgan murakkab tasvir demakdir.

Frazeologizmlarning morfologik-sintaktik tasnifiga ko'ra tasniflashda asosiy element sifatida namoyon bo'ladigan komponentlarning gap qismi bilan bir xil bo'lishi shart emas. Biroq komponentlarning so'z turkumiga bog'liqligi ma'lum bir muhim rol o'ynaydi, bu frazeologizmning sintaktik tuzilishiga bog'liq. Asosiy elementlarida fe'li bo'lmagan frazeologizm og'zaki frazeologizm vazifasini bajara olmaydi [3, 54-b.]. Biroq, faqat predikativ bo'lmagan frazeoleksemalar (ya'ni, mohiyatan qo'zg'almas predikativ) nominatsiya stereotiplari, kommunikativ formulalar va frazeo-shablonlar ushbu tasnifdan holidir [4, 217-b.]. Rotkegelning tasnifiga ko'ra, komponentlarning nutq qismlarini va morfologik paradigmani hisobga olgan holda biz frazeologizmlarning quyidagi struktural sinflarga ajratamiz: otli (substantivische), sifatlil (adjektivische), ravishli (adverbiale), fe'lli (verbale) [5, 143-b.]. Odatda metaforalar qaysi so'z turkumiga tegishliligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: Otli metaforalar (Nominalmetaphern). Ushbu turda metaforalar otlar bilan ifodalanadi va Ot+Ot (N + N) tuzilishiga ega bo'lishi mumkin. Bunda birinchi ot bosh kelishikda ikkinchi ot esa, qaratqich kelishigida qo'llanadi. Yoki predlogli so'zi qo'shilishi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin: Quelle der Hoffnung – umid manbai; Diese Landschaft ist ein wahrer Traum. – Ushbu manzara bu amalga oshirilgan orzu. Sie ist ein Engel von einer Frau. – U ayollarning farishtasidir. Biene – flei'iger Mensch: Sie ist Biene. – U asalari (tinib tinchimas, tirishqoq inson). Ein Hund – ein schlechter Mensch: Anna ist kein Hund. – Anna yomon odam emas. Wustenschiff – Kamel: Ich reiste mit dem Wustenschiff. – Men cho'l kemasi (tuya) bilan sayohat qildim.

Fe'lli metaforalar (Verbalmetaphern): metaforaning mazkur turida fe'llar asosiy o'rinni egallaydi: Der Himmel weint – osmon yig'layapti, der Schrank seufzt – shkaf xo'rsindi. Internet surfen: Nala und ihr Bruder Jek surfen im Internet in der ganzen Tag. – Nala va uning ukasi Jek internetda kun bo'yi o'tirishdi.

Sifat metaforalari (Adjektivmetaphern): Grau Theorie – eroberte oder untaugliche Theorie: Deutsche Professoren sind so brillant, dass sie die sch'nste Praxis innerhalb eines Semesters in graue Theorie verwandeln k'nnen. – Nemis professorlari shu qadar ajoyibki, ular bir semestr ichida eng chiroyli amaliyotni kulrang nazariyaga aylantirishi mumkin.

Ot so'z turkumidagi metonimiyalar: Zunge – Mundemuskel, eine Sprache oder ein Dialekt: Meine Zunge war fr Sie unverst'ndlich. – Mening tilim siz uchun tushunarsiz bo'lgan. Schwei' – Harte(k'rperliche) Arbeit: Dies kostet viel Schwei' und M'he, doch die Arbeit hat sich gelohnt. – Buning uchun ko'p ter va kuch sarflanadi, shuning uchun natija shunga loyiq bo'ldi.

Senekdoxalar: pro Nase – Nase steht fr Mensch: Fast zehn Pfund Tee werden j'hrlich pro Nase in Irland verbraucht. – Irlandiyada har yili aholi jon boshiga o'n funtga yaqin choy iste'mol qilinadi.

Metafora, metonimiya hamda senekdoxa hodisalari, asosan, ot turkumida keng tarqalgan. Buning ustiga mazkur ko'chimlarga xos belgilar ot so'z turkumlaridagi ma'no ko'chishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning ko'rinishlarini ajratganda ham ko'proq ot turkumida bo'lgan ko'chimlarga e'tibor bergan. Ot turkumidagi metonimiyalar atoqli otlar doirasida salmoqli miqdorda uchraydi. Buning ustiga, u turli sabablarga ko'ra sodir bo'lishi kuzatiladi. Metonimiyaning atoqli otlarda sodir bo'lishi boshqa hosila ma'no beruvchi so'zlar ichida o'ziga hos turda namoyon bo'ladi. Chunki atoqli otlarda hosila ma'noning yuzga kelishi metonimiyadan boshqa ko'rinishlarda kuzatilmaydi. Joy nomlari va ularni ifodalovchi so'zlarda metonimiya sodir bo'lishi kattagina miqdorga ega. Ayniqsa, joy ma'nosini bildirgan so'zlar o'sha joyda ishlab chiqarilgan maxsulotni bildirishi orqali metonimiya sodir bo'lishi til hodisasi sifatida kuzatiladi. Masalan: Kashmir (Kaschmir) so'zi asli Himalay tog'lari yonida joylashgan hudud hisoblanadi. Ammo hozirda ushbu atama nafaqat nemis tilida, balki boshqa ko'plab tillarda ham echki yungidan ishlangan noyob va sifatli mato turini anglatadi. Bunday mato uchun foydalaniladigan echkilar dastlab faqat shu hududda yetishtirilgan. Ushbu metonomik ma'no joy munosabatlariga ko'ra yuzga kelgan. Bundan tashqari, nafaqat joy nomlari bilan, balki har qanday subyekt orqali ham insonlar ifoda etilib, metonimiya kuzatilishi mumkin. Masalan: Das Feld wurde nach dem ersten Tor zum Leben erweckt. – Birinchi goldan so'ng maydon jonlandi. Das Auditorium applauderte lange. – Auditoriya uzoq qarsak chaldi.

Xulosa. Nemis tilidagi so'zlarda ma'no ko'chish turlarini struktural, ya'ni tarkibiy jihatdan tahlil qilish jarayonida shu hodisa kuzatildi-ki, nemis tilidagi ma'no ko'chish turlarida, asosan, otlar faol ishtirok etadi. Fe'l, sifat, hamda ravish so'z turkumlari ot so'z turkumiga nisbatan kamroq uchrashi kuzatildi. Olmosh so'z turkumi ishtirok etgan ma'no ko'chimlariga tahlil davomida duch kelinmadi. Bu bilan olmoshlar nemis tilidagi so'zlarda ma'no ko'chish turlarida mutlaqo uchramaydi degan fikrga kelish o'rinsizdir. Bu esa, tahlil materialining hajmiga bogliq.

Adabiyotlar:

1. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasologiyasi. - T.: Mumtoz so'z, 2010. - 288 b.
2. <https://de.wikipedia.org/wiki/Strukturalismus>
3. Rothkegel A. Feste Syntagmen. Grundlagen, Strukturbeschreibung und automatische Analyse. T'bingen, De Gr'ter, 1973.
4. Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. - М.: Высшая школа, 1970.
5. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. - Leipzig: Niemeyer, 1997.

NEMIS TILIDA AKADEMIK VA TEXNIK MULOQOT

Iliyeva Lola Kamolovna, TKTI dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya. Maqolada kredit-modul tizimi sharoitida nemis tilida akademik va texnik muloqot fanining zarurati, maqsadi, mazmun-mohiyati, xulosa va tavsiyalar bayon etilgan. Mazkur fanning kimyo-texnologiya ta'lim yo'nalishlarida o'qitilishi va talabalarning kommunikativ hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar va ko'rsatmalar ham maqoladan o'rin olgan.

Tayanch so'zlar: kredit-modul tizimi, akademik va texnik muloqot, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalar, mustaqil ta'lim.

**АКАДЕМИЧЕСКОЕ И ТЕХНИЧЕСКОЕ ОБЩЕНИЕ
НА НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ**

Ильева Лола Камоловна, к.п.н., доцент ТХТИ

Аннотация. В статье описаны необходимость, цель, содержание, сущность, выводы и рекомендации науки академического и технического общения на немецком языке в контексте кредитно-модульной системы. В статье также приведены рекомендации и указания по формированию коммуникативных и профессиональных компетенций студентов при преподавании данного предмета в областях химико-технологического образования.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, академическая и техническая коммуникация, коммуникативные и профессиональные компетенции, самостоятельное образование.

**ACADEMIC AND TECHNICAL COMMUNICATION
IN GERMAN LANGUAGE**

Ilieva Lola Kamolovna, associate professor of TChTI, PhD

Abstract. In the article, the necessity, purpose, content, essence, conclusion and recommendations of the science of academic and technical communication in German language are described in the context of the credit-module system. The article also includes recommendations and instructions for the formation of communicative and professional competences of students in the teaching of this subject in the fields of chemical and technological education.

Key words: credit-module system, academic and technical communication, communicative and professional competencies, independent education.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish belgilab berilgan [1]. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son

Qaroriga ko'ra, «Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi Nizom» tasdiqlandi. Mazkur Nizomning 3-bobi 10-bandida Ta'lim dasturi tuzilmasi ta'lim dasturi va uning elementlarini amalga oshirishga mas'ul o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan o'qitish natijalari bilan dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashlari belgilab qo'yildi [2]. Qanday qilib xalqaro darajadagi talabga, jumladan, dasturlarga ega bo'lish, xorijiy tillar sifatini oshirish va raqobatdosh kadrlar yetishtirishga hissa qo'shish muammosi ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Asosiy qism. Kreditlar umumiyevropa ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir o'quv faniga yuklama hajmidan, kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhimligidan kelib chiqib kredit bali belgilanadi. Talaba har bir fanni muvoffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda belgilangan kreditlarni oladi va bu kreditlar yig'indisi unga mos bo'lgan bakalavr yoki magistrlik darajasini olishga imkon beradi [6]. Ma'lumki, kredit-modul tizimida o'quv rejalar o'zgaradi, fanlar soni qisqaradi va mutaxassislik fanlariga e'tibor kuchayadi. Bundan tashqari, o'quv dasturlari shaffof, ochiq, taqqoslanuvchan holga keltiriladi va bu talabalarning akademik mobilligini oshirishga imkoniyat yaratadi. O'zbekiston uchun kredit-modul ta'lim tizimi yangi bo'lib, u bir qancha oliy ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich tadbiq etilmoqda. N.Majidova o'z ilmiy maqolasida O'zbekistonda kredit-modul tizimini tatbiq etish va rivojlantirishda quyidagi tavsiyalarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqligini ta'kidlab o'tgan: davlat organlari, vazirliklar, universitetlar, fakultet, dekanat, professor-o'qituvchilar hamda talabalarning birgalikdagi hamkorligi – yangi tizimga moslashuvchanlikni yanada tezlashtiradi; xorijiy davlatlar ta'lim tizimini joriy etishda, milliy-madaniy xususiyatlarimiz, ta'lim-tarbiyaga doir o'z qarashlarimizni ham inobatga olish zarur bo'ladi; tashkilot xodimlarining amaldagi ta'limda ustuvor bo'lib kelayotgan miqdor ko'rsatkichidan sifat ko'rsatkichiga o'tishini yo'lga qo'yish; professor-o'qituvchilarning «Nimani? Qanday o'qitaman?» deb emas, talaba «Nimani ta'minlashi?» «Qanday o'rganishi kerak?»ligini anglab yetishlarini ta'minlash; talabalarning faqat darsda egallagan BKMlar bilan cheklanib qolmasdan, mustaqil ta'lim olishi va ijodiy izlanishlariga, o'z-o'zini rivojlantirishlariga, kompetensiyalarining shakllanishiga motivatsiya berish; xorijiy tajribani o'rganib, milliy mentalitetni hisobga olgan holda ta'lim tizimiga moslashtirish va amaliyotga tatbiq etish [5]. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ham kredit-modul ta'limiga ko'p yillar davomida bosqichma-bosqich o'tilgan va ushbu tizim yaxshi samara ko'rsatgan. Ta'kidlash lozimki, Toshkent kimyo-texnologiya institutida kredit-modul tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. O'quv rejaga tanlov fani sifatida Xorijiy til/Nemis tilida akademik va texnik muloqot fani (1-kurslarda 4 kredit 120 soat, bundan 48 soat amaliy, 72 soat mustaqil ta'lim) kiritilgan. Mazkur fan keyingi 2023-2024-o'quv yilidan 2-kurslarda ham davom etishi rejalashtirilgan. Shu o'rinda xorijiy til fanining o'ziga xos xususiyatlariga to'htalib o'tamiz. Sababi ta'lim jarayonida, ayniqsa, o'quv reja va dars jadvalini shakllantirishda xorijiy til fanining xususiyatlarini bilmaslik oqibatida ba'zi bir to'siqlarga duch kelinmoqda. Xorijiy tillarning boshqa fanlardan farqi, sof amaliy fan ekanligi va nutqiy faoliyatga yo'naltirilganligidir. Har qanday xorijiy til, jumladan, nemis tilida akademik va texnik muloqot fani sun'iy muhitda og'zaki va yozma kommunikatsiyaga asoslangan tarzda olib boriladigan fan hisoblanadi. Nemis tilida akademik va texnik muloqot fanining asosiy maqsadi bo'lajak mutaxassislarni kundalik hayotlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida xorijiy tildan samarali foydalanishga tayyorlashdan iborat. Shu bilan birga, ularda vatanparvarlik hissini rivojlantirish, mustaqil izlanish, bilim va ko'nikmalarini darsdan tashqari, OTMni bitirganlaridan keyin ham rivojlantirish malakalarini hamda

umumbashariy va sohaga oid ilmiy mavzularda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ijtimoiy, akademik va kasbiy sohalarida xorijiy tildan samarali foydalangan holda, jumladan, fan va texnika tilidan to'g'ri foydalana olish ko'nikmalarini hamda ilmiy ish (matn) tahlilini, shuningdek, og'zaki taqdimotni o'tkazish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat [3]. Jumladan, nemis tilida akademik va texnik muloqot fani talabalarning CEFRda belgilangan kommunikativ (til, nutq, ijtimoiy-madaniy) va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur fanning shaxs kamolotida tutgan o'rni ham yuqori bo'lib, ayniqsa, hozirgi davrda fanning maqomi o'zgargan. Zero, bugungi talaba/bo'lajak mutaxassis «Ushbu fan menga kelgusida nima foyda keltiradi?», «Fanni tugatganimdan so'ng men qanday natijaga erishaman?» degan maqsadni o'z oldiga qo'yimoqda. Darhaqiqat, quyida shu bo'yicha tavsiyalar berib o'tamiz.

2021-2022, 2022-2023-o'quv yillari davomida kredit-modul ta'limi 1-kurs talabalarida dastlab kirish-korrektiv kurs tashkil etdik va ularning moslashishlariga yordam berdik. So'ngra talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimidan foydalandik. Mazkur jarayonda biz integrativ, madaniyatlararo muloqot yondashuvlariga va osondan-qiyinga, «kundalik hayot uchun zarur va kifoya» (I.A.Zimnyaya), «oz-ozdan tez-tez» (I.K.Iliyeva) kabi ta'lim prinsiplariga asoslandik. Ta'kidlash joizki, o'qituvchi til o'rganishdagi baryerlarni bartaraf etish mexanizmlarini mukammal egallagan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Nemis tilida akademik va texnik muloqot fanida kreditlarni olish uchun quyidagi talablar belgilangan: fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.

Har qanday xorijiy tilni o'rgatishda o'quvchiga xato qilish normal holat ekanligini tushuntirish, gapirishni gapirib, yozuvni yozib, o'qishni o'qib, tinglab tushunishni xorijiy tildagi matnlarni ko'p tinglash orqali o'rganishini uqtirish talab etiladi. Tillarni o'rgatish jarayonida xato qilishdan qo'rqishni va gapirishga to'sqinlik qilayotgan qiyinchiliklarni mashqlar orqali bartaraf etish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, pragmatikani, situatsiyalar tematikasini kengaytirish va mazmunini chuqurlashtirish, qayerda, qachon, kim bilan, nima maqsadda muloqotga kirishish va hokazolarni rivojlantirish hamda madaniyatga bog'lash zarur sanaladi. Gapirish orqali o'quvchi va talabalarda kommunikativ, ya'ni lingvistik (lisoniy), sotsiolingvistik (ijtimoiy madaniy) va pragmatik kompetensiyalar shakllanib boradi [4]. Shunga binoan, nemis tili mashg'ulotlarida jadal sur'atda nemis tili talaffuzi, leksika, grammatikasi integrallashgan holda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuvda yaxlit tarzda mashq qilinadi. Til orqali madaniyat o'rgatib boriladi va 1-joriy va oraliq nazoratdan so'ng kasbiy-sohaviy mavzularga o'tiladi. Mazkur mavzular bo'yicha taqdim etilgan mashqlar interfaol metodlar asosida informatsion texnologiyalarda amalga oshiriladi. Sekin-asta talabani mustaqil va ijodiy ishlashga yo'naltiriladi. 2022-2023 o'quv yili davomida «Nemis tilida akademik va texnik muloqot» nomli o'quv qo'llanma yaratildi va tajrib-sinovdan o'tkazildi. Mazkur o'quv qo'llanmada talabalar uchun kundalik va kelgusi hayotiy faoliyatlari uchun zarur nutqiy va sohaviy mavzular tanlandi va taqdim etildi. Masalan, Mein Alltag und Studium, Beruf, Chemische Elemente, Reaktionen, Titan va boshq. Tajribadan ma'lumki, til orqali madaniyatni o'rgatish-o'rganish asosiy vazifalardan biridir. Nemis tilida akademik va texnik muloqot fani mashg'ulotlarida talabalar ishtirokida tanlangan kundalik zarur va qiziqarli mavzular kasbiy-sohaviy mavzular, mashqlar, matnlar bilan yaxlit tarzda integratsiyalashadi. Qiziq tarafi shundaki, kursning yakunida talabalar

o'z sohasini nemis tilida o'qib o'rganayotganlarida (terminologiya) ularda motivatsiya kuchayadi, bahsga kirishish, o'z fikrini ayta olish yuzaga keladi.

Xulosa. Talabalarning shaxs sifatida rivojlanishida xorijiy tilning o'rni beqiyosdir. Bundan tashqari, mazkur fan barcha soha/fan ma'lumotlarini o'zida saqlaydi, qayta ishlab chiqadi hamda uzatadi. Ayniqsa, sohaviy mavzular talabalarda katta qiziqish bilan o'rganiladi. Nemis tilida akademik va texnik muloqot fani talabalarning kelgusida o'zini o'zi rivojlantirishi, mustaqil ta'lim olishi va har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishiga hamda karerasining o'sishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori, «Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi Nizom».

3. Nemis tilida akademik va texnik muloqot: Fan dasturi. - T.: TKTI, 2022.

4. Iliyeva L.K. Masofaviy ta'limda xorijiy tillarni o'qitish-o'rgatish masalalari // Zamonaviy ta'lim. - T., 2020. - № 12. - B. 25-31.

5. Majidova N. The credit system of education in foreign countries and Uzbekistan // Science and innovation. - 2022. - T. 1. - № 7. - P. 1595-1600.

6. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish: O'quv qo'llanma. - T.: Tafakkur, 2020. -? 120 b.

INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALARNING FAOLLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Davronova Fotima Pirnazarovna, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi, PhD*

Annotatsiya. Maqolada darslarda ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va talabalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda tutgan o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Interfaol ta'lim texnologiyalari talabalarning faolligini ta'minlovchi muhim vosita ekanligi yoritib berilgan. Darslarda interfaol texnologiyalaridan foydalanishning samarali natijalari haqida fikr yuritilgan va namunalari keltirilgan.

Tayanch so'zlar: kompetentlik, interfaol, metodika, innovatsion texnologiya, diagramma, pedagogik texnologiya, metod.

ЗНАЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

*Давронова Фотима Пирназаровна,
старший преподаватель Самаркандского государственного ветеринарного
университета животноводства и биотехнологии, PhD*

Аннотация. В статье представлена информация о важности использования образовательных технологий на занятиях и их роли в формировании социальной компетентности учащихся. Объясняется, что интерактивные образовательные технологии являются важным инструментом, обеспечивающим активность учащихся. Отражены эффективные результаты использования интерактивных технологий на уроках и приведены примеры.

Ключевые слова: компетентность, интерактивность, методика, инновационная технология, диаграмма, педагогическая технология, метод.

THE IMPORTANCE OF EFFECTIVE USE OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN INCREASING THE ACTIVITY OF STUDENTS IN ENGLISH LESSONS

*Davronova Fotima Pirnazarovna,
senior teacher of Samarkand state university of veterinary medicine,
livestock and biotechnologies, PhD*

Abstract. The article provides information about the importance of using educational technologies in classes and their role in the formation of social competence in students. It is explained that interactive educational technologies are an important tool that ensures student activity. The effective results of the use of interactive technologies are reflected in the lessons and examples are presented.

Key words: competence, interactive, methodology, innovative technology, diagram, pedagogical technology, method.

Kirish. Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talaba (yoki o'quvchi)larning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida

ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning talaba (yoki o'quvchi)larni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Asosiy qism. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimida oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalarida yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim. Shu o'rinda amaliyotda qo'llanib o'zining samarali natijasini berib kelayotgan ayrim interfaol texnologiyalarga to'xtalib o'tamiz.

Guess the word (can be used for abstract nouns)

«So'zni top» deb nomlangan ushbu texnologiya talabalarda topqirlik, kreativ fikrlash kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchi tomonidan quyidagicha topshiriq beriladi: Choose five words relating to recent conversational themes. Write sets of clues to help students guess the words. Play with whole class or teams. Use one word per lesson over five lessons or use all words in one session as a longer game. Example clues: I am a noun but I am very important. I begin with the letter «f». People in prison have lost it and want it back. People demand it when it is taken away by dictators. It is related to speech. (Puzzle word = Freedom) [1].

Coffee Pot game (a very popular game in EFL)

This game is good for practising and reviewing action verbs and adverbs.

Ask one student to leave the room then the rest of the class chooses a verb e.g. type, ski, fly. The student returns to the room and asks questions to guess the verb.

The missing verb can be substituted with coffee pot Example questions: Why do you coffee pot? Where do you coffee pot? Do you coffee pot by yourself? Do you need any special equipment for coffee potting?

«Venn diagrammasi» metodi

Ushbu metod o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Metod kichik guruhlar shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Metod o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu muayyan metoddan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir. Metodni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat: o'quvchi-talabalar guruhlariga bo'linadi; yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi; har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi; topshiriqlar bajarilgach guruh azolari orasidan liderlar tanlanadi; liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, diagrammani to'ldiradilar. Ingliz tili fanidan «Degrees of adjectives» («Sifat darajalari») mavzusiga doir sifatning uchta darajasiga misollar keltirish vazifa qilib beriladi. Talabalar namuna asosida diagrammani to'ldirishadi [2].

«Nima uchun?» sxemasi

Bu butun zanjir muammolarining dastlabki sabablarini namoyish qiluvchi muhokamalardir. U, o'z navbatida, analitik, ijodiy, tizimli tasvirlashlarni rivojlantiradi. «Nima uchun?» sxemasi tuzilishi tartibi tanishtiriladi. Buning uchun dastlab shaxsiy muammolarni yaratish lozim. «Nima uchun so'rogi?» strelkasi chiziladi va bu so'roqqa javob yoziladi. Bu jarayon dastlabki muammolarning barcha sabablari tuliq ifodalangunga qadar davom ettiriladi. Talabalar o'zaro kichik guruhchalarga birlashtiriladi, tenglashtiriladi va o'zlarining sxemalarini to'ldiradi, keyin esa, umumiy sxemaga solishtirilib chiqadi. So'ngra xulosalar jamlanadi. «Nima uchun?» chizmasi chiziladi [3].

«Nima uchun?» sxemasi tuzish tartibi

O'zingiz sxemada ishlatiladigan aylana yoki to'rtburchakni tanlang. O'zingiz sxemaning – muhokama zanjiri: chiziqli, chiziqsiz, aylana bo'ylab chizma ko'rinishini tanlang. Chiziqli belgi sizning dastlabki holatingizdan keyingi holatga o'tish harakatingizni bildiradi. Masalan, ecological problems mavzusida why? (Nima uchun?) savolini ketma-ket berish orqali klaster zanjirini hosil qilish va mavzuga yechim topish mumkin.

«Qanday?» shajarali diagramma

Bu o'zida mantiqiy zanjirli savollarni ifodalaydi, muammolar haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishni tasvirlaydi. Sistemali, ijodiy, analitik fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. Diagrammani tuzish tartibi bilan tanishtiradi. Diagrammani alohida – alohida tuziladi va birlashtirilib, umumiy sistemani tashkil qiladi. Keyin natijalarni to'liq ifodalaydi [4].

«Qanday?» diagrammasini tuzish qoidasi

Muammolarni hal etishda siz «Nima qilish kerak?» deb o'ylang. «Buni qanday qilish kerak?» «Qanday?» – degan asosiy savol – muammo tug'iladi. «Qanday?» savolini tuzish ketma-ketligiga quyidagilar kiradi: 1. Muammoni yechish usulini ifodalash. 2. Shajaraviy g'oyalarning paydo bo'lishi. Diagramma savollar bilan keskin tarzda ishlay boshlaydi. Muammoni yechishning quyi darajasi dastlabki holatni ifodalaydi. Barcha g'oyalaringizni o'ylamasdan, bir-biriga taqqoslamasdan va baholamasdan tezlik bilan yozishingiz mumkin. 3. Diagramma hech qachon tugallangan bo'lmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish kerak. 4. Agar savol bir nechta yo'nalishlarda takrorlansa, u muammoni yechishda asosiy kalit vazifasini bajaradi. 5. Muammolarni yechishda chizma grafiklarini qulay holda tasvirlang: daraxt ko'rinishida yoki kaskad holatida, yuqoridan pastga, yoki chapdan o'ng tomonga. Eng muhimi: siz uchun eng yaxshi vosita, yangi g'oyalar va muammoni hal etishni topish ekanligini unutmaslik kerak bo'ladi. 6. Diagramma muammolarni yechishni to'liq kafolatlaydi. Misol tariqasida quyidagi savolni keltirish mumkin: «How can we solve Environmental pollution?» (Qanday qilib atrof-muhit ifloslanish muammosini hal qilish mumkin?). Kichik guruhlarda ishlash – o'qitishning interfaol metodi bo'lib, u qisqa vaqt ichida barcha ishtirokchilarni jalb qilgan holda ko'p vazifani bajarishga va shu yo'l bilan samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Kichik guruhlarda a'zolar soni 3-12 kishi bo'lishi mumkin. Optimal miqdor 4-5 kishi.

Guruhlar bilan ishlash bo'yicha ayrim tavsiyalar: 1. Hamkorlik guruhlarini kam sonli bo'lishi kerak. Guruh qanchalik kichik bo'lsa, har bir o'quvchi shunchalik mas'uliyatliroq bo'ladi. 2. Har bir guruh a'zosining bilimini individual tartibda tekshirish lozim. 3. Davriy tartibda tanlab (oralatib) og'zaki so'rovlar o'tkazish foydali, bunday paytda o'quvchilar guruh a'zolari yoki butun sinf oldida guruh ishi haqida gapirib beradilar. 4. Barcha guruhlar ishini ko'zatib borish va guruh a'zosining umumiy mehnatda ishtirok etgan hamma holatlarini qayd etish kerak. 5. Har bir guruhda «nazoratchi» bo'lishi kerak, u guruhning

har bir a'zosidan nima uchun berilgan savolga boshqacha emas, aynan shunday javob bergaligini tushuntirib berishni so'rashi mumkin. 6. O'quvchilarga o'zlari bilgan yoki qila oladigan narsani boshqalarga o'rgatishni taklif etish ham foydadan holi emas. Bu bilan guruhning barcha a'zolari mashg'ul bo'lganda, mazkur holat «baravar tushuntirish» deb ataladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodini qo'llash bosqichlari: 1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi. 2. Kichik guruhlar belgilanadi. Talabalar guruhlariga 3-5 kishidan bo'linishlari mumkin. 3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar. 4. O'qituvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va o'qituvchi tomonidan yo'naltirib turiladi. 5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar. 6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi. 7. Kichik guruhlar baholanadi [5].

Xulosa. Shuni alohida ta'kidlash joizki, interfaol metodlar o'qituvchi bilan o'quvchi-talabani faol munosabati, bir-birini to'liq tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchi-talabani hamkorlikda ishlashini tashkil etishidir. O'qituvchi darsda tegishli muammolarga o'quvchi-talabalarni jalb etishi, ularning harakatini faollashtirishi va natijada darsni o'zlashtirishlarini ta'minlashi lozim. Bunda o'qituvchi faqat fasilitator (yo'l yo'riq ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi. Shunday ekan, har bir pedagogdan dars jarayonida mukammal bilim, ijodkorlik, pedagogik mahorat va kuchli psixologik qobiliyatli bo'lish talab etiladi, shu bilan bir qatorda har bir talabaga individual yondashish va mustaqillik berish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Ibraimov X.I., Davronova F.P. Ingliz tilini o'qitish jarayonini raqamli texnologiyalar va AKT vositasida interfaol tashkil etish haqida ba'zi mulohazalar // Research and education. - № 2 (1). - P. 178-184.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA NEMIS TILINI ONLAYN O'QITISHDA YUZAGA KELADIGAN BIR QATOR KAMCHILIKLAR XUSUSIDA

**Zaynieva Hilola Shuxratullayevna, TDPU dotsent v.b.,
Xudoyberdieva Zumrat Xudayberdiyevna, TDPU dotsent v.b.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada masofaviy ta'lim jarayonlarini tashkil etishda sohada vujudga kelayotgan eng dolzarb vaziyatlar, muammolar haqida so'z yuritildi hamda ushbu muammolarni hal etishda bir necha innovatsion usullar, tavsiyalar zamonaviy onlayn ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan bir necha misollar orqali ko'rsatib berildi.

Tayanch so'zlar: masofaviy ta'lim, onlayn o'qitish, sun'iy tafakkur, elektron ta'lim, innovatsion texnologiya, muammoli vaziyat, badiiy tarjima, an'anaviy ta'lim.

О НЕКОТОРЫХ НЕДОСТАТКАХ ОНЛАЙН-ПРЕПОДАВАНИЯ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА В ВЕК ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Зайниева Хилола Шухратуллаевна, и.о.доцента ТГПУ,
Худойбердиева Zumrat Худайбердиевна, и.о.доцента ТГПУ**

Аннотация. В этой статье обсуждаются наиболее актуальные вопросы и проблемы в сфере дистанционного обучения и также показаны несколько инновационных способов решения этих проблем, рекомендации на нескольких примерах, которые могут быть применены в современном процессе онлайн-обучения.

Ключевые слова: дистанционное обучение, онлайн-обучение, искусственный интеллект, электронное обучение, инновационные технологии, решение проблем, художественный перевод, традиционное обучение.

ON SOME DISADVANTAGES OF ONLINE TEACHING OF GERMAN IN THE AGE OF DIGITAL TECHNOLOGIES

**Zaynieva Hilola Shuxratullaevna, acting associate professor of TSPU,
Xudayberdieva Zumrat Xudayberdiyevna, acting associate professor of TSPU**

Abstract. This article discusses the most pressing issues and problems in the field of distance learning and also shows several innovative ways to solve these problems, recommendations with several examples that can be applied in the modern process of online learning.

Key words: distance learning, online learning, artificial intelligence, e-learning, innovative technologies, problem solving, literary translation, traditional learning.

Kirish. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarilishida zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlarning roli muhim ahamiyat kasb etishi hammaga ayondir.

Asosiy qism. Zamonaviy axborot texnologiyalariga: multimediyaga, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, bir alifbodan ikkinchi bir alifboga o'tkazish, kompyuterli test nazorati, skaner texnologiyasi, internet, elektron pochta, veb-texnologiya, elektron virtual kutubxona, masofadan turib ta'lim berish, taqdim etish texnologiyasi, sun'iy tafakkur tizimlari va boshqalar kiradi. Hammamiz guvohimizki, kundalik hayotimiz va istiqbolimiz ravnaqi uchun muhim ehtiyoj sanalmish tom ma'nodagi ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarining jalb etilishi tobora oldingi o'ringa chiqib borayapti. Onlayn bilim olishning eng katta dushmani bu internet provayderlarining sekin ishlashi yoki aloqa uzilib qolishi. Bu

vaziyatda talaba ta'lim olishga bo'lgan intilishi so'nishi yoki asabiylashishiga olib keladi. Hozirgi kunda internet orqali tahsil olish ta'lim jarayoni tashkil etishning innovatsion va birmuncha qiziqarli usuli hisoblanadi. Internet tarqalishi bilan butun dunyodagi kompaniyalar onlayn mahorat dasturlarini joriy qilishni boshladilar. Keyinchalik o'qitish va rivojlanish uchun mas'ul bo'lganlar o'z platformalarida iloji boricha ko'proq kurslarni kiritdilar. Minglab videolar, darslar va elektron ta'lim mazmunini taqdim etish hech qachon oson bo'lmagan. Ushbu uslubning ko'plab afzallik tomonlari borligi ko'pchilikka ayon. Barcha oliy o'quv yurtlarida masofadan o'qitish texnika va texnologiyasini amalga oshirish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Hozirgi zamon talabiga to'liq javob beradigan mutaxassisni tayyorlash bu – davr talabidir. Hozirgi vaqtda respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash, o'qitish, bilim berish, zamonaviy axborot texnologiyalarga yaqindan yondashish hamda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatish maqsadida juda ko'p ijobiy ishlar amalga oshirilib borilmoqda. Ulardan asosiysi, «Masofadan o'qitish texnika va texnologiyasi»dir. Shu nuqtai-nazardan yosh avlodni masofadan o'qitish tizimiga tayyorlash bosqichlarini quyidagi ko'rinishda amalga oshirish mumkin: hozirgi axborot texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda masofaviy o'qitish (MO') katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ta'limning bu turi shu paytgacha mavjud bo'lgan ta'lim turlaridan o'zining ayrim ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi. MO'ning kunduzgi va boshqa ta'lim turlaridan farqli jihati shundaki, mazkur ta'lim turiga juda keng aholi ommasini jalb qilish mumkin. MO' o'zida kunduzgi va sirtqi ta'lim turlarining ijobiy xususiyatlarini mujassam etadi. Shu jihatlariga ko'ra MO' hozirgi kundagi istiqbolli ta'lim turlaridan biri hisoblanadi [1]. MO' asosida ta'lim berish uchun o'qitish istagida bo'lgan aholining muayyan qismini ta'lim muassasasi joylashgan yerga yig'ish shart emas. Ikkinchidan, tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan ortiqcha sarf-xarajat qilish zarurati bo'lmaydi. Uchinchidan, bu ta'lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilish mumkin. Axborot texnologiyalarni rivojlanishi masofadan o'qitishni tashkil etishga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Masofadan o'qitishni tashkil etishni hozirgi zamon modellarining asosi bo'lgan kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalaridan unumli foydalanish va yangicha ko'rinishda onlayn darslarga joriy etish masalalari maqolamizda maqsad qilib olingan. Onlayn ta'lim sezilarli afzalliklarga egaligi bilan bir qatorda muammolardan ham xoli emas. Ushbu texnologiyalar axborotdan foydalanuvchilarga keng qamrovli yo'l ochib berish bilan birga ulami muhofaza etish muammosi, masofadan o'qitishda o'qituvchi bilan tinglovchining orasida to'g'ridan-to'g'ri muloqotning yo'qligi kabi muammolarni bartaraf qilish, yangicha usullarni hayotga tadbiiq qilish bilan talabalarning onlayn dars olishlari uchun qulayliklar yaratish bosh maqsadimizdir. Masalan, muammoli o'qitish jarayonini tashkil etishda ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Tinglovchini yetuk mutaxassis qilib tayyorlashda muammoli o'qitishni tashkil etish muloqotni telekonferensiya orqali amalga oshirish mumkin. Ammo, bu bilan muammoni to'la hal etib bo'lmaydi. Ushbu muammoni hal etish uchun qo'shimcha o'quv materiallarni ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bular qatorida turli darajadagi muammoli topshiriqlar, muammoli vaziyat hosil qiluvchi ko'rsatmalar bo'lishi maqsadga muvofiq. Ko'pgina onlayn o'quv kurslari materiali cheksiz uzun matnlardan iborat bo'lib, so'ngra ishtirokchilarni hech qanday tarzda rag'batlantirmaydigan test savollarining katta ro'yxati bilan mashg'ulot olib borishadi. Go'yoki u elektron ta'lim o'niga elektron o'qitish kabi taassurot qoldiradi. Bunday kurslar ko'plab ishtirokchilarning onlayn mashg'ulotlardan zerikishiga sabab bo'ladi. Aynan shu majburiyat va g'ayratning yetishmasligi elektron o'quv kurslarining muvaffaqiyatsiz bo'lishining muhim sabablaridan biri hisoblanadi. Metodist olimlar Y.Vaxtler va M.Ebnerlar o'zlarining «Media darslarida hamkorlikda ishlaymiz» mavzusidagi maqolasida buning oddiy yechimini isbotlab beradilar: dinamik, qiziqarli va interaktiv onlayn o'quv kurslarini ishlab chiqish kerak. Elektron ta'lim yo'lga qo'yilgan dastlabki paytlarda bu juda qiyin bo'lgan, ammo hozirda bir qadar osonlashdi [2]. Agar siz o'zingizning mashg'ulotingizni videolar, hikoyalar, o'yin yechimlari, amaliy o'yin yoki video o'yinlar bilan boyitishni

xohlasangiz, rag'batlantiruvchi vositalarni yaratish lozim bo'ladi yoki onlayn rejimda o'tkaziladigan test shakllariga topshiriq savollari, bitta va ko'p variantli testlar, krossvordlar va matn formatidagi savollardan tashqari, rasmlar, fil'mlar va ovoqli materiallarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilar platformada avval filmni tomosha qilishlari va keyin savollar berishlari mumkin (masalan, tilni o'rganish, muloqotga o'rgatish, videofilmlarni tahlil qilish va hokazo). Hozirgi innovatsion texnologiyalar davrida onlayn testlar uchun aniq dasturiy ta'minotdan tashqari, «ko'pchilik bo'lib o'rganish» deb nomlangan narsalarga ega platformalar ham yaratilgan. Tan olib aytish mumkinki, rasmiy unvon yoki sertifikat taqdim etiladigan ta'limda ishtirokchilar mashg'ulotlarga ko'proq qiziqish bildirishadi. Shuningdek, biz reyting va tasniflarni o'rnatib, eng yaxshilarini (moliyaviy yoki boshqa turdagi mukofotlar bilan) mukofotlash orqali raqobatni rag'batlantirishimiz mumkin. Talabalar darslarni xohlagan vaqtda va xohlagan joyida, o'z tezligida va jismoniy cheklovlarsiz olishlari mumkin bo'ladi. Biroq, aynan shu katta imkoniyat ko'pincha yana boshqa bir muammoga duch kelishi mumkin, ya'ni harakatsizlikka olib kelishi mumkin. Ko'pincha uchrashi mumkin bo'lgan bu muammo, ya'ni ishtirokchilarning boshlashini kutib vaqtni o'tkazishimiz, natijada juda kam samarali natijalar bilan yoki umuman faoliyatsiz mashg'ulotni tugatishimizga to'g'ri keladi. Buning oldini olish uchun esa, biz vaqt chegarasini o'rnatishimiz va eslatmalarni yuborishimiz lozim bo'ladi. Umuman olganda, vaqt chegarasini belgilashdan qo'rqmaslik kerak. O'quv mashg'ulotlari onlayn rejimida o'tishi, muddatlarni belgilash mumkin emas degani emas. O'rganishning eng yaxshi usuli amaliy qo'llash ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Faqatgina biz bajaradigan va sinab ko'rgan narsalarni (experimentales Lemen) amalda qo'llash orqali biz o'rgangan va o'rganayotgan barcha dars materiallarini va mazmunini, ko'nikmalarni yaxshiroq va tezroq o'zlashtira olamiz va ularni xotiramizda uzoq vaqt saqlab qolamiz. Biroq, onlayn kurslarda bunga to'liq erishishning imkoniyati juda past, afsuski, onlayn platformada faqat texnik tarkib va cheksiz ma'ruzalarga e'tibor qaratiladi. Bu shuni anglatadiki, ishtirokchilar mashq qila olmaydilar va o'quv jarayonining maksimal salohiyatiga erishish imkoniyati ularda juda kam bo'ladi. Citimulyatorlar yordamida esa, foydali amaliy kurslarni qo'llash kerakligini tavsiya qilish bilan biz yana bu masalaga amaliy yechim topa olamiz.

Talabalarimizning haqiqatan ham amaliyotga o'tishlari uchun, kursning muhim qismlaridan biri uning foydali va amaliy bo'lishidir. Agar elektron ta'lim kurslari ushbu mezonga javob bersa, ishtirokchilar o'rgangan barcha narsalarini real hayotda qo'llashlari mumkin bo'ladi. Biz o'quv materiali sifatida darslarimizda nafaqat audio-video texnik vositalaridan foydalanamiz, balki internet saytlari, elektron lug'atlarga ham murojaat qilishimiz tabiiy. Hozirgi innovatsion texnologiyalar davrida mustaqil ta'limni internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internet – bu «tarmoqlararo» degan ma'noni bildiradi. Demak, globallashuv zamonda tarmoqlararo masofaviy ta'lim jarayonini rivojlantirish bilim olishni jahon standartlariga yetkazish uchun bir yo'l, deya olamiz [3]. Talabalar mashg'ulotni boshlashda hech qanday texnik muammolarga duch kelmasliklari, hech qanday texnik muammolarsiz belgilangan vaqt ichida yakunlashlari mumkin. Talabalar onlayn dars davomida o'rganganlarini amalda qo'llay oldilar ham deydik. Biz ta'lim maqsadlarini aniq bilishimiz va nima uchun ishtirokchilarni ushbu onlayn kursda qatnashishini xohlashimizni aniqlashimiz kerak bo'ladi. Eng muhimi, mashg'ulot talabalar yoki muassasa manfaatlariga yo'naltirilgan bo'lishidir. Biz aslida umumiy maqsadlarga hissa qo'shadigan materialni aniq tanlashimiz kerak. Buning uchun biz talabalarning bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan ixtisoslikka oid mavzular va materiallarni dars birliklari bo'yicha taqsimoti va rejasi bo'yicha beramiz. O'z-o'zidan ma'lumki, an'anaviy darslarda bir mavzuni talabalarga yetkazish uchun bir necha metodlar qo'llaniladi: tarqatma materiallar va darslik bilan ishlanadi, turli harakatli o'yinlar tashkil qilinadi va hokazo, ammo onlayn darslarda bularning hammasini bajarishni iloji yo'q. Masofaviy darslar ushbu metodlarning o'rni

bosuvchi, ya'ni darsga qo'yilgan maqsadni ko'zlovchi va motivatsiya uyg'otuvchi boshqa usullardan foydalanishni taqozo qiladi. Asosiy chet tili, tarjima darslari talabalardan ijodiy, individual-intellektual faoliyatni talab qiladi [4]. Ya'ni, dars jarayonida talabalar ijodiy va mahsuldor faoliyat olib boradilar: savollarga javob topadilar, berilgan rasmlarga matn tuzadilar, kerakli so'z va iboralar ishtirokida dialoglar yoki qisqa vaziyatli matnlar tuzadilar, muammoli vaziyatlarning yechimini topadilar, matn kontekstini o'rganadilar, tarjima qiladilar, matn syujetini talqin qiladilar, so'zlarni leksik va semantik xususiyatlarini ochib beradilar va analiz-tahlil qiladilar. Shunday qilib talabalar onlayn platformalarda olib boriluvchi masofaviy darslarda eshitib va ko'rib tushinish, tarjima qilish mashqlarini ham bajara oladilar. Bu mashqlarni biz zoom dasturi, telegramm messenjer va boshqa platformalar orqali olib boramiz. Demak, bularning barchasi yurtimizda innovatsion onlayn darslarni to'g'ri va samarali tashkil qilishni yanada takomillashtirish va kompyuter – raqamli texnologiyalar sifatini yaxshilash kerakligini va biz o'qituvchilar hamfikir hamjihatlikda mehnat qilishimiz kerakligini ko'rsatadi. An'anaviy darslardagi kabi onlayn darslarda ham ko'zlangan natijalarga erishish maqsadida biz tarjima va uning interpretatsiyasini talabalarga o'quv platforma, zoom hamda telegramm dasturlar orqali qanday yetkazib berish usullari haqida to'xtalamiz. Biz o'z imkoniyatlarimizdan kelib chiqib quyidagi usullarni qo'llash bo'yicha asosiy chet tili va tarjima darslari misolida bir necha misollarda ko'rib chiqamiz. Tarjima, ayniqsa, nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish, ziyraklikni, zukkolikni, keng tasavvur va albatta sohaga oid chuqur bilimni talab qiladi. Chunki har ikki til strukturalari bir-biriga mos tushmaydi. Ularni gaplarda moslashtirish, so'zlarning muqobil variantlarini to'g'ri tanlay olish, ayniqsa ko'chma ma'noga ega bo'lgan so'z va iboralar yoki maqollar tarjimasini kontekstga moslab talqin qilish murakkab jarayondir. Bo'lajak yosh tarjimonlar matnga individual yondashib, o'z iqtidori, bilimi va ijodiy imkoniyatini ishga solib o'zining eng to'g'ri talqinini berish haqidagi topshiriqni bajaradilar:

1. Avvalo, telegramm messenjerda shu fan uchun bir guruh tashkil qilish juda muhim deb hisoblaymiz, unda talabalar bilan mavzu yuzasidan savol javoblar, topshiriqlar, tahlillar, analizlarni muhokama qilish imkoni mavjud. Chunki, ushbu platformada ishlash boshqalariga nisbatan tezroq, qulayroq va osonroq. Bilamizki, zoom platformasida hamma materiallarni berish, ishlab chiqish, muhokama va tahlil qilish uchun yetarli vaqt bo'lmaydi.
2. Talabalarda badiiy tarjima qilish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida biz avvalo ularga biron mashhur yozuvchining asaridan parchani o'rganish, so'zlarini ochish, tarjima qilish va to'g'ri talqin qilishga, beramiz. Zoom darsimizda esa, mavzu yuzasidan savol-javoblar, prezentatsiyalar va mavzuning qisqacha bayoni va vazifalar tushuntiriladi.
3. Mavzuni yaxshi o'zlashtirishlari uchun talabalarga kutubxona hamda elektron kutubxonalarda ishlashni va internet saytlaridan, manbalardan asarning asl nushasini, muallif va uning ijodi haqida o'qib o'rganishlarini vazifa qilib beramiz. Zamonaviy, kreativ va zukko talabalarimiz tug'ma iste'dod va individuallikni yuzaga chiqarishlari, tarjimonlik mahoratiga omuxta qilishlari uchun amaliy tarjima mashqlarini beramiz va topshiriqlar platformaga qo'yilganidan tashqari zoom platformada ham birgalikda tahlil qilamiz. Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas bir bo'laga aylanib borayotgan ekan, ta'limda kompyuter texnologiyalarini, ya'ni ta'lim platformasini qo'llash talabalarga darslarni ko'proq mustaqil o'zlashtirish, individual o'z ustida ishlash imkoniyatini berishi onlayn darslarning eng muhim ahamiyatli jihatlaridan biri deb ayta olamiz. Ammo talabalarning ijtimoiy platformalarda dars qilishi va mavzuni o'zlashtirishining salbiy tomonlaridan biri ularning amaliy mustaqil ishlarni mahsuldor bajarishlari va platformada yoki zoom ilovasi orqali topshirishlarida ancha qiyinchilik tug'dirishi uning minus tomonlaridan biridir. Dars materiallarining yaxshi o'ylanganligi va ularning to'g'ri taqsimlanishi, hamda darsni to'g'ri rejalashtirish onlayn kursni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun juda muhimdir. Bunga kontseptsiyaning doimiy moslashuvi va aks etishi ham kiradi. Ishlab chiqilgan kontseptsiya

yordam beradi, bu bizning g'oyalimizni muddatda amalga oshirishda vaqtimizni tejaydi. Yuzma-yuz o'qitishda bo'lgani kabi, onlayn o'qitishni rejalashtirish va loyihalashda ham biz darsning asosiy tarkibiy qismlarini – dars maqsadlarini, mazmunini, usullarni, topshiriqlarni ko'zdan kechirishimiz va tayyorligiga ishonch hosil qilishimiz, ularni iloji boricha muvofiqlashtirishimiz kerak [5]. Dunyoda interaktiv ta'limning ko'plab bazalari vujudga kelayotganligi juda quvonarli hol. Distant uslubida o'qitishning Xalqaro Kengashi faoliyat ko'rsatyapti, «D-Learning» – masofaviy ta'lim olayotgan tinglovchilarning soni kun sayin ortib borayapti. Masofadan turib o'qitish uslubining tafsiloti, uning ta'limdagi ijodiylik, mustaqil o'rganish imkoniyati, ilm olish uchun vaqtni taqsimlashdagi erkinlik kabi ko'plab afzalliklari mamlakatimizdagi yirik olimlarning pedagogik izlanishlarida aks ettirilgan, risolalarida keng yoritilganini e'tirof etish joiz. Shunisi quvonarliki, mamlakatimizda ziyolilarning, jumladan, pedagoglarning, yangi avlodning tarbiyasiga e'tiborli barcha kishilarning, ayniqsa, yoshlarning zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari vositasidagi interaktiv ta'limga, xususan, onlayn ta'limiga, Internetga qiziqishi va intilishlari katta.

Xulosa. Yurtimiz O'zbekiston kuchli iqtisodiyotga ega bo'lgan, ezgu istiqbolli huquqiy davlat qurar ekan, xalqimizning axborot savodxonligini hamda huquqiy madaniyatini oshirish hayot va zamon talabidir. Bu talabni – maqsadni ro'yobga chiqarishda asoslari endi shakllanayotgan interaktiv ta'lim xizmatga kirishishi kerak. Birinchidan, onlayn kurs (o'qitish)dan qanday maqsadlarni ko'zlayotganimizni aniqlab olamiz. O'qitish maqsadlari o'quvchilar ushbu tadbir yoki bo'limda olishlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tavsiflaydi. Onlayn o'qitishga mos maqsadlarni aniqlash uchun o'zimizga mashg'ulotdan so'ng talabalar nima qila olishlari kerak degan savolni beramiz. Biz dars maqsadlarini shunday qilaylikki, toki talabalar ularni o'zlarining (o'quv) maqsadlariga aylantirsinlar. Xullas, an'anaviy ta'limdagidek talabalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, maqsadlarimiz va umidlarimizni juda aniq yetkazib berish va talabalarimizga ishonchli va qulay bo'lishi onlayn ta'limning asosiy vazifalaridandir.

Adabiyotlar:

1. Lernen mit Multimedia und Internet. 3. Aufl. Weinheim, S. 445-463.
2. Wachtler J., Ebner M. Digitale Medien: Zusammenarbeit in der Bildung, Waxmann 2016, Munster, New York.
3. Apel H., Kraft S. Online lehren: Planung und Gestaltung netzbasierter Weiterbildung, Bertelsmann Verlag 2003, Bielefeld.
4. Wachtler J., Ebner M. Digitale Medien: Zusammenarbeit in der Bildung, Waxmann Munster. - New-York, 2016.
5. Miraximov A.R., Raxmonqulova S.I. Internet va undan foydalanish asoslari. - T., 2001. - 38 b.

САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ РАБОТА В УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ДИДАКТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ

Бабаева Зарина Сайфуллаевна, и.о. доцента ТГПУ

Аннотация. Возросший интерес к необходимости формирования и развития самостоятельности как личностного качества студентов усилил существующее противоречие между потребностями педагогической практики и неразработанностью дидактических систем, обеспечивающих в ходе обучения целенаправленное и высокоэффективное развитие. Целенаправленное формирование самостоятельности возможно, как свидетельствуют дидакты, лишь в ходе организации самостоятельной работы обучаемых.

Ключевые слова: *активность обучающихся, классификация видов, приём обучения, самостоятельность, самостоятельная деятельность, самообразование, самостоятельная работа, способ обучения, средство обучения, форма организации деятельности.*

O‘QUV-KOGNITIV FAOLIYATDAGI MUSTAQIL ISH: DIDAKTIK ASPEKT

Babaeva Zarina Sayfullaevna, TDPU dotsent v.b.

Annotatsiya. Talabalarning shaxsiy sifati sifatida mustaqillikni shakllantirish va rivojlantirish zarurligiga qiziqishning ortishi pedagogik amaliyot ehtiyojlari va o‘qitish jarayonida maqsadli va yuqori samarali rivojlanishni ta‘minlaydigan didaktik tizimlarning ishlab chiqilmaganligi o‘rtasidagi mavjud ziddiyatni kuchaytirdi. Mustaqillikni maqsadli shakllantirish, didaktika guvohlik berishicha, faqat talabalarning mustaqil ishini tashkil etish jarayonida mumkin.

Tayanch so‘zlar: *o‘quvchilarning faolligi, turlari tasnifi, o‘quv metodi, mustaqillik, mustaqil faoliyat, o‘z-o‘zini tarbiyalash, mustaqil ish, o‘rganish usuli, o‘quv quroli, faoliyatni tashkil etish shakli.*

INDEPENDENT WORK IN EDUCATIONAL AND COGNITIVE ACTIVITIES: DIDACTIC ASPECT

Babaeva Zarina Sayfullaevna, acting associate professor of TSPU

Abstract. The increased interest in the need to form and develop independence as a personal quality of students has strengthened the existing contradiction between the needs of pedagogical practice and the lack of development of didactic systems that provide purposeful and highly effective development in the course of training. Purposeful formation of independence is possible, as didactics testify, only in the course of organizing independent work of students.

Key words: *activity of students, classification of types, method of learning, independence, independent activity, self-education, independent work, method of learning, learning tool, form of activity organization.*

Введение. В педагогической литературе самостоятельность обучающихся как один из ведущих принципов обучения рассматривается с конца XVIII века. Вопрос о развитии самостоятельности и активности обучающихся – центральный в педагогической системе К.Д.Ушинского. В 20-х годах XX века определённую роль в развитии теории самостоятельности обучающихся сыграли комплексная система обучения, метод проектов, Дальтон-план и другие формы индивидуализации обучения. Как дидактическое явление самостоятельная работа представляет со-

бой, с одной стороны, учебное задание, т.е. то, что должен выполнить студент, объект его деятельности, с другой, – форму проявления соответствующей деятельности памяти, мышления, творческого воображения, что, в конечном счёте, приводит студента либо к получению нового знания, либо к углублению и расширению сферы действия уже полученных знаний, либо к формированию определённых навыков и выработке приёмов усвоения. Самостоятельная работа определяется дидактики по-разному: как средство обучения (Ю.Б.Зотов), приём обучения (А.Ф.Соловьева), способ обучения (И.Э.Унт), форма организации деятельности (Б.П.Есипов), что, впрочем, не отражается существенно на подходах к формированию навыков и приёмов, её характеристики и осуществления. В последних методических исследованиях самостоятельная работа понимается как целостная система действий преподавателя и студента, имеющая следующие признаки: 1) наличие проблемной познавательной-речевой задачи; 2) организация и управление самостоятельной работой со стороны преподавателя; 3) активность студентов при выполнении самостоятельной работы; 4) самостоятельность студентов (воспроизводящая, преобразующая, творческая); 5) творчество студентов, степень которого определяется этапом обучения, уровнем обученности студентов, характером решаемой мыслительной задачи. При этом ведущим условием проявления самостоятельности студентов в учебно-познавательном процессе является органическая динамическая связь деятельности преподавателя и студентов, в которой акцент постепенно смещается с активной деятельности преподавателя на активную деятельность студентов.

Основная часть. Организация самостоятельной работы требует соответствующих условий: дидактических пособий; книги для чтения, справочники, словари, энциклопедии, специализированных помещений (для работы больших и малых групп, индивидуальной работы и т.д.), особого расписания. В странах Западной Европы и США [1] проблема самостоятельности обучающихся решается, в основном, в рамках индивидуализации обучения. Основное внимание переносится с фронтальных занятий на индивидуальную или групповую работу. Обучение путем открытий (*discovery learning*) дополняет, а часто и заменяет обучение в «формальном» классе путём «прямой» передачи знаний. По мнению американских и английских дидактов самостоятельная работа (*independent study*, а также *self-directed learning*, или *self-instruction*) – это самоуправляемая учебная деятельность, тогда как виды учебной деятельности, управляемые другими, являются прямой её противоположностью. Объём самостоятельной работы может быть различным (от выполнения краткосрочного задания до самостоятельного усвоения целого факультативного курса). Практикуется самостоятельное использование различных источников пополнения знаний вне школы (посещение музеев, картинных галерей, проведение длительных походов). В некоторых случаях учащиеся освобождаются от занятий сроком до 6 недель для самостоятельного выполнения «проектного» задания. В результате такой работы составляется отчёт, представляемый педагогам. Типология заданий разнообразна, но все они предполагают достижение учащимися поставленной перед ними цели. Преобладает работа по выбору, индивидуально инструктируемая работа (*directing study*), подготовительная, семинарская (учащихся знакомят с результатами своей работы) и «поисковая» работа по развитию специальных способностей (работа по своему плану). Сущность понятий «самостоятель-

ность», «самостоятельная деятельность», «самостоятельная работа», «самообразование» в последние годы рассматривается в связи с сущностью познания в учебно-воспитательном процессе с двумя функциями познания: отражением и преобразованием действительности. В соответствии с ними в обучении различают два вида деятельности: воспроизводящую (репродуктивную) и преобразующую (продуктивную). Обратимся к вопросу о видах самостоятельных работ студентов, осуществляемых в учебном процессе вуза. Не однозначен подход к данной проблеме разных исследователей. Одни исследователи классифицируют самостоятельные работы по их дидактическим целям, другие по характеру познавательных задач, решаемых учащимися в ходе самостоятельных работ, третьи берут за основу классификации характер познавательной деятельности учащихся в процессе решения познавательных задач, в трудах четвертых сделаны попытки создать такую классификацию видов самостоятельных работ, которая учитывала бы все перечисленные основания. П.И.Пидкасистый [4, с. 146] группирует самостоятельные работы в зависимости от характера познавательных задач и познавательной деятельности и выделяет следующие виды самостоятельных работ: воспроизводящие самостоятельные работы по образцу; реконструктивно-вариативные; эвристические; творческие (исследовательские). Каждый из этих видов характеризуется содержательно-логическими особенностями выполняемой по его преобразованию познавательной деятельности, а в зависимости от этого определяется и степень самостоятельности обучаемого в процессе деятельности.

Dasturlashda protsessual va obyektga yo'naltirilgan yondashuvlar, shuningdek Prolog tili bilan ifodalanadigan mantiqiy yondashuvdan tashqari yana bir yo'nalish – funktsional yo'nalish mavjud. U Lisp dasturlash tilini yaratish bilan birga paydo bo'ldi. Sun'iy intellekt dasturlarining katta qismi Lispda yozilgan [4, 848-b.]. Lispdagi ro'yxatlar Delphidagi obyektlar kabi bilimlarni aks ettirishning asosiy vositasidir. Masalan, ichki ro'yxatlar yordamida odamning o'ziga xos xususiyatini ifodalash mumkin: (xodim), (ismi Anvar), (otasining ismi Abdullayevich), (Farmonov familiyasi), (ta'lim (o'rta (1990-yildan 2008 yilgacha)), (oliy (QDPI (2008-yildan 2012 yilgacha)), Farg'ona davlat universiteti, Moskva (2016 yildan 2022 yilgacha)) (mutaxassislik), (texnik kibernetika), (dasturlash), (tajriba (2016 yildan 2022 yilgacha)). Lispning dasturlashdagi funktsional yondashuvi ma'lumotni qayta ishlash va kerakli natijani olish ba'zi harakatlarni bajaradigan ichki va / yoki rekursiv funksiya chaqiruvlari sifatida ifodalanishi mumkin, shuning uchun bitta funktsiyaning qiymati boshqasiga argument sifatida ishlatilishi mumkin degan fikrga asoslanadi. Ushbu funktsiyaning qiymati keyingisining argumentiga aylanadi va yakuniy natija – masalaning yechimi olinmaguncha davom etadi. Dasturlar mantiqiy bo'lingan funksiya ta'riflaridan qurilgan. Ta'riflar hisob-kitoblarni va ichki funksiya chaqiruvlarini tashkil qiluvchi boshqaruv tuzilmalaridan iborat. Funktsional dasturlashning asosiy usullari kompozitsiya va rekursiyadir. Bularning barchasi rekursiv funktsiyalar nazariyasi g'oyalarini amalga oshirishdir. Shunday qilib, dasturlashni o'rgatishda maxsus tanlangan vazifalar tizimidan foydalanish kerak, uni hal qilishda talabalar axborotni qayta ishlashning turli tamoyillari va usullaridan foydalanish xususiyatlarini o'rganadilar. Shuni ta'kidlash kerakki, dasturlash – bu fanlardan biri bo'lib, uni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun nafaqat olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llash, balki mavhum va mantiqiy fikrlash va tadqiqot qobiliyatiga ham ega bo'lish kerak. O'z navbatida, dasturlash paradigmatlarining integratsiyalashuviga asoslangan dasturlashni o'rgatish ana shunday qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Talabalarga dasturlashning turli tamoyillarini o'rgatish ularda turli xil dasturlash paradigmalari asosida turli uslublar bilan fan sohasini modellashtirish va loyihalash qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi. Dasturlashni o'rgatishda ularni hal qilishda yondashuvlar farqini ko'rsatadigan vazifalar tizimidan foydalanish kerak. Dasturlashning turli tamoyillarini o'rganishda talabalar axborotni strukturalash va qayta ishlashning turli usullari va tamoyillaridan foydalanish xususiyatlarini o'rganadilar.

Adabiyotlar:

1. Братко И. Программирование на языке ПРОЛОГ для искусственного интеллекта. - М.: Мир, 1990. - 559 с.
2. Буч Г. Объектно-ориентированный анализ и проектирование с примерами приложений на C++. - СПб.: Невский диалект, 2000. - 560 с.
3. Дарахвелидзе П.Г., Марков Е.П. Программирование в Delphi 7. - СПб.: БХВ-Петербург, 2005. - 784 с.
4. Могилев А.В., Пак Н.И., Хеннер Е.К. Информатика: Учебное пособие для студентов педвузов. - М.: АCADEMIA, 2004. - 848 с.
5. Халитова З.Р. Развитие абстрактно-логического мышления будущих учителей информатики при обучении программированию на основе интеграции различных парадигм // Филология и культура. Вестник ТГГПУ. - Казань, 2012. - № 1(27). - С. 273-277.
6. Шустова Е.П. Изучение нечеткого моделирования с использованием Mathematica 8 при подготовке специалистов на кафедре прикладной информатики КФУ // Образовательные технологии и общество. - М., 2012. - Т. 15. - № 4. - С. 536-549.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ УРОКОВ «ТЕХНОЛОГИИ» В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Рузиева Зулайхо Саматовна, докторант ТГПУ

Аннотация. Предмет «Технология» и методы ее обучения связаны с педагогикой, психологией, изобразительным искусством, естественными науками. Подготавливает учеников к практической работе и дает им рабочие навыки и умения. Образовательная ценность технологий способствует развитию наиболее важных волевых и моральных качеств в интеллектуальном развитии учащихся, воспитывая в них чувство трудолюбия, ответственности, дисциплины, чувства долга, обобщенность.

Ключевые слова: технология, подход, индивидуальные способности, начальная школа, психология, дидактика, действие, самоконтроль, наглядность, эстетика.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA «TEXNOLOGIYA» DARSLARINI LOYIHALASH

Ruziyeva Zulayxo Samatovna, TDPU doktoranti

Annotatsiya. Texnologiya fani va uni o‘qitish metodikasi pedagogika, psixologiya, tasviriy san‘at, tabiiy fanlar bilan bog‘liq. Talabalarni amaliy ishlarga tayyorlaydi, ularga mehnat ko‘nikma va malakalarini beradi. Texnologiyaning tarbiyaviy ahamiyati talabalarning intellektual rivojlanishidagi eng muhim irodaviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi, ularda mehnatsevarlik, mas‘uliyat, intizom, burch tuyg‘usi, umumlashtirish tuyg‘ularini singdiradi.

Tayanch so‘zlar: texnologiya, yondashuv, individual qobiliyat, boshlang‘ich maktab, psixologiya, didaktika, harakat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, ko‘rinish, estetika.

DESIGNING LESSONS «TECHNOLOGY» IN ELEMENTARY SCHOOL

Ruziyeva Zulaykho Samatovna, doctoral of TSPU

Abstract. Technology and methods of its teaching are connected with pedagogy, psychology, fine arts, natural sciences. Prepares students for practical work and gives them working skills and abilities. The educational value of technology contributes to the development of the most important volitional and moral qualities in the intellectual development of students, instilling in them a sense of diligence, responsibility, discipline, a sense of duty, and generalization.

Key words: technology, approach, individual abilities, elementary school, psychology, didactics, action, self-control, visibility, aesthetics.

Введение. Название предмета «Технология» пришло в начальную школу в конце XX века, но в настоящее время в речи по-прежнему употребляется учителями и родителями «урок труда», «урок трудового обучения» и, как следствие, этот термин используется детьми. Но самое главное, что с новым названием эта учебная дисциплина приобрела и новую образовательную направленность. Государственным образовательным стандартом Республики Узбекистан поставлены новые цели, также изменился подход к организации самого процесса обучения [1]. Стандартом предполагается использование системно-деятельностного подхода, который предполагает обеспечение соответствия учебной деятельности обучающихся их возрасту и индивидуальным особенностям. Данное требование стандарта распространяется на все учебные предметы, преподаваемые в начальной школе. Однако урок технологии имеет свои специфические особенности, которые отличают его от всех остальных уроков начальных школьников.

Основная часть. К специфическим чертам урока «Технология» относится то, что они [2, с. 10]: 1) Строятся на уникальной психологической и дидактической базе – предметно-практической деятельности и, как следствие, на этих уроках более ярко представлены наглядно-образная и наглядно-действенная формы познания. Согласно современным научным исследованиям познавательная деятельность человека едина, формирование новых умственных действий образуется из практического внешнего действия, которые были ранее в опыте человека. Это особо актуально для современных учеников начальных классов, так как запас практического опыта весьма беден, особенно, у детей. Особенность уроков практического труда состоит в том, что в них понятийные (абстрактные), образные (наглядные) и практические (действенные) компоненты мыслительной деятельности занимают равноправное положение, реально взаимодействуют между собой. 2) Имеют исключительное значение в формировании социально значимых умений и творческих качеств личности. На уроках «Технология» обучающиеся приобретают опыт практической деятельности, учатся мастерству в различных видах рукоделия. М. Тилаовой обозначается следующая проблема развития современного общества: «не всем детям доступно посещение различных кружков и объединений. Причины этого во многих факторах: от занятости родителей и недостаточном внимании к полноценному развитию своих детей до высокой стоимости занятий» [3]. Школа должна создать у ребенка базу, состоящую из соответствующих умений и некоторого уровня информированности (т.е. знаний о том, что существуют такие интересные виды деятельности). На этой базе и будет формироваться дальнейший интерес школьников, желание найти соответствующий кружок и т.д. Влияние практической деятельности на умственное развитие обусловлено тем, что обучающемуся требуется соединять практические действия с выполнением мыслительных операций. Методически грамотная разработанная организация практической деятельности учеников, требующая решения конструктивных задач, способствует выработке таких важных качеств мышления, как конструктивность и гибкость, активно формирует познавательные процессы и в результате, с учетом возрастных особенностей учеников начальных классов, значительно эффективнее способствует их интеллектуальному развитию, чем сугубо отвлеченная умственная деятельность. Эстетическое развитие может осуществляться на всех этапах деятельности ребенка на уроке, там, где они проявляют эстетическое отношение к объектам, условиям, процессу и результатам деятельности. Выполнение заданий предполагает учет основ композиции, средств ее гармонизации, правил художественной комбинаторики, особенностей художественного стиля.

Эффективность духовно-нравственного развития М.М. Тилаова связывает с направленностью содержания, с освоением проблемы гармоничной среды обитания человека, конструируемой по правилам современного дизайнера. Активное изучение образов и конструкций природных объектов как источников идей для художника-конструктора способствует развитию духовности и нравственных принципов детей. Кроме того, знакомство учеников начальных классов на уроках технологии с народными ремеслами и народными традициями имеет огромный нравственный смысл. Физическое развитие обусловлено тем, что работа на уроке сочетает в себе умственные и физические действия детей [3, с. 3-4]. Выполнение практических заданий связано с определенной мускульной работой, в результате которой активизируются обменные процессы в организме, а вместе с ними - рост клеток и развитие мускулов. Практические операции на уроках ускоряют и гармонизируют физическое развитие ребенка. Реализация принципа сознательности начинается с раскрытия перед учащимися задач трудового обучения и конкретных целей урока.

Активность их проявляется в ходе самостоятельного овладения теоретическим материалом, выполнения трудовых заданий, решении творческих задач. Они учатся самостоятельно планировать работу, определять способы ее выполнения, контролировать ход и результаты, вносить коррективы. При получении технико-технологических знаний учащиеся должны не только запомнить новые термины и определения, но и осмыслить их содержание, связать с конкретными трудовыми процессами. В противном случае, будет развиваться формализм в знаниях, когда школьники пересказывают материал (с самого начала и только подряд), но не понимают его сущности и не умеют применить в практических делах. Одной из причин формализма является догматическое изложение материала учителем (иногда в виде диктовки) и усвоение его учениками без мыслительного анализа. Средством развития мышления учащихся и сознательного усвоения знаний является постановка перед ними познавательных задач, использование эвристических бесед и проблемного изложения материала, составление и решение экспериментальных задач, применение знаний в практической работе и др. Речь ученика развивается в тесной связи с мышлением. Ее недостатки тормозят развитие мышления. Поэтому учителю необходимо следить за речью школьников и исправлять погрешности, вырабатывать у них привычку точно выражать свои мысли, правильно применять термины.

Прочность усвоения учащимися знаний, умений и навыков. В процессе трудового обучения ученики овладевают знаниями, умениями и навыками, которые необходимы им для будущей трудовой деятельности и становятся базой для овладения новым материалом. Без этой базы не может быть роста учащихся, продвижения их вперед. Усвоение знаний, умений и навыков способствует развитию памяти, логического мышления, творческой активности и самостоятельности школьников в различных видах деятельности. Но чтобы приобретенные знания, умения и навыки выполняли указанные функции, они должны быть прочно усвоены, основательно закреплены и длительное время сохраняться в памяти учащихся. Прочность знаний умений и навыков достигается всем ходом учебного процесса. Одним из условий реализации этого принципа является знание учениками целей изучения данного материала и выполнения трудовых заданий. Для этого в начале каждого занятия им указывается, что нужно изучить и запомнить, для какой цели это необходимо, когда и в каких условиях они будут применять полученные знания и умения. Более прочно усваиваются знания и умения, преподносимые наглядно и в строго логической последовательности. Большую роль в этом играет также правильная дозировка изучаемого материала и трудовых заданий во времени, применение систематических упражнений, обеспечивающих не только приобретение, но также поддержание и закрепление знаний, умений и навыков, развитие мышления учеников. Прочное усвоение приемов работы обеспечивается опорой практики учащихся на теоретические знания.

Таким образом, прочность усвоения достигается реализацией всех принципов обучения. Наряду с этим в обучении применяют специальные дидактические средства, обеспечивающие реализацию принципа прочности. К ним относятся закрепление изложенного на уроке материала. Проводится оно путем беседы с учащимися, организации упражнений, решения задач и т.д. Закрепление показанных приемов работы осуществляется в ходе пробного выполнения их учениками. Для предупреждения забывания материала, восстановления в памяти забытого, систематизации и углубления знаний, умений и навыков регулярно проводятся различные виды повторения (на каждом уроке, в конце изучения темы и по всему материалу). В ходе занятий учитель должен проводить работу по развитию памяти уча-

щихся. С этой целью им даются задания по заучиванию терминов, цифровых данных. Заучивание может быть механическим и осмысленным. Механическое заучивание достигается многократным повторением материала. Чаще всего так заучиваются название инструментов, материалов, деталей машин, имен дат и т.д. Осмысленное запоминание строится на установлении логической связи нового материала с уже известным, название различных объектов с их назначением, свойствами, применением (если эти связи существуют и их можно вскрыть). По сравнению с механическим запоминанием оно обеспечивает прочное закрепление материала в памяти учащихся при меньших затратах времени на его заучивание.

Большую роль в достижении прочного усвоения учениками знаний, умений и навыков играет поддержание у них интереса к работе. Это достигается соответствующим подбором изделий, конструкторских задач для учащихся, включение их в работу по рационализации и творчеству.

Наглядность в трудовом обучении требует, чтобы на занятиях учитель широко опирался на чувственно-практический опыт школьников, непосредственное восприятие ими изученных предметов и трудовых процессов. Чем разностороннее эти восприятия, тем глубже знания школьников. Образцы изученных предметов могут восприниматься или при демонстрации учителем различных наглядных пособий (внешняя наглядность) или же обучение опирается на опыт учеников и ранее проведенные наблюдения (внутренняя наглядность). Использование наглядности повышает внимание учащихся, углубляет их интерес к изучаемому материалу, способствует развитию органов чувств, наблюдательности и мышления. Чувственное восприятие играет большую роль в трудовом обучении, но оно представляет лишь начальную ступень познания. Следующий его этап - абстрактное мышление. Восприятие должно сопровождаться и направляться активным мышлением, которые ставит познавательные задачи, дает план наблюдений, обобщает его результаты. В противном случае, могут воспринимать вместо главного второстепенные детали. Большую роль в сознательности и активности играет обучение учеников анализу технологических процессов, организации своего рабочего места и труда, приема творческой деятельности. Ученики участвуют в разработке технологической документации, чертежей изделий и выполняют работу по их изготовлению, в ходе которой овладевают трудовыми умениями и навыками.

Вывод. Благодаря приведенным выше факторам усвоение учениками трудовых действий не будет только механическим показанным учителем приемом работы. Они выполняют их с полным пониманием всей технологии в целом и отдельных ее элементов. Учащиеся представляют образец будущего результата своих действий и возможные последствия неверного выполнения их. Наличие образца позволяет им осуществлять самоконтроль и исправлять допущенные ошибки.

Литература:

1. Государственный образовательный стандарт Республики Узбекистан № 187 от 6 апреля 2017 года.
2. Жмакина Н.Л. Проектирование уроков «Технологии»: Учебное пособие. - Н.: НВГУ, 2021.
3. Тилавова М.М. Методика преподавания технологии в начальных классах: Учебное пособие. - Т., 2021.

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Bo'riboeva Dilraboxxon Norboy qizi, GulDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompyuter grafikasining muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishdagi o'rni va zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash dasturlarini o'qitishning takomillashtirilgan usuli o'z aksini topgan.

Tayanch so'zlar: CAD, tabiiy o'zlashtirish, sun'iy o'zlashtirish, kompyuter grafikasi, muhandislik grafikasi.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ГРАФИЧЕСКИХ ПРОГРАММ В ОБУЧЕНИИ ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКЕ

Бурибоева Дилрабохон Норбой кизи, базовый докторант ГулГУ

Аннотация. В статье отражена роль компьютерной графики в обучении инженерной графики и приведён усовершенствованный метод обучения современным программам автоматизированного проектирования.

Ключевые слова: CAD, естественное усвоение, искусственное усвоение, компьютерная графика, инженерная графика.

METHODOLOGY OF USING MODERN GRAPHIC PROGRAMS IN TEACHING ENGINEERING GRAPHICS

Buribayeva Dilrabokhon Norboy kizi, basic doctoral student of GulSU

Abstract. The role of computer graphics in the teaching of engineering graphics and the improved method of teaching modern automated design programs are reflected in this article.

Key words: CAD, natural assimilation, artificial assimilation, computer graphics, engineering graphics.

Kirish. Hozirgi kunda oliy ta'lim tashkilotilarda o'qitilayotgan «Kompyuter grafikasi» fanining o'rni va ahamiyati, ijtimoiy hayotimizda zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishida hamda barcha soha mutahassislarini o'z ish faoliyatlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarining kengligida deb qarash mumkin. Shuning uchun ham, ayni paytda respublikamiz oliy ta'lim tashkilotilarda kompyuter grafikasini turli sohalariga bo'lib o'rganish, uning imkoniyatlaridan qator sohalarida foydalanishning metodik asoslarini yaratish, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda hayotimizga kirib kelayotgan yangi sohalar (ixtisoslashgan rassom, mahsus effektor, vektorli art-ustasi, CAD-ustasi, modeler, animator, teksturachi, vizualizator va h.k.) kabi malakali mutaxassislar bilan ta'minlash masalasi oliy ta'lim tashkilotilarda «Kompyuter grafikasi»ni fan sifatida o'qitilishiga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib keldi. Bugungi kunda oliy ta'lim tashkilotilarda «Kompyuter grafikasi» fanini o'qitishda talabalarni fanga nisbatan maqsadli harakatlarini shakllantirish va shu orqali biror bir natijaga erishish mumkinligini singdirishda, kerakli pedagogik va psixologik vositalarni amalda qo'llash va ularni ilmiy asoslash muhimdir.

Asosiy qism. Kompyuter grafikasi – grafik displey (monitor) ekranida tasviriy informatsiyani vizuallashtirish («ko'rinadigan» qilish). Tasviri qog'ozda, fotoplyonkada, kinolenta

va boshqalarda aks ettirish usulidan farqli ravishda kompyuter grafikasida kompyuterda hosil qilingan tasvirni darhol o'chirib tashlash, unga tuzatish kiritish, istalgan yo'nalishda toraytirish yoki cho'zish, yaqinlashtirish va uzoqlashtirish, rakurenn o'zlashtirish, burish, harakatlantirish, rangini o'zgartirish va boshqa amallarni bajarish mumkin. Kitoblarni bezash, rasm va chizmalarni tayyorlashda buyumlarni loyihalash va modellarini yasashda, telereklamalar yaratishda, televizion eshittirishlar «qistirmalari»ni (zastavkalari), multfilmlarni yaratishda, kinofilmlarda qiziqarli kadrlar hosil qilish va boshqa ko'p sohalarda qo'llaniladi. Ma'lumki, OTMga kelgunga qadar talabalar «Kompyuter grafikasi» fani bo'yicha kerakli boshlang'ich bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsalar, ularning grafika fanlarida zarur bo'lgan fazoviy tasavvurlari, chizmani o'qiy olish xususiyatlari shakllanadi. Bu esa, bunga oid kurslarni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimidan boshlanishi maqsadga muvofiqligidan dalolat beradi. Qator tadqiqotchilarning bu boradagi ilmiy izlanishlari tufayli, amaliy tadbirga ta'lim jarayoniga katta samaralar bera oladigan ilmiy natijalarga erishilmoqda.

K.A.Grebennikov tomonidan «Dizayn» mutaxassisligi bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida umumkasbiy fanlarni o'qitishda kompyuter grafikasidan foydalanishning pedagogik va texnologik asoslarini ishlab chiqish muammosi o'rganilgan. Ushbu tadqiqot ishida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida mutaxassis – dizaynerlarni kasbiy tayyorlashda kompyuter grafikasidan foydalanishning pedagogik modeli yaratilgan va unda kompyuter grafikasining ahamiyati ochib berilgan.

Ye.M.Tretyakova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida kasb-hunar kollejlarda qurilish mutaxassisligi uchun «Kompyuter grafikasi» fani mazmunini loyihalash va uni amalga oshirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Unda «Kompyuter grafikasi» maxsus kursi loyihalaniib, u bo'yicha ishlab chiqilgan na'munaviy dastur asosida o'qitilgan talabalarning kompyuter texnologiyalarini foydalanishga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish mumkinligi ilmiy asoslangan va tajribada isbotlangan. Shuningdek, D.C.Saidahmedova olib borgan ilmiy izlanishlarda kasb-hunar kollejlarda «Texnik chizmachilik» o'quv fanini kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib, o'qitishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Dissertant didaktik o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilar o'quv-bilish jarayonini faollashtirish metodikasi, uning pedagogik shart-sharoitlari yaratish va «Texnik chizmachilik» fanini o'qitishda kompyuter grafikasini qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab bergan. Muallif, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun interfaol metodlar, didaktik o'yinlar va kompyuter texnologiyalariga asoslangan holda «Texnik chizmachilik» nomli multimediali elektron o'quv qo'llanmasini ishlab chiqqan va uni an'anaviy usulda o'qitish bilan uyg'unlashtirib, o'qitish metodikasini takomillashtirgan, jumladan, o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishga, chizmalarni to'g'ri va tez o'qishga, shuningdek, ularda kuzatuvchanlik, topqirlik va ziyraklik kabi fazilatlarini shakllantirishga mo'ljallangan topshiriqlar, kompyuterda foydalaniladigan intellektual o'yin dasturlari tarzida («Krossvord», «Rebus», «Charxpalak» va «Labirint») ishlab chiqilgan.

L.V.Pavlova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida texnika yo'nalishidagi talabalarning muhandislik grafikasi va kompyuter grafikasi bo'yicha bilimlarini shakllantirishda qiziqarli masalalardan va grafik fanlarni o'qitishda kompyuter grafikasidan foydalanish hamda AutoCAD grafik dasturi yordamida talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish mumkinligini ilmiy asoslangan.

M.V.Matveevaning fikricha, talabalar tayyor grafik, animatsion va videolavhali o'quv materiallarni o'zlashtirish vaqtida kompyuter grafikasining illyustrativ funksiyasi bajariladi.

Ular bilimni o'rganilayotgan obyektning matematik modelini tuzish orqali o'zlashtirsalar, kompyuter grafikasining kognitiv funksiyasi bajariladi. Kompyuter grafikasining illyustrativ va kognitiv funksiyalari shartli ravishda farqlanadi. Bir tomondan, oddiy grafik tasvir ham talabada yangi g'oya tug'ilishiga yoki unda yangi qirralarning ochilishiga sabab bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, kognitiv funksiyasi har doim ham to'liq amalga oshmaydi, masalan, talaba o'rganilayotgan obyektning allaqachon ma'lum bo'lgan xususiyatlarinigina aks ettirganda, shunchaki illyustrativ funksiyasi bajariladi [5]. Xindistonlik olim J.Rash o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida «Kompyuter grafikasi» fanini o'qitishdan asosiy maqsad ishlab chiqarish masalalarini kompyuterda loyihalash bo'yicha talabalarda ijodiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozimligini ko'rsatgan.

Kompyuter grafikasi – kompyuterdagi grafika yoki kompyuter yordamida yaratilgan grafikadir. Kompyuter grafikasi rasm chizish va modellashtirish vositasi sifatida ishlatiladi. Agar kompyuter grafikasi monitoridagi rasm deb tushunilsa, u holda kompyuter grafikasi kompyuter bilan bir vaqtda paydo bo'lgan deyish mumkin. Ba'zan, kompyuter grafikasini ro'yobga kelishini kompyuter o'yinlari paydo bo'lgan vaqt – yil bilan bog'laydilar. Boshqacha qilib aytganda, kompyuter grafikasi – bu yangi axborot texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanib, u avtomatik loyihalash tizimining mazmunini tashkil etadi. «Zamonaviy avtomatik loyihalash tizimi chizmani «elektron chizmaga» aylantiribgina qolmay, balki kompyuter texnikasi o'zining ma'lumotlar bazasi kengligi va obyektlarni geometrik modellashning samarali usullaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan ajralib turadi. Grafik dasturlarda axborot bilan ishlash insonning ko'rish, eshitish va sezish organlariga qaratilgan bo'ladi, ya'ni axborot berish uchun tasvir va tovushdan keng foydalaniladi. Asosiy maqsad, axborotni tasvir va tovushga aylantirishdan iborat. Bugungi kunda juda ko'plab kompyuter grafik dasturlari mavjud bo'lsada, ular bir birlaridan o'zaro qo'llanilish sohalariga qarab farqlanadi. Har bir soha mutaxassislari o'z faoliyatlari uchun qulay bo'lgan grafik dasturni tanlaydilar. Dasturlarning imkoniyatlari ham ma'lum bir sohaga yo'naltirilgan. Shuning uchun, grafik dasturni tanlashda, avvalom bor, uning imkoniyatlarini inobatga olish lozim. Aksariyat hollarda grafik dasturni qo'llashdan oldin boshqa bir dasturlarni yoki fanlarni o'zlashtirishga ehtiyoj seziladi. Talaba ongida fazoviy tasavvurni rivojlantirish uchun, avvalo, unda fanga nisbatan qiziqish shakllangan bo'lishi va bu qiziqish asosida bilim olishi hamda ularni esda saqlashi, bilimlar yig'ilib ko'nikma va malakalarga aylanishi kuzatiladi. Talaba egallagan bilim, ko'nikma va malakalariga tayangan holda berilgan muammoni ongida tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Talabaning fazoviy tasavvuri to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, uning yuqorida keltirilgan xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Kompyuter grafikasida fazoviy tasavvurga yaxlit olib kelinadigan grafik obyektlarning har bir komponenti ham texnik ham grafik tarzda uzviy bog'langan bo'lib, bu holat fazoviy tasavvurini kengaytiradi, amallarning to'g'ri bajarilishini va to'g'ri xulosa chiqarilishini, boshqacha aytganda, texnik va grafik bog'lanishni ta'minlaydi. Masalan, agar biz «konus kesimlari» tushunchasini fazoviy tasavvur qiladigan bo'lsak, u holda, avvalo, konus, tekislik va konusning tekislik bilan kesishish vaziyatlarini birma-bir tahlil va sintez qilishimiz lozim. Bu esa, o'z navbatida, inson ongining kengayishiga va asta-sekin shaxsning real fazoviy grafik tasavvurini rivojlantirish imkoniyatini yaratishga olib keladi. Grafik fanlarni o'qitish mobaynida talabaning ijodiy faolligini rivojlantirishda fazoviy grafik tasavvur bilan birgalikda ijodiy grafik tafakkurei rivojlantirish muammosi dolzarbdir.

Tabiiy o'zlashtirish – insonning fe'l atvoridan kelib chiqqan yoki irsiy tomondan yuqtirilgan bo'lishi mumkin. Tabiiy o'zlashtira oladigan talabalar masalani yechish jarayonida

(masalan, detal chizmasini uchinchi ko'rinishi va yaqqol tasviri yasashda) uning yechimi qanday bo'lishi haqida fazoviy tasavvur qila oladilar. Bunday talabalar dars jarayonida ham mavzuni tez tushunib grafik topshiriqlarni yechishda o'qituvchi tomonidan bitta namuna keltirilishi bilan kifoyalanadilar. Lekin barcha talabalarda ham yuqorida keltirilgan tabiiy o'zlashtirish jarayoni kuzatilavermaydi. Ular o'zlari harakat qilgan taqdirda ham masalani yechimini tasavvur eta olmasliklari mumkin. Shuning uchun bunday paytda sun'iy o'zlashtirish jarayonidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sun'iy o'zlashtirish – bunda talabalar masalani turli qonun qoidalarga muvofiq bajarib, turli dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan foydalanish orqali masalani yechishga muvaffaq bo'ladilar. Sun'iy o'zlashtirishda talabalarning ijodiy faoliyatlari kengayadi va borgan sari kasbiy bilim va ko'nikmalari malakaga aylanadi. Natijada, fanni sun'iy o'zlashtirilgan talaba tabiiy o'zlashtira oladigan talabadan kuchli bilim darajasiga ega bo'lishi kuzatiladi. Har ikkala o'zlashtirish jarayonida ham talabadan avvalo fan bo'yicha mustaqil ijodiy faoliyat olib borish talab etiladi. Tabiiy o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan talabada fanni o'zlashtirishga bo'lgan ko'nikma tezroq rivojlanadi. Sun'iy o'zlashtirishda esa, dastlab sust, bilimlar darajasi ortgan sari ko'nikmani egallash jadallashadi.

Xulosa. Zamonaviy AutoCAD (Auto Computer – Aided Design – kompyuter yordamida avtomatik loyihalash) tizimi interfeysi kompyuterning eng zamonaviy vositalari va texnologiyalarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda yaratilganligi bois, u chizma va sxemalarni, loyihalash masalalarini yuqori darajada sifatli bajarilishini kafolatlaydi. Kompyuter grafikasi fanini o'qitishda 3D modellashtirish (uch o'lchamli loyihalash)ning turli usullaridan foydalanish dars jarayonida talabalarni fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiribgina qolmay, balki grafik tizimlarning imkoniyatlarining deyarli barchasidan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu talabada, bir tomondan, o'z ustida ishlashga majbur bo'lish motivini hosil qilsa, ikkinchi tomondan, ijodiy faoliyat olib borish motivini faollashtiradi.

Adabiyotlar:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: Cho'lpon, 2005.
2. Raxmonov I., Qirg'izboyeva N., Ashirboyev A., Valiyev A., Nigmanov B. Chizmachilik. - T.: Voris-nashriyot, 2016. - 456 b.
3. Ashirboyev A., Valiyev A., Nigmanov B. Chizmachilik. - T.: Voris-nashriyot, 2016. - 456 b.
4. Аширбаев А. Чизмачилик таълимнинг узвийлигини таъминлаш ва уни такомиллаштириш масалалари // Грааль науки. - В., 2021. - № 6. - С. 434-439.
6. Аширбаев А. Chizmalarga o'lcham qo'yishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tipik xatolar va ularning oldini olish omillari // Общество и инновации. - Т., 2021. - № 2(3). - С. 7-15.

FIZIKANING MEXANIKA BO‘LIMINI O‘QITISH JARAYONIDA INTERFAOL TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ibadullaev Aydos Abdullaevich, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga qo‘llash haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ta‘lim muassasalarining o‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari, innovatsion texnologiyaning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar: *innovatsion jarayon, interfaol texnologiyalar, sifat, samaradorlik, muammolar, texnologiya, pedagogik faoliyat, fizika.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РАЗДЕЛА МЕХАНИКИ В ФИЗИКЕ

*Ибадуллаев Айдоc Абдуллаевич,
преподаватель Нукусского горного института при Навоийском
государственном горно-технологическом университете*

Аннотация. В статье речь идёт о проблемах внедрения в учебный процесс современных педагогических технологий. Кроме того, автор показал роль и значение современных методов обучения, инновационных технологий в учебно-воспитательном процессе образовательных учреждений.

Ключевые слова: *инновационный процесс, интерактивные технологии, качество, эффективность, проблемы, технология, педагогическая деятельность, физика.*

USE OF INTERACTIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING THE SECTION OF MECHANICS IN PHYSICS

Ibadullaev Aidos Abdullaevich, teacher of Nukus mining institute at the Navoi state mining and technology university

Abstract. The article deals with the problems of introducing modern pedagogical technologies into the educational process. The author also showed the role and importance of modern teaching methods, innovative technologies in the educational process of educational institutions.

Key words: *innovation process, intractive technologies, quality, efficiency, problems, technology, pedagogical activity, physics.*

Kirish. Jahonda «oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish» [1], ta‘lim-tarbiya jarayonlarini zamonaviy: texnologik, tizimli, faoliyatli, kompetentsiyaviy, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish dolazrb ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism. Ilg‘or pedagogik tajribalar va ta‘lim nazariyasiga oid yutuqlarni fizika o‘qitish amaliyotga joriy etish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. O‘qituvchining pedagogik faoliyatiga samarali joriy etish uchun ko‘plab tajribalar vujudga kelmoqda. Biroq kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchilar va bo‘lajak

mutaxassislarda amaliyotda mavjud bo'lgan tajribalarni o'zlashtirish ehtiyoji to'liq shakllanmagan. Mazkur tajribalarni tanlash, tahlil qilish, amaliy ko'nikma va amaliyotga tatbiq etish malakalari ham yetarlicha tarkib topmagan. Amaliy faoliyat jarayonida o'qituvchilar o'zlarining shaxsiy tajribalari va kasbdoshlarining faoliyatlarini tahlil qilishga yetarlicha e'tibor qaratmayapti. Jahon fizika fani va pedagogikasida C.Benjamin, J.Ch.Shing, R.Feynman, B.Bespalko, Yu.K.Babanskiy, V.L.Larin, M.Klarin, E.F.Zeer, G.Landsberg kabi olimlarning tadqiqotlarida ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangilash, fizika fanini o'qitishda pedagogik interfaol texnologiyalarni qo'llash masalalari tadqiq etilgan. Respublikamizda fizikani o'qitishning dolzarb muammolari M.Djoraev, K.Tursunmetov, S.Qahharov, M.Qurbanov va boshqada uslubiyotchi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Pedagogikada innovatsion model, metodlarni ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va takomillashtirish masalalari N.Azizxo'jaeva, N.Saidaxmedov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan. Ta'lim tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni tadqiq qilishning ilmiy-nazariy asoslari A.Abduqadirov, B.Abdullaeva, U.Begimqulovlar tomonidan o'rganilgan. Bizga ma'lumki, interfaollik muayyan tartibda kim bilandir o'zaro munosabatga kirishish, muloqot o'rnatishni ifodalaydi. Shuning uchun ham interfaol o'qitish, birinchi navbatda, dialogga asoslangan o'quv jarayonini anglatadi.

Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo'lib, talaba bu faoliyatning subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol ta'lim – bo'lajak mutaxassislardagi kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va bilimlarni amaliyotda qo'llash malakalarni rivojlantirishning eng samarali shakllaridan sanalib, unda talabalarda kreativlik va ijodiylik qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omili bo'lgan shaxs mustaqilligi ta'minlanadi va rivojlantiriladi. O'qitish metodlari bilan bog'liq metodologik nazariyalar Dj.Dyui va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan [2; 19-b.]. Ular didaktikada ilg'or, ya'ni hamkorlik g'oyasini ilmiy jihatdan asoslaganlar. S.L.Rubinshteyn [3; 106-b.] va boshqalar esa, ta'limning sust metodlarini inkor etib, ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashga da'vat etganlar.

Ta'limning bugungi vazifasi o'qituvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona ta'lim harayonida foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz mustaqil ishlash imkoniyatini va sharoitini yaratib berish zarur. Shuning uchun ham, oily ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, innovatsion texnologiyaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid nazariy bilimlari, tajribalari talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ta'lim islohotlari kechayotgan hozirgi kunda pedagog kadrlar salohiyati, ularning kasbiy va metodik mahorati, ilmfan uzviyligi, ta'lim mazmuni va sifatini muntazam oshirib borishga erishish dolzarb masaladir.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda quyidagilar: ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, tajriba, kichik tadqiqot o'tkazishga asoslangan laboratoriya praktikumi, fakultativ va qo'shimcha darslar, individual va guruhli maslahatlar, master-klass, bahsmunozara, anjuman, sayohat, taqdimot, bellashuvlar, talabalarning shaxsiy tashabbusi yoki talablari asosida tashkil etilgan davra suhbatlari, olimlar bilan uchrashuvlar, ko'rik tanlovlar, ochiq darslar kabi mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Interfaol texnologiyalar o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga


ega, ya'ni har bir o'qituvchi ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim.






Qanday shakl, metod va texnik vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar: pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi; o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro samarali hamkorlikni qaror toptirishi; talabalar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha nazariy bilimlarning puxta egallanishini ta'minlashi; talabalarda mustaqil, erkin, kreativ va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi; talabalarining o'z imkoniyatlarini ruyobga chiqara olishlari uchun zarur pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yaratishi; pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarning ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Interfaol usullarning qo'llanilishi – bu jamoa bo'lib fikrlash jarayonida aks etib, o'qituvchi va talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishlari orqali amalga oshiriladi. Aynan interfaol usullarning qo'llanilishi fizikaning mexanika bo'limini o'qitish jarayonini zamon talablari asosida tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aytish mumkinki, fizikaning mexanika bo'limini o'qitish jarayonida interfaol usullarning qo'llanilishi nafaqat o'qituvchi kasbiy mahoratining o'sishiga, pedagogik faoliyatda zarur bo'lgan axborot manbalarini izlashga, pedagogik muammolar yechimini topishga, balki pedagogik vaziyatlarning barcha nozik tomonlarini tushinish, izohlash, tahlil va talqin etish, anglashga ijobiy yordam beradi.

Quyida fizikaning mexanika bo'limini o'qitish jarayonida amaliyotida foydalani- layotgan interfaol metodlardan «Aqliy hujum», «Klaster», «Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim», «Insert» kabi metodlar turli mashg'ulot jarayonida qo'llanilish o'qituvchi va talaba munosabatlariga e'tibor qaratsa, mashg'ulot samaradorligining ortishi, talabalarining yangi nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasi oshishiga, esda saqlab qolish va mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishini ta'minlash orqali shaxsga yo'naltirilgan interfaol ta'limni amalga oshirishda talaba shaxsini o'rganish yo'nalishlari, muloqat usullari, mashg'ulotda talabalarining nazariy bilim darajasi, ilm-fanga qiziqishlari, fizika fanini turlicha o'zlashtirishlaridagi farqlarni hisobga olish, qulay muhit yaratish, talabalarining o'zlashtirishlariga erishish va boshqa masalalar bo'yicha nazariy, metodik va amaliy tajribalarga ega bo'lishi lozim. Yuqorida aytilgan interfaol texnologiyalarning ayrimlariga misollar keltiramiz.

«Aqliy hujum» texnologiyasi



Mavzugi oid misollar va h.	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
 <p> $t_{max} = \frac{v_0 \sin \alpha}{g}$ $h_{max} = \frac{2v_0^2 \sin^2 \alpha}{g}$ $t_{max} = \frac{2v_0^2 \sin^2 \alpha}{g}$ $v_{0x} = v_0 \cos \alpha$ $v_{0y} = v_0 \sin \alpha$ $v_x = v_0 \cos \alpha$ $v_y = v_0 \sin \alpha - gt$ $v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2}$ $\alpha = \arctan \frac{v_y}{v_x}$ $y = x \operatorname{tg} \alpha - \frac{gx^2}{2v_0^2 \cos^2 \alpha}$ </p>			
 <p> $x_{max} = \frac{v_0^2}{g} \sin 2\alpha$ </p>			
 <p> $v_x = v_0 \cos \alpha$ $v_y = v_0 \sin \alpha - gt$ $v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2}$ $\alpha = \arctan \frac{v_y}{v_x}$ </p>			
 <p> $v_x = v_0 \cos \alpha$ $v_y = v_0 \sin \alpha - gt$ </p>			
 <p> <i>vakuunda</i> <i>havoda</i> </p>			

«BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN. BILIB OLDIM» (BBB) grafik organayzeri

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni interfaol texnologiyalar asosida yo'lga qo'yish jarayonida ularning mustaqil xulosalar chiqarishlarini, bir-birlaridan o'rganishlarni tashkil qilish, ularning birgalikda o'qishlari uchun qulay muhit yaratishga alohida e'tibor berish kabilar talab qilinadi. Shundagina talabalar tomonidan fizikaning mexanika bo'limidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishishi, faollikka undashi va ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish imkoniyatlari yanada ortadi. Talabaning ijodiy qobiliyatini va kreativ fikrlashini rivojlantirishda fizikaning mexanika bo'limini o'qitish mashg'ulotlarida muammoli mazmundagi anjuman tashkil etish ijobiy natija beradi. Muammoli mazmundagi anjuman mashg'ulotlari auditoriya sharoiti, talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi va o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qituvchi odatdagi mashg'ulotlarni tashkil etishga qaraganda ko'proq qiyinchilikka duch keladi. Lekin bunday mashg'ulotlarning

samaradorligi an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan yuqori bo'ladi. Muammoli mazmunda anjuman mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish o'qituvchidan tajriba va mahorat talab qiladi. Fizikadan muammoli mazmunda anjuman mashg'ulotlarini tashkil etish fizikaning mexanika bo'limiga doir qo'shimcha ilmiy-uslubiy adabiyotlar o'qish, ma'ruzalar qilish, bahs-munozaralar muammolarni hal qilishni o'rgatadi [4; 12-b.].

Xulosa. Interfaol ta'limning muhim tarkibiy elementi bo'lgan interfaol metodlar o'zining didaktik imkoniyatiga ko'ra interfaol metodlar talabalarning mexanika asoslarini o'rganishga nisbatan ehtiyoj va qiziqishlarini oshirish, motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. O'quv fani doirasida muayyan mavzularni o'rganishda «Barcha omillarni inobatga ol» (BOHO) metodi, «Blits-so'rov», «Toifalash», «Idrok xaritasi», «Qora quti» hamda «Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim» (BBB), «Keys-stadi» kabi interfaol metodlari samarali bo'lib hisoblanadi. «Keys-stadi» metodi ham o'qitishda samaradorlikni ta'minlovchi metodlardan biridir. U o'zining didaktik imkoniyatiga ko'ra, talabalarda o'quv-bilish faolligini, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

Adabiyotlar:

1. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Prezident Farmoni: <http://lex.uz/docs/4545884>

2. Дьюи Дж. Индивидуализация обучения школьников. - Чикаго, 1991.

3. Рубинштейн С.Л. Принцип творческой самодеятельности (к философским основам современной педагогики) // Вопросы психологии. - М., 1986. - № 4.

4. Boymirov Sh.T. Umumta'lim maktabida fizikaning «Elektrodinamika» bo'limini muammoli o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish: Ped. fanl. fals. d-ri (PhD) ... dis. Avtoref. - Termiz, 2021. - 45 b.

TEKNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODIKASI

Usmonova Muxlisaxon Sobirovna, Qo'qon DPI o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada komil insonni ruhan shakllanishida, kamolotga yetishida, kasb-hunar tanlashida, ularning ilmiy bilimlarni egallashida, ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanishlarida, o'zlashtirilgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay bilishlariga, mustaqil fikrlab harakat qilishlariga texnologiya fani mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishining zarurligi borasidagi fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: mehnat, an'ana, texnologiya, mashg'ulot, metodika, nazariya, amaliyot.

МЕТОДИКА ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ ПО ДИСЦИПЛИНЕ ТЕХНОЛОГИЯ

Усманова Мухлисахан Собировна, преподаватель Кокандского ДПИ

Аннотация. В статье рассмотрена необходимость эффективной организации занятий по дисциплине технология в целях духовного становления совершенной личности, зрелости, выбора профессии, приобретения научных знаний, самостоятельности в творческой инициативе и учебной деятельности, мышления, умственного и физического развития, умения применять полученные знания в практической деятельности, самостоятельного мышления, суждения.

Ключевые слова: труд, традиция, технология, занятие, методика, теория, практика.

METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGICAL COURSES

Usmanova Mukhlisakhan Sobirovna, teacher of the Kokand DPI

Abstract. The article discusses the need for effective organization of technological classes in the spiritual formation of a perfect personality, maturity, choice of profession, acquisition of scientific knowledge, independence in creative initiative and educational activities, thinking, mental and physical development, the ability to apply the acquired knowledge in practical activities, independent thinking, and judgments.

Key words: work, tradition, technology, training, methodology, theory, practice.

Kirish. Qadimiy xalqning mehnat an'analari komil insonni ruhan shakllantirish, kamolotga yetkazish va kasb-hunar tanlashga ko'maklashadi. Xalqning mehnat jarayonida hosil bo'lgan mehnat malakalari va xalqning o'ziga xos axloqiy, psixologik sifatlar yig'indisi natijasida paydo bo'lgan mehnat an'analari jamiyat yoki jamoa mavjudligining zaruriy sharoitlarini ifodalaydi, yosh avlod uchun meros sifatida katta avlodlar yetishgan tajribani saqlashga xizmat qiladi. Zero, xalq ommasi kundalik ijodida mavjud bo'lgan mehnat an'analari hayotiydir. O'zbek xalqi asrlar mobaynida o'zining yashash tarzi va turmushining, ijtimoiy hayoti va faoliyat xususiyatlari bilan bog'langan mehnat tarbiyasining mustahkam an'analari ijod qilib, bir vaqtda avloddan-avlodga mehnat mahoratlarini shakllantirish yo'llari va vositalari haqidagi bilimni uzatib borgan. Shu tariqa mehnat an'alarining rivojlanishi bugungi fah-texnika taraqqiyotini rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnika va texnologiyalarning o'рни va roli oshishi natijasida texnologiyalar ham yangilanib va o'zgarib bormoqda. Bu esa, inson qo'l mehnatini yengillashtirishga, mehnat unumdorligini oshirishga, sifatli mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda.

Texnologiya – yunoncha ikki so'zdan – «texnos» (techne) – mahorat, san'at va «logos» (logos) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Texnologiya ish usullarini, uning rejimini, harakatlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Mehnat jarayonida texnika va texnologiyalarning roli mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishdan iborat. Bugungi kun mehnat an'analari va zamonaviy texnologiyalar birligi ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilgan. Bu jarayonda uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan texnologiya fanining mashg'ulotlari alohida o'rin tutadi. Texnologiya fani nazariyasining markazida ta'lim jarayonining asosiy ikki ishtirokchilari: ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar turadilar. Har ikki ishtirokchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, ularning bir-birlariga nisbatan ko'rsatadigan aks ta'sirlari natijasida eng zamonaviy talablarga javob beradigan texnologiya fani mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishiga olib keladi.

Asosiy qism. Ma'lumki, har qanday fan kabi texnologiya fani ham o'zining rivojlanish tarixi, maqsad-vazifasi, mazmun-mohiyati, tamoyil va qonuniyatlari, metod, usul va vositalari yordamida ta'lim oluvchi shaxsi tarbiyasiga yo'naltirilgan. Texnologiya fani mashg'ulotlari ta'lim o'quvchilarni ilmiy bilimlarni egallashlarida, ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanishlariga, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilishlariga, mustaqil fikrlab harakat qilishga, kasb-hunarga qiziqishlariga xizmat qiladi. Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etilishida quyidagi didaktik tamoyillariga amal qilinishi zarur: ongillik va faollik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlaridagi ongillik tamoyili ta'lim oluvchilardagi ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatadi; ilmiylik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlaridagi ilmiylik va tizimlilik tamoyili ta'lim oluvchilarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi; tizimlilik va izchillik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlaridagi tizimlilik va izchillik tamoyili asosida o'qitish bu mashg'ulotlarni qat'iy mantiqiy tartibda olib borib, o'quvchilar bilim ko'nikma va malakalarini izchillik bilan egallab borishlari va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganishni nazardan tutadi. Zero, buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiyning ta'biri bilan aytganda, hamma narsa uzluksiz ketma-ketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlaringiz kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganingizga yo'l ochib berishi kerak; yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlari uchun tanlab olingan fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari, kashfiyotlari ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos kelishi kerak. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning ilmiy bilimlarni egallashi, ularda ilmiy dunyoqarash, tafakkurni rivojlanishi, har bir mashg'ulotlarda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmunini anglab olishi, ularning ijodiy qobiliyatini shakllantirilishi hisobga olinadi. Zero, har bir ta'lim oluvchi o'zining individual jismoniy, psixik va axloqiy xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Ta'lim beruvchining bu xususiyatlarni o'rganishi va hisobga olishi ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va har bir ta'lim oluvchining ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Texnologiya fani

mashg'ulotlarida o'quv materialini ta'lim oluvchining yoshiga va individual xususiyatiga mos holda o'tish uchun ta'lim beruvchi quyidagi shartlarga amal qilishi lozim: ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarining anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi; ta'lim beruvchining o'quv rejasi, o'quv dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va zarur qo'shimcha adabiyotlarni qunt bilan o'rganib chiqishi; guruhdagi ta'lim oluvchilar tarkibi, fan va mavzuning maqsadi hamda xarakteriga, darsning maqsadiga qarab o'qitishning yangi-yangi usullarini qo'llashi; mashg'ulot jarayonida o'z nutqini izchil, tizimli va emotsional, ta'sirli bo'lishiga erishish; mashg'ulot jarayonida ta'lim oluvchilar diqqatini markazlashtira olishi va hokazo; nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlarini nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili asosida tashkil etish – ta'lim oluvchilarning ilmiy bilimlar bilan ishlab chiqarish faoliyat ehtiyojlari asosida paydo bo'lishi va aynan faoliyatga xizmat qilishi, shuningdek, hayot bilan bog'lanishi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llash lozimligini ta'minlaydi.

Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etilishida nazariya va amaliyot birligi tamoyilining tadbqiq quyidagi xulosalarga olib keladi: har qanday bilimning to'g'riligi amaliyotda sinalib, tasdiqlanadi; amaliyot – haqiqat mezoni, bilishning manbai va tadqiqot natijalarining qo'llanish qo'lami; to'g'ri tashkil qilingan ta'lim-tarbiya hayotdan kelib chiqadi; ta'lim-tarbiyaning samaradorligi uning amaliyot bilan qanchalik bog'liqligi bilan belgilanadi; bilim berishning samaradorligi. Uning kasb ta'limi bilan bog'liqligi bilan belgilanadi; berilayotgan bilim hayot bilan qanchalik bog'lansa, bolalardagi bilim egallash shunchalik ong'li kichadi; ko'rsatmalilik tamoyili. Texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishdagi ko'rsatmalilik tamoyili – ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy amaliy tajriba orqali bilimlarni ong'li ravishda o'zlashtirishlari, ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilishlariga xizmat qiladi. O'qitish jarayonida ko'rsatmalilik tamoyili asosida ta'lim oluvchilarning ko'rish, eshitish, xid bilish, badan bilan sezish, hatto ta'm bilish sezgilaridan ham foydalanishni talab etadi. Texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning malaka va ko'nikmalarini hosil qilishda mehnat usuli va operatsiyalarini ko'rsatish keng qo'llaniladi. Ko'rsatmalilik ta'lim oluvchilar qiziqishini orttiradi va mavzuni puxta o'zlashtirishga qiziqtiradi, o'tilayotgan mashg'ulot mavzusini yaxshi esda saqlab qolishga yordamlashadi. buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'biri bilan aytganda, ko'rsatmalilik didaktikaning oltin qoidasidir.

Texnologiya fani mashg'ulotlarida bilimlarni mustahkam va puxta o'zlashtirish tamoyili, politexnik tamoyil, texnologiya darslarini unumli mehnat asosida o'qitish tamoyili [1], reduksiya tamoyili, tushunarli bo'lishlilik tamoyili, faollik kabi tamoyillarga ham amal qilishlik mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda dasturil amal bo'ladi. Zero, olimlarning ta'lim tamoyillarining soni va nomi to'g'risidagi fikrlari bir-biridan farq qilsa ham, ammo ularning mazmuni va o'qitish qonuniyatlarini tushunish an'anasi, asosan, bir xildir. Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda didaktik tamoyillar bilan bir qatorda shunday didaktik qoidalar ham mavjuddirki, ularga amal qilish ta'lim beruvchidan alohida mahoratni talab etadi.

Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etilishida quyidagi tavsiyalarni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir: texnologiya fani mashg'ulotlarini pedagogika, psixologiya, tasviriy san'at, tabiatshunoslik fanlari bilan bog'lab olib borish; texnologiya fani mashg'ulotlarida mahalliy ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish; texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini muhokama etib borish; texnologiya fani mashg'ulotlarida xorijiy ta'lim metodikalarini

muntazam o'rgatib borish; texnologiya fani mashg'ulotlarida fanning asosiy iimiy izlanish natijalariga tayanish; texnologiya fani mashg'ulotlarining mazmuni xorijiy o'qituvchilarning ilg'or ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib borish; texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarni amaliy ishga tayyorlash va ularni mehnat malaka va ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlash; texnologiya fani mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning aqliy, iroda va axloqiy sifatlarining rivojlantirilishiga e'tibor berish; texnologiya fani mashg'ulotlarida darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, ko'rgazmali va tarqatma materiallardan unumli foydalanish; texnologiya fani mashg'ulotlarida uzatish qurilmalari yordamida slaydlar va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanish; texnologiya fani mashg'ulotlarida pedagogik va zamonaviy axborot texnologiya yutuqlarini doimiy qollash; texnologiya fani mashg'ulotlarida interfaol usullar, ta'limiy vositalar, didaktik o'yinlarni tadbiiq etish.

Xulosa. Xalqimiz azaldan mehnatni ulug'lagan. Mehnatsevarlik kishilarning eng yaxshi fazilatlaridan biri deb hisoblangan. Kishilar halol mehnat qilib, shuning evaziga topgan daromadlari hisobiga yashamoqlari va bolalarini ta'minlamoqlari lozim. «Peshona teri bilan topgan bir qora chaqa o'zgalarning ehson etgan xazinalaridan yaxshiroqdur», – deb yozgan edi Alisher Navoiy. Bugungi kunda yosh avlodning mehnat tarbiyasida texnologiya fani mashg'ulotlarini to'g'ri va samarali tashkil etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, yoshlarga kasb tanlashida, barkamol shaxs bo'lib yetishishida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishida texnologiya fanining mashg'ulotlari asosiy ko'makchi va muhim manba vazifasini o'taydi. Zero, texnologiya fani mashg'ulotlarida duradgorlik, chilangarlik, tikuvchilik, pazandachilik sohalariga oid kasb-hunarlar bilan tanishtiriladi. Bu tanishtirish yoshlarni kelajak hayotida shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, sohaning mohir mutaxassisi bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Rasulova Z.D. Texnologiya darslarini tashkil etishning didaktik tamoyillari // Science and education: Scientific Journal. October 2021. P. 432. Vol. 2. Issue 10.

ДОСТОИНСТВА И ПРИОРИТЕТЫ МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ИННОВАЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Намазова Рано Давроновна, преподаватель ТГПУ

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы компетентностного подхода к образованию и различные технологии образовательного процесса, модульное обучение и компьютерные обучающие программы. Предлагается переводить процесс обучения с иллюстративно-предъявляющих методик на методики отражательно-преобразующей деятельности мышления студента. Это позволяет технология модульного обучения, созданная с установкой на развитие субъектности обучающегося.

Ключевые слова: модульное обучение, компетенции, компьютерные обучающие, технология обучения, дидактическая система, комплексное обучение.

INNOVATION TA'LIMDA MODULLI TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA USTUVORLIKLARI

Namazova Rano Davronovna, TDPU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limga kompetentsiyaga asoslangan yondashuv va o'quv jarayonining turli texnologiyalari, modulli o'qitish va kompyuter o'quv dasturlari masalalari ko'rib chiqiladi. O'quv jarayonini tasviriy taqdim etish usullaridan talaba tafakkurining aks ettiruvchi va o'zgartiruvchi faoliyati usullariga o'tkazish taklif etiladi. Bu o'quvchining subyektivligini rivojlantirishga qaratilgan modulli o'qitish texnologiyasiga imkon beradi.

Tayanch so'zlar: modulli o'qitish, kompetentsiyalar, kompyuterni o'qitish, o'qitish texnologiyasi, didaktik tizim, keng qamrovli ta'lim.

ADVANTAGES AND PRIORITIES OF MODULAR TRAINING IN INNOVATIVE EDUCATION

Namazova Rano Davronovna, teacher of TSPU

Abstract. This article discusses the competency-based approach to education and various technologies of the educational process, modular training and computer-based training programs. It is proposed to transfer the learning process from illustrative-representative methods to the methods of reflective-transformative activity of a student's thinking. This allows the technology of modular learning, created with a focus on the development of the learner's subjectivity.

Key words: modular learning, competencies, computer-based learning, learning technology, didactic system, integrated learning.

Введение. Традиционно цели образования определялись набором знаний, умений, навыков, которыми должен владеть выпускник. Сегодня социуму нужны выпускники, готовые к включению в дальнейшую жизнедеятельность, способные практически решать встающие перед ними социальные и профессиональные проблемы. А это во многом зависит от полученных знаний, умений и навыков, и от неких дополнительных качеств, для обозначения которых и употребляются понятия «компетенция» и «компетентность», более соответствующие пониманию современных целей образования. Введение этих понятий в педагогическую практику потребует изменения содержания и методов образования,

уточнения видов деятельности, которыми должны овладеть обучающиеся к окончанию учебного заведения и при изучении отдельных дисциплин.

Основная часть. В высшей школе технология обучения представляет собой комплекс педагогических процедур, последовательность операций и действий, составляющих в совокупности дидактическую систему, реализация которой в педагогической практике приводит к достижению конкретных целей обучения и воспитания. В Узбекистане получает распространение модульное обучение, которое позволяет обеспечивать конвертируемость профессионального образования внутри страны и за ее пределами. Модульное обучение имеет четкую организацию процесса самообразования, групповых занятий и заключается в том, что студенту предоставляется возможность самостоятельно работать с индивидуальной программой, включающей план действий, банк информации и методическое руководство по достижению целей. Педагог выполняет различные функции от информационно-контролирующих до консультационно-координирующих. Студент может самостоятельно комбинировать набор модулей в зависимости от своего индивидуального плана.

К ведущим принципам модульного обучения относятся принципы модульности, структуризации содержания обучения на обособленные элементы, динамичности, деятельности, гибкости, осознанной перспективы, разносторонности методического консультирования и паритетности.

В модуле формулируются учебные цели и задачи и варианты их поэтапного достижения, излагаются основные моменты учебного материала, его сущность, предлагаются пояснения к его усвоению на нескольких уровнях сложности. Даются рекомендации для дополнительного углубления и расширения изучаемого материала. Наибольший педагогический эффект в обучении студентов можно получить на основе системного подхода, сочетающего технологию модульного обучения и новые информационные средства: телекоммуникационные, компьютерные, мультимедиа. Такое комплексное обучение позволяет осуществить системный подход к содержанию образования, принять во внимание индивидуальные особенности познавательной деятельности студентов, т.е. реализовать принципы развивающего обучения и учесть особенности слагаемых педагогической системы.

Учебный материал должен иметь такую форму представления содержания, которая бы позволила студенту познать новую учебную информацию самостоятельно. Студент должен последовательно подниматься от уровня знаний-знакомств к уровню знаний-умений. Движущей силой является только внутренняя мотивация студента, осознанное желание изучить новый материал. От студента требуется вполне определенный уровень интеллектуального и личностного развития. Умение учиться, потребность приобретать и пополнять знания, устойчивые навыки самообразования, профессиональная ориентация, карьерная мотивация, пользовательский уровень работы с компьютером и телекоммуникационными средствами. Самостоятельное изучение учебного материала как вид и часть учебной деятельности человека в настоящее время приобретает большое значение. Этот вид учебной деятельности в условиях дневного обучения на самостоятельную работу студентов отводится более 50% учебного времени. Умение самостоятельно учиться, т.е. самообразовываться, вытекает из более общего состояния личности. Научиться управлять собою в жизни, в том числе и в учебном процессе – это важнейшая

задача самовоспитания. Модульная организация учебного процесса имеет неоспоримые преимущества перед традиционной организацией. Все модули по каждой дисциплине должны быть связаны логической и графической схемой, показывающей очередность изучения модулей.

Вывод. Каждый модуль должен содержать замкнутую дидактическую единицу, обеспечивающую приобретение студентом знаний, умений и навыков. Для закрепления полученных знаний по всему курсу и всем модулям должен быть предусмотрен комплексный подход моделирования реальных ситуаций: это может быть деловая игра, новый проект и т.п. Модульное обучение гарантирует студенту получение дидактических результатов, а преподавателю уверенность в эффективности и результативности учебного процесса.

Литература:

1. Абдуллаева Ш.А. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. - СПб., 2019. - С. 4-10.
2. Абдуллаева Ш.А., Зайнитдинова М.А. Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров // Научный результат. Педагогика и психология образования. - М., 2018. - № 4(3).
3. Бабаева З.С. О методике формирования единства традиций и инноваций в подготовке будущих учителей-филологов. - Т., 2021.
4. Байденко В.И. Болонский процесс: структурная реформа высшего образования Европы. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2002. - 128 с.
5. Рузметова С.Т., Абдуллаева Ш.А. Использование цифровых технологий в образовании // Проблемы современной науки и образования. - М., 2021. - № 3 (160). - С. 33-35.
6. Савельев А.Д. Дидактическое обеспечение дистанционного обучения // Информационные технологии в открытом образовании. - М.: МЭСИ, 2001.

**O'QUVCHILARGA TEXNOLOGIYA DARSLARIDA GAZLAMAGA ISHLOV BERISH
TEXNOLOGIYASINI O'RGATISH**

Yusufxodjayeva Firdovusxon Muxtorovna, Qo'qon DPI o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish, texnologiya fani bo'yicha tashkil etiladigan darslar orqali egallagan bilim, ko'nikmalari yordamida kelajak hayotlarida kasb-hunarlardan qay birini egallamasin, o'zi qiziqqan biron bir sohasini mohir mutaxassisi bo'lib yetishishi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, o'quvchilarga texnologiya darslarida gazlamaga ishlov berishni o'rgatishga tizimli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: texnologiya, kasb, gazlamaga, ishlov, bilim, ko'nikma, malakalar.

**ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ТЕХНОЛОГИИ ГАЗОВОЙ ОБРАБОТКИ
НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ**

*Юсуфходжаева Фирдоусхон Мухтаровна,
преподаватель Кокандского ДПИ*

Аннотация. В статье подчеркивается, что при обучении и воспитании современных школьников, направляя их к выбору правильной профессии, с помощью знаний, навыков, приобретенных на организованных уроках по технике, они в дальнейшей жизни смогут стать профессионалами в любой интересующей их области, независимо от того, какую из профессий они приобретут. Кроме того, освещаются особенности системного подхода к обучению учащихся газообработке на уроках технологии.

Ключевые слова: технология, профессия, газификация, обработка, знания, навыки, компетенции

**TEACHING GAS TREATMENT TECHNOLOGY TO STUDENTS
IN TECHNOLOGY LESSONS**

Yusufkhodzhayeva Firdouskhon Mukhtarovna, teacher of Kokand DPI

Abstract. The article emphasizes that when teaching and educating today's schoolchildren, directing them to choose the right profession, with the help of knowledge and skills acquired at organized lessons in technology, they will be able to become professionals in any field of interest to them in later life, regardless of which profession they acquire. It also highlights the features of a systematic approach to teaching students gas treatment in technology lessons.

Key words: technology, profession, gasification, processing, knowledge, skills, competencies.

Kirish. Maktab amaliyotida texnologiya fanining o'qitilishi yosh avlodni har tomonlama yetuk bo'lishida, ularning ta'lim-tarbiya jarayonlarini to'g'ri tashkil etilishida, yoshlarga kasb tanlashlarida, barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishida asosiy ko'makchi va muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Yosh avlod texnologiya fani bo'yicha tashkil etiladigan darslar orqali egallagan bilim, ko'nikmalari yordamida kelajak hayotlarida kasb-hunarlardan qay birini egallamasin, o'zi qiziqqan biron bir sohasini mohir mutaxassisi bo'lib yetishadi. Masalan, duradgor, chilangar, tikuvchi, pazandachilik yoki bashqa soha... Zero, bugungi kunda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish juda muhim hisoblanadi. Chunki tanlangan kasb har bir inson kelajagi bilan bog'liq hamda

yashash tarziga ham ta'sir qiladi. Inson o'zi tanlagan kasb yoki hunaridan zavq olsa, qilgan ishidan mamnun bo'ladi. O'z kasbining ustasiga aylanadi. Demak, yosh avlodni nafaqat kasb tanlashida, balki hayotda ham o'z o'rnini topishida, mustaqil fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishida, har qanday yangilikni o'rganishga erkin kirisha olishiga, umuman, shaxsni tarbiyalash texnologiya fanining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ta'limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, o'quvchilarni kasbiy ta'limga yo'naltirishda, ularga gazlamaga ishlov berishni o'rgatish o'ta muhimdir. Bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanilishi, interaktiv usullardan keng foydalanish lozim bo'ladi.

Asosiy qism. Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi asoslari bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma, malakalar bosqichma-bosqich murakkablashtirilib borilaveradi, bu bilimlar amaliyot orqali esa, mustahkamlanadi. Zero, bilim – kishilarning tabiat jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma'lumotlar; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va qoidalarga zid kelmasa bunda ishonch hisoblanadi. Aslida bilim so'zi lotin tilidan olingan. Hodisa sifatida bilim klassik antik davrdan beri o'rganilib kelinmoqda va bu umuman falsafiy, psixologik va ilmiy tadqiqotlar doirasidagi muhim sohadir. «Bizning ishimiz – o'qish va o'qish, imkoni boricha ko'proq bilimga ega bo'lish uchun intilishdir, chunki jiddiy ijtimoiy yo'nalishlar – bilim bor yerda, insoniyatning istiqbol baxti ham faqat bilimdadir» – deya yuqoridagi fikrlarni ham isbotlagan edi rus yozuvchisi A.P.Chexov. Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino esa, «Aql tarzusida tortib ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir. Shu bois mantiq ilmini o'rganmoq juda muhim» – degan edi.

Ko'nikma – insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko'nikma faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. Ko'nikma hamisha bilimlarga asoslanadi. Amaliy ko'nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko'nikmalar bilim olishga, uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Lekin, ko'nikmalarni bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqelik to'g'ri aks ettirilgan mulohazalarda ifodalanadi. Ko'nikmalar esa, ko'proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi.

Malakaga psixologik nuqtai nazardan yondashib – muayyan kasb, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahurat – deb ta'rif beramiz. Odatda, biron ish jarayonida harakatlar anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda amalga oshiriladi. Harakatni bajarishda ongning borgan sari kamroq ishtirok etishi tufayli ish g'ayriixtiyoriy ravishda ijro etila boradi, ayrim mayda qismlarga e'tibor kamayadi. Harakatning qisman g'ayri ixtiyoriy ravishda bajarilishi tufayli uning tuzilishida ayrim sifat o'zgarishlari yuz beradi. Harakatni hissiy nazorat qilish, uni markazdan turib boshqarish usullari o'zgarib boradi. Harakat usullarini idrok etishdan diqqat xoli bo'ladi va u harakat vaziyati hamda mahsuliga qaratiladi. Buning natijasida topshiriq ravon, ortiqcha kuch sarflamay, tez va sifatli bajarila boradi. Demak, insonning egallagan bilim va ko'nikmalari yordamida ma'lum harakatlarni bajarishdir. Kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba, nemis shoiri I.Gyote «Tajribalar – bizning abadiy hayot muallimimiz» – deb baho bergan.

O'quvchilarda gazlamalarga ishlov berish asoslari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda kuzatish alohida o'rin tutadi. Deyarli barcha davrning ilg'or pedagoglari o'quvchilarning bevosita kuzatishlarini muhim ahamiyatga egaligini

qayd etishgan. Masalan, kuzatish Aristotel zamonidan hozirgi davrgacha kuzatuvchilarning asosiy tadqiqot vositalaridan biri sanaladi. U hissiy bilishning omillari, xususiyatlari, qonuniyatlari to'g'risida dastlabki tasavvurlar hosil qilishga qaratilgan inson faoliyati shaklidir. XX-asrning boshlarida Germaniyaning Vyursburg psixologiya maktabini namoyandalari K.Byuler (1879-1922), A.Messer (1867-1937), O.Kyulpe (1862-1915) psixologik tajribalarni dastavval o'zini-o'zi kuzatish metodi yordamida o'zlari ustida o'tkazganlar. Kuzatishga psixologiya fani nuqtai nazaridan nuqtai nazaridan yondashilib – voqelikdagi narsa va hodisalarni rejali, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish, voqelikni hissiy bilish uslubi, deb ta'riflangan. Amerikalik ijtimoiy psixolog Robert Frid Beylz kichik guruhlarda shaxslararo o'zaro ta'sirga ixtisoslashgan kuzatish usulini ishlab chiqqan va interaksiyani aniqlash maqsadida, bahs, munozara chog'ida qo'llash ijobiy natijalar beradi, deb hisoblagan.

Texnologiya darslarida o'quvchilariga gazlamaga ishlov berishni o'rgatish jarayonida «kuzatish qobiliyatini mashq qildirish» imkoniyatlari katta. Bular materiallarga ishlov berish jarayonida o'zgarishini kuzatish, turli asboblarning turli ishlab chiqarish hamda mehnat vaziyatlarida ish xususiyatini kuzatish, mehnat operatsiyalarining maqsadga muvofiqligini amaliy aniqlashdir. O'z ishi hamda o'rtoqlarining ishini kuzatish orqali o'quvchilar konstruktorlik yechimlarini, ishning, tayyor buyum va ularning detallari pardozining bajarilishi usullari va sifatini taqqoslaydi, solishtiradi, baholaydi. O'quvchilarning nazarida yordamchi va ishlov berish operatsiyalari, mehnat usullarining soddaligi, qulayligi va osonligi, ishga sarflanuvchi vaqt miqdori kabi ko'rsatkichlar chetda qolmaydi.

Bularning barchasi birgalikda faol fikrlash faoliyatini talab etadi va o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ko'maklashadi. Texnologiya darslarida kuzatishning quyidagi ko'rinishlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiq; oddiy kuzatish; qisqa muddatli kuzatish; lahzalik kuzatishlar. Texnologiya darslarida gazlamaga ishlov berishni o'rgatish jarayonida o'quvchilar kuzatishlaridan so'ng asta-sekin oldindan shartlari ifodalangan, tashkil etilgan va maqsadli tajribalarga o'tiladi. Tajriba aslida lotin tilidan kelib chiqib «sinov» degan ma'noni anglatadi. Tajriba – voqelikni amaliy jihatdan hissiy empirik bilish jarayoni.

Tajriba keng ma'noda – o'quv, malaka va bilimning birligidan iborat. Tajriba qadimdan falsafa tarixida muhim tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Sharq falsafasida biror narsadagi muayyan hossa yoki xususiyatni tekshirib ko'rish maqsadida o'tkazilgan sinov ham tajriba deb atalgan. Abu Rayhon Beruniy tajribani eksperiment va kuzatish bilan bog'lab tushuntirish tarafdori bo'lgan. U Ibn Sino bilan munozarada fikran faraz qilib ko'rishga nisbatan amaliy eksperiment ishonchliroq ma'lumot berishini ta'kidlab, fikriy mulohazalar og'izdan-og'izga o'tish bilan o'zgarib borishi va asl ma'nosini yo'qotishi mumkin deb, amaliy tajribaning ahamiyatini yuqori qo'ygan. Umuman olganda, tajriba yordamida hayotdagi har qanday narsaning takrorlanishi va urinishi bo'lgani kabi bilim egalashda ham qanchalik ko'p mashq qilinsa, shuncha ko'p o'rganiladi va bilib olinadi. Zero, tajriba texnologiya fanini boyitishning, nazariya va amaliyotni rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Texnologiya darslarida ko'rgazmalilik ham alohida o'ringa ega. O'qituvchi tomonidan tashkil etiluvchi ko'rsatishlarning ko'p qismi odatda o'quvchilar oldin mashg'ulotlar, suhbatlar, ekran qo'llanmalarini ko'rib chiqish jarayonida o'zlashtirgan o'quv materialini takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu holda maxsus topshiriqlar va rejalar bo'yicha bajariluvchi illustratsiya va namoyishlar o'quvchilarning bilimlarini tizimlashtirish, ularni to'ldirish va aniqlashtirish, boshqa o'quv fanlari bo'yicha olingan bilimlar bilan bog'lash, bilimlarning amaliy ishini

bajarish uchun xizmat qiladi. Gazlamalarga ishlov berishda muammoli savollar va muammoli vaziyatlardan foydalanish ham o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Quyidagi muammoli savollar berilishi mumkin: Agar gazlamaning ikki tarafi ham bir xil bo'lsa gazlama o'ngi qanday aniqlanadi? Gazlamaning milki nima? Gazlamaning chap tarafidagi milqida nimalar ko'proq bo'ladi? Gazlama gullari mik tomonda joylashgan bo'lsa bu gazlamadan qanday kiyim tikish mumkin?

Xulosa. O'qituvchi tomonidan tashkil etilgan tushuntirish, suhbat, kuzatish, tajriba, korsatmaliliklar o'quvchilarga gazlamaga ishlov berish texnologiyasining tarkibiy qismlaridir. Zero, tushuntirishlar, suhbatlar, ko'rsatishlar, kuzatishlar va eng oddiy tajribalarni birgalikda qo'llanilishi o'quvchilarning gazlamaga ishlov berish o'quv ishi jarayonida o'tkazilishi ularda mustaqil bilim olishga tizimli o'rgatib borish, xulosalardan shu yerning o'zidayoq foydalanish va yaxshiroq natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Adabiyotlar:

1. Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Mehnat ta'limi, tasviriy san'at, chizmachilik, musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya (1-9 sinflar). - T., 2010.

«UMUMIY YER BILIMI» FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI, SHAKL VA VOSITALARI

Axmedova Yulduz Qosimovna, NavDPI o'qituvchisi

Annotatsiya. «Umumiy yer bilimi» fanini o'qitish mazmunini obyektiv ilmiy dalillar, qonunlar, tushunchalar, tegishli barcha asosiy bo'limlarining nazariyalari bilan tanishtirishni, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini ochib berishni hamda o'quvchilarni fiziologik jihatlarga mos ilmiy tushunchalar bilan qurollantirishni talab etadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, «Umumiy yer bilimi» fanining mazmuni va predmeti o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik ta'minlanadi.

Tayanch so'zlar: *ilmiylik, sistemalilik, fundamentallik, izchillik, ko'rgazmalilik, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, onglilik, nazariya va amaliyot birligi, samaradorlik, tushunarililik, mantiqiy ketma-ketlik, uzviylik, differensiallashtirish va individuallashtirish, individual va guruhlarda o'qitishni uyg'unlashtirish.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ, ФОРМЫ И СРЕДСТВА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ «ОБЩИЕ ЗНАНИЯ О ЗЕМЛЕ»

Ахмедова Юлдуз Косимовна, преподаватель НавГПИ

Аннотация. Ознакомить содержание обучения дисциплины «Общие знания о Земле» с объективными научными данными, законами, понятиями, теориями всех соответствующих основных разделов, раскрыть современные достижения науки и перспективы дальнейшего развития, познакомить учащихся с физиологическими аспектами научных понятий требует обеспечения принципа логической связи содержания и дисциплины «Общие знания о Земле».

Ключевые слова: *научность, системность, фундаментальность, системность, доказательность, согласованность обучения и воспитания, осознанность, единство теории и практики, эффективность, понятность, логическая последовательность, связность, дифференциация и индивидуализация, гармонизация индивидуального и группового обучения.*

DIDACTIC PRINCIPLES, FORM AND TOOLS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING «GENERAL EARTH KNOWLEDGE»

Akhmedova Yulduz Kosimovna, teacher of NavSPI

Abstract. To introduce the content of teaching «General earth science» with objective scientific evidence, laws, concepts, theories of all relevant main departments, to reveal the modern achievements of science and future development prospects, and to introduce students to scientific concepts suitable for their physiological aspects. requires arming with According to this principle, a logical connection between the content and the subject of «General earth knowledge» is ensured.

Key word: *scientificity, systematicity, fundamentality, consistency, demonstrability, coherence of education and upbringing, consciousness, unity of theory and practice, efficiency, comprehensibility, logical sequence, coherence, differentiation and individualization, harmonization of individual and group teaching.*

Kirish. Ta'lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligi, qiziqarliligi, intensivligi, motivatsiyaga boyligi, o'zaro faol hamkorlikdagi faoliyatning yo'lga qo'yilishi ko'p jihatdan ulardan qanday foydalanish uchun ta'lim tamoyillariga tayanishga bog'liq.

Asosiy qism. Ta'lim jarayonlaridagi innovatsion o'qitish vositalarining ham ijobiy, ham salbiy tomonlari mavjud, shuning uchun tavsiya etilgan innovatsion o'qitish vositalarining xilma-xillikning muvozanatli balansi, moslashuvchan kombinatsiyasi, ulardan

foydalanishning eng maqbul usuli va o'qitish sifatini oshirish tamoyillarini aniqlashtirish lozim. Ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali quyidagi bir nechta vazifalarni amalga oshirish talab etiladi: o'quv fanining aniq maqsadini aniqlash; fanning hajmi va mazmunini aniqlash; ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish; fanning moddiy va texnik ta'minotini yaratish; ta'lim oluvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish; o'qituvchining tayyorgarlik darajasi va dars mashg'ulotining loyihalasini oshirish.

J.O.Tolipova fanni o'qitishda ilmiylik, sistemalilik, fundamentallik, izchillik, ko'rgazmalilik, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, ongillik, nazariya va amaliyot birligi, samaradorlik, tushunarlik, mantiqiy ketma-ketlik, uzviylik, differensiallashtirish va individuallashtirish, individual va guruhlarda o'qitishni uyg'unlashtirish, o'qitishni maqsadi, mazmuni, vositalari va shakllarining ijtimoiy muhitga bog'liqligi, insonparvarlashtirish va demokratishtirish tamoyillariga tayanish kerakligini ta'kidlab o'tgan. Ushbu tadqiqot ishida ushbu tamoyillarni "Umumiy yer bilimi" fanini o'qitishga moslashtirildi hamda ularga qo'shimcha ravishda yagona axborot bazasini yaratish va ulardan foydalanish, mustaqil ta'lim olishni ta'minlash, o'quv ma'lumotlarini tarqatish, ta'lim oluvchilar bilimini holisona baholash va nazorat qilish tamoyillari kiritildi.

Quyida ushbu tamoyillarga to'xtalamiz: 1. Ilmiylik tamoyili. Ushbu tamoyil "Umumiy yer bilimi" fanini o'qitish mazmunini obyektiv ilmiy dalillar, qonunlar, tushunchalar, tegishli barcha asosiy bo'limlarining nazariyalari bilan tanishtirishni, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini ochib berishni hamda o'quvchilarni fiziologik jihatlariga mos ilmiy tushunchalar bilan qurollantirishni talab etadi. Ushbu tamoyilga ko'ra "Umumiy yer bilimi" fanining mazmuni va predmeti o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik ta'minlanadi. 2. Sistemalilik tamoyili. Ushbu tamoyil zamonaviy texnologiyalar yordamida Yer yuzining paydo bo'lishi, uning ichki tuzilishi, geografik qobiq, uning bir butunligini sistema sifatida o'rganish hamda vizual vositalardan foydalangan holda o'qitishning maqsadi, metodlari, vazifalari, shakl va vositalarini tizim shaklda tasavvur qilish hamda foydalanishni ko'zda tutadi. 3. Fundamentallik tamoyili. Ushbu tamoyil zamonaviy texnologiyalar yordamida "Umumiy yer bilimi" fanining asosiy va tayanch tushunchalarini hamda nazariyalarini o'rganishga asoslanadi. Bunda "Umumiy yer bilimi" faniga oid ishlab chiqilgan elektron ta'lim resurslarining mazmunida mavzularining asosiy va tayanch tushunchalari mujassamlashgan bo'ladi. 4. Tizimli va izchilli yondashuv tamoyili. Bu tamoyil kompyuter texnologiyalari va ularning pedagogik dasturiy vositalarini "Umumiy yer bilimi" fanini samarali o'qitish jarayonlarini joriy qilish uchun muntazam ravishda tahlil qilishga asoslanadi. Bu tamoyil bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlar tizimida, har bir elementni mantiqiy ravishda boshqasi bilan bog'langanida, keyingisi avvalgisiga asoslanib, yangi bilimlarni o'rganishga tayyorlanishini talab qiladi. M.S.Svetkovaning ilmiy adabiyotlarida keltirilishicha, I.P.Pavlov ushbu tamoyilning mantiqiy bog'liqliklarga rioya qilgan holda, yuqori hajmdagi o'quv-ma'lumotlarni uzoq vaqt saqlab qolish imkoniyatini yaratishini ta'kidlagan. 5. Ko'rgazmalilik tamoyili. Ushbu tamoyilda "Umumiy yer bilimi" fanidan o'rganiladigan o'quv-ma'lumotlarni kompyuter qurilmalari hamda uning pedagogik dasturiy vositalari vositasida axborotlarni vizual shaklda taqdim etilishi nazarda tutiladi. "Mazkur tamoyil obyekt, jarayon va hodisalarni namoyish etish orqali o'quvchilarda kognitiv fikrlashni shakllantirish va vizual ta'lim olish imkoniyatini yaratadi". 6. Ta'lim va tarbiyaning uzviyligi tamoyili. Ushbu tamoyil "Umumiy yer bilimi" fanini o'qitish jarayonlarining zamonaviy texnologiyalari vositasida boshqarilishida ta'lim samaradorligiga erishish, ta'lim oluvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishga oid muammolarini hal etishni ko'zda tutadi. 7. Ongillik tamoyili. Ushbu tamoyil "Umumiy yer bilimi" fanidan dars va darsdan tashqari o'quv faoliyatini samarali tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarga beriladigan bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishni hamda kreativ fikrlashni ta'minlaydi. 8. Tushunarlik tamoyili. Ushbu tamoyil "Umumiy yer bilimi" fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar yordamida

ta'lim oluvchilarning individual imkoniyatlariga, ta'lim jarayonida psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi hamda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarning oldini olish uchun foydalaniladi. 9. Nazariya va amaliyot birligi tamoyili. Ushbu tamoyil «Umumiy yer bilimi» faniga oid o'quv-ma'lumotlarni kompyuter texnologiyalari yordamida taqdim etilishida nazariy bilimlarni amaliyotga bog'liq holda namoyish etilishi kerakligini ta'minlaydi. 10. Samaradorlik tamoyili. Ushbu tamoyil «Umumiy yer bilimi» faniga oid yangi mavzularni innovatsion texnologiyalar yordamida taqdim etishda ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yuqori darajaga ko'tarish, samaradorlikka xizmat qilishni ta'minlaydi. 11. Mantiqiy ketma-ketlik tamoyili. Ushbu tamoyil «Umumiy yer bilimi» faniga doir ishlab chiqilgan elektron axborot ta'lim resurslar, o'quv dasturi va darslikdagi boblar, bo'limlar, mavzular mantiqiy izchillilikda yoritilishini talab qiladi. 12. Uzviylik tamoyili. Ushbu tamoyil «Umumiy yer bilimi» faniga oid mavzular, bilimlar bilan yangi o'rganilayotgan mavzudagi bilimlar, ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashni taqozo etadi. 13. Differensiallashtirish va individuallashtirish tamoyili. Ta'limni differensiallashtirish va individuallashtirishda axborot texnologiyalari vositasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyil «Umumiy yer bilimi» fanini zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qitishda tabaqalashtirish, har bir shaxsning yosh darajasi va uning psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyati imkoniyatlari darajasida chuqur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, ularga qiyinchilik darajasi turlicha (produktiv, reproduktiv, kreativ, qisman-izlanishli) bo'lgan o'quv-topshiriqlarini kompyuter texnologiyalari yordamida tuzish, ularni bajarish orqali belgilangan maqsadga erishish, iqtidorli yoshlarning sifatlari ta'lim olishi uchun zaruriy ma'lumotlar va materiallar bilan ta'minlashni nazarda tutadi. 14. Individual va guruhlarda o'qitishni uyg'unlashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil ilg'or texnologiyalar yordamida «Umumiy yer bilimi» fanini o'qitish jarayonida bir butun tarzda o'qitish bilan bir qatorda, talabalarning individual va kichik guruhlarda mustaqil ishlarini tashkil qilishni taqozo etadi. 15. O'qitishni maqsadi, mazmuni, vositalari va shakllarining ijtimoiy muhitga bog'liqligi tamoyili. Ushbu tamoyil «Umumiy yer bilimi» fanidan ta'lim oluvchilarning bilimini rivojlantirishga oid ta'lim mazmunini saralash, unga bog'liq holda zamonaviy elektron axborot ta'lim resurlardan foydalanishning takomillashtirilgan metod, shakl va vositalarini talab etadi. 16. Insonparvarlashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil talabalarning «Umumiy yer bilimi» fanidan chuqur bilim olishi uchun qulay psixologik axborot ta'lim muhitini yaratish, «undan har bir talaba o'zining imkoniyati darajasida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi». 17. Demokratlashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil axborot texnologiyalari vositasi yordamida fanni o'qitish, o'quvchilarning fanga bo'lgan munosabatini va qiziqishini tubdan o'zgartiradi. Demokratlashtirish tamoyili, talabalar tomonidan «Umumiy yer bilimi» faniga oid o'quv topshiriqlarini bajarishda tanlash huquqini beruvchi axborot ta'lim muhitini talab etadi. 18. Yagona axborot bazasini yaratish va foydalanish tamoyili. Ushbu tamoyil bir yoki bir nechta vazifalarni hal qilishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotni, balki o'quv jarayonining barcha vazifalarini mashina muhitida to'plab, doimiy ravishda yangilab turilishidan iborat. 19. O'quv-ma'lumotlarini tarqatish tamoyili. «Umumiy yer bilimi» faniga oid o'quv-ma'lumotlarni ta'lim oluvchining kompyuterida emas, balki mahalliy va Internet tarmog'ida joylashgan bo'lishini ta'minlaydi. Bu foydalanuvchida mustaqil ravishda ma'lumot olish qobiliyatiga ega bo'lish imkonini hamda tarmoq texnologiyasidan foydalanish madaniyatini takomillashtiradi. Ushbu tamoyil «Umumiy yer bilimi» faniga oid o'quv-ma'lumotlarini sifatlari tarqatishni, talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishni ta'minlaydi. Bu muhitni oliy pedagogik ta'lim muassasalari talabalari uchun maxsus tashkil etilgan ta'lim portallariga, web-saytlariga va ta'lim platformalariga elektron axborot ta'lim resurslarini joylashtirish orqali erishish mumkin. 20. Mustaqil ta'lim olishni ta'minlash tamoyili. Zamonaviy didaktikada mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari ko'pincha dars va darsdan tashqari (ekskursiyalar, mahorat darslari, ishlab chiqarishdagi mashg'ulotlar, kompyuterlarda ishlash, testlar, imtihonlar va boshqalar) o'quv faoliyatiga bo'linadi. Mazkur tamoyil «Umumiy yer bilimi» faniga oid o'rganilayotgan ma'lumotlarning umumiy hajmini

axborot ta'lim platformalari vositasida yetkazib berishni, ta'lim jarayonida talabalarni mustaqil foydalanishlari uchun o'quv-ma'lumotlar bilan ta'minlashni nazarda tutadi. 21. O'quvchilar bilimini xolisona baholash va nazorat qilish tamoyili. Ushbu tamoyil «Umumiy yer bilimi» fanidan talabalar bilimini xolisona baholash va nazorat qilishda nostandart va onlayn nazorat testlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Mazkur tamoyillar asosida «Umumiy yer bilimi» fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, o'qitishning eng ilg'or turlaridan foydalanish lozim.

Mamlakatimizda ta'lim jarayonlarini isloh qilishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning faolligini oshirishga, ularni mustaqil fikr yuritishga, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga, axborotlarni olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga o'rgatishdan iborat. «Umumiy yer bilimi» fanidan tashkil etilgan dars mashg'ulotlari jarayonida talabalarning faolligini oshiruvchi asosiy vositalardan biri – amaliy mashg'ulotlardir. «Umumiy yer bilimi» fanida amaliy mashg'ulotlar kurs mazmuniga qarab belgilanadi. Amaliy mashg'ulotlarni olib borishdan asosiy maqsad – talabalarda turli mazmundagi geografik xaritalar va globuslar bilan ishlash, tabiat hodisalarini kuzatish kabi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, geografik mashq va masalalar bajarish hamda olingan nazariy bilimlarni mustahkamlashdan iborat bo'lib, ular amaliy mashg'ulotning asosini tashkil qiladi. Geograf-olim M.T.Mirakmalovning fikriga ko'ra, amaliy topshiriqlar geografiya o'qituvchisidan ham, talabalardan ham alohida tayyorgarlikni talab etadi. Amaliy topshiriqlarga talabalarni dars mashg'uloti jarayonida «oddiydan murakkabga» prinsini qo'llagan holda oddiy, elementar ishlardan asta-sekinlik bilan murakkab topshiriqlarda o'rgatib borish zarur.

Xulosa. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar talabalarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amalda tatbiq etishga, materiallarni ongli va puxta o'zlashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga imkon beradi. Amaliy mashg'ulotlar talabalar tomonidan jamoaviy yoki o'qituvchi ishtirokida tashkil etilishi mumkin. Talabalar ommaviy ishlarning bajarish usullarini, ya'ni geografik xaritaning o'qish, xaritalar bo'yicha amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Adabiyotlar:

1. Vaxobov X., Abduraxmonov B. O'rta maxsus o'quv muassalarida o'rganiladigan geonazariyalar // Geografiya fanining dolzarb nazariy va amaliy muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - T., 2006. - B. 136-138.
2. Ahmedova Yu., Xoliqova M., Shirinova M., Rahmonova S. Theoretical fundamentals of improving the professional competence of geography teachers in educational institutions // International Journal of Early childhood special education. 2022. - № 3. - P. 10015-10017. (INT-JECS) ISSN: 1308-5581. Vol. 14.
3. Vaxobov X., Abdunazarov O., Zaynutdinov A. Geografiya ta'limida darsliklar yaratish muammosi // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. - T., 2000. - 21-son. - B. 188-191.
4. Vaxobov X., Saydamatov F. Geografiya ta'limi maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash // Janubiy O'zbekistonda geografiya maktablarining shakllanishi va rivojlanishi: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - Termiz, 2006. - B. 19-20.
5. Abdiyeva Z.A. Geografiya fanida noan'anaviy dars uslublaridan foydalanish. - Navoiy, 2003. - 68 b.
6. Abduvoxidov A.S., Ganiyev Z.A. Geografiya ta'limi metodikasi. - Samarqand, 2021. - B. 49-52.
7. Mirakmalov M.T., Avezov M.M., Nazaraliyeva E.Y. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar: O'quv-uslubiy qo'llanma. - T.: Fan va texnologiyalar, 2015. -144 b.

BAKTERIAL ASOSIDAGI SELLULOZANI O'RGANISH

Esanmurodova Nilufar Shaxobiddin qizi, TIQMTI assistenti

Annotatsiya. Tabiiy yashash sharoitida ko'pchilik bakteriyalar hujayralar atrofidagi himoya membranalarini hosil qiladigan selluloza kabi hujayradan tashqari polisakkaridlarni sintez qiladi. Bakterial selluloza tabiatda ishlab chiqarilgan bo'lsa ham, laboratoriyalarda ekinlardan selluloza o'sishini ko'paytirish usullari keng tarqalgan jarayon sifatida o'rganilmoqda. Sintez usullarini boshqarish orqali hosil bo'lgan mikrobial selluloza kerakli xususiyatlarga moslashtirilishi mumkin.

Tayanch so'zlar: *selluloz o'sishi, jarayon, o'rganish.*

ИЗУЧЕНИЕ ЦЕЛЛЮЛОЗЫ НА БАКТЕРИАЛЬНОЙ ОСНОВЕ

Esanmurodova Nilufar Shahobiddin kizi, ассистент ТИИМСХ

Аннотация. В естественных условиях большинство бактерий синтезируют внеклеточные полисахариды, такие как целлюлоза, которые образуют защитные оболочки вокруг клеток. Хотя бактериальная целлюлоза производится в природе, методы выращивания целлюлозы из сельскохозяйственных культур в лабораториях изучаются как обычный процесс. Манипулируя методами синтеза, полученная микробная целлюлоза может быть адаптирована к желаемым свойствам.

Ключевые слова: *рост целлюлозы, процесс, изучение.*

STUDY OF BACTERIAL BASED CELLULOSE

Esanmurodova Nilufar Shahobiddin kizi, assistant of TIIAM

Abstract. Under natural conditions, most bacteria synthesize extracellular polysaccharides such as cellulose, which form protective membranes around cells. Although bacterial cellulose is produced in nature, methods for increasing the growth of cellulose from crops in laboratories are being studied as a large-scale process.

Key words: *cellulose growth, process, study.*

Kirish. Selluloza aksariyat o'simliklarning asosiy tarkibiy materiali bo'lsa-da, uni bakteriyalar, asosan, *Acetobacter*, *Sarcina ventriculi* va *Agrobacterium avodlaridan* ishlab chiqariladi. Bakterial yoki mikrobial selluloza o'simlik sellulozasidan farq qiluvchi xususiyatlarga yega bo'lib, yuqori tozaligi, mustahkamligi, qolipga solinishi va suvni ushlab turish qobiliyatini oshirishi bilan ajralib turadi. Tabiiy yashash sharoitida ko'pchilik bakteriyalar hujayralar atrofidagi himoya membranalarini hosil qiladigan selluloza kabi hujayradan tashqari polisakkaridlarni sintez qiladi. Bakterial selluloza tabiatda ishlab chiqarilgan bo'lsa ham, laboratoriyalarda ekinlardan selluloza o'sishini ko'paytirish usullari keng ko'lamli jarayon sifatida o'rganilmoqda. Sintez usullarini boshqarish orqali hosil bo'lgan mikrobial selluloza kerakli xususiyatlarga moslashtirilishi mumkin. Selluloza manbai uni sintez qila oladigan o'simliklar (o'simlik sellulozasi, RC) yoki bakteriyalar (bakterial selluloza, miloddan avvalgi) bo'lishi mumkin. Olingan plyonkalar kimyoviy tuzilishi bilan deyarli bir xil, ammo bakterial selluloza kuchliroq, elastik, namlikni ko'proq saqlaydi va gaz o'tkazuvchan bo'ladi. Ushbu xususiyatlar tufayli uni rekonstruktiv jarrohlikda, hujayra va to'qima muhandisligida qo'llash mumkini [1].

Asosiy qism. Bakterial selluloza 24 soatdan 168 soat oralig'ida ba'zi turdagi bakteriyalar tomonidan ishlab chiqariladi. Ularning asosiylari sintez – stasionar va chuqur etishtirish usuli orqali olinadi. Stasionar etishtirish paytida bakterial tsellyuloza plyonkalari olinadi. Ushbu etishtirish usulining asosiy kamchiliklari ishlab chiqarish narxining oshishi va qo'l mehnati hisoblanadi. Statik sharoitda tsellyuloza hosil bo'lish jarayoni havo bilan boshqariladi va hosil uglerod manbai konsentratsiyasiga bog'liq. O'sish vaqtini ko'paytirish vodorod va C-H aloqalari bilan bir qatorda miloddan avvalgi hosil bo'lishini oshiradi. Suv ostida o'stirish paytida bakterial tsellyuloza boshqa diametrlari shar shaklida paydo bo'ladi va tolalar shaklida ham bo'lishi mumkin. Ushbu etishtirish usuli sanoat ishlab chiqarish uchun eng maqbuldir, chunki jarayonni fermentatorlarda o'tkazish mumkin, bu jarayonni iloji boricha avtomatlashtirishga va shunga mos ravishda qo'l mehnatini yo'q qilishga imkon beradi. Bakterial tsellyuloza sintezi plyonka pastga qarab o'sib, barcha bakteriyalarni ushlay boshlaganda eng yuqori darajaga etadi. Shundan so'ng ular harakatsiz bo'lib qolishadi, chunki mavjud kislorod miqdori ular uchun etarli emas. Sintez barqaror holatda, bakterial tsellyuloza unumdorligini suv ostida bo'lgan jarayonga nisbatan oshiradi. Shunga qaramay, aralashtirilgan madaniyatda olingan miloddan avvalgi mikro tuzilishdagi o'zgarishlarga, aniqrog'i past darajadagi polimerizatsiya va past kristallik ko'rsatkichlariga ega. Bundan tashqari, u statik madaniyatda olinganidan pastroq bo'lgan Youngning elastiklik moduliga, suvni ushlab turish qobiliyatiga va suspenziyaning parchalangan shaklda yuqori viskozitesiga ega. O'simliklar sellulozasi bilan taqqoslaganda bakterial tsellyuloza juda yaxshi xususiyatlarga ega. Masalan, bakterial tsellyuloza lignin, gemitsellyuloza va boshqa aralashmalarsiz yuqori tozaligiga ega. Shuning uchun tozalash jarayoni juda oddiy. Bundan tashqari, miloddan avvalgi tirik organizmlar bilan o'zaro aloqada rad etish va yallig'lanish reaksiyasi mavjud emas, shuningdek, ajoyib xususiyatlarga ega uning biotibbiyot sohasidagi izlanishlarining asosiy sababi bo'lgan biologik moslik; polimerlanish darajasi kabi yuqori polimerlanish darajasi; asetobakter ksilinus tsellyuloza 16000 gacha bo'lishi mumkin; miloddan avvalgi kristallik yuqori, 95% gacha va Yangning miloddan avvalgi monofilament moduli 114 GPaga etishi mumkinligi haqida xabar berilgan. Yaxshi o'tkazuvchanligi, gigroskopikligi, sig'imi va moslashuvchanligi tufayli hujayra madaniyati va yaralami bog'lashda keng qo'llaniladi [2]. Bakteriyalar haqida gapiradigan bo'lsak, ularni ko'plab turlari mavjud. Ularni aksariyatini biz qisqacha urganishga harakat qildik. Bilamizki, bakteriyalarni foydali hamda ziyonli turlari mavjud, ularni foydali bakteriyalardan tarkibidagi sellulozani o'rgandik. Selluloza ham hayotimizda kerak bo'ladigan mahsulot hisoblanadi. Birinchidan, bakteriya nima ekanligini bilish. Bu hamma joyda uchraydigan va turli xil shakllarga ega bo'lgan mikroorganizm turidir. Ushbu shakllarning barchasi har xil muhitga moslashishga xizmat qiladi. Organizmlarni yashovchan qilishdan tashqari, ba'zilar ko'pincha ularga bog'liqdir. Masalan, odamning ovqat hazm qilish tizimi bakteriyalar faoliyatiga bog'liq. Bu har doim bakteriyalarni tasniflash va identifikatsiyalash uchun vositalarni taklif qilish uchun har doim turli xil mezonlarni izlashga intilishning sabablaridan biridir. Bakteriya deb ataladigan mikroorganizmlar hamma joyda uchraydi. Turlar va navlarning cheksizligi sababli, bu barcha hayot shakllariga dunyoning deyarli hamma joylarida mustamlaka bo'lishiga imkon berdi. Bakteriyalar biz bilgan hayot uchun muhim elementlar bo'lgan va bo'lib qolmoqda. Uchun asosiy faoliyatning namunasi hayotning rivojlanishi organik parchalanishdir. Organik parchalanish uchun javobgar bo'lgan bakteriyalardir [3].

Bakteriyalar sohasi ulkan tirik mavjudotlar guruhidan iborat. Bu tirik mavjudotlar, umuman olganda, bir hujayrali va prokaryotik. Bu shuni anglatadiki, ular bitta hujayradan

iborat. Prokariot bo'lish haqiqati shuni anglatadiki, hujayraning ichida membranali organoidlar yo'q va uning tarkibidagi genetik tarkib erkin topiladi. Bu fazilatlarining barchasi ularni hayvonlarni tashkil etadigan hujayralardan ajratib turadi, chunki ular eukaryotik hujayralardir. Biz bakteriyalarni o'rganish jarayonida ularni insonlar hayotidagi ahamiyatini ham aytishimiz mumkin. Turli kasalliklar yoki turli mahsulotlar ishlab chiqaradigan bu bakteriyalar, asosan, havo tarkibida suv tarkibida hattoki insonlarni organizmida ham uchratish mumkin. Shuning uchun biz uni tarkibidagi silluloza miqdorini aniqladik. Dunyo bo'ylab har xil turdagi bakteriyalar mavjud bo'lsa-da, ozmi-ko'pmi umumlashgan tuzilishi mavjud. U ichki qismni tashqi tomondan ajratish uchun javob beradigan hujayra membranasidan iborat. Ushbu membranada ko'proq himoya va barqarorlikni ta'minlash uchun butun membranani o'rab turgan hujayra devori mavjud. Membrana va hujayra devorining yig'indisi bakterial hujayra zarfi deb nomlanadi. Bu erda dunyoda mavjud bo'lgan har xil turdagi bakteriyalarning tarkibi va shaklida farqlar mavjud. Shuni ham yodda tutish kerakki, bakteriyalarni ajrata olish hajmi jihatidan farq qilmaydi. Bunga qarash yaxshi variant emas va shunga o'xshash mikroskopik hayvonlar mavjud. Ular hujayralardan tashkil topgan va hatto asab tizimiga ega rotiferlar va tardigradlardir [4]. Odamlar tirik mavjudotlarni va bakteriyalarni xususiyatlariga ko'ra tasniflash uchun har doim turli mezonlarni izlashdi. Shu tarzda siz hayotni tashkil etadigan barcha organizmlar haqida umumiyroq fikrga ega bo'lishingiz mumkin. Bakteriyalarni aniqlay oladigan ushbu mezonlarga ega bo'lish, ularni o'rganish uchun juda foydali vosita, masalan, tibbiyot sohasida bakteriyani identifikatsiya qilish mezonlarini bilish inson kasalligini yuqtirish sababini bilish uchun muhimdir. Shu sababli mikrobiologiya tarixi davomida barcha prokaryotik hujayralarni yaxshi tasnifiga erishish uchun juda ko'p mezonlardan foydalanamiz. Masalan; batsillalar – bu taniqli bakteriyalar turi. U cho'zilgan novdalar kabi shakllangan. Avvalgi bakteriyalar turlarida bo'lgani kabi, ular ham bir nechta pastki turlarga ega. Ularning turlari hujayralarning guruhlanish usuli bilan bog'liq. Agar u yakka hujayra bo'lsa, u bacillus nomi bilan o'xshash. Aksincha, agar bizda ikkita hujayra bo'lsa, bu diplobacillus. Ko'proq hujayralar birlashmalarida ularni zanjir hosil qiladigan uchiga yoki devor hosil qiladigan yon tomonlariga qo'shilishlariga qarab farqlash mumkin.

Cocobacillus – bu biroz uzunroq sferik shaklga ega, ammo u Hindiston yong'og'i ham, bacillus ham emas. Bu bakteriyadan esa, tola ishlab chiqish jarayonida keng foydalanadi. Kimyo sohasidagi bir qator dori vositalari ham shu bakteriyalar asosida tayyorlanadi. Bu bakteriya o'zgacha xususiyatga ega bo'lib, inson tanasidagi bir qator kasalliklarni qo'zg'atish xususiyatiga ega, ammo uni dori sifatida qo'llanilganda ijobiy ta'sir etadi [5].

Bizning tanamiz doimiy zararli va foydali bakteriyalar tomonidan olib borayotgan bir kurashdir. Bu bakteriyalar orqali, insonlar turli infeksiyalarga qarshi himoya qildi. Har doim bizga turli mikroorganizmlar bilan yashaymiz. Ular hamma joyda bor, kiyim-kechak, yashash havoda uchib og'ziga bakteriyalar borligi va u, qariyb qirq ming mikroorganizmlar ham angina periodontal kasallik qon va milklarini himoya qiladi. Har bir ayol mikroflorasini bezovta qiladigan bo'lsa, u ginekologik kasalliklarni boshlaydi. Shaxsiy gigiena asosiy qoidalariga rioya qilish bunday xatolarni oldini olish uchun yordam beradi. Mikroflora inson immunitetga butunlay bog'liq. Faqat oshqozon-ichak trakti hamma bakteriyalar qariyb 60% ni tashkil etadi. Qolgan nafas olish tizimi va jinsiy a'zolarida joylashgan odam bakteriyalari, taxminan, ikki kilogramm yashaydi. Foydali bakteriyalar bor: laktobasiller bifidobakteriyali, streptomitsenty, mycorrhizal zamburug'lar, cyanobacteria.

Ular barcha inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Boshqalari dori ishlab chiqarishda foydalaniladi, infeksiyalari paydo bo'lishni oldini olish ularning maqsada foydalansa bo'ladi. Yana ba'zilari, sayyoramizning ekotizimini bir muvozanatni saqlab qoladi. Zararli bakteriyalar bir shaxsga jiddiy kasalliklar keltirib chiqarishiga bir qator sabab bo'lishi mumkin. Misol: difteriya, uchun kuydirgi, og'iz og'rig'i, vabo va boshqa ko'plab kasalliklar bunga misol bo'la ooladi. Ular osonlikcha havo, oziq-ovqat, jinsiy aloqalar orqali zararlangan kishiga yuqishi kuzatiladi. Ulardan yoqimsiz hidi bor, buzilish va parchalanish mavjud, ular kasallik sabab paydo bo'ladi va organizmni zaharlaydi. Eng xavfli bakteriyalar, masalan: «Staphylococcus aureus». Staphylococcus aureus nomi ostida yana ma'lum bir bakteriya. Bu mikroorganizmlar biri emas, balki bir necha yuqumli kasalliklarga sababchi bakteriyadir. Bu bakteriyalar ayrim turlari kuchli antibiotiklar va antiseptik moddalarga chidamli. Bu bakteriyalarda shtammlari ochiq, yaralarni va siydik kanal yiringlatib yuboradi [6].

Xulosa. Biz bunday bakteriyalarda hech qanday selluloza yo'qligini faqat foydali bakteriyalardan bakteriyal selluloza olishimiz mumkinligini aniqladek. Biz bu bakteriyalarni har qanday sharoitda kuzatishimiz mumkin. Bakteriyalar inson hayotidagi ahamiyatini kashf qilgan ekan, demak, ularni tarkibidagi mimbranadan tortib DNK va RNK tuzilishini ham o'rgangan. Silluloza ham inson kundalik hayotida asosiy o'rin egallaydi. Aynan bakteriyal selluloza esa, o'simlik hujayrasidan ancha arjalib turadi. Unda mustahkam membrana qobig'i mavjudligi hamda suvga oson yopishib olish xususiyati mavjud. Shuning uchun ham ba'zi bakteriyalardan ancha kuchli hisoblanadi. Demak, bizning hayotimizda bakteriyalarni ahamiyati juda katta ekan va uning tarkibidagi selluloza ham kundalik hayotimizda ishlatilarkan. Foydali bakteriyalardan dori-darmon olsak, kasallik chaqiruvchi bakteriyalar bilan esa, laboratoriya sharoitida ishlashni o'rgandik. Bizning asosiy yutug'imiz ikkala tomonda ham faqat insoniyatga kerakli va foydali jarayonlar yaratdek va uni ko'rsatib berdik.

Adabiyotlar:

1. Khan K., Saeed I. Nanoparticles: properties, applications and toxicities, Arab J.Chem 12 (7). 2017. - P. 908-931.
2. Zhou C., Qi W., Neil E., Lewis J.F. Carpenter, concomitant raman spectroscopy and dynamic light scattering for characterization of therapeutic proteins at high concentrations, Anal. Biochem. 472. 2015. - P. 7-20.
3. Скорина К.Д., Кузьменко В.В., Василенко А.И. Разработка и регистрация лекарственных средств. - М., 2020. - Т. 9. - № 2. - С. 33.
4. Vinkovic V.I. Nanotoxicology in humans and the environment. Molecular and integrative toxicology. 2018. Springer. Cham. - P. 511-537.
5. Zhang S.Y., Zhang J., Wang H.Y., Chen H.Y. Current state of researches on the formation of selenium nanoparticles and their use in medicine. Mater. Lett. 2004. V. 58. - № 21. - P. 2582-2590.
6. Esumi K., Torigoe K. Preparation and characterization of noble metal nanoparticles using dendrimers as protective colloids // Progress in colloid and polymer science. 11 October 2001.

SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI

MUSIQIY TA'LIM VA TA'LIM-TARBIYANING UYG'UNLIGI

Lutfullayev Anvar Qudratovich,

TDPU «Musiqi madaniyati» fakulteti dekani, professor

Annotatsiya. Maqolada kelajagi buyuk mamlakatning ertangi kuni yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, yoshlarning har tomonlama yetuk, barkamol, tashabbuskor, fidoyi inson bo'lib yetishishlari uchun o'quv dargohidagi ma'naviy muhit, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, ma'naviy dunyoqarashi muhimligiga e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, inson, o'qituvchi, yoshlar, talaba, san'at, milliy, musiqa, bilim, ijrochilik.

СОЧЕТАНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ-ВОСПИТАНИЯ
И МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Лутфуллаев Анвар Кудратович,

профессор декан факультета «Музыкальная культура» ТГПУ

Аннотация. В статье речь идет об образовании и воспитании молодежи будущего великой страны, значении духовной среды в учебном заведении, научном потенциале профессорско-преподавательского состава, духовном мировоззрении молодежи для того, чтобы молодежь стать вполне зрелыми, всесторонне развитыми, инициативными, самоотверженными людьми.

Ключевые слова: образование, воспитание, личность, учитель, молодежь, студент, искусство, национальное, музыка, познание, исполнительство.

COMBINATION OF SCHOOL EDUCATION AND MUSIC EDUCATION

Lutfullaev Anvar Kudratovich,

dean of the Faculty of «Music culture» of TDPU, professor

Abstract. The article focuses on the education and upbringing of the youth of the future of the great country, the importance of the spiritual environment in the educational institution, the scientific potential of the professors, and the spiritual worldview of the youth in order for the youth to become fully mature, well-rounded, initiative, selfless people.

Key words: education, education, human, teacher, youth, student, art, national, music, knowledge, performance.

Kirish. Taraqqiyotga yuz tutgan O'zbekistonimiz bugun jahon e'tiborida kelajagi buyuk mamlakatning ertangi kuni yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, milliy madaniyatimiz rivojiga, shuningdek, musiqiy ta'limga ham bog'liqligi sir emas. 2022-yil Prezidentimiz tomonidan «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili», deb e'lon qilindi. Mamlakatimiz aholisining 60% dan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini hisobga olsak, yoshlar ta'lim-tarbiyasi o'ta muhim masalalardan biri ekanligi ayon bo'ladi. Biz yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonunni yangi tahrirda qabul qilindi. Yoshlarning har tomonlama yetuk, barkamol, tashabbuskor, fidoyi inson

bo'lib yetishishlari uchun o'quv dargohidagi ma'naviy muhit, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, ma'naviy dunyoqarashi muhimligiga e'tibor qaratish lozim.

Asosiy qism. Oliy ma'lumot egasi bo'lish esa, kishi hayotidagi eng katta yutuqlardan biri hisoblanadi. Talaba degan nomga erishish – endigina voyaga yetgan, doimo o'ta-onasi qaramog'ida bo'lgan yoshlar uchun katta sinov. Oliy o'quv yurtida olingan bilim esa, insonning umri davomida hamroh bo'ladi. Yaxshi mutaxassis bo'lish uchun iste'dod, qiziqish, bilim va harakat zarur. O'quv dargohida ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlar, ayniqsa, san'at yo'lini tanalaganlar darsdan tashqari vaqtda mustaqil ishni to'g'ri tashkil etish ko'nikmalarini egallashlari zarur. Oliy ta'lim tizimidagi o'quv rejada mustaqil ta'lim uchun hamma fanlardan ma'lum soatlar belgilangan. Ushbu masala doim e'tiborda bo'lishi maqsadga muvofiq. Dars jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlash, ijro malakalari va nazariy fanlarni o'zlashtirish uchun talabalarning mustaqil shug'ullanishi zarur talalardan hisoblanadi. Talaba o'zining asarga bo'lgan shaxsiy munosabati va mahoratini ijro orqali ko'rsata olishi muhim jarayon. Ustozi nazoratidagi darsning ahamiyati katta, lekin talabaning mustaqil ta'limiga sarf qilayotgan vaqti samarasini o'rganib borish, tavsiyalar berish ustozlar zimmasida. Buning uchun talabaga mustaqil ta'limni qanday tashkil qilish, nimalarga e'tibor qaratish, vaqtdan unumli foydalanish lozimligini tushuntirish maqsadga muvofiq. Asosiy qoidalardan biri ta'limning muntazamligiga erishish. Ijroni o'zlashtirishning dastlabki davridan boshlab talabada muntazam mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish lozim. Odatda, muntazamlikka erishish qiyin, lekin bunday ta'limlar asta-sekin odat tusiga kirib borishiga erishish zarur. Bularsiz yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi.

Milliy musiqa san'atimizni har qachongidan chuqurroq va atroflicha o'rganish, uni xalq ichida keng targ'ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, o'zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo'lgan cholg'ular va cholg'u musiqasi qadimdan boy va murakkab ta'sirchan imkoniyatlarga ega. Musiqa jonsiz tanaga jon, ruhsiz vujudga ruh bag'ishlagani haqida Sharq G'arb ilmi, adabiyotda farazlar, afsona-yu rivoyatlar juda ko'p. Aksariyat mutaxassislar musiqaning yaratilishi inson zoti paydo bo'lib, tabiat hodisalariga, hayvonlarga taqliddan, yo ilk bor kulib yoxud yig'laganda chiqargan un-tovushlarga bog'lab izohlaydilar. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy cholg'ularimiz va musiqamizning ajoyib namunalari bugungi kunda ham o'zining rang-barang jilosi, ohanrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam zavq-shavq va huzur baxsh etib kelmoqda. Ajdodlarimiz musiqani shifo, najot deb bilganlar. O'z zamonasining buyuk donishmandlaridan bo'lgan Al-Kindiy islom falsafasi asosida ilk bor musiqa nazariyasi haqida risolalar bitgan hamda bu san'atning badiiy estetik va tarbiyaviy jihatlari, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashdagi o'rni, uning ahamiyatini dalillab bergan. Tarixchi olimlarning aytishicha (G.Sarton), Al-Kindiy «ilk musulmon musiqashunosi bo'lgan» va uning ayrim asarlarida «ohanglar yozuvi» mavjud. Arab olimi professor A.F.Exvoni ham «Al-Kindiy musiqa bo'yicha qator asarlar yaratgan, ulardan biri nemis tiliga tarjima qilingan», – deb xabar beradi. Farobiyning asari bu sohada unga qadar yozilgan asarlardan ustun bo'lib, G'arb va Sharq musiqa nazariyasi taraqqiyotini bir necha asrga belgilab bergan. XV asr musiqa nazariyotchilaridan biri, Sharqning yirik mutafakkiri Abdurahmon Jomiy o'zining «Musiqa haqida risola»sida Farobiyning buyuk musiqashunos olim sifatida tilga olgan. Fransuz arabshunos olimi Karra de Voo, Farobiyning musiqa san'ati sohasidagi xizmatlari haqida bunday degan edi: «Farobiy yana buyuk musiqachi ham edi. Biz uning Sharq musiqasi nazariyasi bo'yicha eng muhim asarlari uchun undan minnatdormiz. U ayni vaqtda ham ijrochi-musiqachi, ham bastakor edi». Sharq allomalarning asarlari

fransuz tiliga ham tarjima qilingan. Jumladan, Farobiyning musiqaga bag'ishlangan asari Parijda nashr etilgan. Asarning kirish qismida R.Erlanje o'rta asr Sharqida musiqa nazariyasi taraqqiyotining qisqacha ocherkida – «Al Kindiy, Al Farobiy, Ibn Sino va boshqalarning musiqashunoslikka doir asarlari haqida to'xtalib – Farobiyning musiqa nazariyasi kelgusi taraqqiyotga qo'shgan hissasini yuqori baholaydi va «...Al Farobiyning undan keyin arab tilida musiqa haqida asar yozganlardan ustunligi hayron qolarlikdir. Keyingi asrlar mualliflarining asarlarida «Kitob al musiqiy al kabir»dan ko'plab fikrlar, chunonchi musiqaning ta'rifi, ohang va interval nazariyasi va boshqalar o'zlashtirib olinganligi ko'zga tashlanadi», – deydi. Farobiyning musiqa sohasidagi tadqiqotchilar oldiga qo'ygan talablari nihoyatda diqqatga loyiqdir. «Nazariy bilimlardan xabardor bo'lgan yetuk san'atkor qaysi bilimda bo'lmasin, shu uch narsaga ega bo'lishi kerak deyiladi: 1) Har bir bilimning usul va qoidalarini to'la bilishi lozim. 2) Shu bilimning turli holatlarida hosil bo'lgan usul va qoidalarning natijalarini sharh va izoh etishga qobil va iste'dodli bo'lishi kerak. 3) Musiqa (san'ati) haqida noto'g'ri nazariyaga ega bo'lgan yozuvchilarning noto'g'ri nazariyalarini tanqid eta bilsin, xato va to'g'ri nazariyalar o'rtasidagi farqni ko'rsata bilsin va xatolarni oydinlashtira olsin".

«Ulug' ajdodimiz, alloma Abu Nasr Farobiy o'zining «Musiqa haqida katta kitob» asarida musiqani uch turga ajratadi: birinchisi – insonga huzur – halovat baxsh etadigan musiqa; ikkinchisi – ehtiros uyg'otib, qalbni junbushga keltiradigan musiqa; uchinchisi – kishini o'ylatib, fikrlashga undaydigan musiqadir. Bu ulug' narsalarga erishish uchun har bir sozanda kundalik mashg'ulotini rejalashtirishni bilishi lozim. Ayniqsa, talabayoshlar o'quv jarayonida o'z ijro mahoratlarini takomillashtirib borishlarida mustaqil ta'limga katta ahamiyat berishlari kerak. San'at durdonalariga ko'proq e'tibor qaratish, tinglash, tomosha qilish, tahlil etish, tushunish, ilhomlanish katta ahamiyat kasb etadi. Musiqani anglash uchun til bilish shart emas. Lekin, soz chalish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Zehni o'tkir, tirishqoq, aniq maqsadli yoshlarning biror soz chalishni o'rganishlari oson kechadi. Yoshlarning iste'dodini rivojlantirish, ularga ko'mak berish maqsadida respublikamizda turli tadbirlar – tanlovlar, festivallar, ko'riklar uyushtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Xalqaro musiqiy festivallarning o'tkazilishi ham yoshlar bilimini, dunyoqarashini kengaytirish, jahon musiqa durdonalari, ijrochilik maktablari bilan tanishtirish, ijodkorlik, bunyodkorlik tomon yo'naltirishga qaratilgan. Musiqiy ijrochilikning bugungi kundagi o'rni va tarbiyadagi ahamiyatini e'tiborga olib, kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish ham muhim ahamiyatga ega. Boy va xilma-xil estetik tarbiya vositalari qatorida san'at va uning turlaridan biri bo'lgan musiqa eng ta'sirchan va kuchli tarbiya vositalaridan biri ekanligini tushunamiz. Chunki, yaxshi asar kishi ongi, fikri, kayfiyatiga tez va yoqimli ta'sir ko'rsatadi. Musiqa asarlarida ifodalangan ohang va g'oya odamning ichki dunyosiga kuchli ta'sir etadi. Zero, hayajonli his-tuyg'ular bilan yo'g'rilgan, ohangdor tovushlar insonni befarq, loqayd qoldirmaydi. Musiqa asarlari o'zining xayajon va g'oyaviy mazmuniga ko'ra insonda quvonch, xayrat, iztirob, g'am, sog'inch kabi tuyg'ularni paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Yosh avlodda milliy qadriyatlarga, mumtoz musiqa merosiga hurmat, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda musiqa o'qituvchilarining alohida o'rni bor. Keyingi o'n yillar davomida o'zbek musiqa madaniyati jadal rivojlanib bormoqda. Bunda musiqa asarlarining faqat son jihatdan ko'payishi emas, balki sifatining ham yaxshilanib borayotganligi nazarda tutiladi. Hozirgi zamon o'zbek musiqasi taraqqiyotining darajasi qanchalik yuksak bo'lsa, xalqimizning nafaqat maqomga, balki o'tmish merosiga qiziqishi shunchalik kuchli bo'ladi. Bu borada F.M.Karamatov

shunday yozadi: «Har bir xalqning musiqa merosi alohida iftixorga, avaylab asrash va o'rganishga loyiq bo'lib qolmasdan, balki o'zining eng yaxshi namunalari orqali bugungi kunda ham katta estetik zavq berishga va shu bilan bir qatorda uning g'oyaviy, badiiy mosligi moyilligiga kuchli ta'sir ko'rsatishga qodirdir». Biroq bizning kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, hozirgi zamon yoshlarining ko'pchiligi fol'klor musiqasiga yetarli darajada qiziqmaydilar. Ular xalq musiqasini idrok etishga tayyor emas. Binobarin, o'zbek milliy musiqasi go'yo tarbiyaviy vosita tizimidan tushib qolganday.

Xulosa. Zero, jamiyatimiz rivojida musiqiy madaniyatning ahamiyati o'ziga xos katta o'ringa ega. Bas shunday ekan, kelajakda turgan muhim vazifalarimizni saralab, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev aytadalarki: «O'zimiz o'zimizga xiyonat qilmasak, o'zimiz o'zimizni aldamasak, halol-pok bo'lib mehnat qilsak, men aminman, ko'zlagan barcha marralarimizga, albatta, yetamiz. Ezgu maqsadlarimizga erishish yo'lida barchangizga kuch-g'ayrat, sihat-salomatlik, oilaviy baxt va farovonlik tilayman»; «Farzandlarimizning turli radikl va zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik – asosiy vazifamizdir. Bu boradagi ishlarni yangicha yondashuvlar bilan davom ettirishimiz kerak». Bu har birimizning oldimizda turgan ma'suliyatli vazifalarni bajarishda hammamiz birdek faol bo'lishimiz, talaba-yoshlarimizni yot g'oyalardan asrash, ma'naviy dunyosini yuksaltirish uchun ularning bo'sh vaqtlarini to'g'ri yo'naltirishimiz zarur.

Adabiyotlar:

1. 2022 йил «Инсон қадрини улуглаш ва фаол маҳалла йили»га бағишланган Давлат Дастури: www.ziyounet.uz.
2. Абу Наср Фаробий. Китоб ал музикий ал кабир. - Т., 2020.
3. Абдурахмон Жомий. Муסיқа ҳақида рисола. - Т., 2021.
4. Караматов Ф.М. Узбекская инструментальная музыка. - Т., 1967.
5. Лутфуллаев А.Қ. Халқ чолғуларида ижрочилик: Монография. - Т., 2017.

ABU ALI IBN SINONING SOG'LOM AVLODNI TARBIYALASHDA JISMONIY TARBIYAGA OID QARASHLARI

Shamuratova Barno Yuvbasarovna, UrDU katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Jismoniy tarbiya deganda, eng avvalo, inson tanasining anatomik tuzilishi, a'zolarining shakllanishi, rivojlanishi va harakat faoliyatlarini (fiziologik) bajarish darajalari tushuniladi. Ularni tabiiy harakat malakalar va maxsus mashqlar bilan tarbiyalash, saqlash va o'stirish badan tarbiya tushunchasini bildiradi.

Tayanch o'zlar: jismoniy tarbiya, tabiiy harakatlar, pedagogik jarayon, yurish, yugurish, jismoniy mashqlarni bajarish.

ВЗГЛЯДЫ АБУ АЛИ ИБН СИНО НА ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ В ВОСПИТАНИИ ЗДОРОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

Шамуратова Барно Ювбасаровна, старший преподаватель УрГУ

Аннотация. Под физическим воспитанием понимается, прежде всего, анатомическое строение тела личности, формирование и развитие органов и (физиологических) уровней выполнения двигательной деятельности. Воспитание, поддержание и развитие их с помощью естественных двигательных навыков и специальных упражнений означает концепцию физического воспитания.

Ключевые слова: физическое воспитание, естественные движения, педагогический процесс, ходьба, бег, выполнение физических упражнений.

ABU ALI IBN SINO VIEWS ON PHYSICAL EDUCATION IN EDUCATION OF A HEALTHY GENERATION

Shamuratova Barno Yuvbasarovna, senior teacher of UrSU

Abstract. Physical education means first of all the anatomical structure of the human body, the formation and development of organs and the (physiological) levels of performance of movement activities. Raising, maintaining and growing them with natural movement skills and special exercises means the concept of physical education.

Key words: physical education, natural movements, pedagogical process, walking, running, exercising.

Kirish. Jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi aholining sog'lig'i, jismonan salomatligi, sog'lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini ko'rsatdi. Jismoniy tarbiya va bilan muntazam shug'ullanish hamda sog'lom turmush tarzi bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali har bir fuqaroda kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo'lishini ta'minlash, zararli odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va rehabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faollik hozirgi kunning dolzarb muhim masalalaridan hisoblandi [1]. Jismoniy faollik bu – insonlarning o'z salomatligini saqlash va mustahkamlash maqsadida harakat faolligining turli xillaridan foydalanishi bo'lib, kun davomida doim harakatda bo'lish, badantarbiya va jismoniy mashqlarni bajarish, organizmni chiniqtirish demakdir. Aholi turli guruhlarining sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, tarkibida qand, yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini iste'mol qilishni qisqartirish, zararli odatlardan, voz kechish yo'li bilan

salomatlikni mustahkamlash to'g'risida bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi [1]. Sog'lom avlodni, qolaversa, turli yoshdagi insonlarning salomatligini mustahkamlashda asosiy vosita jismoniy tarbiya va tabiatning sog'lomlantiruvchi kuchlari ahamiyatga ega. Jismoniy madaniyat haqida esa, juda ko'p allomalar muhim fikrlarini bayon qilib ketganlar.

Asosiy qism. Sharqda o'rta asr buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Ali Ibn Sinodir. Qomusiy olim sifatida tibbiyot, fizika, kimiyo, psixologiya, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etib, dunyonga mashxur yirik asarlarini meros qilib qoldirdi. Ibn Sino o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarni pedagogik jarayonlar bilan ifodalagan. Barkamol shaxsni shakllantirishda sog'lom turmush tarziga rioya qilish jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish asosiy omil ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Jismoniy tarbiya – pedagogik jarayon bo'lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo'lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan [2]. Bu tavsif fan tilida ishlatilganda asosli deb tan olish mumkin. Talabalar va oddiy kishilar jismoniy tarbiya deganda maxsus mashq-o'yinlar bilan shug'ullanish va harakat faoliyatlarni rivojlantirish deb anglaydilar. Bunda, albatta, tarbiyada qo'llaniladigan vositalar va bilimlar mavjud bo'ladi. Jismoniy tarbiya vositasi tarkibida umumrivojlantiruvchi mashqlar, turli xil o'yinlar, sport turlari, sayohatlar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi ta'sir kuchlari (suv, havo, quyosh) hamda gigienik omillar mavjuddir. Jismoniy ta'lim deganda esa, mazkur vositalarni tanlash, maqsad yo'lida qo'llash yo'llari, yaxshi samaralarga erishishni tushuniladi. Umuman olganda, jismoniy tarbiya vositalari va ulardan foydalanib, salomatlikni yaxshilash va jismoniy barkamollikka erishishda qo'llaniladigan usullarni jismoniy tarbiya deb atash – tushunishni osonlashtiradi. Demak, jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy barkamollik va undagi vositalar, yo'l-yo'riqlar o'zaro mujassamlashib, bir butun tushuncha – badan tarbiyani tashkil etadi. Jismoniy tarbiya ta'limotida jismoniy sifatlarga (kuch, tezlik, chidamlilik va h.k.) alohida o'rin beriladi. Chunki, harakat faoliyatlari faqat tiriklik, tetiklik, baquvvatlikni saqlashgagina qaratilmasdan, balki murakkab bo'lgan jismoniy mehnat, mashqlar, sport turlarida ishlatiladigan o'ta murakkab amaliy harakat faoliyatlarni maqsadli bajarishga yo'naltiradi [3]. Yoshlarni jismoniy tarbiyasini yuksaltirish g'oyasini ifodalashida shaxsning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega. U ahloqning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi. Dunyoda mavjud bo'lgan jami narsalar tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o'zi esa, mohiyat e'tibori bilan yaxshilikdir. Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi. Jismoniy va axloqiy nuqtai nazardan Ibn Sino bolalarni alohida o'qitishdan ko'ra, yakka tartibda o'qitish afzalroq, deb hisoblab, uning ustunligi haqida gapirib, shunday yozadi: talabalar birga bo'lganda, ular doimo bir-birlari bilan suhbatlashadilar va shu bilan xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar [4]. Ibn Sino insonning barkamol shaxs bo'lib, nodonlik shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi. Abu Ali Ibn Sino yoshlarni barkamol shaxs qilib shakllantirishda ularning ma'naviy axloqiy sifatlari bilan birga jismoniy sifatlarni ham inobatga olish zarurligi haqida ta'lim tarbiya masalalarida o'z aksini topgan. Shu sababdan fanlarda jismoniy madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi deb sanaladi. Shu jihatdan qaralsa, jismoniy madaniyat ham o'z ichiga turli ommaviy tarbiyaviy jarayonlarni o'ziga qaratishi bilan mustaqil yo'nalishlarga egadir. E'tirof etmoq lozimki, jismoniy tarbiyaga tabobat ilmining buyuk donishmandi Abu Ali ibn Sinodek hech kim ta'rif va baho bera olmagan. Ya'ni uning tavsifi bo'yicha badan tarbiya bilan muttassil shug'ullanuvchilar hech qanday doriga muhtoj bo'lmaydilar. Shu sababdan Ibn Sino har bir inson doimo sof havoda yurishi, mehnat qilishi,

tog'larga sayohat qilib dam olishi, qayiqlarda sayr etishi va salomatligi hamda tetikligiga qarab kurashga tushishi, ot choptirishi va h.k. faol amaliy harakatlarni bajarishi, unga odatlanishi kerak deb tavsiya bergan. Badan tarbiya mashqlarini me'yorida va o'z vaqtida bajarish, mashqlardan keyin esa, suvda cho'milish yoki nam sochiq bilan badanni ishqalab artish yo'llarini ham, eng avvalo, Ibn Sino tajribalarda sinab, o'zining «Tib qonunlari» kitoblarida yozib, ilmiy meros qilib qoldirgan. Hozirgi tibbiyot olamida ham jismoniy mashqlarni faqat sog'lom kishilargina emas, hatto dardman, keksa kishilar va nogironlar ham o'z holatlariga qarab bajarishni inkor etmaydi. Bu mulohazalarni bayon etishdan maqsad shuki, barcha yoshdagi kishilarning salomatligini yaxshilash, jismoniy barkamollikni tarbiyalash, bemor yoki nogironlarning sog'ligini saqlashga, jismoniy tarbiya ilmining asosiy mazmunlarini aholi o'rtasida chuqur singdirish masalalariga e'tiborni yanada kuchaytirish lozim. Bu yo'lda faqat shifokor va jismoniy tarbiya mutaxassislarigina emas, har bir ijodkor, ziyolilar ham tashabbus ko'rsatishlari lozim. Jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat va jismoniy tarbiya vositalari hamda ularning tarbiyaviy jihatlari haqida o'y-fikrlar yuritilsa, oziq-ovqatlarning turlari, ularni iste'mol qilish me'yori, vaqti va dam olish, hordiq chiqarish, uyqu kabi ehtiyojli tomonlarni ham aniq bilish muhim ahamiyatga egadir. Bu bilan ijtimoiy turmushimizdagi kechirmalarni (yaxshi tomonlar, targ'ibotlar va h.k.) inkor etish kerak emas. Balki sog'lom turmush tarzi va tabiiy qobiliyatlar, tug'ma imkoniyatlarni ham e'tiborga olish lozim bo'ladi. Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy hislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta'lim beradi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odatlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odatlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Xulosa. Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila, oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson, avvalo, oilada kamolga yetadi. Ota-onaning vazifasi bolani jimonan va ma'nan yetuklik darajasiga yetkazishda asosiy poydevor hisoblanadi. Bola tarbiyani ota-onadan andoza qilib oladi. Shunday ekan, avvalo, sog'lom turmush tarzi yaxshi shakllangan oila vakillari barkamolikka intilayotgan yosh avlod badan tarbiya bilan muntazam shug'ullanadilar faol xarakter faoliyatini olib boradilar. Mutaffakkir Ibn Sino bu borada kichik yoshdan boshlab to keksayib qolgan davrlarda ham faol harakat qilish jismoniy mashqlar bilan doimiy ravishda shug'ullanishni tavsiya qiladi. Uning «Agar yursang piyoda umring bo'lar ziyoda» degan iborasi ayni haqiqat. Ibn Sinoning pedagogik g'oyalari ko'plab asarlarida o'z ichiga olgan. Bola tarbiyasiga ma'nan va jismonan kamol topadi, chunki poklik, rostgo'ylik bolalikdan yoshlikdan ekanini eslatadi. Inson kamolotida jismoniy go'zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismonan baquvvat, sog'lom bo'lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. Buning uchun jismoniy tarbiya ta'limi va ilmiga doir zarur qo'llanmalardan foydalanish zarur bo'ladi. Salomatligi va jismoniy tayyorgarligida biron nuqsoni bo'lmaganlar o'zlari tanlagan sport turi bilan shug'ullanishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Normurodov A. Jismoniy tarbiya: O'quv qo'llanma. - T., 2011.
2. Abdumalikov R. Sog'lom avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya va sport: O'quv-uslubiy qo'llanma. - T., 2003.
3. Ибн Сина. О сохранении здоровья // Авиценна (Ибн Сина) / Комментарий В.И.Бочалова. - Воронеж, 2011.
4. Ибн Сина. Трактат о гигиене // Авиценна (Абу Али ибн Сина.) / Пер. с араб. З.Бабаханова. - М.: АиН, 2000.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA

Камилова Н.Г., Хасанбаева А.

Ценностно-нормативная система подростков – детерминанта девиантного поведения.....3

Djurayev D.U.

Ta'lim muassasalariga kadrlarni psixologik saralash metodologiyasi.....8

Лгай Е.А.

Формирование культуры научной речи у студентов-филологов как актуальная проблема современного вузовского образования.....12

Bulatov S.S.

Samarqandagi Sherdor madrasasi bezaklardagi buyuk xikmati.....16

Коломиец О.М.

Педагогические условия профессионального образования в вузе, гарантирующие высокий уровень образовательных результатов обучающихся.....20

Djamilova N.N.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirish ijtimoiy muammo sifatida.....24

Davronov P.Z.

O'zaro munosabatlarni o'rgatishga qaratilgan muloqot maneralari mavzusini o'qitish metodikasi.....24

Atadjanova Sh.A.

Nolisoniy oliy ta'lim muassasalarida chet til ta'limi masalalari.....28

Madjidova D.A.

Inklyuziv ta'lim muhitida autistik spektrida buzilishlar bo'lgan bolalar muammolari.....32

Qaraxanova L.M.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodik xususiyatlari.....36

Fozilov J.K.

Ta'lim jarayonida akseologik yondashuv asosida o'quvchilarning obyektiv dunyoqarashni shakllantirish dolzarb muammo sifatida.....40

Муслимов Ш.Н.

Педагогические условия формирования графической компетентности у будущих учителей технологии.....44

Taylakova Sh.N.

Umumta'lim maktablarida mediata'limni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni: xalqaro va milliy tajriba.....47

Taylakova D.N.

Interfaol ta'lim turlari va uning shakllari.....51

Нажмиддинова Г.О.

Педагогическое значение воспитания детей дошкольного возраста посредством развития речи.....56

Abdullayeva M.A., Abdullayeva N.S.

Oilada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda suhbat metodining ahamiyati.....58

Садикова Д.Х.

Использование STEAM технологий при организации развивающей среды в дошкольных образовательных организациях.....59

Dilshodbekov Sh.D.

Muhandislik kompyuter grafikasi fanini o'qitishning innovatsion usuli.....59

Xasanova Sh.T.

Tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirish jarayonining mahiyati.....62

Agzamova M.M.

Bolalar emotsional sohasidagi buzilishlarning psixokorreksiyasi.....68

Saimnazarova D.A., Xusanova S.B.

Chet til o'qitish metodikasining

nazariy asoslari.....72

Matnazarova K.O.

Talabalarning kasbiy-amaliy ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlari.....76

Azimova S.T.

Ekologiya va atrof-muhit konsepsiyasi.....79

Асадова Ш.Р.

Межличностные отношения в образовательных учреждениях.....82

Rashidova N.R.

Pedagogik xodimlarning jamoa yaxshiligi kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashning ahamiyati.....86

Tolipova M.S.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda faol o'qitish usullarining ahamiyati.....89

Usmanova F.S.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarida madaniyat kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....93

Azimova H.M.

Методические подходы к формированию читательских навыков у учащихся с нарушением слуха.....97

Norboev A.G.

Masofaviy va aralash o'qitish uchun mul'timedia mashsulotlarini ishlab chiqish texnologiyasi.....102

Temirov O.S.

Oliy ta'limda zamonaviy rahbarlarni kasbiy tayyorlashni takomillashtirish.....105

Rajabova N.A.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlari.....109

Ro'ziyeva M.E.

Talabalarining sog'lom turmush tarzi madaniyatini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....114

Po'latova K.N.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilar aqliy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....118

Rajabov M.D.

Gender rollarida o'ziga xoslik mazmuni va tuzilishidagi o'zgarishlar.....123

Dadayeva O.Yu.

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarini kasbiy saralashning dunyo universitetlari amaliyotidan.....123

Jabbarova Z.O.

Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish pedagogik muammo sifatida.....127

Ergasheva N.E.

Boshlang'ich sinf «Ona tili va o'qish savodxonligi» darsligining mazmun-mohiyati hamda darslarni yangicha yondashuv asosida tashkil etish usullari.....133

Ibragimova G.

Iqtisodiy madaniyatning yuqor darajasi – iqtisodiy munosabatlarning mukammallik kafolati.....136

Rejapova D.A.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar sportini rivojlantirishda huquqiy yondashish jarayoni.....141

Ergashev A.R.

Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash – pedagogikaning dolzarb muammosi sifatida.....145

Батыралиева Ш.П.

Актуализация вопроса воспитания в непрерывном образовании.....145

Abelkosimova M.X.

Texnik mutaxassislik magistrilarining ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar.....149

Ermeqbaeva X.

Talabalar bilim berish jarayonida mustaqil ta'limning ahamiyati.....153

Buronova S.A.

Ta'lim muassasalarida didaktik tizimlar intergratsiyasidan foydalanishning indekslangan modeli.....	157	и последовательности при переходе от модели Бора к точно решаемым задачам квантовой механики.....	214
Nazarqulova G.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini rivojlantirishning amaliyotdagi holati.....	160	Bekchonova Sh.B. Oliy ta'limda kiberpedagogikaning asosiy xususiyatlari.....	219
Ergasheva S.A. O'quvchilarda milliy va umummadaniy tayach kompetentsiyalarni shakllantirish yo'llari.....	165	Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining mustaqil ta'lim tashkil etish shakllari.....	224
Abdullayeva S.M. Ta'lim texnologiyasini yangilash – zamon talabi.....	169	Jo'rayev M.M., Botirov M.M. Dasturlashni umumliylilik va prinsiplarning turiligi asosida o'qituvchining xisusiyatlari.....	229
Axmadjonova M.F. Maktab amaliyotchi psixologlarida menejerlik kompetensiyasini rivojlantirishning ba'zi metodologik masalalari.....	173	Ruzieva Z.C. Проектирование уроков «Технология» в начальной школе.....	234
Саидова С.А. Движение Худжум в Средней Азии.....	177	Bo'riboeva D.N. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda zamonaviy grafik dasturlardan foydalanish metodikasi.....	238
Saribayeva U.S. Navoiyning ijodiyotida Farxod va Shirin obrazlarining gender talqini.....	180	Ibadullev A.A. Fizikaning mexanika bo'limini o'qitish jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	242
Zulxonov M.J. Nemis tilidagi so'zlarda ma'no ko'chishning strukturalar tahlili.....	185	Usmonova M.S. Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etish metodikasi.....	247
Iliyeva L.K. Nemis tilida akademik va texnik muloqot.....	188	Намазова П.Д. Достоинства и приоритеты модульного обучения в инновационном образовании.....	251
Davronova F.P. Ingliz tili darslarida talabalarning faolligini oshirishda interfaol texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati.....	192	Ysufxodjayeva F.M. O'quvchilarga texnologiya darslarida gazlamaga ishlov berish texnologiyasini o'rgatish.....	257
Zaynieva H.Sh., Xudoyberdieva Z.X. Raqamli texnologiyalar davrida nemis tilini onlayn o'qitishda yuzaga keladigan bir qator kamchiliklar xususida.....	196	Axmedova Yu.Q. «Umumiy yer bilimi» fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning didaktik tamoyillari, shakl va vositasi.....	258
Бабаева З.С. Самостоятельная работа в учебно-познавательной деятельности: дидактический аспект.....	201	Eshanurodova N.Sh Bakterial asosida sellulozani o'rganish.....	281
Toshmatov A.S. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning yozma nutq kompetentsiyasini rivojlantirish holati va muammolari.....	205	GUMANITAR VA IJTIMOY FANLAR TA'LIMI	
Каримова З.О. Понятие страноведческой и лингвокультурной компетенции в обучении РКИ.....	210	Lutfullayev A.Q. Musiqiy ta'lim va ta'lim-tarbiyaning uyg'unligi.....	262
Абдукамалов Б.А. Использование принципов преемственности		Shamuratova B.Yu. Abu Ali ibn Sinoning sog'lom avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaga oid qarashlari.....	266

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY
NAMED AFTER NIZAMI

PEDAGOGICA

(scientific-theoretical and methodical journal)

№ 4

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ им. НИЗАМИ
ПЕДАГОГИКА

(научно-теоретический и методический журнал)

№ 4

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

Mas’ul kotib – R.M.Medetova

Muharrirlar – D.A.Madjidova, X.M.Tojiboyeva

Sahifalovchi – S.Pirmatov

Nashr ko’rsatkichlari:

Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077

Jurnal 2000-yildan chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.

2023-yil 3-avgust bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.

Adadi – 119 nusxa. 11 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.

Bichimi 70x100^{1/16} “Roboto” garniturasida.

Nizomiy nomidagi TDPU “Tahrir va nash” bo’limida bosildi.

100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko’chasi, 27-uy.